Fanga oid nazariy materiallar ma'ruza mashg'ulotlarini ma'ruzalarda ishtirok etish va kredit-modul platformasi orqali ma'ruzalarni mustahkamlash hamda belgilangan test savollariga javob berish orqali amalga oshiriladi.

Amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari bo'yicha amaliy ko'nikmalar hosil qilish va o'zlashtirish mashg'ulotlarga to'liq ishtirok etish va modul platformasi orqali topshiriqlarni bajarish natijasida nazorat qilinadi.

Mustaqil ta'lim mavzulari modul platformasi orqali berilgan mavzular bo'yicha topshiriqlarni bajarish (test, referat va boshqa usullarda) bajariladi.

Fan bo'yicha talabalar test usulida oraliq nazorat va og'zaki (yoki test) usulida yakuniy nazorat topshiradilar.

Talabalar bilimi O'zbekiston Respublikasi OO'MTVning 2018 yil 9 avgustdagi 9-2018-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risidagi Nizom" asosida baholanadi.

Talabalarning bilimi quyidagi mezonlar asosida:

- talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda — 5 (a'lo) baho;

- talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda — 4 (yaxshi) baho;

- talaba olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda — 3 (qoniqarli) baho;

- talaba fan dasturini o'zlashtirmagan, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunmaydi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega emas deb topilganda — 2 (qoniqarsiz) baho bilan baholanadi.

Yakuniy nazorat turini o'tkazish va mazkur nazorat turi bo'yicha talabaning bilimini baholash o'quv mashg'ulotlarini olib bormagan professor-o'qituvchi tomonidan amalga oshiriladi.

Fan dasturida berilgan baholash mezonlari asosida fanni o'zlashtirgan talabalarga tegishli

Dasturning informatsion- uslubiy ta'minoti.

Mazkur fanni o'qitish jarayonida Bank tizimiga oid qonunlari, kodekslar, Prezident Qarorlari va Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarorlari, chet el va Respublikamizda nashr etilgan adabiyotlar, elektorn adabiyotlar, turli slaydlar, vikepediyalar, ilmiy jurnallardagi maqolalar, ma'ruza matnlari, fan bo'yicha o'quv-uslubiy majmualar hamda Internet materiallaridan foydalaniladi.

ADABIYOTLAR

Asosiy adabiyotlar

1. Frederik S. Mishkin. The economics of money, banking and financial markets Pearson Education Limited. 2013. 695 pages.

2. Abdullaeva Sh. Z. va b. 'Pul va banklar' Darslik. T.; -'IQTISOD-MOLIYA', 2019 y. -628 b.

3. Abdullayeva Sh. Z. Azizov U. U. Bank ishi. Darslik. 1- qism- T.; Iqtisod-moliya, 2019 y. 732 b.
4. Банковские дело: учебник/ О Лаврушин. Н. И. Валенцева (и другие) под ред Лаврушина
5. Денег кредит банки: учеб./ под ред. Г. Н. Белоглазовои. - М.: Высшее образование, 2018 . 245с
6. Денег кредит банки: Экспресс курс: учеб. Пособие/ под ред О. И. Лаврушина. 3-е изд, перераб. И доп . - М: КНОРУС, 2016 544с
7. Кузнецова, Е.И. Денег кредит банки: Учебное пособие/ Е.И.Кузнецова - М.: ЮНИТИ, 2019. 567с.
8. Omonov A. A. Qoraliyev T.M. " Pul va banklar" darslik T.: " IQTISOD-MOLIYA" 2019 y
9. Ролфреман Д. Форд Ф. Основы банковские дела- М .: Инфра -М 1996- 624 с
10. Селищев, А.С. Деньги. Кредит банки/ А.С Селищев - СПб.: Питер, 2017 - 254с

Qo'shimcha adabiyotlar

11. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T. Sharq, 2014 yil.
12. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi. - Toshkent: Adolat, 2007 yil 291 b
13. O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risidagi" Qonuni. 7 noyabr. 2019 yil.
14. "Valyutani tartibga solish to'g'risidagi" Qonun 15 noyabr 2019 yil
15. "Markaziy bank to'g'risidagi" O'zbekiston Respublikasining Qonuni 15 noyabr 2019 yil.
- 16 . O'zbekistan Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining Markaziy bankining faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi" 2018 yil 9- yanvardagi PF- 5296- sonli Farmoni.
17. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 12 may 2020 yildagi "2020-2025 yillarga mo'jallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni
18. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. Xalq so'zi, 2019 yil 23 dekabr
19. Владимирова. М. А. Деньги кредит банки: учеб пособие/ М.П. Владимирова. - 3-е изд, перераб. И доп. - М.: КНОРУС, 2017 245с
20. Гринспен А. Эпоха потрясений: проблемы и перспективы мировой финансовой системы. Пер. С англ. - М.: Альпина Паблишер, 2017. - 520 с.
21. Ескиндаров М.А. , Звонова. Е. А. Международный валютный отношения. Учебник. М.: КНОРУС, 2018 540с.

Axborot manbalari

22. www.lex.uz —
O'zbekiston Respublikasi Qonuni hujjatlarivama'lumotlarmilliy bazasi.
23. www.norma.uz- Axborot- huquqiy portal
24. www.tfi.uz — O'zbekiston moliya instituti rasmiy sayti
25. www.cbu.uz — O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti

26. www.finance.uz - Moliya IQTISODIYOT tahlil portali
27. www.stat.uz – O'zbekiston Respublikasi Davlat qo'mitasining rasmiy sayti
28. www.sciencedirect.com. ommabop ilmiy jurnallar sayti.

QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI
“BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDIT ” KAFEDRASI
“BANK ISHI”

fanidan 5230700- “Bank ishi va auditi” ta’lim yo‘nalishi 3-kurs
talabalari uchun tayyorlangan

MA’RUZALAR MATNI

Qarshi-2022

MAVZU: Tijorat banklarinig faktoring operatsiyalari (4 soat)

REJA:

1. Tijorat banklarining faktoring operatsiyalari va uning mohiyati.
2. Faktoring operatsiyalarining turlari va faktoring operatsiyalarini o‘tkazish tartibi.
3. Korxonalarni debitorlik qarzlarini qisqartirishda faktoring operatsiyalarining o‘rni.
4. Tijorat banklarida faktoring operatsiyalarini rivojlantirish masalalari.

Tayanch iboralar: Faktoring, debitorlik, sotib oluvchi, ochiq factoring, kreditor, yopiq factoring, mol yetkazib beruvchi, regress huquqi

Tijorat banklarining faktoring operatsiyalari va uning mohiyati.

Faktoring-bu boshqa iqtisodiy sub'ektlarning qarzdorlik buyicha majburiyatlarini sotib olish yoki qayta sotish munosabatlarini anglatadi.**Faktoring** (ing.factor-agent, vositachi)-kichik va o'rta firma (mijoz)larga tijorat banklari va ularning sho'ba faktorfirmalari tomonidan ko'rsatiladigan moliyaviy xizmatlar turi. 16-17-asrlarda savdo vositachilari tomonidan amaliyotga kiritilgan, keyinchalik mijozga aylanma kapital uchun kredit berishning bir turiga aylandi. Faktoringda faktorfirma mijoz (tovar yetkazib beruvchi)lardan qarzdorlarning qisqa muddatli karzlarini undirish huquqini sotib oladi va firmalarning qarzlarini (majburiyatlarini) mijozga to'laydi, ya'ni qarzni qaytarish muddatidan oldin uning 70-90%ni mijozga qaytaradi, qarzning qolgan qismi, foizlar chegirilgan holda qarzdorlar faktorfirma oldidagi o'z qarzini batamom uzganidan keyin qaytariladi. Faktoringda mijoz o'zining qarzdorlaridan qarzni undirish huquqini faktorfirmaga o'tkazadi.Ayniqsa, G'arb davlatlarining iqtisodiy amaliyotida keng qo'llaniladi. F. bo'yicha kreditlar muddati 90-120 kun atrofida, kredit foizlari rasmiy bank stavkasidan yuqori turadi.**Faktoring**-bankka akseptlangan, biroq to'lovchi tomonidan to'lanmagan yetkazib berilgan tovarlar, ko'rsatilgan xizmatlar va bajarilgan ishlar uchun to'lov talabnomasi asosida regress huquqsiz to'lovlarni qabul qilish orqali, bank tomonidan mol yetkazib beruvchini moliyalashtirish borasida ko'rsatiladigan xizmat turidir.**Faktoring xizmatlari** bankda asosiy talab qilib olinguncha hisob raqamiga ega bo'lgan mol yetkazib beruvchilarga ko'rsatiladi. Bunda to'lovchida muddati o'tgan kredit qarzdorliklari, zararlar, nolikvid balans va to'lovga noqobillik omillari bo'lmashligi lozim.

Asosiy shartlar:

- Faktoring muddati-90 kundan ko'p bo'lmagan holda;
- Faktoringdan ko'riladigan diskont-(mol yetkazib beruvchiga bank tomonidan to'lab berilgan summa va to'lovchidan undiriladigan summa o'rtasidagi farq)-10-20% yoki asosiy majburiyat summasidan hamda muddatidan kelib chiqqan holdagi foizlarda o'rnatiladigan va faktoring shartnomasi muddati davomida amalga oshiriladigan to'lov.

Faktoring xizmatidan foydalanish uchun taqdim qilinadigan xujjatlar ro'yhati:

- Faktoring operatsiyasini amalga oshirish uchun ariza;
- Mol yetkazib beruvchi va to'lovchi o'rtasida tuzilgan va haqiqiysi bilan solishtiriladigan oldi-sotdi (bajarilgan ishlar, ko'rsatilgan xizmatlar) shartnomasi nusxasi. Shartnomada to'lov muddati aniq ko'rsatilish lozim;
- Yetkazib berilgan tovarlarni (bajarilgan ishlar, ko'rsatilgan xizmatlar) haqiqatda yetkazib berilganini (ishlar bajarilganligini, xizmatlar ko'rsatilganligini) tasdiqlovchi hujjatlar nusxasi, to'lovchi va mol yetkazib beruvchilar o'rtasida tuzilgan solishtirma dalolatnomalar;
- To'lovchi tomonidan boshqa banklarda ochilgan hisob-raqamlar ro'yxati.

To'lovchining moliyaviy holatini tekshirish uchun zarur bo'lgan hujjatlar:

- Qarz oluvchining hisobot davrlari uchun moliyaviy hisobotlari (buxgalteriya balansi va moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot);

- Faktoringdan foydalanishning butun davrini o'z ichiga olgan pul tushumlari (pul oqimi) prognozi ko'rsatilgan biznes-reja yoki hisob-kitoblar;
- Mol yetkazib beruvchining to'lovchi bilan hisob-kitoblari, yetkazib berilgan tovarlari hajmi va uning aylanuvchanligini aks ettiruvchi hisob-kitob hujjatlari.

Ushbu hujjatlar ro'yhati faktoring xizmatlarini korsatish uchun yetarli bo'lmagan holda bank tomonidan qo'shimcha hujjatlar talab qilinishi mumkin.

Faktoring ixtisoslashtirilgan savdo vositachilarining, keyinchalik esa savdo banklarining operatsiyasi sifatida XVI-XVII asrlarda vujudga kelgan. XX asrning 60- yillaridan boshlab, faktoring kompaniyalarining rivojlanishiga to'lovlarning to'xtab qolishi, to'lay olmaslik, shuningdek, eksportyorlarning kreditlarga bo'lgan ehtiyojining o'sishi sabab bo'ldi. Ulardan avval tovar oldi-sotdisi, komission operatsiyalarga asoslangan faktoring xizmat turi bo'lgan. Qadimda, aynan o'rta asrlarda savdogarlar guruxi ishlab chiqaruvchilar uchun noma'lum bozorlarda tovarlarni sotish bo'yicha agent shaklida, ishtirok etganlar va shu asnoda tovarli faktoringga asos solingan. Moliya faktoringi AQSHda 1890 yilda vujudga kelib, to'qimachilik bo'yicha Evropadan importni to'xtatish uchun himoya bojarining kiritilishi bilan paydo bo'ldi, lekin u ikkinchi jahon urushidan keyingina keng rivojlandi. Jahon iqtisodiyotida faktoring operatsiyalaridan dastlab AQSHda XX asr boshlarida, keyinchalik Evropada 60-yillarda keng foydalanila boshlandi. Hozirda faktoring biznesi jahon iqtisodiyotining eng faol rivojlanib borayotgan tarmoqlaridan biriga aylanib bormoqda. Faktoring kompaniyalari millionlab mijozlar bilan SHimoliy va Janubiy Amerikada, Evropa va Osiyoda, Avstraliya va SHimoliy Afrikada ish olib bormoqdalar. 2009 yilning 1 yanvar holatiga, jahon miqyosida faktoring biznesining 65 foizi Evropaga, 22 foizi Amerika qit'asidagi mamlakatlarga, 11 foizi Osiyo mamlakatlariga, 1 foizi Avstraliya va Okeaniyaga, 1 foizi esa Afrika mamlakatlariga to'g'ri keladi. O'tgan XX asrning o'rtalariga kelib, jahon iqtisodiyotida faktoringning xalqaro to'g'ri rivojlana boshladi. 1960 yilda jahonda dastlabki faktoring assotsiatsiyasi- International Factors Group (IFG) tuzildi, hozirda bu tashkilotga 38 mamlakatdan ortiq kompaniya a'zolik qilmoqda. Assotsiatsiya doirasida faktoring kompaniyalari orasida ma'lumotlarni uzatishning IFEXchange elektron tizimi yaratilgan bo'lib, mazkur tizim kredit limitlarini belgilash, mahsulotlar va xizmatlarini sotishni monitoring qilish va to'lov intizomiga rioya qilishni o'rganish hamda jahon miqyosida debitor korxonalarining kreditga layoqatliligini tezkor baholash uchun ishlatiladi. 1968 yilda o'z ichiga dunyoning 53 mamlakatidan 150 a'zo- kompaniyalarni birlashtirib turuvchi Factors Chain International (FCI) yirik faktoring assotsiatsiyasi tashkil etildi. IFG tashkiloti kabi mazkur assotsiatsiya ham o'zaro ma'lumotlar almashishga xizmat qiluvchi EDIFACToring tizimini ishlab chiqdi. O'z tarixining barcha davrlari davomida faktoring biznesi dinamik tarzda rivojlanib keldi. So'nggi bir necha o'n yilliklarda jahon iqtisodiyotida yuzaga kelgan iqtisodiy buxronlar faktoring operatsiyalarining rivojlanish sur'atlariga hech ham ta'sir o'tkazmadi va uning o'sish sur'atlari yiliga 10 foizni tashkil etdi. Faktoring kompaniyalari tomonidan sotib olinayotgan debitorlik qarzdorlik hajmining ortib borishi bilan birgalikda faktoring operatsiyalarining boshqa mahsuldorlik

ko'rsatkichlari ham yaxshilanib bormoqda. Faktoring kompaniyalarining o'z mijozlariga kompleks xizmat ko'rsatish saviyasi ortmoqda, halqaro faktoring va invoices diskaunti rivojlanmoqda. SHuningdek, faktoring mexanizmidan foydalanuvchi iqtisodiyot tarmoqlari soni ham ortib bormoqda. Bu yutuqlarga asosan faktoring biznesi bilan shug'ullanuvchi milliy va halqaro darajadagi hukukiy bazaning yaratilishi va takomillashuvi orqali erishildi. Halqaro faktoring tushunchasini aniqlab beruvchi asosiy hujjat «Halqaro faktoring to'g'risida»gi UNIDROT konvensiyasi (Convention on International Factoring) hisoblanadi. Konvensiya 1995 yilda kuchga kirgan bo'lib, dunyoning 14 mamlakati tomonidan imzolangan va Italiya, Nigeriya, Fransiya tomonidan ratifikatsiya qilingan. 2002 yil 31 yanvarda BMTning Bosh Assambleyasi «Halqaro savdoda debitorlik qarzdorliklarning boshqa korxonalariga o'tkazilishini tartiblash to'g'risida»gi 56/81- sonli rezolyusiyasini qabul qildi. Halqaro faktoring operatsiyasi shuningdek FCI va IFG assotsiatsiyalari a'zolari tomonidan qabul qilingan «Halqaro faktoring faoliyati»ning tartiblari №- GRIF (General Rules for International Factoring) orqali tartibga solinadi. Bugungi kunda jahon iqtisodiyotida faktoring xizmatlari tarmog'ining juda tez sur'atlarda o'sishi va taraqqiy etishiga qo'yidagilar sabab bo'lmoqda:

- energomahsulotlar va hom-ashyo, materiallar narxlarining qimmatlashib borayotganligiga qaramay jahon iqtisodiyotining rivojlanayotganligi;
- jahon bozorida faktoring biznesining keng jamoatchilik tomonidan o'rganilganligi va unga bo'lgan kuchli zaruriyat;
- Misr, Peru, Ukraina, Vetnam, sobik Yugoslaviya mamlakatlari, Rossiya va boshqa rivojlanayotgan davlatlarda faktoring xizmatlari takliflari yuzaga kelishi. Faktoring korxonaga xaridorlarni kreditlashning qo'lay siyosatini ishlab chiqish imkoniyatini beradi, faktoring operatsiyasida xaridor etkazib berilgan tovar va xizmatlar uchun to'laydigan to'lovni kechiktirilishiga erishadi, sotuvchi korxona esa faktoring orqali tovar va xizmatlar haqining 90 foizigacha bo'lgan mablag'ga erishadi, qolgan mablag' esa xaridor qarzni qaytarganidan keyin faktoring xarajatlarini chegirib tashlab to'lanadi. Ekspertlarning fikriga ko'ra, faktoring xizmatlariga o'tish korxonalarda oborot kapitali taqchilligi muammosiga barham beradi va yangi kontragentlarni jalb etish hisobiga tovar va xizmatlarni sotish hajmini kengaytiradi. Boshqacha aytganda, faktoring korxonaga xaridorlarni jalb etishning samarali usuli hisoblanadi, u pul mablag'lari oboroti tezlashuvi hisobiga tovar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish hajmini oshiradi. Mahsulot va xizmatlarni sotish xajmining ortishi, tabiiyki, korxonada yalpi tushum va sof foydaning ortishi korxonada ishlab chiqarish va sotish xarajatlarini, shuningdek faktoring xarajatlarini ham qoplashga imkon beradi. Faktoring korxonalarni kreditlash sxemasidagi ko'plab xarajatlarni to'lashdan ozod etadi. Faktoring operatsiyasini amalga oshirishda kreditlashdagi kabi garovni rasmiylashtirish va u bilan bog'liq xarajatlardan voz kechiladi. Mablag'lar qat'iy belgilangan ma'lum muddatga ajratilganligi bois, faktoring operatsiyasida ortiqcha foiz to'lovlar to'lash zaruriyati bo'lmaydi va faktoring operatsiyasi muddati ichida xaridor to'lovni amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Faktoringning yana bir afzalligi shundan iboratki, faktoring operatsiyasini o'tkazishda kreditlashdagi kabi ko'p sonli xodimlar xizmatidan foydalanishga zaruriyat tug'ilmaydi. Chunki, tijorat banki yoki faktoring kompaniyasi faktoring operatsiyasini maxsus kompyuter dasturi orqali amalga oshiradi, bunday dastur korxonalarni debitorlik qarzdorliklarini samarali boshqarishga imkon beradi. Shunday qilib, faktoring operatsiyasida tovarlar va xizmatlarni sotuvchi korxonalar o'z qarzdorlari bilan ishlashdan, ulardan qarzlarni undirib olish vazifalaridan to'liq ozod etiladi. Bunday ishlar bilan faktoring kompaniyasi yoki tijorat banki mutaxassislari shug'ullanadilar. Shu o'rinda aytib o'tish muhimki, qarzdor korxonalar bilan ishlash, ularni majburiyatlari va qarzdorlik qiymati bo'yicha saralash va guruxlab berish anchagina murakkab vazifa hisoblanadi. Ko'plab iqtisodchilar va ekspertlarning fikricha, ko'p sonli doimiy mijozlarga ega, mahsulotlar va xizmatlar bozorida faoliyat doirasi tobora o'sib borayotgan korxonalar uchun faktoring operatsiyasidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bunday korxonalarda mahsulotlar va xizmatlarni sotishdan tushadigan tushumlarda kechiktirishlarning yuzaga kelishi korxonalarda tovar aylanmasining bo'zilishiga, shartnomaviy majburiyatlarning o'z vaqtida bajarilmasligiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun yirik, rivojlanib borayotgan korxonalarda qarzdor korxonadan qarzlarni undirish o'rniga mavjud debitorlik qarzlarni faktoring kompaniya yoki tijorat banki ixtiyoriga o'tkazib berib, o'z ish faoliyatini davom ettirib borish qulay hisoblanadi. Faktoring korxonalarda pul mablag'lari aylanish tezligini oshiradi va qo'shimcha foyda olishga imkon beradi. Bu xizmat turi ma'lum uziga xos jihatlarga ega, ular tovarlar va xizmatlarni sotuvchi korxonalar va kontragentlarga qo'yiladigan talablar orqali namoyon bo'ladi. Faktoring kompaniyasi xizmatidan foydalanigan korxonaning asosiy maqsadi shuki, ular faktoring shartnomasiga asosan sotib oluvchi tomonidan akseptlangan to'lov talabnomalarining (70 foizdan-90 foizgacha) qismini to'xtovsiz ravishda oladi. Korxona uchun faktoringning afzalligi shundaki, bu operatsiya orqali korxonaning likvidligi oshadi. Albatta, faktoring xizmati arzon emas. Lekin u mahsulot etkazib beruvchi korxonani shartnomasida ko'zda tutilgan kontragentni (sotib oluvchini) to'lovga qobiliyatligini aniqlash, o'z talabnomalari bo'yicha buxgalteriya hisobotini yuritish kabi xizmatlardan ozod etadi va o'z muddatdan shartnomadagi summani (70-90%) oladi. Amaliyotda halqaro faktoring to'g'risidagi konvensiyaga asosan faktoring operatsiyasi qo'yidagi turt tomonlaridan biriga javob bergan taqdirdagina u faktoring operatsiyasi hisoblanadi. Ular qo'yidagilardan iborat:

1. qarz talabnomani oldindan to'lash shaklidagi kreditlashning mavjudligi;
2. Mahsulot etkazib beruvchining, eng avvalo uning realizatsiya hisobotini yuritishlik;

3. Mahsulot etkazib beruvchining debitorlik qarzdorligini inkasso qilishlik.

Mahsulot etkazib beruvchini kredit xataridan sug'urtalash:

- faktoring to'g'risidagi halqaro konvensiyada qo'yidagi korxonalarga faktoring xizmati ko'rsatilmaydi. Ular qo'yidagilar: kichik summada qarzdorligi mavjud, lekin debitorlar soni ko'p korxonalarga;
- nostandart va tor ixtisoslashtirilgan mahsulotlar ishlab chiqaruvchi korxonalarga;
- subpodryadchiklar bilan ish olib boruvchi qurilish yoki boshqa korxonalarga;

- o'z mahsulotini sotishdan so'ng xizmat ko'rsatish shartnomasi asosida ish yurituvchi korxonalarga; o'z mijozlari bilan o'zoq muddatli shartnoma asosida ish yurituvchi va shartnomaga asosan bajarilgan ma'lum ish xajmi uchun to'lov oluvchi korxonalarga. Faktoring operatsiyalari korxonalarining filiallari, bo'limlari va jismoniy shaxslarining qarz majburiyatlari bo'yicha olib borilmaydi. Halqaro amaliyotda faktoring klassik shaklida qo'yidagi ishtirokchilaridan tashkil topadi:

1. Faktoring firmasi (bank);
2. Mahsulot etkazib beruvchi;
3. Sotib oluvchi.

Bu faktoring operatsiyasida tijorat kreditining tovar formasi amalga oshiriladi, ya'ni sotuvchi va sotib oluvchiga sotilgan tovarlar yoki ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lovni muddatini uzaytirish maqsadida kredit beriladi. Yangi bank xizmat turlaridan biri bo'lib faktoring hisoblanadi. Shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki faktoring bank uchun noa'naviy xizmat to'g'ri hisoblanadi, chunki faktoring operatsiya bilan mahsus faktoring kompaniyalari ham shug'ullanadilar. Xorij tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, faktoring operatsiyalarini olib boruvchi faktoring kompaniyalari yoki bironta yirik bank bilan bog'langan, yoki bironta bankning shu'ba shaxobchasi va ba'zi hollarda banklarining o'zi bo'lib hisoblanadi. Iqtisodchi adabiyotda tijorat banklari va faktor kompaniyalarining faktoring operatsiyalari va ularni rivojlantirish yo'nalishlari xususida hilmahil ilmiy-nazariy qarashlar mavjud. Faktoring so'zi inglizcha so'z bo'lib, «vositachi», «agent» degan ma'nolarni anglatadi. Bu savdo-vosita operatsiyalarining bir turi bo'lib u mijozning (bankning yoki faktoring kompaniyasining mijosi) aylanma kapitalini kreditlash bilan o'zviy bog'liqdir. Faktoringning asosiy tamoyili shundaki, faktoring operatsiyasini amalga oshirayotgan bank (faktoring-firma) o'z mijozlaridan ularning etkazib berilgan tovarlar, ko'rsatilgan xizmatlar, amalga oshirilgan ishlar uchun boshqa korxonalarga bo'lgan talablarini sotib oladi va shu orqali bu talablar uchun to'lovlarini olishi huquqini oladi. Faktoring operatsiyasi mijozning debitorlik qarzdorligini inkasso qilish, kreditlash va kredit hamda valyuta xatarlarini kafolatlanishni o'z ichiga oladi. Faktoring operatsiyasining asosiy maqsadi mijozlarining qarzdorligini o'z vaqtida inkasso qilish, to'lovlarini o'z muddatida olib borish, shubxali qarzdorliklarini paydo bo'lishini oldini olish, mijozlarining likvidligini oshirish va ularning moliyaviy xatarini pasaytirishdan iboratdir. Faktoring asosida bank (faktoring-firma) tomonidan mijozning jo'natilgan tovarlar, ko'rsatilgan xizmatlar bo'yicha hisob-varaqlarini (talabnomalarini) assosiy qismini (70 foizdan-90 foizgacha) «kesh» usulida (ya'ni tezda 2-3 kun ichida) sotib olish va qolgan qismini (kredit uchun foizini chegirib tashlangan holda) debitorlardan tushum kelib tushmasligidan qat'iy nazar belgilangan muddatdan to'lab beradi. Shuni uchun halqaro bank amaliyotida ta'minot sotuvchi kreditlash deb ham ataladi. Bizning ilmiy ishimizning faktoring operatsiyasini tartibini ko'rishimiz mumkin.

Faktoring uchun to'lov va komission xizmatlar uchun to'lov mahsulot etkazib beruvchi va faktoring firmasi (bank) o'rtasidagi to'ziladigan shartnomada ko'zda to'atiladi. Faktoring operatsiyalarida doim 3 tomon ishtirok etadi: faktor- vositachi (tijorat banki yoki faktor kompaniyasi); mol etkazib beruvchi; qarzdor

(mahsulotlarni sotib oluvchi).Taniqli iqtisodchi olim O.I.Lavrushin tahriri ostida chop etilgan «Pul, kredit, banklar» darsligida banklarning faktoring operatsiyalari uchun asos bo'lib, bank tomonidan mol etkazib beruvchi tomonidan jo'natilgan tovarlarning hujjatlarini sotib olinishi va debitordan to'lov summasini undirish huquqini banka berilishi hisoblanadi⁵. Ammo ushbu talqinda tovar hujjatlarini regress huquqi bilan yoki regress huquqisiz sotib olinishi o'z ifodasini topmagan.Mazkur manbada faktoring operatsiyalariga xos bo'lgan qo'yidagi afzalliklar e'tirof etilgan:

- mol etkazib beruvchiga to'lovni olishni tezlashtiradi;
- to'lovni kafolatlaydi;
- schyot - fakturalarning hisobi bo'yicha xarajatlarni kamaytiradi;
- sotib oluvchida moliyaviy qiyinchilik yuzaga kelgan sharoitda mol etkazib beruvchilarga to'lovlarni o'z vaqtida olinishini ta'minlaydi;
- mol etkazib beruvchining moliyaviy ko'rsatkichlarini yaxshilaydi.

Iqtisodchi olimlarning faktoring hususidagi ilmiy- nazariy qarashlarini tanqidiy tahlil qilish asosida, faktoringning mohiyatini to'laroq ochish imkonini beradigan qo'yidagi ta'rifni shakllantirish mumkin: faktoring- bu tijorat banki yoki faktor kompaniyasi tomonidan junatilgan tovarlar va ko'rsatilgan xizmatlar bo'yicha yuzaga kelgan debitor qarzdorlikni birdan to'lab berish sharti asosida regress huquqi bilan yoki regress huquqisiz sotib olinishidir.

Faktoring operatsiyalarining samaradorligi qo'yidagi mezonlar asosida aniqlanadi:

1. Tijorat banklari va faktor kompaniyalarining faktoring operatsiyalaridan oladigan daromadlarining barqarorligi.Faktoring operatsiyalaridan olinadigan daromadlarning barqarorligini aniqlashda uning darajasini oldingi davrlarga nisbatan barqaror sur'atlarda o'sish yoki o'zgarishdan barqaror darajada qolishi hisobga olinadi. Buning iqtisodiy tahlilning qiyosiy va trendli tahlil usullaridan keng foydalaniladi. Masalan tijorat banklarida faktoring operatsiyalarining daromadlilikini aniqlashda ushbu daromadlar bankning kredit operatsiyalaridan olingan daromadlarining jami summasiga bo'linadi va olingan natija 100 foizga ko'paytirilib, faktoring kreditlarining daromadlilik darajasi aniqlanadi. Ushbu ko'rsatkichning barqarorligini baholash uchun qo'yidagi tartibda qiyosiy tahlil usulidan foydalaniladi:

- ko'rsatkichni boshqa banklarning shu ko'rsatkichi bilan taqqoslash;
- ushbu ko'rsatkichning joriy davrdagi darajasi oldingi davrlardagi darajalari bilan taqqoslanadi.

Faktoring operatsiyalarining samaradorligini aniqlashda iqtisodiy tahlilning trendli tahlil usuli ham muhim o'rin tutadi. Chunki, trendli tahlil usuli orqali faktoring operatsiyalaridan olingan daromadlarni o'zgarish tendensiyasi aniqlanadi.

2. Faktoring operatsiyalari orqali xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning debitor qarzdorligini pul mablag'lariga aylanish darajasini oshishi.

⁵ Деньги, кредит, банки. Учебник. Под ред. Проф. Лаврушина О.И. – М.: КНОРУС, 2009: - С.452.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning debitor qarzdorligini pulga aylanish darajasini tavsivlovchi ko'rsatkich bo'lib, debitor qarzdorlikni aylanish koeffitsienti hisoblanadi. Ana shu koeffitsientning darajasiga faktoring kreditlarining ta'siri ushbu kreditlarning samaradorligini baholash imkonini beradi.

3. Faktoring kreditlarining o'sish sur'ati bilan ulardan olingan daromadlarning o'sish sur'ati o'rtasidagi mutanosiblik.

Agar faktoring kreditlaridan olingan daromad so'mmasining o'sish sur'ati faktoring kreditlari summasining o'sish sur'atidan yuqori bo'lsa yoki teng bo'lsa, u holda, faktoring operatsiyasi samaradorligini talab darajasida deb hisoblash mumkin.

Kreditlari so'mmasining o'sish sur'atidan past bo'lsa, u holda, faktoring operatsiyasining samaradorligi talab darajasida emas, deb hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda:

- iqtisodchi olimlar tomonidan faktoringning ilmiy - nazariy asoslari chuqur tadqiq etilgan hamda tegishli xulosalar va tavsiyalar shakllantirilgan;

- ko'pchilik iqtisodchi olimlar tomonidan faktoringga xos bulgan muxim xususiyat, ya'ni jo'natilgan tovarlar bo'yicha yuzaga kelgan debitor qarzdorlikni sotib olishning zarurligi e'tirof etilgan;

- faktoring bo'yicha sessiya shartnomasi faktoring shartnomasiga nisbatan xosilaviydir;

- faktoring operatsiyalarida kredit riski darajasi tovar xujjatlarini qaysi shart asosida sotib olinishiga bevosita bog'liq bo'lib hisoblanadi. Bu esa, faktoringga ta'rif berishda tovar xujjatlarini sotib olish shartlarini aniq ifoda etishni taqozo etadi. YUqorida ta'kidlab o'tganimizdek faktoring operatsiyasining asosiy maqsadi mijozlarining karzdorligini o'z vaqtida inkasso qilish, to'lovlarini o'z muddatida olib borish, shubxali qarzdorliklarini paydo bo'lishini oldini olish, mijozlarining likvidligini oshirish va ularning moliyaviy xatarini pasaytirishdan iboratdir.

Faktoring operatsiyalarining turlari va faktoring operatsiyalarini o'tkazish tartibi.

Qadimda, aynan o'rta asrlarda savdogarlar guruhi ishlab chiqaruvchilar uchun noma'lum bozorlarda tovarlarni sotish bo'yicha vositachi sifatida ishtirok etgan va shu asnoda tovarli faktoringga asos solingan.

Xalqaro amaliyotda faktoringning quyidagi turlari mavjud:


- ochiq va yopiq faktoring;

- regress huquqi bilan (recourse factoring) va regress huquqsiz (non recourse factoring);

- moliyalashtiriladigan va moliyalashtirilmaydigan;

- ichki (domestic factoring) va xalqaro faktoring (international factoring) va boshqalar.

Bank ishi rivojlanishning ilk davrlarida faktoringning 2 ko'rinishi shakllangan. Bular ochiq yoki konventsion (disclosed factoring) va yopiq, cheklangan (undisclosed factoring) faktoringlardir. Tarixan, birinchi marta ochiq faktoring vujudga kelgan.



25-rasm. Faktoring va uning turlari

Zamonaviy sharoitlarda ochiq faktoring mijozlarga moliyaviy xizmat ko'rsatishning mukammal shakli hisoblanadi. Ochiq faktoringda debitor, ya'ni MYB (tovar hujjatlarida ko'rsatish orqali) to'lovni amalga oshirishda bank-faktor qatnashishi to'g'risida MSOni ogohlantiradi va tovar pulini undirishga oid barcha hujjatlar (debitor qarz hujjatlari) bankka ishlab berish uchun topshiradi. Yopiq faktoringda hisob-kitoblarda bank ishtirok etishi, debitorning bank bilan faktoring xizmat ko'rsatish to'g'risida shartnomasi mavjudligi, mol yetkazib beruvchining to'lov hujjatlari faktoring kompaniyasiga o'tkazilishi to'g'risida MSOga xabar berilmaydi. MSO olgan tovar va xizmatlar uchun to'lovlarni MYBning hisob varag'iga amalga oshiraveradi. MYB esa jo'natilgan tovar va xizmatlari uchun kelib tushgan to'lovlarni bank yoki faktor hisobiga olgan kreditini to'lash uchun o'tkazib boradi. Faktoringning bu turi bank uchun xatarli hisoblanadi. Chunki mol sotib oluvchining ma'lum sabablar bilan to'lovni o'z vaqtida amalga oshirmasligi bilan bog'liq risk bankning zimmasiga tushadi. Yopiq faktoringning risklilik darajasi yuqori bo'lganligi uchun uning narxi ochiq faktoringga nisbatan yuqori bo'ladi. Regress huquqi bilan faktoring (recourse factoring)da bank yoki faktoring kompaniya o'z mijozining debitor qarzini regress huquqi bilan sotib olish bo'yicha shartnoma tuzadi. Buning mohiyati shundaki, agar bank (faktor) mol sotib oluvchidan tovar hujjatlari bo'yicha to'lovni undira olmasa, u mol yetkazib beruvchiga bank to'lab bergan mablag' (qarz)ni qaytarib bankka to'lash to'g'risida talabnoma qo'yishi to'g'risida kelishib oladi. Faktoringning bu turi bank riskini kamaytirishi bilan bir qatorda mol yetkazib beruvchi faoliyatida yuzaga keluvchi kredit riskni oshiradi. Regress huquqsiz faktoring (non recourse factoring)da bunday imkoniyat bo'lmaydi. Faktoringning bu turida mol sotib oluvchi mol yetkazib beruvchining talablari bo'yicha to'lamagan taqdirda ham barcha xarajatlarni bank qoplab berishi lozim bo'ladi. Shu sabab faktoringning bu turi xalqaro amaliyotda juda kam hollarda, qachonki, mol sotib oluvchining moliyaviy

holati barqaror, to'lovga layoqatlilik darajasi yuqori, to'lamaslik riski minimal bo'lgan hollarda qo'llaniladi. Shuning uchun faktoringning bu turi ishlab chiqarish korxonalarini mol sotib oluvchi tomonidan to'lamaslik riskidan himoya qiladi, ammo bank riskini oshirishi mumkin. Moliyalashtiriladigan faktoringda mijoz, ya'ni MYB MSOdan muddati kelganda, olishi lozim bo'lgan to'lovlarni undirish huquqini bank (faktor)ga beradi. Faktoringning moliyalashtiriladigan turida faktoring kompaniyasi oldindan to'lash sharti bilan yuklab jo'natilgan tovarlar, ba'zi hollarda hali jo'natilmagan tovarlar bo'yicha tomonlar o'rtasida tuzilgan shartnoma asosida MYBning tovar hujjatlari qiymatining 60–70 foizini tezlik bilan to'lash sharti asosida mijozdan tovar hujjatlari (schyot-fakturalar)ni sotib oladi. Ayrim hollarda MYB yuborgan tovarlari yoki ko'rsatgan xizmatlari qiymatining 80–90 %ini bankdan oladi, ya'ni bank o'z mijozining tovar va xizmatlar bo'yicha debitor qarzini to'lab berish yo'li bilan uning faoliyatini yuritishga kredit beradi. Jo'natilgan tovar yoki xizmatlar qiymatining 10–20 %i mijozga MSOdan mablag' undirilgandan keyin, komission to'lovlar va foizlarni chegirgan holda to'lab berilishi mumkin. Xalqaro amaliyotda bunday operatsiya uchun faktor – vositachi, odatda, shartnoma summasidan 0,75 %dan 3 %gacha komission to'lov va MYB bergan krediti uchun foiz stavkasini undirib oladi. Kredit MYB tovar hujjatlarini bankka bergan kundan to bank tomonidan MSOdan pul mablag'larini undirib olgungacha bo'lgan muddatga beriladi va xalqaro amaliyotda bu kreditning foiz stavkasi hisob stavkasidan 1–2 punktga yuqori bo'lishi mumkin. Moliyalashtirilmaydigan faktoring bank-faktor tomonidan MYBning debitor qarzдорligini inkassatsiya qilishdan iborat. Faktoringning bu turida MYB jo'natilgan tovarlarning hujjatlarini bankfaktor orqali MSOga yetkazadi. Bank o'z navbati MYB va MSO o'rtasida tuzilgan, xo'jalik shartnomasida ko'rsatilgan muddatlarda va summada MSOdan mablag'ni MYB hisobiga undirish vazifasini bajaradi. Bunda bank MYBga undan sotib olgan tovar hujjatlarini ma'lum bir sanalarda to'lab berish bo'yicha majburiyat olishi mumkin. Agar mol yetkazib beruvchi va mol sotib oluvchi, shuningdek, faktoring kompaniyasi bir mamlakat hududida joylashgan bo'lsa, bunday faktoring ichki faktoring (domestic factoring) deyiladi. Eksportyor va importyor va bank yoki faktor turli mamlakatlarda bo'lib, mamlakatlararo faktoring munosabatlari yuzaga kelsa, bu xalqaro faktoring (international factoring) hisoblanadi. Faktoringning bu turida eksportyor bank yoki faktoring kompaniya bilan global tsessiya shartnomasini tuzadi va eksportyorning barcha yoki ba'zi importyorlaridan uning to'lovlarini undirish huquqini faktorga o'tkazadi. Faktoringning u yoki bu turini qo'llash mol sotib oluvchining pul mablag'lariga bo'lgan ehtiyoji va banklarda bank resurslarining yetarliligiga, faktoring operatsiyaning risk darajasiga bog'liq. Shu va boshqa sabablardan kelib chiqib faktoringning qiymati, u bo'yicha komission va foiz to'lovlarining miqdori past yoki yuqori bo'lishi mumkin.

Respublika tijorat banklari tomonidan faktoring operatsiyalari «O'zbekiston Respublikasida tijorat banklari tomonidan faktoring operatsiyalarini olib borish tartibi» to'g'risidagi nizom talablari asosida amalga oshiriladi. Banklar tomonidan faktoring xizmatini ko'rsatishda sotib olingan majburiyatlarning to'lovini ta'minlash muddati 90 kundan oshmasligi va mol yetkazib beruvchi va to'lovchi 2-

kartotekaga ega bo'lmashligi kabi shartlari qo'yiladi. Ushbu muddatda to'lovi amalga oshirilmagan majburiyatlarni qonunchilikda belgilangan tartibda undirib olish choralari ko'rilishi shart.

Faktoring operatsiyalari quyidagilar bo'yicha amalga oshirilishi mumkin emas: - byudjet tashkilotiga qo'yilgan talabnomalar;

- jismoniy shaxslarning qarz majburiyatlari bo'yicha;
- to'lovga layoqatsiz deb e'lon qilingan korxonalarining majburiyatlari;
- zarar ko'rib ishlaydigan korxonalar bo'yicha;
- noliqvid balansga ega bo'lgan korxonalar bo'yicha;
- kapital qo'yilmalarni moliyalash bo'yicha;
- tovar to'lovi va barter bitimlari bo'yicha;
- bajarilgan ishga bosqichma bosqich yoki tugashi bilan haq to'lanadigan bo'lsa;
- agar oldi-sotdi to'g'risidagi shartnomada to'lovchi shartda kelishilgan muddatda mahsulotni qaytarish huquqiga ega bo'lsa, shuningdek sotuvdan keyin xizmat ko'rsatish mavjud bo'sa faktoring qo'llanilmaydi.

Faktoring operatsiyalariga doir mablag'larni yetkazib beruvchining hisob raqamiga o'tkazilishi ikki nusxada memorial order bilan rasmiylashtiriladi, ulardan bittasi shu operatsiya amalga oshirilgan kunga tegishli kunlik hujjatlarga tikiladi, ikkinchi nusxasi esa mijozning hisob raqamdan ko'chirmasiga ilova qilinadi. Faktoring bo'yicha hisobkitoblar amalga oshirilganida to'lov talabnomasining yuqori qismida faktoring degan yozuv yoki muhr va oluvchi hisobraqamida faktoring hisob raqami ko'rsatilishi shart. Aslida faktoring yuqori daromad keltiruvchi operatsiya bo'lishi bilan bir qatorda, o'ziga yarasha riskli operatsiya hisoblanadi. Bank shartnoma shartlariga muvofiq operatsiyalarni amalga oshirishi, yetkazib beruvchi va to'lovchi bilan amalga oshirilgan operatsiyalarning batafsil hisobini yuritishi, yetkazib beruvchini shaxsiy hisob varag'i holati to'lovchi tomonidan to'lov talabnomalari to'lanishi va qarzni qaytarilish holati to'g'risida muntazam ravishda hisobot tayyorlashi va muddati o'tkazib yuborilgan to'lov talabnomalarning tahlilini amalga oshirishi shart. O'zbekiston Respublikasida hozirgi paytda to'lov muddatlariga rioya qilish, hamda xo'jalik yurituvchi subyektlarning debitor va kreditor qarzdorliklarini imkon boricha kamaytirishga jiddiy e'tibor berilmoqda. Bank faktorlar faoliyati, aynan tovar yetkazib beruvchilar va xaridorlar o'rtasidagi munosabatlarda to'lovlar xatari va muddatlilik muammosini hal qilish, ushbu munosabatlarning barqaror bo'lishiga ko'maklashishi kerak. O'zbekiston Respublikasida banklar faktoring operatsiyalarini XX asrning 90-yillar o'rtalaridan amalga oshira boshladilar. Fuqarolik Kodeksining 42-bobi pul talabnomasi ostida mablag' bilan ta'minlash, Markaziy bankning yo'riqnomalaridan kelib chiqib banklar faoliyatida faktoring operatsiyalari qo'llash imkoniyatlari kengaya boshladi. Markaziy bank tomonidan faktoring operatsiyalarini amalga oshirish uchun ro'yxat mol yetkazib beruvchining asosiy hisob raqami ochilgan bankdagina berilishiga ruxsat etilgan. Faktoring uchun bankning o'z mablag'lari manba bo'ladi, ya'ni banklar faktoring xizmatini o'z sarmoyasi hisobiga amalga oshiradi, faktoring muddati 90 kun qilib belgilangan va faktoring operatsiyalarning samaradorligini oshirish uchun ushbu operatsiya regress huquqisiz amalga oshirilishi, ya'ni bank mol yetkazib beruvchi hisobvarag'idan faktoring

shartnomasi bo'yicha o'tkaziladigan summani qaytarib olishga haqli emas. Bu shart hozirgi kunda faktoring amaliyoti va uning samaradorligini ta'minlashga xizmat qilmoqda. Bu operatsiya orqali nafaqat mol yetkazib beruvchi, balki mol sotib oluvchi ham ijobiy imkoniyatlarga bo'ladi. Bular:

- sifatsiz tovarni sotib olish riskini bartaraf etadi;
- mablag'lar aylanishini tezlashtiradi, raqobatbardoshligini yaxshilaydi;
- xarid hajmini ko'paytiradi.

Bundan tashqari faktoringning iqtisodiy afzalliklari:

- * likvidlilik va rentabelligini oshiradi va foydasini ko'paytiradi;
- * debitor qarzdorlik tezda pul mablag'iga aylanadi;
- * debitorlar tomonidan to'lovlar muddatlariga rioya qilishidan mustaqil bo'ladi; *
- oborot hajmi kengayadi va daromadlilik oshadi;
- * o'z kapitalini iqtisodiy va moliyaviy rejalashtirish imkoniyati kengayadi;
- * to'lay olmasligi riskini kamaytiradi.

Shu bilan birga faktoring maxsus jarayon bo'lib, bu sohada yuzaga keladigan risklarni boshqarishni talab qiladi. Umuman, faktoring pul mablag'lari va sarmoyalar aylanishini tezlashtirish, qarzni undirib olish bilan bog'liq xarajatlarni kamaytirish, banklar o'rtasida munosabatlarni osonlashtirishga yordam berib, pulning hisob-kitob tizimini mustahkamlash, mamlakatda debitor va kreditor qarzdorlikni kamaytirishning muhim vositasi hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda xalqaro amaliyotda mijozlarga moliyaviy xizmat ko'rsatishining universal tizimi bo'lib «ochiq» shakldagi faktoring operatsiyasi hisoblanadi. Biz yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, faktoring operatsiyasining bu shaklida mijozga faqatgina ishlab chiqarish va mahsulotlarini o'z muddatida etkazib berish vazifasi qoladi, qolgan barcha moliyaviy ishlarni faktoring firmasi (bank) o'z zimmasiga oladi. Bu omil esa mijozning faktor-firma (bank) bajarayotgan vazifalarni qayta bajaruvchi (dubl, dublirovanie) shaxsiy shtatni qisqartirishga, balki umuman voz kechishga imkon yaratadi. Bu imkoniyatdan keladigan iqtisodiy samara faktoring operatsiyasi xarajatlarini ma'lum qismini qoplashi mumkin.

Xalqaro bank amaliyotida faktoring xizmatlarining qiymati ikki elementdan tashkil topadi: foizlar va komission to'lovlar. Komission to'lov stavkasi tovar hujjatlari summasiga nisbatan o'rnatiladi va odatda 1,5- 2,5 foizni tashkil etadi.

Faktoringda tijorat banki tovarlar summasining 80-90 foizini birdan to'lab beradi. Qolgan 10-20 foizi debitor tomonidan qarz summasi to'liq qaytarilgandan so'ng to'lab beriladi.

AQSHda tijorat banklari faktoring xizmati ko'rsatganligi uchun komission to'lov oladi va mijozga to'lab berilgan avansning kunlik qoldigiga foiz xisoblaydi. Foiz avans berilgan kundan boshlab to qarz to'liq qaytarilgunga qadar undiriladi. Komission to'lov stavkalari mijozning savdo aylanmasi va risk darajasidan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Xalqaro bank amaliyotida faktoring bo'yicha chegaraviy summalarni belgilashda 3 xil usuldan foydalaniladi:

Umumiy limitni aniqlash usuli.

Ushbu usulda har bir to'lovchi uchun davriy ravishda qayta tiklanadigan limit o'rnatiladi va faktoring bo'limi mazkur limit doirasida unga yon berilgan to'lov talabnomasini to'lab beradi.

Tovarlar junatishning har oylik limitlarini aniqlash usuli.

Ushbu usulda bir mijozga bir oy ichida junatiladigan tovarlar uchun summa ajratiladi.

Alohida bitimlar bo'yicha sug'urtalash usuli.

Agar tovarlarni sotuvchi yirik summadagi tovarlarni ma'lum sanaga bir marotabalik bitim asosida etqazib beradigan bo'lsa, u holda, mazkur usul qo'llaniladi.

Xalqaro bank amaliyotida faktoringning ikki to'ri bir vaqtning o'zida qo'llanilmoqda; konvension va konfidensial faktoring. Konvension faktoring- bu mijozga moliyaviy xizmatlarning universal tizimini ko'rsatish bo'lib, buxgalteriya hisobi, mol etqazib beruvchilar va sotib oluvchilar bilan hisoblashish, sug'urtali kreditlash va boshqa moliyaviy xizmatlarni o'z ichiga oladi. Bunda mijozga faqat ishlab chiqarish funksiyasi qoladi. Konvension faktoring mijoz korxonaga mahsulotlarini ishlab chiqarish va sotish xarajatlarini kamaytirish imkonini beradi. Konvension faktoringda bank mijozga junatilgan tovarlar summasining 80 foizini birdan to'lab beradi, qolgan 20 foizini esa, debitordan pul kelib tushishidan kat'iy nazar, belgilangan muddatda to'lab beradi.

Konfidensial faktoringda ayrim operatsiyalarni amalga oshirish bilan cheklanib qolinadi, ya'ni pul mablag'larini olishga bo'lgan huquqni yon berish, qarz summasini to'lash kabi operatsiyalar. Konfidensial faktoringda mol etkazib beruvchi mijozga junatilgan tovarlar uchun, sotib oluvchi mijozga to'lov uchun faktoring krediti beriladi.

Faktoring kreditini o'z vaqtida va to'liq qaytishi debitorni, ya'ni tovarlarni sotib oluvchining to'lov qobiliyatiga bogliq. Shu sababli, xorijiy banklar sotib oluvchining to'lovga qobilligini baxolashga alohida e'tibor beradilar. Bunda asosiy e'tibor sotib oluvchining pul oqimini baholashga qaratildi. O'zbekiston Respublikasida faktoring operatsiyalari O'zbekiston Respublikasi Markaziy Bankining 2000 yil 3 avgustdagi 953 sonli «O'zbekiston Respublikasi xududida tijorat banklari tomonidan faktoring operatsiyalari olib borish tartibi to'g'risidagi Nizom»ga (yangi redaksiya) olib boriladi. Ushbu nizomga asosan respublikamiz hududida tijorat banklari faktoring operatsiyasining regress huqukisiz va ochiq shaklidagi faktoringdan foydalanish huquqiga ega. Banklar faktoring operatsiyalarini ularning talab qilib olingungacha asosiy depozit hisobvaraqlari joylashgan erdagi mijozlar bilan shartnomalar asosida amalga oshiradilar. Faktoring xizmatlarini ko'rsatish asosida to'lovchi tomonidan moliya agentiga pul talabini bajarish muddatlari 90 kundan oshmasligi kerak. Banklar to'lovchilardan qarzni undirish bo'yicha ushbu muddatda to'lanmagan majburiyatlarga doir choralarni konunlarda belgilangan tartibda ko'rishlari kerak.

Faktoring operatsiyalari:

- byudjet tashkilotlariga taqdim etiladigan talablar bo'yicha;
- jismoniy shaxslarning qarz majburiyatlari bo'yicha;
- to'lovga noqobil deb e'lon qilingan korxonalarning majburiyatlari bo'yicha;

- zarar ko'rib ishlaydigan korxonalar bo'yicha;
- kapital qo'yilmalarni moliyalash bo'yicha;
- eksportga oid konsignatsiya kontraktlari bo'yicha;
- kompensatsiya va barter bitimlari bo'yicha;
- ishga bosqichma-bosqich yoki bo'nak bilan haq to'lash bo'yicha;
- to'lovchi shartnomada shartlangan vaqt mobaynida, shuningdek, sotish xizmati ko'rsatilganidan keyin mahsulotni qaytarish huquqiga ega bo'lgan oldi-sotdi shartnomalari bo'yicha amalga oshirilishi mumkin emas.

Faktoring operatsiyasini o'tkazish chog'ida bank pul mablag'larini ular haqini to'lash huquqi faktoring shartnomasida ko'rsatilgan summada bankka taqdim etilgan to'lov talabnomalari bo'yicha mijozning talab qilib olingungacha asosiy depozit hisobvarag'iga o'tqazadi.

Bank tomonidan o'tkazilgan summa bilan shartnoma bo'yicha to'lov talabnomasi summasi o'rtasidagi fark bank diskontini tashkil etadi.

To'lovchida muddati o'tgan kreditorlik qarzining yo'qligi faktoring xizmatlarini ko'rsatishning majburiy sharti hisoblanadi.

Agar shartnomada boshqa narsa ko'zda tutilmagan bo'lsa, bank tomonidan pul talabi huquqining keyin berilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Mijoz shartnoma tuzilgunga qadar bankka ko'yidagi xujjatlarni taqdim etadi:

- belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan va to'lovchi tomonidan imzolangan oldi-sotdi, ishlar bajarish va xizmatlar ko'rsatish shartnomasi;
- moddiy boyliklar berilgani, ishlar bajarilgani va xizmatlar ko'rsatilganini tasdiqlaydigan xujjatlar (tovar-transport yukxatlari, ishonchnomalarning ko'chirma nusxalari, ishlarni qabul qilish dalolatnomalari va hokazo);
- to'lovchi tomonidan boshqa banklarda ochilgan hisobvaraklar ro'yxati;
- to'lovchining moliyaviy holatini belgilash uchun zarur xujjatlar.

Bankning mijoz bilan faktoring xizmati ko'rsatishga doir shartnomasida qo'yidagilar ko'rsatiladi:

- ularga nisbatan pul talabining berilishi amalga oshirilayotgan xaridorlar;
- berilayotgan talablarning umumiy summasi;
- diskont summasi;
- shartnomaning amal qilish muddati;
- taraflar tomonidan shartnoma shartlari buzilgani uchun da'volarni bayon etish muddatlari;
- shartnoma shartlari buzilgani uchun taraflarning mas'uliyati;
- shartnomani beqor qilish shartlari;
- qonun xujjatlarida nazarda tutilgan boshqa shartlar.

Faktoring xizmatlarini ko'rsatish shartnomasini to'zish chog'ida mijoz va bank-moliyaviy agent to'lovchini ushbu bitim to'g'risida yozma ravishda xabardor qilishi kerak.

To'lovni amalga oshirish uchun to'lovchining talab qilib olingungacha asosiy depozit hisobvarag'ida mablag'lar etishmagan taqdirda to'lovchining banki bank - moliyaviy agentga to'lov talabnomasining 2-son kartotekaga qabul qilinganini ma'lum etadi.

Shartnoma:

- taraflarning o'zaro kelishuviga;
- bank shartnoma shartlarini bo'zgan taqdirda etkazib beruvchining tashabbusiga;
- etkazib beruvchi shartnoma shartlarini bo'zgan takdirda bankning tashabbusiga;
- konun xujjatlariga muvofiq boshqa shartlarga binoan bekor qilinishi mumkin.

Bunda taraflar shartnomaning amal qilishini shartnomada belgilangan muddatlarda bekor qilish to'g'risida bir-birlarini yozma ravishda xabardor qiladilar.

Shartnoma bir taraf tomonidan bekor qilingan taqdirda o'zaro da'volar qonun xujjatlarida belgilangan tartibda hal qilinadi.

Vakolatli banklar tomonidan eksport operatsiyalari bo'yicha xorijiy valyutada faktoring xizmatlari ko'rsatilishi.

Eksport mahsulotlari bo'yicha faktoring xizmatlarini vakolatli banklar xorijiy valyutada talab qilib olingungacha depozit hisobvarag'i bo'lgan, faqat o'zlari xizmat ko'rsatadigan korxona va tashkilotlarga, 60 kundan oshmaydigan muddat bilan ko'rsatadilar.


Ular tomonidan faktoring xizmatlari ko'rsatilishi chog'ida bank daromadlari deganda xorijiy valyutada to'lov xujjatining nominal qiymati bilan uning shartnomaga muvofiq bankka berilish summasi o'rtasidagi farq bo'lgan diskont tushuniladi.

Etkazib beruvchi tegishli xorijiy sherik bilan to'zgan, ilgari hisobga qo'yilgan eksport kontraktlari bo'yicha etkazib beruvchi korxonada muddati o'tgan debitorlik qarzining yo'qligi eksport operatsiyalari bo'yicha faktoring xizmatlari ko'rsatilishining majburiy sharti xisoblanadi. Vakolatli banklar faqat belgilangan tartibda o'zlari hisobga qabul qilgan eksport kontraktlari bo'yicha va xorijiy korrespondent banklarning bank kafolatlari olingan yoki mazkur kontraktlar bo'yicha ochiq chaqirib olinmaydigan akkreditivlar summasidan oshmaydigan summada faktoring xizmatlarini ko'rsatadi.

Vakolatli bank eksport kontraktlari bo'yicha faktoring operatsiyasini o'tkazish chog'ida mijozning talab qilib olingungacha tranzit depozit hisobvaragiga mablag'larni, shartnomada ko'rsatilgan diskont summasini chegirgan holda, etkazib beruvchi tomonidan beriladigan talablar summasida erkin almashtiriladigan valyutada o'tkazadi. Mijozning tranzit hisobvaragiga hisoblab yozilgan valyuta mablag'laridan majburiy sotishni mijoz to'lik hajmda, diskont summasini chegirmasdan amalga oshiradi.

Pul talabi huquqini berish to'g'risidagi shartnoma imzolanganidan keyin mijoz bu hususda xorijiy kontragent va uning kafili (kafolatchisi)ni habardor qilishi va ushbu to'lov xujjatlari bo'yicha to'lovni amalga oshirish uchun ularga bank - moliyaviy agentning bank rekvizitlarini ma'lum etishi shart. Agar to'lash shakli sifatida akkreditiv qabul kilinsa, bu holda mijoz bank - moliyaviy agent foydasiga akkreditivni qayta rasmiylashtirish amalini o'z vaqtida amalga oshirishi, so'ngra bankni qayta rasmiylashtirish holatidan xabardor qilishi shart. Amaliyotda bank (faktoring kompaniyasi) va mijoz o'rtasida tuziladigan faktoring shartnomasini tuzish tartibini qo'yidagi sxemada aks ettirib berish mumkin.

Faktoring bitimini tuzish va amalga oshirish mexanizmi.



Odatda, bank yoki faktoring kompaniyasi korxonadan ariza murojaatnomani olib, 1-2 hafta mobaynida mijozning moliyaviy va iqtisodiy ahvolini, uning xujalik faoliyati hususiyatlarini o'rganib chiqadi. Agar korxona bankning mijozi bo'lib qolgan bo'lsa, u holda u bankka xaridor uchun taqdim etiladigan barcha schyot-fakturalarni beradi. Bank barcha schyot-fakturadarni, shuningdek xaridorning to'lovga qobilligini to'liq o'rganib chiqadi. Bu muddat 24 soatdan 2 xaftagacha chuzilishi mumkin. SHundan sung bank to'lovni belgilangan muddatda yoki undan avval xam amalga oshirishi mumkin. Faktoring operatsiyalarida bank schyot-faktura qiymatining, odatda, 80 foizi miqdorida, ayrim holatlarda esa, masalan, korxonaning mazkur bank uchun juda ishonchli mijozga aylanib qolganligi sababli ham mahsulot qiymatining 90 foizigacha miqdorini o'tkazib berishi mumkin. Kolgan 10-20 foizi esa, zahira hisoblanadi, ya'ni to'lovning qolgan qismi debitor tomonidan barcha qarz summolari qaytarilgandan so'ng bank tomonidan amalga oshirildi. Banklarning faktoring operatsiyasini amalga oshirish bosqichlri qo'yidagilardan iborat. Birinchi bosqichi shartnoma deb atasak, chunki bu bosqichda ikkita korxona o'rtasida biron bir tovar yoki xizmatlar uchun o'zaro

shartnoma tuziladi. Albatta, keyingi ikkinchi-bosqichda oldindan qisman to'lash jaryonii, ya'ni, Uzbekiston Respublikasi Prezidentining 1995 yil 12 maydagi 1154-Farmoniga asosan 15 foizdan kam bo'lmagan to'lovdir. Uchinchi bosqich, bu etqazib berilgan tovar yoki ko'rsatilgan xizmatlar va turtinchi bosqich esa mol etkazib beruvchi tomonidan to'lovchining hisob raqamiga qo'yilgan to'lov talabnomasi. Yuqoridagi to'rtta bosqichdan so'ng shartlar bajarilsa, faktoring jarayonini amalga oshirish uchun qo'lay sharoit yuzaga keladi. Beshinchi bosqich faktoring operatsiyasini amalga oshirish uchun mol etkazib beruvchi va uning banki bilan shartnoma, 90966-Faktoring. Ko'zda tutilmagan holatlar bo'yicha ushbu hisob raqamida faktoringni balansdan tashqari hisobi olib boriladi. Ushbu schyot debetida sotib olingan debitor qarz summasi, kreditida esa to'liq yopilgan faktoring turadi. Oltinchi bosqichda bank shartnoma asosida memorial order bilan quyidagi buxgalteriya yozuvlarini amalga oshiradi:

1. Dt 11101 Kt 202 - Ushbu yozuv umumiy qarz summasidan bankda qoladigan diskont chegirib tashlashdan qolgan qismi mol etkazib beruvchining asosiy depozit hisobraqamiga tushurib beriladi va ushbu hisobraqamdan qonunda belgilangan to'lovlar amalga oshiriladi.

2. Dt 11101 Kt 11195 - Ushbu yozuv diskont summasi bo'ladi va bu diskont faktoring asosiy qarzi kelib tushishi davomida bank daromadlari hisobraqamiga olib boriladi. Ushbu summa, ya'ni faktoring summasiga amalga oshiriladigan yozuv faktoring tuliq yopilgandan so'ng teskari yozuv bilan chiqim qilinadi.

Dt 11101

Dt 11195

Kt 11195

Kt 45217

Ya'na shuni aytib o'tish kerakki, faktoring operatsiyalariga doir mablag'larni etqazib beruvchining hisobraqamiga o'tkazilishi ikki nushada memorial order bilan rasmiylashtiriladi, ulardan bittasi shu operatsiya amalga oshirilgan kunga tegishli kunlik xujjatlarga tikiladi, ikkinchi nushasi esa mijozning hisobraqamidan ko'chirmasiga ilova qilinadi. Yuqoridagi amallar bajarilganidan so'ng, qarzdorlik mol etkazib beruvchidan bank nomiga o'tadi. Demak, to'lovga mol etkazib beruvchi tomonidan qo'yilgan talabnomadan pul mablag'larini oluvchi, ya'ni mol etkazib beruvchi nomidan ko'chirilib (7- bosqich) debitor qarzni sotib olgan bank nomiga o'tadi.

Korxonalarni debitorlik qarzlarini qisqartirishda faktoring operatsiyalarining o'rni.

Mamlakatimiz iqtisodiyotida faoliyat yuritayotgan xujalik sub'ektlarida juda katta hajmdagi debitorlik-kreditorlik qarzdorligini mavjudligi. Bu salbiy holat esa ko'p hollarda to'lov intizomini asossiz ravishda bo'zganlik uchun yuzaga kelgan. O'zbekiston Respublikasi xududida faoliyat ko'rsatayotgan ko'plab xujalik sub'ektlarida haddan tashqari ko'p tovar zaxiralari va tayer mahsulotni to'planib qolganligi: Faktoring operatsiyasi faktoring firma (bank) tomonidan mijoz to'g'risida, ya'ni uni to'lovga qobiliyatligi, balansisini likvidligi, ishlab chiqargan mahsulotlarini sotib oluvchi xaridorlarining moliyaviy holati, debitor qarzdorligi va shunga uhash moliyaviy ma'lumotlarni to'liq, haqqoniy va o'z muddatida olishlikni talab etadi. Lekin, shuni qayd etish lozimki hozirda respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan juda ko'plab xujalik sub'ektlari tomonidan xujalik-moliyaviy

holati to'g'risida haqqoniy va oshkora ma'lumot berish tajribasi yo'lga qo'yilmagan. Yuqorida qayd etib o'tgan salbiy omillar respublikamiz tijorat banklari tomonidan faktoring operatsiyasini amaliyotga kirish hamda rivojlantirishga to'sqinlik qilmoqda. Bizning fikrimizcha ushbu salbiy holatni bartaraf etish maqsadida qo'yidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi tomonidan mamlakatimizda xujalik yurituvchi korxonalarda debitorlik kreditorlik qarzdorligini inventarizatsiya qilish va aniqlangan o'zaro qarzdorlikni o'zaro singdirish hamda da'vo muddati o'tganlarini (O'zbekiston Respublikasi Fukorolik kodeksining 157 moddasiga asosan respublikamizda debitor-kreditor qarzdorlikning da'vo muddati 3 yil deb belgilab qo'yilgan) majburiy ravishda korxonaning foydasiga (kreditorlik qarzi) yoki zarariga (debitorlik qarz) olish to'g'risida mahsus qaror ishlab chiqish lozim. Ushbu qarorni ishlab chiqarilishi va amaliyotga kiritilishi respublikamizdagi juda ko'plab korxonalardagi o'zaro qarzdorlikni keskin ravishda qisqartirishga olib keladi. Bu holat esa tijorat banklari tomonidan faktoring operatsiyasini olib borishdagi o'ziga xos salbiy to'siqni olib tashlaydi deb hisoblaymiz. O'zbekiston Respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan xujalik sub'ektlari tomonidan ular o'zlari to'g'risida xujalik-moliyaviy holati to'liq, haqqoniy ma'lumot oshkoraligini amaldagi qonunchilik asosida tartibga solish lozim. Bu xolat esa tijorat banklarida faktoring shartnomasida ishtirok etayotgan mijozlar to'g'risidagi haqqoniy, to'liq ma'lumotni olish imkoniyatini beradi va bu bilan faktoring operatsiyasidagi pasayadi. SHuni ta'kidlash lozimki, faktoring shartnomasida ishtirok etayotgan sub'ektning biri bankning mijoz bo'lmashligi mumkin shuning uchun, bizning fikrimizcha, respublikamiz bank tizimida faoliyat ko'rsatayotgan (mulkchilik shaklidagi qat'iy nazar) tijorat banklarida mijozlar to'g'risida to'liq ma'lumot bazasini yaratish va lozim vaqtda bu ma'lumotlardan (faktoring shartnomasi tuzilayotgan vaqtda) rasmiy ravishda o'zaro foydalanishlikni amaliyotga kiritish lozim. Bu xolat faktoring shartnomasini imzolayotgan tijorat bankiga xar ikkala (o'z mijoz hamda ishtirok etayotgan begona mijoz) mijoz to'g'risida tezkor va haqqoniy ma'lumot olish imkoniyatini yaratadi hamda bank uchun kredit xatarini kamaytiradi. Faktoring krediti kompaniyalar o'rtasidagi debitor-kreditor qarzdorlikni qisqartirishning ishonchli vositasi va tijorat banklari tomonidan beriladigan kreditlarning mustaqil shakli bo'lib hisoblanadi. Banklar tomonidan ko'rsatilayotgan faktoring xizmatlari xajmini oshirish tijorat banklarining etarli darajada resurs bazasiga ega bulishini taqazo etadi va ularning joriy likvidlilik darajasini talab darajasida bo'lishini taqozo etadi. Tijorat banklarining depozit va kapital bazalarining barqaror bo'lishi ularning resurs bazasini mustahkam ekanligidan dalolat beradi. Banklarning depozit bazasini barqarorligi deganda, odatda, ularning jami depozitlari hajmida talab qilib olinadigan depozitlar salmog'inining 30 foizdan oshmasligi e'tirof etiladi. Banklarning joriy likvidlilikini talab darajasida bo'lishi deganda ularning joriy likvidlilik koeffitsienti 30 foizdan past bo'lmashligi tushuniladi. Xorijiy davlatlar faktoring kompaniyalari vakillarining ma'lumotlariga ko'ra, tovarni ishlab chiqaruvchi va uni etkazib beruvchilar faktoring kompaniyalari uchun xizmat ko'rsatish soxalari korxonalariga qaraganda ishonchliroq mijozlar hisoblanar ekan, chunki agar yuklab junatilgan tovarlarni

sotib olishga rozilik bildirmagan holatda uni boshqa iste'molchiga (albatta, nisbatan past bahoda) sotib yuborish mumkin, ko'rsatilgan xizmatni esa boshqa iste'molchiga o'tkazishning imkoni yo'q. Bu holat faktoring kompaniyalari tijorat riskining usishida o'z aksini topadi. Aynan shu uchun, faktoring kompaniyalari uchun umumiy tarzda tayyorlangan mahsulot ostidagi operatsiyalar mahsus buyurtmadagi maxsulotga nisbatan ishonchlirokdir.

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari tomonidan mijozlarga berilgan faktoring kreditlari darajasi va dinamikasi

Ko'rsatkichlar	2018y	2019y	2020y	2021y
Bank tomonidan berilgan faktoring kreditlari, mlrd.sum	52,0	31,0	42,7	53,2
Banklar tomonidan berilgan kreditlar xajmi, trln.sum	10,0	11, 1	11 ,446	13, 25
Faktoring kreditlaring Bankning brutto kreditlari hajmidagi salmog'i,%	0,8	0,33	0,37	0,4

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, 2018- 2021 yil holatini qarab chiqsak, 2018 yildan boshlab respublikamiz tijorat banklari tomonidan berilgan faktoring kreditlari oshib bormoqda va brutto kreditlari hajmidagi salmog'i ham 2021 yilga kelib 0,4 foizni tashkil etgan. Faktoring operatsiyalariga nisbatan samaradorlikni aniqlashning umumiy uslubiyotini aniqlash muammosi hozirgi kunda dolzarb ahamiyatga ega. Mazkur jarayonda faktoring operatsiyalari samaradorligini aniqlashning «qiyosiy uslubini» tavsiya etish mumkin, yanada aniqroq tarzda ushbu tavsiya qo'yidagicha ifodalanadi: faktoring operatsiyalarini qo'llashdan bank va mijoz oladigan yutuq va kamchiliklarni tijorat banklarining bo'nga turdosh pasaygan. Ushbu pasayish mazkur davr mobaynida brutto kreditlar miqdorining o'sish sur'atini faktoring kreditlari miqdorining o'sish sur'atidan yuqori bo'lganligi bilan izohlanadi va bankning faktoring operatsiyalarini rivojlantirish nuqtai- nazaridan salbiy holat hisoblanadi. Faktoring operatsiyalarini o'tkazish tartibining qanday bosqichlarda amalga oshiriliga asoslanganligi ham ularning samaradorligini oshirishi yoki pasaytirishga o'ziga xos ravishda ta'sir ko'rsatadi. Bunga amalga oshirilgan faktoring operatsiyalarini hisobga olishning ham ishlab chiqilgan mexanizmi, uning murakkabligi yoki soddaligi, oddiyligi kabilar katta ta'sir ko'rsatadi. Bu mazkur turdagi operatsiyalarni o'tkazishdan olinadigan foydaning banklarning boshqa turdagi hisob- kitob va kredit operatsiyalarini amalga oshirishdan olinadigan foydadan qiyosiy jixatdan farq qilishi bilan aniqlanadi. Faktoring kreditlari uchun ta'minot sifatida qabul qilinadigan garov ob'ektlari yuqori likvidli bo'lishi lozim. Chunki, faktoring kreditlarida risk darajasi yuqori bo'lganligi sababli, ularni sundirishda garov ob'ektini sotishdan foydalanish ehtimoli yuqori. Shuni ta'kidlab o'tish joizki, O'zbekiston Respublikasida yuqori likvidli garov ob'ektlarning etishmasligi muammosi mavjud. Halqaro bank amaliyotida yuqori likvidli garov ob'ektlariga

er, hukumatning qimmatli qog'ozlari, to'lov hukumat tomonidan kafolatlangan qimmatli qog'ozlar, oltin va boshqa nodir metallar kiradi. O'zbekistonda esa, birinchidan, er davlatniki bo'lganligi sababli garov ob'ekti bo'la olmaydi; ikkinchidan, oltin va boshqa nodir metallar savdosiga nisbatan davlat monopoliyasi mavjud bo'lganligi sababli xujalik yurituvchi sub'ektlarning balansida ular mavjud emas; uchinchi 2005 yildan bo'yan O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti profitsit bilan bajarilmoqda. Shu sababli, hukumat tomonidan emissiya qilingan qimmatli qog'ozlarning hajmi kichik.

Tijorat banklarida faktoring operatsiyalarini rivojlantirish masalalari

Respublikamiz tijorat banklarining faktoring operatsiyalari samaradorligini amalga oshirish maqsadiga muvofiqdir. Faktoring kreditlarining ta'minoti sifatida oson sotiladigan va bozor sohasini aniqlash imkoni bo'lgan ob'ektlar garov sifatida olinishi zarur. Shunday garov ob'etlari borki, ularning respublikamizda bozori mavjud emas. Shu sababli, ularning bozor bahosini aniqlash qiyin. Masalan, transformatorlar, avtomatika qo'rilmalari kabilardan iborat. Faktoring kreditlarining garov ob'ektlari va beriladigan kreditning miqdori o'rtasidagi marjinal qiymat har bir tijorat bankining Kredit siyosatida aniq belgilab qo'yilgan bo'lishi lozim. Aks holda, banklarning garov siyosatida chalkashliklar, tushunmovchiliklar yuzaga keladi. Global inqiroz natijasida mijozlarning ayrim toifalarida pul oqimining zaiflashuvi ko'zatildi. Bu esa, ularning kreditlarni qaytarish imkoniyatini sezilarli darajada pasaytiradi. Bu toifadagi mijozlarga faktoring kreditini tovarlar xujjatlarini regress huquqisiz sotib olish asosida berilishi kredit riski darajasini keskin oshishiga olib keladi. Tijorat banklarining Kredit siyosatida yoki alohida yo'riqnomada tovarlarning xujjatlarini regress xuquqi bilan v regress huquqisiz sotib olish shartlarini aniq aks ettirilish maqsadga muvofiqdir.

Bunda qo'yidagi shartlar o'z aksini topgan bo'lishi zarur:

- regress huquqi bilan sotib olinadigan xujjatlar bo'yicha bankning diskont stavkasi;
- regress xuquqisiz sotib olinadigan xujjatlar bo'yicha bankning diskont stavkasi;
- qaysi toifadagi mijozlar uchun tovarlarning xujjatlari regress huquqi bilan sotib olinadi;
- qaysi toifadagi mijozlar uchun tovarlarning xujjatlari regress huquqisiz sotib olinadi.

Mazkur shartlarni banklarning Kredit siyosatida o'zining aniq ifodasini topishi faktoring operatsiyalarining samaradorligini yanada oshirish imkonini beradi, operatsiyalarni amalga oshirish jarayoning shaffofligini oshiradi.

Agar tijorat banklarida ishonchli, to'lovga qobillik darajasi yuqori bo'lgan mijozlar guruxi to'g'ri shakllantirilsa, ushbu holat bank tomonidan regress huquqisiz xujjatlarni sotib olishga asoslangan faktoring kreditlari hajmini sezilarli darajada oshirish imkonini beradi. O'z navbatida, mazkur shart asosida berilgan faktoring kreditlari tijorat bankiga katta daromad keltiradi. Mijozlarning to'lovga qobilligini aniq va to'g'ri baholash usun tijorat banklarining ekspertlari, analitiklari yuqori darajadagi bilim va professional ko'nikmalariga ega bulishlari lozim. Buning uchun ular doimiy ravishda o'z ustida ishlashlari, etakchi malaka oshirish

markazlari va xorijiy banklarda amaliyot o'tab turishlari zarur. Tijorat banklarining ishonchli, moliyaviy barqaror bo'lgan mijozlarga guruxiga halqaro faktoring xizmati kusatish yo'li bilan faktoring operatsiyalari miqdori va daromadlilikini oshirish zarur.

**Faktoring amaliyotida halqaro faktoring operatsiyalarining qator
hususiyatlari namoyon bo'ladi:**

- ushbu operatsiyalar faqat mijoz eksport bitimlariga nisbatan qo'llaniladi;
- mijozni moliyalashtirish debitorlik qarzi valyutasida amalga oshiriladi;
- faktoring operatsiyalarining 2 omilli sxemalari doirasida bevosita kreditlash funksiyasi va qarzlarining to'lanmay qolishi risklarini qoplash tegishli tarzda eksportchi va importchining faktoring bo'limlari o'tasida taqsimlanadi;
- mazkur operatsiyalar, odatda, qarzni sotuvchiga regress huquqisiz va kamida har 2 davlatning qonunchiligi talablarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi;
- importchining faktoring bo'limi qarzni to'lash grafigini ko'zatib borish va tushumni inkassatsiya qildirish bilan bog'liq barcha funksiyalarni o'z zimmasiga oladi;
- mijozlarga xizmat ko'rsatish sifati, ko'p jihatdan, importchining faktoring bo'limiga bog'liq bo'ladi, u bilan mijoz to'g'ridan- to'g'ri bog'liqlikka ega bo'lmaydi.

Xalqaro faktoring operatsiyalari ichki faktoringdan farqli, u nafaqat mijozlarni qisqa muddatli moliyalashtirish muammosini hal etadi, balki halqaro bozorlarda o'sib borayotgan raqobat sharoitida eksportchi va importchi o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni optimallashtirish imkonini beradi. Xalqaro faktoring operatsiyalari doirasiga faktoring bo'limlari tomonidan, nafaqat, yirik korxonalar- eksportchi va importchilar, shuningdek mamlakatning kichik kichik biznes sub'ektlarini ham keng jalb etish muhim va o'ziga hos ahamiyatga egadir. Odatda, mahsulot eksportidan eksportchining kredit riski sezilarli ravishda o'sadi. Bundan tashqari, tashqi savdo faktoringi to'grisidagi bitim ikki va undan ortiq valyutalardan foydalanishni nazarda tutishi mumkinligi sababli valyuta riskining kelib chiqishi ham ko'zatiladi- xorijiy valyuta kursining milliy valyutaga nisbatan o'zgarishi oqibatida valyutaning yuqotilishi havfi kabi holatlar. Risk darajasining kutarilishi bilan bog'liq holda faktoring bo'limi mol etkazib beruvchiga ichki bozordagiga nisbatan ancha qat'iy bulgan talablarni ko'yadi. Eksportchiga faktoring bo'limida xizmat ko'rsatilishida u importchi- mamlakat faktoring bo'limi bilan shartnoma imzolaydi va ishning ma'lum bir qismini unga beradi. Mazkur bitim o'zaro qarzдорlikni nazarda to'tadi, ya'ni eksportchining faktoring bo'limi o'z mamlakatida xorijiy mazkur ikki davlatning ishtirok etishini nazarda tutuvchi shartnoma bo'yicha faktoring bo'limlari nomidan va topshiriqlari bo'yicha faoliyat olib boradi. Bunday faktoring ikki omilli, deb nomlandi. Eksportchining faktoring bo'limi importchiga xizmat qiluvchi faktoring bo'limiga shartnoma bo'yicha qo'yidagi ish turlarini berishi mumkin:

- importchining kreditga layoqatliligini baholash, kredit riskidan sug'urtalash, o'xshash hollardan kelib chiqib, amalga oshirilishi mumkin bo'lgan sug'urtalash summalari miqdori va chegarasini aniqlash, kreditni qaytarish muddati kelganidan so'ng muayyan davrda mijoz tomonidan to'lanmagan kredit summasini qoplash

majburiyati sudga murojaat qilish zaruriyati xollarini xisobga olib ham qarz talabnomalarini inkassatsiya qilish,eksportchining faktoring bo'limii hisobraqamiga valyutada to'lovlarni o'tkazish. Bu turdagi faktoringning afzalliklari shundaki, bunda importchi faktoring bo'limii uchun qarz talabnomalari eksportchi faktoring bo'limii uchun bo'lgani kabi tashqi emas, aksincha, ichki hisoblanadi.Shu bilan birga tomonlarnig katta xarajatlarini talab qiladi. Mazkur munosabatlarda eksportchi faktoring bo'limining asosiy roli kreditlashda namoyon bo'ladi va agar eksportchi undan manfaatdor bo'lmasa, u holda unga bevosita importli faktoring to'g'risida eksportchi mamlakatida faktoring bo'limii biln to'g'ridan- to'g'ri bitim tuzish afzalrok hisoblanadi. Biroq bu aynan eksportchi bir yoki ikki davlatda ish olib borsagina shunday holatdagi ma'noni kasb etadi. Agar eksportchining ko'pgina davlatlarda hamkorlari mavjud bo'lsa, u holda boshqa davlatlardagi faktoring bo'limlari bilan ko'p sonli bevosita bitimlarni to'zgandan ko'ra o'z mamlakatidagi faktoring bo'limii bilan yagona bitimni oshirishi ancha qo'lay hisoblanadi.Kichik biznes sub'ektlariga xalqaro faktoring kreditlari berish hajmin oshirish maqsadida, birinchidan, kichik biznes sub'ektlarining eksport tushumini forvad shartnomasi asosida sotib olish yo'li bilan faktoring kreditlarini qaytarilish tartibini joriy qilish kerak. Ikkinchidan, xalqaro faktoring kreditlari barqaror eksport tushumiga ega bo'lgan va muddati o'tgan qarz majburiyatlari mavjud bo'lmagan kichik biznes sub'ektlariga berilishi lozim.Hozirgi kunda tijorat banklari tomonidan kichik biznes sub'ektlariga xalqaro faktoring kreditlari berilmayapti. Xolbuki, faktoring kreditlarini berish kichik biznes sub'ektlari faoliyatini moliyalashtirish mexanizmining elementlaridan biri hisoblanadi.Muddati o'tgan faktoring kreditlarini o'z vaqtida muddati o'tgan faktoring kreditlari hisobrakamida aks ettirish va zaxira ajratmalarini to'g'ri tashkil qilishni ta'minlash lozim. Muddati o'tgan faktoring kreditlarining o'z vaqtida muddati o'tgan ssuda hisobraqamidagi olib qo'yish quyidagi amaliy natijalarga olib keladi:

- sof faktoring kreditlari darajasi va dinamikasini tahlil qilish va mavjud tendensiyalarni aniqlash imkonini beradi;
- faktoring kreditlaridan kuriladigan zararlarni qoplashga muljallangan zaxira ajratmalarini to'g'ri shakillantirish imkonini beradi;
- muddati o'tgan faktoring kreditlarini haqiqatdan so'ndirilgan qismini aniqlash imkonini beradi.

Shuningdek, respublikamizning yirik tijorat banklarida muddati o'tgan faktoring operatsiyalari xajmining nisbatan yuqori ekanligi ulardan ko'riladigan zararlarni qoplashga muljallangan ehtimoliy yo'kotishlar zaxirasini o'z vaqtida va to'liq shakillantirishning muhim amaliy ahamiyatiga ega ekanligidan dalolat beradi.Kreditlardan ko'riladigan zararlarni qoplashga muljallangan zaxira ajratmalari o'ziga hos amortizatsiya vazifasini o'taydi. Kredit umuman qaytmay qolgan taqdirda bank tashkil qilingan zaxiralar hisobidan qo'rilgan zararni qoplaydi.Shunisi ahamiyatliki, O'zbekiston Respublikasida kreditlardan qo'rilgan zaralarni qoplashga muljallangan zaxira ajratmalari to'liq tijorat bankining xarajtiga olib boriladi. Bu esa, tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash nuqtai- nazaridan muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Ya'ni, bankning

soliqqa tortish bazasi yaratilgan zaxira miqdoriga kamayadi. Banklarning faktoring operatsiyalari samaradorligini baholashda aniqlikni ko'chaytirish maqsadida faktoring operatsiyalarini amalga oshiruvchi bo'limini aloxida qilib tashkil qilish zarur. Buning natijasida faktoring operatsiyalaridan olinadigan daromadlarning darajasi va dinamikasini hamda ushbu operatsiyalardan qurilayotgan zararlarining darajasi va dinamikasi va faktoring bo'limini saqlash xarajatlarining haqiqatdagi xolatini aniq hisob- kitob qilish va baholash imkoni yuzaga keladi. Faktoring operatsiyalarining buxgalteriya hisobini ham bo'limning xodimlari yuritishi lozim. Faktoring operatsiyalari bo'yicha buxgalteriya provodkalari va hisob- kitoblar buxgalteriya boshqarmasida emas, balki faktoring bo'limini o'zida amalga oshirilishi lozim. Bankning kreditlash boshqarmasi barcha turdagi kreditlarni tasdiqlash va rasmiylashtirish uchun javobgar bo'lishi mumkin. Faqat faktoring kreditlari uchun ular javob bermasligi kerak. Faktoring operatsiyalarining buxgalteriya hisobini yuritayotgan xodimlar uchun aniq tarzda mansab yo'riqnomasi ishlab chikilishi va tasdiqlanishi hamda nushasi xodimga imzo bilan berilishi lozim.

Mavzu yuzasidan takrorlash uchun savollar

1. Tijorat banklarining faktoring operatsiyalari va uning mohiyati nimalardan iborat?
2. Faktoring operatsiyalarining turlari va faktoring operatsiyalarini o'tkazish tartibi qanday tarzda amalga oshiriladi?
3. Korxonalarni debitorlik qarzlarni qisqartirishda faktoring operatsiyalarining o'rni nimalardan iborat?
4. Tijorat banklarida faktoring operatsiyalarini rivojlantirish masalalari qanday tartibda amalga oshiriladi?

MAVZU: Tijorat banklarining lizing operatsiyalari (4 soat)

REJA:

1. Lizing operatsiyalari va ularning mohiyati.
 2. Lizing operatsiyalarining turlari.
 3. Lizing operatsiyalarini o'tkazish tartibi va ular bilan bog'liq risklari.
 4. Lizing to'lovlari va ularni aniqlash tartibi.
 5. Tijorat banklarida lizing operatsiyalarini rivojlantirish masalalari.
- **Tayanch so'zlar lizing beruvchi, lizing oluvchi, lizing shartnomasi, moliyaviy lizing, tezkor lizing, xalqaro lizing, aralash lizing**

Lizing operatsiyalari va ularning mohiyati.

So'nggi yillarda tijorat banklari faoliyatida ijara yoki lizing (Leasing - ing. «ilgari») operatsiyalarini moliyalashtirish bilan bog'liq faoliyat turlari keng rivoj topmoqda.

Lizing **uch** taraflama:

- **sotuvchi**
- **lizing beruvchi (bank)**
- **lizing oluvchi**

yoki **ikki** taraflama:

- lizing beruvchi (bank)
- lizing oluvchi

lizing shartnomasi bo'yicha amalga oshiriladi.

Lizing sotuvchi, lizing beruvchi va oluvchi lizing sub'ektlari bo'lib hisoblanadi.

Lizing beruvchi lizing ob'ektini kimdan olayotgan bo'lsa, shu shaxs sotuvchi deb e'tirof etiladi. Lizing shartnomasi bo'yicha lizing oluvchiga kelgusida topshirish maqsadida lizing ob'ekti (mulk)ni mulk qilib beruvchi shaxs masalan, bank lizing beruvchi bo'lib hisoblanadi. Egalik qilish va foydalanish uchun lizing shartnomasi bo'yicha lizing ob'ektini olayotgan shaxs lizing oluvchi bo'lib hisoblanadi.

Lizing beruvchi (bank), lizing oluvchi va lizing sotuvchilar sifatida maydonga chiqadigan sub'ektlar va ular o'rtasida vositachi sifatida chiquvchi shaxslarni quyidagicha tasniflash mumkin.

Lizing munosabatlarida qatnashuvchi sub'yektlar

№	Lizing sub'yektlari	Izoh
1	2	3
1	Lizing beruvchilar (mulk egalari)	• tijorat banklari • qo'shma lizing kompaniyalari • xorijiy lizing kompaniyalari • xalqaro lizing kompaniyalari • ixtisoslashgan milliy lizing kompaniyalari • uskunalarni tayyorlovchi korxonalar filiallari va bo'limlari • davlat va mahalliy organlar: → mulk qo'mitalari → moddiy ta'minot bo'limlari → qurilish bosh boshqarmalari → boshqa organlar • sug'urta kompaniyalari • nafaqa fondlari • lizing operatsiyalarini amalga oshirishga yo'naltirilgan ochiq va yopiq aksionerlik jamiyatlari
2	Lizing oluvchilar (mulkdan foydalanuvchilar)	• tovar ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslar • yuridik shaxs bo'lmagan tadbirkorlar
3	Lizing ob'ektlarini sotuvchilar	• mulk egalari • uskunalarni ishlab chiqaruvchilar • moddiy ta'minot tashkilotlari • savdo firmalari • aksionerlik jamiyatlari

		• qo'shma korxonalar
4	Lizing munosabatlarida qatnashuvchilar o'rtasida vositachilik qiluvchilar.	• distribyuter (ulgurji xodim) • dilerlar • brokerlar • komissionerlar • maklerlar • konsignatorlar • ishonchli shaxs(vakil)lar • ishlab chiqaruvchilar agentlari (iste'molchi-lar) • kommivoyajerlar • maslahatchilar • xabarlovchi savdogarlar

Lizing beruvchilar, xususan tijorat banklari xaridor sifatida maydonga chiqmoqchi bo'lishsa, u holda ular o'zlarining faoliyatlarini lizing operatsiyalarini amalga oshirishga yo'naltirgan bo'lishlari lozim. Bunday hollarda bank mulkni sotib olish uchun korxona (firma) larga ssuda (kredit) berish o'rniga ularni o'zi sotib oladi va ularni ijara oluvchilarga ijaraga bergan holda, egalik huquqini o'zida saqlab qoladi. Bunda bank ssuda foizini emas, balki shartnomaga binoan ijara haqini (lizing to'lovini) oladi. Garchi lizing mohiyatan kreditlashga yaqin tushuncha bo'lib har ikkalasi ham investitsiyalashga xizmat qilsada, ular bir biridan tubdan farq qiladi

Lizing va kredit, ular o'rtasidagi farqlar

№	Farqli jihatlari	Munosabat turlari	
		Kredit	Lizing
1	Ob'yektga nisbatan mulkchilik huquqi	• Mulkka egalik qilish, undan foydalanish va uni boshqarish huquqi to'la qarz oluvchiga o'tadi	• Mulkka egalik qilish va undan foydalanish mulkiy huquqdan to'la ajraladi. Mulkka ijaraga oluvchi xo'ja-yinlik qiladi.
2	Sotuvchiga nisbatan xaridorning kim bo'lishi	• Qarz oluvchi yoki uning vakili	• Agar lizing oluvchi lizing sotuvchini o'zi tanlasa, u holda har ikkala sub'ekt bir xil mavqega ega bo'ladi. Agar lizing oluvchi lizing sotuvchini o'zi tanlamasa, u holda lizing beruvchining o'zi xaridor sifatida maydonga chiqadi.
3	Kredit ta'minoti nuqtai nazardan	• Mulkni garovga qo'yish	• Asosan lizing ob'ekti

		• Bank kafolati • Ipoteka	
4	Lizing ob'yektiga qilinadigan xarajat tasnifi nuqtai nazardan	• Kredit hisobiga investitsiyalash	• Lizing to'lovlari, ya'ni: → kredit uchun to'lov; → amortizatsiya ajrat-malari; → komission to'lovlar; → qo'shimcha xizmatlar uchun to'lovlar; → qo'shilgan qiymat solig'i; → sug'urta to'lovlari
5	Kredit berish va uni qoplash shakli	• Valyuta-pul shaklida	• Tovar shaklida; • Valyuta-pul shaklida; • Aralash shaklda
6	Kredit va savdo oldi-sotdisidagi bog'lanish nuqtai nazardan	• Kredit munosabati oldi-sotdi aktini bajarish bilan bog'liq	• Iar doim ham sotib olishdan boshlanmaydi yoki sotish bilan yakunlanmaydi
7	Kreditni qoplash manbai	• Qarz oluvchining foydasidan	• Mahsulot tannarxiga qo'shiladigan amortizatsiya ajratmalari va boshqalar hisobidan
8	Qo'shilgan qiymatga soliq solish nuqtai nazardan	• Soliq solinmaydi	• Soliq solinadi
9	Qarziy munosabatda qatnashuvchilar nuqtai nazardan	• Kreditor va qarz oluvchi	• Lizing beruvchi, lizing sotuvchi va lizing oluvchi

Jadvaldan ko'rib turibmizki:

- agar uzoq muddatli bank kreditida undan foydalanganligi uchun soliq to'lovlaridan so'ng foyda hisobidan foiz to'lansa, lizingda esa bu to'lovlar mahsulot tannarxiga qo'shiladi. Bu foydaga soliq solish bazasini bir muncha kamaytiradi;
- agar bank krediti eng avvalo moliyalashtirishda qo'shimcha manba yaratsa, lizing odatda 100 foiz moliyalashtirishni ta'minlaydi;
- lizingga olingan mulk lizing beruvchi balansida aks ettiriladi. Bu lizing oluvchining moliyaviy ko'satkichlarini, xususan, rentabellik darajasini, o'z

mablag'i va qarzlari koeffitsientlarini bir muncha yaxshilaydi, qo'shimcha qarz mablag'larini jalb qilishga imkon yaratadi;

- ko'pgina mamlakatlarda lizing munosabatlari bank krediti orqali uskunalar sotib olishdan ko'ra tadbirkorlarning xarajatlarini 20-30 foizga kamaytirilishiga olib keladi;

- lizing jadallashtirilgan amortizatsiyadan foydalanishga imkon beradi. Bu esa tadbirkorga mulk solig'i summasini kamaytirishga imkon yaratadi;

- lizingda mahsulot sifati, uning butligi, etkazib berish muddati va boshqa xizmatlar uchun lizing beruvchi emas, balki mazkur mahsulotni ishlab chiqaruvchi javob beradi. Lizing beruvchi mol-mulkni etkazib bermaganlik, to'liq etkazib bermaganlik, etkazib berish muddatini o'tkazib yuborganlik va tegishli darajada sifatli bo'lmagan mol-mulkni etkazib berganlik uchun, agar bu uning aybli harakatlari (harakatsizligi) tufayli bo'lsa, lizing oluvchining oldida javobgar bo'ladi. Lizing beruvchi lizing oluvchi oldida lizing ob'yekti yuzasidan javobgar bo'lmaydi, lizing ob'ekti sotuvchi va lizing ob'ektining o'zi lizing beruvchi tomonidan tanlangan va lizing oluvchi shu tufayli zarar ko'rganligi isbotlangan hollar bundan mustasno. Lizing beruvchi va lizing oluvchi sotuvchiga nisbatan lizing ob'ektining oldi-sotdi shartnomasiga binoan solidar kreditorlar sifatida ish ko'radilar. Sotuvchi ular oldida lizing ob'ektining oldi-sotdi shartnomasidan kelib chiquvchi majburiyatlarni bajarish (lizing ob'yektining sifati, butligi, lozim darajada etkazib berilishi va boshqalar) yuzasidan javobgar bo'ladi. Bunda sotuvchi lizing ob'ekti bilan bog'liq aynan bitta zarar uchun bir paytning o'zida lizing oluvchi va lizing beruvchi oldida javobgar bo'lishi mumkin emas. Operativ lizingni amalga oshirishda lizingga berilgan lizing ob'ektidan foydalanishga to'liq yoki qisman to'sqinlik qiluvchi kamchiliklar uchun lizing beruvchi javobgar bo'ladi. Bunday kamchiliklar aniqlangan taqdirda, lizing oluvchi lizing beruvchidan ularning tekin bartaraf etilishini va lizing to'lovlari mutanosib ravishda kamaytirilishini yoki mazkur lizing ob'ektining kamchiliklarini bartaraf etish bilan bog'liq o'z xarajatlarining qoplanishini talab qilishga haqli. Lizing beruvchi lizing ob'ektining lizing shartnomasini tuzishda qayd etib o'tilgan kamchiliklari uchun javob bermaydi. Lizing oluvchining aybi bilan lizing ob'ektining yo'qolishi yoki lizing ob'ektining o'z vazifasiga doir ahamiyatini yo'qotishi, agar lizing shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, lizing oluvchini lizing beruvchi oldidagi javobgarlikdan ozod etmaydi. O'zbekiston Respublikasining «Lizing to'g'risida»gi qonunning 3-moddasida lizing ob'ektiga quyidagicha ta'rif berilgan:

«Tadbirkorlik faoliyati uchun foydalaniladigan iste'mol qilinmaydigan har qanday ashyolar, shu jumladan, korxonalar, mulkiy komplekslar binolar, inshootlar, uskunalar transport vositalari hamda boshqa ko'char va ko'chmas mulk lizing ob'ektlari bo'lishi mumkin».

Lizing ob'yektlarini quyidagi belgilar bo'yicha tasniflash mumkin

Lizing ob'yektlarining umumiy tasnifi

№	Lizing ob'yektlarini tasniflash belgilari	Izoh
---	---	------

1	2	3
1.	Nima maqsadda foydalanishga qarab	• tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish maqsadida olinadigan ob'ektlar
2.	Iste'mol qilish shakliga qarab	• ishlab chiqarish jarayonida iste'mol qilinmaydigan ob'ektlar
3.	Murakkablik darajasiga qarab	• ayrim buyumlar • buyumlar majmuasi
4.	Qo'zg'aluvchanlik darajasiga qarab	• ko'chmas mulk shaklidagi ob'ektlar • ko'char mulk shaklidagi ob'ektlar
5.	Mulk shakliga qarab	• davlat mulki shaklidagi ob'ektlar • xususiy mulk shaklidagi ob'ektlar
6.	Tarmoqqa qarab	• sanoat tarmog'iga qarashli ob'ektlar • qurilish tarmog'iga qarashli ob'ektlar • qishloq xo'jaligi va h.k.

Jadvalning to'rtinchi tartib raqamida keltirilganidek, lizing ko'char va ko'chmas mulkni ijaraga berishda ham qo'llaniladi. Masalan, ko'char mulk ko'rinishidagi lizing transport vositalari, qurilish texnikasi, signallarni uzatish vositalari, asbob-uskunalar, dastgohlar, litsenziyalar, «nou-xau», loyihalar, kompyuter dasturlari va shunga o'xshashlarni o'z ichiga oladi. Er uchastkalari va boshqa tabiat ob'ektlari, shuningdek, erkin muomalada bo'lishi qonun hujjatlari bilan taqiqlangan yoki muomalada bo'lishining alohida tartibi belgilangan mol-mulk lizing ob'ektlari bo'lish mumkin emas. Shuni ta'kidlash lozimki, lizing ob'ektini hisobga olishning o'ziga xos xususiyatlari bor. Masalan, moliyaviy lizing ob'ekti lizing oluvchi balansida hisobga olinadi. Operativ lizing ob'ekti esa lizing beruvchi balansida hisobga olinadi. Lizing ob'yektiga bo'lgan mulk huquqi uni boshqa birovga o'tkazilishi yoki sotilishi bilan aniqlanadi. Binobarin, lizing ob'ektiga bo'lgan mulk huquqi lizing oluvchi tomonidan sotib olingunga qadar lizing beruvchiga tegishli bo'ladi. Masalan, moliyaviy lizingda lizing shartnomasining amal qilish muddati tugagunga qadar barcha lizing to'lovlari to'langan taqdirda (agar lizing shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa) lizing ob'ektiga bo'lgan mulk huquqi lizing oluvchiga o'tishi mumkin. Operativ lizingni amalga oshirishda lizing beruvchi va lizing oluvchi o'rtasidagi lizing ob'ektining oldi-sotdi shartnomasi asosida lizing ob'ektiga bo'lgan mulk huquqi lizing oluvchiga o'tishi mumkin. Lizing oluvchi bankrot bo'lgan, uning mol-mulki xatga olingan yoki musodara qilingan taqdirda, lizing ob'ekti lizing oluvchining umumiy mol-mulkidan ajratiladi va lizing beruvchi qaytariladi. U mol-mulkni o'z xohishiga ko'ra, tasarruf etishi mumkin. Agar lizing beruvchi va lizing oluvchilar o'z huquqlarini uchinchi shaxsga berishmoqchi bo'lsalar, u holda lizing beruvchi lizing oluvchini xabardor qilgan holda lizing shartnomasi bo'yicha o'z huquqlaridan to'liq yoki qisman uchinchi shaxslar foydasiga voz kechishi mumkin. Xuddi shu tariqa lizing oluvchi lizing beruvchining ruxsati bilan moliyaviy lizing shartnomasi bo'yicha o'z huquqlaridan to'liq yoki qisman uchinchi shaxslar foydasiga voz kechishi mumkin.

Lizing operatsiyalarining turlari.

Lizingning asosiy turlarini quyidagi belgilar bo'yicha batafsil tasniflash mumkin
Lizing turlari

№	Lizingni turkumlash belgilari	Lizing turlari	I Z O H
1	2	3	4
1.	Foydalanish muddatiga qarab	• Moliyaviy lizing	• Bu ijaraga olingan mulkning to'la qiymatini va ijarachi foydasini qoplashni nazarda tutadi. Bunda amortizatsiya to'liq bo'lishi yoki ijara ob'ekti qoldiq bahoda qaytarib berilishi mumkin. Bu lizing turi ijara ob'ektini uzoq muddatli kreditlash hisoblanadi.
		• Tezkor lizing	• Bu ko'proq ishlab chiqarish davri bilan bog'liq bo'lgan lizing bo'lib, ob'ekti qisqa davrga, ya'ni uning yaroqli davrdan kam davrga, qisqaroq vaqtga ijaraga beriladi. Bu holda lizing ob'ektining amortizatsiyasi to'liq amalga oshmaydi, ya'ni ob'ektni yana bir necha marta ijaraga berish imkoniyati saqlanib qoladi.
2.	Bozor sektoriga bog'liqligiga qarab	• Ichki lizing	• Bu lizing faqat mamlakat doirasidagi lizingdir.
		• Xalqaro lizing	• Bu mamlakatlararo lizing munosabatlarini tavsiflaydi
3.	Xizmat qilish shakli va ko'lamiga qarab	• Sof lizing	• Bunda ijara olinayotgan mulk bilan bog'liq bo'lgan barcha texnik va boshqa xizmatlar lizing oluvchining zimmasiga yuklatiladi. Bu bilan bog'liq xarajatlar lizing to'lovlariga qo'shila-di. Bunday munosabatlar ko'proq moliyaviy lizingga xos.
		• «Ho'l» lizing	• Bunda ijaraga olinayotgan mulk bilan bog'liq bo'lgan zaruriy texnik xizmatlar, uni ta'mirlash, sug'urtalash va boshqa operatsiyalar lizing beruvchi zimmasiga yuklatiladi.
4.	Lizing munosabatlarining xarakteriga qarab	• Aralash lizing	• bu lizing turi ham moliyaviy, ham tezkor lizinglar unsurlarini mujassamlashtirgan lizingdir. SHartnoma muddati tugashi bilan mulk lizing oluvchi ixtiyoriga o'tadi.

		• Qaytariluvchi lizing	Bu lizing turidan odatda o'zining uskunalari etmayotgan firmalar foydalanishadi. Bunda korxona lizing kompaniyasini topadi va unga o'zining mulkini sotadi, kompaniya esa, o'z navbatida mulkni shu korxonaga qaytadan lizing shaklida topshiradi. Natijada korxona o'ziga zarur bo'lgan aylanma mablag'larni sotib olish imkoniga ega bo'ladi. SHartnoma shu shart bilan tuziladiki, lizing muddati tugashi bilan korxona qaytadan o'z mulkini sotib oladi va unga o'z egalik huquqini tiklaydi.
5.	Moliyalash-tiruvchilar tarkibiga qarab	• Individual lizing	• Bunda lizing beruvchi uskunani sotib olishda o'z mablag'laridan qisman to'lab, asosiy qismini boshqa kreditorlardan ssuda olish bilan qoplaydi. Bu bir qadar murakkab lizing turi bo'lib, odatda u kapital mablag'ni ko'p talab qiladigan loyihalarga qo'llaniladi.
		• Guruhiy lizing	• Bunda lizing beruvchi bitta shaxs yoki firma emas, balki bir guruh qatnashuvchilar (aksionerlar) bo'ladi va ular maxsus korporatsiya (masalan, trast kompaniyasi va boshq.) tuzishib, unga ishonchli vakil tayinlashadi. Barcha lizing munosabatlarini bajarishda u boshchilik qiladi.
6.	Yangilanish muddatiga qarab	• Revolver lizing	• Bu lizing turi lizing oluvchiga uskunalarni damba-dam almashib turish zaruriyati tug'ilgan hollarda qo'llaniladi. Bu hol texnologik jarayonning o'ziga xosligi bilan bog'liq bo'ladi.
		• Yangilanib turiluvchi lizing	• Ijarachi buyurtmasiga binoan vaqti-vaqti bilan yangi uskunalar bilan almashtirib turish zaruriyati tug'ilgan hollarda qo'llaniladi.

7.	Uchinchi shaxs tomonidan foydalanish huquqi-ga qarab	• Sublizing (qo'shimcha lizing)	• Bu tadbirkorlik faoliyatidan majburiyatlarning bir turi bo'lib, lizing ob'ektini boshqa uchinchi lizing oluvchiga topshirishni bildiradi. «Lizing to'g'risida»gi Qonunning 6 moddasida shunday yozilgan: «Lizing oluvchi lizing beruvchi oldida lizing shartnomasi yuzasidan javobgar bo'lib qolgan holda, lizing shartnomasi bo'yicha olgan lizing ob'ektini lizing beruvchining yozma roziligi bilan vaqtinchalik egalik qilish va foydalanish uchun uchinchi shaxsga qo'shimcha lizingga topshirishga haqli». • Sublizing shartnomasining amal qilish muddati lizing shartnomasining amal qilish muddatidan ortiq bo'lishi mumkin emas.
		• Asosiy lizing	• Bu lizing uchinchi shaxs tomonidan lizingdan foydalanish huquqini ko'zda tutmaydigan lizing turidir.

Moliyaviy lizing operatsiyasi bank kreditga birmuncha yaqin operatsiya bo'lib, lizing ob'ektini kelgusida sotib olish sharti bilan uzoq muddatli ijaraga berilishini ifodalaydi. Ijaraga beruvchi uchun moliyaviy lizing muhim iqtisodiy mexanizm bo'lib, uning yordamida korxona moliyaviy aktivlarining likvidlik muammosi hal etiladi. Ishlab chiqarish jarayonida foydalanilmayotgan, korxona balansida mavjud moddiy boyliklar surunkali likvidsiz mablag'lar bo'lib, ularni ijaraga berish hisobiga korxona o'z moliyaviy holatini bir muncha yaxshilab oladi va shu bilan moliyaviy boshqarish vazifalarini tezroq ijobiy hal etishi mumkin. Natijada, likvidsiz moliyaviy aktivlar korxona daromadini shakllantiruvchi moliyaviy manbaga aylanadi.

Xalqaro lizingning afzalliklaridan biri shuki, bunda boshqa mamlakatlarning takomillashgan texnika va jihozlaridan foydalanish xalqaro shartnomalarga ko'ra moliyaviy va soliqlar bo'yicha imtiyozlardan foydalanish imkoniyati yaratiladi. Xalqaro valyuta fondi (XVF)ning qaroriga binoan chet el mashina va mexanizmlarini ijaraga olish, ijaraga oluvchi mamlakatning chet el qarzlarini miqdorini oshirmaydi. Respublikamizda xalqaro lizingdan foydalanish masalasini qo'shma lizing kompaniyalari yoki firmalarini tuzish yo'li bilan ham hal qilish mumkin. Moliyaviy lizingda lizing shartnomasi quyidagi talablardan biriga javob berishi kerak:

- lizing shartnomasi muddati tugagach, lizing ob'ekti lizing oluvchining mulkiga o'tadi;
- lizing shartnomasi muddati lizing ob'ektining xizmat muddatidan 80 foizdan ortiq bo'ladi yoki lizing shartnomasi muddati tugagach, lizing ob'ektining qoldiq qiymati uning boshlang'ich qiymatining 20 foizidan kamni tashkil etadi;

•lizing oluvchi lizing ob'ektini qat'iy belgilangan narxda yoki lizing shartnomasi muddati tugaganda aniqlanadigan narxda sotib olish huquqiga ega; lizing shartnomasi davridagi to'lovlarning umumiy summasi lizing ob'ekti qiymatining 90 foizidan ortiq. Agar lizing shartnomasida «Lizing to'g'risida»gi Qonunda 5-moddaning ikkinchi qismida ko'rsatilgan talablardan birortasi nazarda tutilmagan bo'lsa, lizingning bunday turi operativ lizing hisoblanadi. Operativ lizingni (ijarani) amalga oshirish tartibi va shartlari qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi.

Lizing operatsiyalarini o'tkazish tartibi va ular bilan bog'liq risklari.

Lizing operatsiyalarining tijorat banklari uchun afzalliklari:

- ❖ Lizing yordamida mijozlarga xizmat kursatish sifatini oshirish imkoni tugiladi va bu bilan mijozlar doirasi kengayadi;
- ❖ Uzining ishlab chikarish fondini yangilashga muxtoj mijozlar bilan sifat jixatdan yangicha sheriklik munosabatlari urnatiladi;
- ❖ Lizing tulovlari orkali bank lizing oluvchilarga kursatgan xizmati uchun komission tulovlar olishi xisobiga uz daromadini oshirishning sifat jixatdan yangi manbaiga ega buladi;
- ❖ boshka bank operatsiyalariga nisbatan mazkur bank operatsiyasining xisobi sodda va bunda mablaglar tejaladi, shuningdek ushbu operatsiyalar buyicha risk darajasi etarlicha buladi.

Lizing ob'yekti bilan bog'liq barcha xavflar, shu jumladan, uning:

- tasodifan yo'qolishi (nobud bo'lishi);
- o'g'irlanishi;
- barvaqt eskirishi;
- shikastlanishi kabi xavflar lizing shartnomasida nazarda tutilgan tartibda lizing oluvchiga o'tadi.

Xavflar lizing oluvchiga o'tgan daqiqadan e'tiboran lizing oluvchi lizing ob'ekti har qanday tarzda yo'qotilishi yoki shikastlanishi uchun lizing shartnomasi amal qiladigan muddat davomida javobgar bo'ladi. Agar xavflar lizing beruvchidan lizing oluvchiga o'tadigan vaqt lizing shartnomasiga belgilangan bo'lmasa, xavflar lizing oluvchiga u lizing ob'ektini olgan daqiqadan e'tiboran o'tadi. Agar taklif etilgan lizing shartnomasiga mos kelmasa va bu lizing oluvchiga lizing ob'ektidan voz kechish huquqini bersa, ana shunday nomuvofiqlik bartaraf etilgunga qadar yoki lizing oluvchi lizing ob'ektini olgunga qadar barcha xavflar lizing beruvchi zimmasida bo'ladi. Sotuvchining nochorligi yoki lizing ob'ektining undan foydalanish maqsadlariga nomuvofiqligi xavflari lizing oluvchining zimmasida bo'ladi, lizing beruvchining sotuvchini yoki lizing ob'ektini tanlash yoxud lizing beruvchi lizing oluvchini muayyan sotuvchini yoki lizing ob'yektini tanlashga g'ayri qonuniy tarzda majburlash hollari bundan mustasno. Nobud bo'lish, yo'qolish, o'g'irlash, shikastlanish, buzilish va barvaqt eskirish xavfi bilan bog'liq bo'lgan tarzda har qanday etkazilishi mumkin zarardan lizing ob'ektini sug'urtalash taraflarning kelishuviga binoan amalga oshiriladi. Bunday kelishuv bo'lmagan taqdirda, lizing oluvchi lizing ob'ekti sug'urtasi uchun javobgar bo'ladi. Lizing shartnomasi yozma shaklda, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda

tuziladi. Agar lizing oluvchi jismoniy shaxs bo'lsa, lizing shartnomasi notarial tasdiqlanishi lozim.

Quyidagilar lizing shartnomasining muhim shartlari hisoblanadi:

- lizing ob'yektining tasniflanishi (lizing ob'ektining miqdori, sifati, ro'yxati, kontrakt qiymati va boshqa ko'rsatkichlari) va shartnoma umumiy pul summasining ko'rsatilishi;
- taraflarning lizing ob'ektini olish va berish bilan bog'liq majburiyatlari;
- lizing ob'yektini berish tartibi, shu jumladan, lizing ob'ektini etkazib berish, montaj qilish va foydalanishga topshirish tartibi;
- lizing to'lovlarini to'lash shartlari, miqdorlari, muddatlari va tartibi;
- lizing ob'yektidan foydalanish, unga qarash, uni saqlab turish va ta'mirlash yuzasidan taraflarning majburiyatlari;
- shartnomaning amal qilish muddati.

Taraflarning kelishuviga binoan lizing shartnomasiga quyidagi shartlar kiritilishi mumkin:

- lizing ob'yektini (moliyaviy lizingdan) sotib olish tartibi va muddatlari;
- lizing shartnomasini o'zgartirish va bekor qilish;
- lizing ob'yektini sug'urta qilish;
- fors-major holatlar;
- lizing beruvchi qo'shimcha xizmatlar ko'rsatishi, bunday xizmatlarsiz lizing ob'ektidan foydalanib bo'lmasa;
- lizing sub'yektlari tomonidan lizing shartnomasi shartlariga rioya etilishini nazorat qilish tartibi. Lizing shartnomasiga qonun hujjatlariga muvofiq boshqa shartlar ham kiritilishi mumkin. Lizing ob'yektining oldi-sotdi shartnomasining o'ziga xos xususiyati shundaki, bunda lizing ob'ektining oldi-sotdi shartnomasi lizing beruvchi va sotuvchi o'rtasida tuzilib, unga ko'ra lizing beruvchi lizing oluvchining topshirig'iga binoan lizing ob'yektini keyinchalik lizing oluvchiga berish uchun o'z mulki qilib oladi. Taraflarning xohishiga ko'ra, lizing ob'yektining oldi-sotdi shartnomasi lizing shartnomasi kuchga kirishidan oldin yoki keyin tuzilishi mumkin. Lizing ob'yekti oldi-sotdi shartnomasini tuzish paytida lizing beruvchi lizing ob'ekti qaysi maqsadda olinayotganligidan sotuvchini oldindan xabardor qilishi, buni oldi-sotdi shartnomasida qayd etishi shart.

Lizing to'lovlari va ularni aniqlash tartibi.

Lizing shartnomasi bo'yicha lizing oluvchi to'laydigan lizing to'lovlari lizing ob'ekti amortizatsiyasining tegishli qismi qiymatini va lizing shartnomasi bo'yicha lizing beruvchi tomonidan qilingan xarajatlarni, shuningdek, uning daromadi (marja)ni o'z ichiga oladi. Lizing to'lovlari shartnomaning butun amal qilish muddatiga taqsimlanadi va bo'lib-bo'lib to'lanadi. Lizing to'lovlarining miqdorlari va davriyligi lizing shartnomasi bilan belgilanadi.

Lizing shartnomasi quyidagi asosiy qismlardan tashkil topadi:

- shartnoma tomonlari;
- shartnoma predmeti;
- lizing shartnomasining amal qilish muddati;
- tomonlarning huquq va majburiyatlari;

- lizing to'lovlari shartlari;
- bitim ob'ektini sug'urta qilish;
- lizing shartnomasini bekor qilish tartibi.

Lizing shartnomasining muddatini aniqlashda lizing beruvchi va lizing oluvchi quyidagi jihatlarni hisobga olishlari lozim:

- uskunalarning xizmat ko'rsatish muddati;
- uskunalarning amortizatsiya davri;
- bitim davrida bir muncha samaraliroq yoki arzonroq analogning paydo bo'lish davri;
- inflyasiya jarayonlari dinamikasi;

ssuda kapitallari bozori konyunkturasi va uning rivojlanish tendensiyasi.

Lizing tulovlari kushilgan kiymat soligidan, lizingga berish uchun Uzbekiston respublikasi xududiga olib kelinadigan texnologiya uskunolari vakil bankning tegishli tasdigi mavjud bulgan takdirida, bojxona tulovlaridan xamda lizing oluvchilar lizing shartnomasi amal kiladigan muddatgacha lizingga berilgan mulkdan mulk soligi tulashdan ozod etilgan.Bu esa uz navbatida, lizing yordamida ishlab chikarishni zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan kurollantirishga, jaxon andozalari darajasidagi xalk iste'moli tovarlarini ishlab chikarishga, ichki iste'mol bozorlarni sifatli maxsulotlar bilan tuldirishga va Respublikamiz eksport saloxiyatini yanada oshirishga zamin yaratadi.

Tijorat banklarida lizing operatsiyalarini rivojlantirish masalalari

Hukumatning bank tizimiga oid qaror va dasturlarida belgilangan vazifalarni bajarishga qaratildi, jumladan:

- tijorat banklarining kapitallashuv darajasini yanada oshirish, ushbu sohaga xususiy kapitalni jalb etish, depozit bazasini kengaytirish;
- tijorat banklarining aktivlari sifati, ular faoliyatidagi tavakkalchiliklar, ayniqsa kredit tavakkalchiligini boshqarishning sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarish;
- aholi va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning pul mablag'larini uzoq muddatli depozitlarga jalb qilishni rag'batlantirish;
- bank nazoratini xalqaro amaliyotdagi yangi o'zgarishlarni inobatga olgan holda takomillashtirish;
- respublika tijorat banklari va bank tizimi faoliyatini baholashda xalqaro amaliyotda qo'llaniladigan me'yorlar, mezonlar va andozalarni joriy etish va ularning bajarilishiga erishish;
- iqtisodiyotga yo'naltirilayotgan kreditlar hajmini oshirish va banklarning investitsiya jarayonlaridagi ishtirokini yanada kengaytirish;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga kreditlar ajratish mexanizmini yanada soddalashtirish va ularga ajratiladigan kreditlar hajmini oshirish, avvalambor, investitsiya maqsadlariga, boshlang'ich sarmoyani shakllantirishga, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish hamda texnologik yangilash uchun uzoq muddatli kreditlar berishni rag'batlantirish;
- bank qonunchiligini, jumladan, xususiy banklar va xususiy mulkka asoslangan moliya institutlarini tashkil etishning qonunchilik asoslarini takomillashtirish orqali moliya-bank sohasiga xususiy kapitalni jalb qilishni ko'paytirish;

- tijorat banklarida hisob va hisobotni yuritishda zamonaviy texnologiyalar va uslublarni joriy etish, ularning sifati va shaffofligini ta'minlash bilan bog'liq chora-tadbirlar amalga oshirildi. Bank tavakkalchiliklarini boshqarishda chuqur omilli tahlilni amalga oshirishning aniq mexanizmlari joriy qilinadi, zaxiralarni shakllantirish, kredit portfelini diversifikatsiyalashni ko'zda tutgan holda bank aktivlari sifati monitoringi takomillashtiriladi, shuningdek muammoli qarzдорlik paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaslik yuzasidan ogohlantiruvchi choralar qabul qilib boriladi. Tijorat banklari bank operatsiyalarini amalga oshirishda operatsion va bozor tavakkalchiliklarini aniqlash va tegishli choralar ko'rishni «Tijorat banklarining bank tavakkalchiliklarini boshqarishiga nisbatan qo'yiladigan talablar to'g'risida» Nizom (ro'yxat raqami 2229-son, 2011 yil 25 may) talablariga rioya qilingan holda amalga oshirish ta'minlanadi. Tijorat banklari faoliyatini xalqaro andozalar va tamoyillarga yanada muvofiqlashtirish va mamlakatimizda bozor munosabatlari rivojlanishining hozirgi davrdagi yangi real holatidan kelib chiqqan holda moliya-bank sohasining qonunchilik bazasi yanada takomillashtiriladi.

Mavzu yuzasidan takrorlash uchun savollar

1. Lizing operatsiyalari va ularning mohiyati nimalardan iborat?
2. Lizing operatsiyalarining turlari nimalardan iborat?
3. Lizing operatsiyalarini o'tkazish tartibi va ular bilan bog'liq risklari qanday tarzda amalga oshiriladi?
4. Lizing to'lovlari va ularni aniqlash tartibi haqida gapirib bering?
5. Tijorat banklarida lizing operatsiyalarini rivojlantirish masalalar haqida gapirib bering?

MAVZU: Tijorat banklarining yangi xizmat turlari (4 soat)

REJA:

1. Tijorat banklari tomonidan ko'rsatiladigan an'anaviy va noan'aviy xizmat turlari.
2. Plastik kartochkalar va ularni qo'llash zaruriyati
3. Plastik kartochkalarning to'lov tizimidagi o'rni.
4. O'zbekiston Respublikasida plastik kartochkalarni qo'llash imkoniyatlari.
5. Qimmatliklarni saqlash va seyf xizmati.
6. Mijozlarga ish joyida va uyida xizmat ko'rsatish.
7. Internet banking xizmatlari.
8. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida O'zbekistonda 2020-2025 yillarda bank xizmatlarini rivojlantirish istiqbollari.

Tayanch so'zlar: bank operatsiyasi, bank xizmati, bank mahsuloti,

Tijorat banklari tomonidan ko'rsatiladigan an'anaviy va noan'aviy xizmat turlari.

Hozirgi kunda tijorat banklari aholi qo'lidagi bo'sh pul mablag'larini omonatlarga jalb qilish bo'yicha operatsiyalarni amalga oshirmoqdalar. Tijorat banklari o'rtasida

omonatlarni o'ziga jalb qilish bo'yicha erkin raqobat kurashi bormoqda. Tijorat banklarining chakana xizmatlarining bir turi bo'lgan omonatlarni o'ziga jalb qilish uchun tijorat banklari aholini qiziqtiradigan jozibador omonat turlarini taklif qilmoqdalar. Bank xizmatlari deganda tijorat banklarining tezkor va strategik faoliyati hamda samarali boshqarish bilan bevosita bog'liq bo'lgan harakatlar majmuasi tushuniladi. Mustaqillik yillarida O'zbekiston banklari o'z xizmatlarini etarli darajada shakllantirishga erishdi. Biroq, banklar o'rtasidagi raqobat kurashi ularni qo'shimcha mijozlar jalb etish hamda ko'rsatilayotgan xizmatlar doirasi va sifatini kengaytirish uchun yangicha yondashishga undamoqda.

Bank xizmati bir qator o'ziga xos quyidagi xususiyatlarga ega bo'ladi:

1. Mavhumlik
2. Xizmatning manbadan ajratilmasligi
3. Xizmatlar sifatining bebarqarorligi (bir xilda emasligi)
4. Bank xizmatlarining saqlanmasligi;
5. Bank xizmat ko'rsatishining shartnomaviyligi;
6. Bank xizmat kursatishining pul bilan bog'liqligi;
7. Bank xizmatlar bilan qondiriladigan xizmatlarning ikkilamchiligi.

Bank operatsiyasi-bank tomonidan amalga oshiriluvchi pul mablag'larini joylashishini nazarda tutuvchi va aniq iqtisodiy masalani echishga qaratilgan o'zaro bog'liq bo'lgan bank va mijoz harakatlari majmui. **Bank xizmati**-bank operatsiyalarini o'tkazishni optimallashtiruvchi nazariy, texnologik, moliyaviy, intellektual va professional bank faoliyatidir. Bank xizmati haqiqatdan ham bank faoliyati majmuasidir. Mijozlarning bank faoliyatiga bo'lgan talablarini qondirish bilan bog'liq bo'lgan xizmatlardir. Shu bilan bir qatorda bank xizmati tushunchasiga bank operatsiyalarini optimallashtiruvchi ham muhim element sifatida kiritildi, chunki banklar xizmatning u yoki bu turini tanlashda ushbu operatsiyaning samaradorligi, qulayligi va sifatliqligi darajasiga e'tibor berishlari va ushbu ko'rsatkichlar uning raqobatbardoshligini ta'minlash asosi hisoblanishini his etmoqlari lozim.

Bank mahsuloti – alohida ko'rinishdagi bank faoliyatining mijozlar talabini qondirishga qaratilgan, o'zaro bog'liq bo'lgan bank xizmatlari va operatsiyalarining majmui.

Bizga ma'lumki mahsulot – bu faoliyat natijasidir. SHunday ekan mijozlar talabini qondirishga yo'naltirilgan xizmatlar va operatsiyalar natijasi bank mahsulotini tashkil etadi.

Operatsiya» va «Xizmat» tushunchalarining farqlanishi

Xizmat	Operatsiya
- Boshqaga foyda keltiradigan harakat - Nafaqalar va boshqa ijtimoiy yordamlar - Moddiy tabiatni o'zgarishi bilan bevosita bog'liq bo'lmagan mehnatning barcha turlari. Bu narsalar iste'moliga xizmat ko'rsatish vositasida aholining har xil individual talablarini qondirishga qaratilgan mehnat turlari	- O'zi kabilar bilan bir qatorda alohida harakat. - Bir maqsadda birlashtirilgan harakatlar majmui. - Mijozlar hisobidan va topshirig'iga asosan bajariladigan huquqiy, komission operatsiyalar. - Pul mablag'larini jalb qilish va

- Yangidan mavjud bo'lmagan mahsulot yaratilmaydigan, lekin mavjud mahsulot sifati o'zgaradigan jarayonni amalga oshiruvchi ishlar, faoliyat turlari. Bu ashyolar ko'rinishida emas, balki faoliyat xizmatlar ko'rinishida taklif etiluvchi ne'matdir.	joylashtirish operatsiyalari. - Bir iqtisodiy masalani echishga qaratilgan o'zaro bog'liq bo'lgan bank faoliyati. - Ko'zlangan maqsadni amalga oshirish bilan bog'liq harakat.
--	--

Tijorat banklari xizmatlarini ularning iqtisodiy mazmuniga va ko'zlangan maqsadga ko'ra ikki yirik guruhga bo'lish mumkin:

1. Ma'lum darajada bankning likvidligini saqlab turish uchun bajariladigan xizmatlar.

2. Daromad olish maqsadida bajariladigan xizmatlar.

Ushbu ikki xizmatlar guruhi o'rtasida ma'lum nisbat mavjud bo'lib, ular bank faoliyatini sifat jihatdan ma'lum darajada ta'minlab turish imkonini beradi. Bank likvidligini ta'minlash maqsadida bajariladigan xizmatlarning ba'zi birlari bankka daromad keltirsada, ular mavjudligini sababi bank umumiy likvidligini ma'lum darajada ushlab turishdan iboratdir.

Evropa bank xizmatlarining guruhlari

1. To'lov xizmatlari

1.1. Milliy va xorijiy valyutalarda hisobraqamlarini yuritish.

1.2. Korporativ mijozlar va chakana mijozlarga xizmat ko'rsatish.

1.3. Depozit hisobraqamlarini yuritish.

1.4. Xorijiy banklarda nostro vakillik hisobraqamlarini yuritish.

1.5. SVIFT, pochta o'tkazmalari, telegrafva bank trattalari bilan hisob-kitoblar.

1.6. CHEklar bilan hisob-kitoblar.

1.7. 24 soat ichida xizmat ko'rsatish.

2. Tashqi iqtisodiy faoliyati bo'yicha xizmatlar

2.1. Konsalting.

2.2. Vakillik hisobvaraqlariga xizmat ko'rsatish.

2.3. Kredit liniyalariga xizmat ko'rsatish.

2.4. Bank sindikatlari va konsorsiumlarida ishtirok etish.

2.5. Risklarni boshqarish.

2.6. Kredit liniyalariga xizmat ko'rsatish.

3. Valyuta risklarini kamaytirish bo'yicha

3.1. Konsalting.

3.3. Kliring.

3.4. Valyutных kurslari bo'yicha maslaxat berish.

3.5. Limitlarni boshqarish.

3.6. Akkreditiv va kafolatlarni tasdiqlash.

3.7. Kredit riski bo'yicha limitlarni boshqarish.

4. Eksport bitimlarini kreditlash bo'yicha

4.1. Xujjatlashtirilgan xizmatlar.

4.2. Bank sindikatini tashkil etish.

4.3. Limitni hisob-kitobini chiqarish.

4.4. Kafolat berish

5. Import bitimlarini kreditlash bo'yicha

- 5.1. Xujjatashtirilgan xizmatlar
- 5.2. Bank sindikatini tashkil etish.
- 5.3. Raschet limitov dlya banka eksportera.
- 5.4. Limitni hisob-kitobini chiqarish.
- 5.5. Kafolat berish

Evroobligatsiyalar bozori xizmatlari

- 6.1. Lid-menedjer xizmatlari.
- 6.2. So-menedjer xizmatlari.
- 6.3. Soliq agenti xizmatlari.
- 6.4. Listing agenti xizmatlari.
- 6.5. To'lov agenti xizmatlari.
- 6.6. Depozitar xizmatlari.
- 6.7. Konsalting.

7. Sekyuritizatsiya bo'yicha xizmatlari

- 7.1. Eksport tushumlari sekyuritizatsiyasi.
- 7.2. Pul oqimlari sekyuritizatsiyasi.
- 7.3. To'lovlar sekyuritizatsiyasi.
- 7.4. Muammoli sekyuritizatsiyasi.
- 7.5. Ipoteka ssudalari bo'yicha sekyuritizatsiyasi.

8. Korporativ mijozlarga xizmatlar

- 8.1. Qushilish va sotib olish bo'yicha xizmatlar.
- 8.2. Moliyaviy konsalting.
- 8.3. Xususiylashtirish bo'yicha konsalting.
- 8.4. Qarz tarkibini qayta ko'rib chiqish.
- 8.5. Poisk strategicheskogo investora.
- 8.6. Qo'shma korxonalarni tuzish bo'yicha konsalting.

9. Moliyaviy aktivlarni boshqarish va QQBda xizmatlar

- 9.1. Jahon aksiyalar bozorida ishtirok etish.
- 9.2. Obligatsiyalar bozorida ishtirok etish.
- 9.3. Investitsion portfelni boshqarish bo'yicha xizmatlar.
- 9.4. Jahon aksiyalar va obligatsiyalar bozorida tahlil xizmatlari.

10. Depozitar xizmatlar

- 10.1. Jahon kliring tizimlari orqali xizmatlar.
- 10.2. Qimmatli qog'ozlarni boshqarish.
- 10.3. Foiz va dividendlar yig'ish.
- 10.4. Korporativ xizmatlar.
- 10.5. Ishonch asoida ovoz berish.
- 10.6. Soliq imtiyozlari.
- 10.7. Xisobotlarni taqdim etish.
- 10.8. Investitsion fondlarni qayd etish

Bank xizmatlarini mijozlar ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilishi jihatidan:

-to'g'ri xizmatlar (direct dervices), bevosita mijozlarning jhtiyojlarini qondiradi masalan, to'lovlarni o'tkazish, hisobvaraqlar ochish, investitsion xizmatlar6- bilvosita xizmatlari (related services), mijozlarga taqdim etilishi bilan ularga qulaylik

tugʻdiradigan va foydali bank xizmatlari boʻlib, ularga (kliringovye xizmatlari, xom banking, konsultatsion xizmatlar, plastik kartochkalar), Nazariy jihatdan murakkablik darajasi boʻyicha bank xizmatlari va mahsulotlarini quyidagi darajalarga boʻlish mumkin:

- 1- darajali mahsulotlar va xizmatlar-koʻpchilik isteʼmol qiluvchi va foydalanuvchi bank xizmatlari (kreditlash, depozitlar jalb qilish, kliring xizmatlari va boshqalar),
- 2- darajali mahsulotlar va xizmatlar-maxsus tayorgarlikka ega bank xodimlarini talab qiluvchi xizmatlar (aktivlarni boshqarish, investitsion xizmatlar);
- 3- darajali mahsulotlar va xizmatlar, professional bilimlar va tajribani talab qiluvchi xizmatlar boʻlib, ularga korporativ moliya, turli aktivlarni boshqarish.
- 4 - darajali mahsulotlar va xizmatlar, moliyani rejalashtirish, moliya injeneriyasi sohasidagi maxsus bilimlarni talab qiluvchi xizmatlar hisoblanadi.

Bank xizmatlarini rivojlanishiga koʻra quyidagilarga boʻlinadi:

1. Anʼanaviy;
2. Noanaʼnaviy.

Telefon banking-statsionar telefonning tonal xizmatiyoki bankning Call-sentr orqali oʻz hisobraqamini boshqarish.

RS banking-Shaxsiy kompyuter modemi va "Bank-mijoz" dasturi orqali oʻz hisobraqamini boshqarish.

Video-banking – "Infokiosk"lar va videokonferensiyalar orqali oʻz hisobraqamini boshqarish.

Mobil banking – Mobil telefon orqali oʻz hisobraqamini boshqarish.

Internet-banking-Shaxsiy kompyuter va internet tarmogʻi orqali oʻz hisobraqamini boshqarish.

ATM banking – bankomatlar orqali oʻz hisobraqamini boshqarish.

2010 yil oxiriga qarab Respublikada jami savdo terminallari soni 56706 tani, bankomat va infokiosklar 373 tani, bank terminallari 3925 donani tashkil qildi.

Qiyoslash uchun, 2010 yilda: Moldova – 766 ta bankomat, Ukraina – 7000 dan ortiq bankomat, Rossiya – 148911 ta bankomat. Tahlil shuni koʻrsatadiki, Rossiyada 1 mln. aholiga 1049 ta bankomat toʻgʻri kelsa, Oʻzbekistonda bu koʻrsatkich 13 ga teng. Zamonaviy bankomat narxi 15-17 ming AQSH dollaridan, 60 ming AQSH dollarigacha.

Interaktiv televizion banking – zamonaviy televizor va internetdan foydalangan holda oʻz hisobraqamini boshqarish.

Mobil banking turlariga tavsif:

WAP-banking– mobil telefon va internet tarmogʻi orqali oʻz hisobraqamini boshqarish.

SMS-banking – qisqa xabarlar orqali oʻz hisobraqamini boshqarish.

STK-banking – mobil telefon sim-kartasiga oʻrnatilgan maxsus dastur orqali boshqarish (bunda aniq mobil tarmoq operatoriga bogʻliq boʻladi);

Java-banking – mobil telefon oʻziga oʻrnatilgan maxsus dastur orqali boshqarish (bunda mobil tarmoq operatoriga bogʻliq boʻlmaydi);

NFC-banking (Near Field Communication) – 5-10 sm oraligʻida ishlaydigan radiotarmoq orqali foydalaniladi. Bunda maxsus chip sotuvchining terminalida joylashtiriladi va mijoz toʻlovini oʻtkazmoqchi boʻlganida oʻz mobil telefonini


ushbu terminalga yaqinlashtiradi, maxsus identifikatsion raqamlarni teradi va to'lovni amalga oshiradi.

Savdo-sanoat palatasi va SSP "Maroqand" kompaniyasi qo'shma loyihasi orqali 2011 yil boshida O'zbekiston aholi uchun "SMS-to'lov" va "NFC-banking" xizmatlari joriy etilmoqda. Bank xizmatlari bozorini mijozlarni yuridik maqomi jihatidan 2 ga bo'lishi mumkin:


1. Yuridikshaxslarga ko'rsatiladigan korporativ bank xizmatlari;
2. Jismoniy shaxslarga ko'rsatiladigan chakana bank (riteyl) xizmatlari.

Riteyl so'zi lugatlarda chakana savdo deb tarjima kilinadi. Bank xizmatida chakana va ulgurji faoliyat nimadan iborat Banklar ulgurji xizmati deganda mijozlarning turli guruxlariga xizmatni nazarda tutadilar. Ularga xazinachilik va yirik korparatsiyalarga xizmat kursatish, xatto ayrim mijozlarning maishiy xizmatlarga tulovlari, valyutalarni almashtirish, depozitlar va boshkalar bu xizmat turiga kiritiladi. Bundan mijozlarning katta kichikligiga karab xizmatlar ulgurji va chakana buladi deb xulosa chikarish mumkin. Demak, riteyl banklardagi kichik mayda xizmatlardir. Bunday yondashuv bilan riteyl xizmatlari tula aks ettirilmaydi. Chunki ayrim banklar ancha katta mikdorda yillik oborotga ega bulgan mijozlarini riteyl mijozlarga kiritadilar. Riteyl xizmatlari deganda kichik mijozlarga va asosan jismoniy shaxslarga kursatiladigan xizmatlarni tushunish lozimdir. Bank chakana xizmatlariga utish jarayonini boshidan kechirgan mamlakatlar tajribasi shuni kursatadiki, bu yunalishlagi strategiyalar va taktikalarni belgilab olish uchun xamma tomonlarni joy – joyiga kuyish kerak. Maishiy o'ulovlarni - gaz, suv, telefon xatto kabel televideniya uchun tulovlarni amalga oshirish imkoni tugilganda, banklar bu soxani xam egallab boshladilar. Vakt utishi bilan chet eldan tulovlarni utkazish va unga boglik ravishda chet el valyutasini konvertatsiya kilish xizmatlari iste'mo bozorining muxim segmentlaridan biriga aylandi. Birok bunday yunalish paydo bulishi bilan xam banklar xizmat kursatish texnologiyalarini uzgartirmadilar. Bundan kuyidagicha xulosa kilindi, ya'ni bu segmentni rivojlantirish uchun apoliga pududiy yakinlashish kerak deb karaldi. Spundan beri banklarning filiallari va bulimalri soni turli xududlarda usib bormokda. Ilk davrlarda bu soxada eng kuchli banklarning yagona ustunligi ularning filial va bulimlarining ish vakti buldi. Kimdir kechki soatlarda va shanba yakshanba kunlari ishlab boshladi. Kimdir doimiy grafik bilan, ya'ni tushliksiz ishlab boshladi. Birok bu davrda xech bir texnologik usish kuzatilmadi. Aksincha kup banklar dam olish kunlarisiz ishlashi va navbatda kutadigan mijozlar uchun tayyorlangan maxsus joylarga kilingan xarajatlar yangi orttirilgan mijozlardan tushgan foyda xisobiga kondira olinmadi. Riteyl xizmatlarining anik bir shakllari 1998 yil kuzidagi krizisdan chikkandan sung boshlangan. Bu davrda sobik sovet davlatlarining barchasida mijozlarni jalb kilish buyicha anik maksadli keng turli bank xizmatlari taklif etila boshlandi. Bulardan shu davrda boshlanib xozirgi kungacha davom etib kelayotgani axolini plastik kartochkalarga urgatishdir. Bu banklarning chakana xizmatlari davrini boshlab bergan birinchi poydevor buldi. Bunda e'tiborni eng oddiy ustunlikka-yuqori darajadagi texnologik ustunlikka karatish mumkin. Masalan, bankomat-oddiy narsa, biroq u 24 soat davomida bank xizmatlarini amalga oshiradi.

**Masofadan bank xizmatlarini ko'rsatuvchi
tizimlardan foydalanuvchilarning umumiy soni**



**Masofadan bank xizmatlarini ko'rsatuvchi
tizimlardan foydalanuvchilarning soni
(turlari bo'yicha)**



Bu texnologik yangilikning kiritilishi xamda savdo joylarida urnatilgan post – terminallar bankning ichki texnologiyalarining ayrimalrini kayta tashkil etilishiga olib keldi. Bular eng avvalo, ma'lumotlarni kayta ishlash, xodisalarni on layn va operativ kuzatish borasida kechdi. Bunda aloxida bank tomonidan urnatilgan bankomatning bulim bulimi uning obrusiga katta putur etkazishi mumkindir. Bu esa uning boshka banklar bilan rakobatiga slbiy ta'sir kusatadi. Internet banking, kol banking va boshka turli xizmatlarni kiritish xam bank ichki texnologik xolatiga katta talablar kuyadi. Bunday xizmatlar xamma banklarning chuntagiga va elkasiga tugri kelmaydi. Bankning barcha bulimlarining bosh ofis bilan on layn

tizimida ishlashi bugungi kun talabidir. Busiz bankning riteyl soxasida shakllanishi va rivojlanishi xakida gapirib xam bo'lmaydi. Eng oddiy riteyl xizmati bulgan-aholining depozitlariga xizmat kursatish, axolining xurmatli kismida bankning ish vaktiga emas, uzining ish vaqtiga karab ish kurish fikrini shakllantirgan. Oylik maosh dasturi buyicha oydan oyga rivojlanib borgan kartochka texnologiyalari banklarga resurslarni jalb kilish va ushlab turish buyicha boshkalarga nisbatan ancha ustunliklar berdi. Riteyl xizmatlar orkali axolini kreditlash yunalishi bank uchun yangi faoliyat turidir. Ko'p banklarda riteyl rivojlanishining kadamlaridan biri sifatida muddatli depozitlarni garovga kuyib kredit olish xizmatini kursatish mumkin.

Plastik kartochkalar va ularni qo'llash zaruriyati

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgan kundan boshlab to hozirgi kungacha amalga oshirilayotgan tub iqtisodiy islohotlarning bosh maqsadi mamlakatimiz iqtisodiyotida bozor munosabatlarini to'liq qaror toptirishdan iborat. Iqtisodiy munosabatlarning shakllanishida bozor iqtisodiyoti talablariga mos bo'lgan zamonaviy to'lov tizimini yaratish lozim. To'lov tizimini ishlash samaradorligini oshirish uchun samarali to'lov instrumentlaridan foydalanish zarur. O'zbekistonda to'lov instrumentlaridan, shu jumladan, plastik kartochkani muomalaga kiritish nafaqat banklar darajasida, balki davlat darajasida ko'rilmogda. O'zbekiston bank tizimiga yangi texnologiya va yangi mahsulotlarni kiritish bu-xizmat turini takomillashishigagina emas, balki axborot bazasini unumli boshqarish, aholining o'sib borayotgan ehtiyojlarini qondirishdan ham iboratdir. Plastik kartochkalardan to'lov vositasi sifatida foydalanish g'oyasi 19-asrning oxirida Angliyada paydo bo'lgan, xususan kredit kartochkalari to'g'risidagi g'oyalarni Jeyms Bellami o'zining "Ortga nazar" (1880 y) kitobida yoritgan. Amaliyotda esa kartochkalardan AQSH da birinchi bo'lib foydalanila boshlangan. Dastlabki kredit kartochkalari 1914 yilda General Petroleum Corporation of California (hozirda Mobil Oil) tomonidan chiqarilgan. Plastik kartochka bu-umumlashtirilgan termin bo'lib, u hamma tur kartochkalarini bajaradigan funksiyalari, ularning biror bir belgilanishi, texnik imkoniyatlarini umumlashtirgan bir holatdir. Hamma turdagi kartochkalarning asosiy hususiyati shundaki, bunda alohida axborot jamlamasi va alohida yordamchi dasturlardan foydalaniladi.

Plastik kartochkalar o'z xususiyatlari va funksiyalariga qarab, quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Ishlab chiqarilgan materialiga qarab:

- kartonli;
- plastik;
- metalli.

2. Kartochkaga axborotlarni yozilishiga qarab:

- grafikli;
- embostirlangan;
- shtrix-kodli;
- magnit yo'lakchili;

- chipli;
- lazer yozuvli (optik kartochkalar).

3. Umumiy belgisiga qarab:

- identifikatsiyalashgan;
- axborotli;
- moliyaviy operatsiya uchun.

4. Emitentlari bo'yicha:

- bank kartochkalari;
- xususiy kartalar.

5. Emitent belgilaydigan mijozlar turiga qarab:

- oddiy kartochka;
- kumush kartochka;
- oltin kartochka;
- elektron kartochka.

6. O'zbekiston Respublikasida aloqadorligi bo'yicha:

- shaxsiy;
- oilaviy;
- korporativ.

7. Harakatlanish rejimiga ko'ra plastik kartochkalar:

- debet kartochkalar;
- kredit kartochkalar.

1993 yilda TIF Milliy banki moliya instituti to'lov assotsiatsiyasi VISA INTERNATIONALga to'la qonli a'zo bo'lib, 5000 ga yaqin VISA CLASSIC shaxsiy va korporativ debet kartochkalarini muomalaga chiqardi. VISA plastik kartochkalarini rivojlantirish maqsadida, 1994 yil 26-mayda 268-sonli Vazirlar Mahkamasining "Muomalaga VISA debet va kredit kartochkalarining chiqarilishini tezlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. American Express bilan esa, mahalliy savdo servis korxonalarini kompaniya plastik kartochkalar yuzasidan xizmat ko'rsatishga jalb etish bo'yicha shartnoma tuzgan.

Plastik kartochkalarining to'lov tizimidagi o'rni.

O'zbekistonda 2000 yildan boshlab hisob-kitob qilishning plastik kartochkalar orqali naqd pulsiz to'lov tizimi sifatida mikrochipli smart-kartochkalar uchun tuzilgan "DUET" dasturiy ta'minoti tanlangan. "DUET" dasturi "offline" tartibida qo'llaniladigan mikrochipli smart-kartochkalar orqali naqd pulsiz to'lov tizimi dasturi hisoblanib, o'zining bir qator qulayliklariga ega. Bu dastur tanlanishidan maqsad, mijozlarga taklif qilinadigan plastik kartochkalardan foydalanish, qulay va xavfsiz bo'lganligi, yuqori kommunikatsion texnologiya talab qilmasligi, hattoki, bank filialidan uzoq bo'lgan qishloq joylarida ham plastik kartochka egalari tomonidan to'lovlarni hech qanday to'siqsiz amalga oshirishlari mumkin. Hozirda mamlakatimizning 18 ta tijorat banklari bu tizimda faoliyat yuritmoqdalar. Plastik kartochkalardan foydalangan holda hisob-kitoblarni o'tkazish O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2002 yil yanvar oyida qabul qilingan 60-sonli "O'zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblar to'g'risida"gi Nizomga ko'ra amalga oshiriladi. Banklarning korporativ kartochkalaridan foydalanish tartibi

“Yuridik shaxslar tomonidan milliy valyutadagi korporativ bank kartochkalaridan foydalanish tartibi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2005 yil 12-martdagi 602-sonli Nizomiga asoslab berilgan. Korporativ bank kartochkalarining emissiyasi “Tijorat banklari tomonidan bank kartochkalarini chiqarish va ularni O‘zbekiston Respublikasida muomalada bo‘lish tartibi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 565-sonli Nizomiga muvofiq olib boriladi.

Plastik kartochkalar bo‘yicha xizmat ko‘rsatish shartnomasi quyidagilarni o‘z ichiga olishi shart:

- tomonlarning nomlari;
- shartnoma mavzusi;
- tomonlarning huquq va majburiyatlari;
- tomonlarning javobgarligi;
- hisob-kitoblarni o‘tkazish shartlari;
- shartnomaning amal qilish muddati va uni bekor qilish shartlari;
- nizolarni hal qilish tartibi;
- tomonlarning yuridik manzili.

Kartochkani to‘lov vositasi sifatida foydalanishga tayyorlashda quyidagi majburiy rekvizitlar yozilgan bo‘lishi lozim:

- identifikatsiya ma’lumotlari (kartani raqami, seriyasi va boshqalar);
- emitent bank kodi;
- kartochka egasining familiya, ismi va sharifi va hisobvaraqa raqami;
- kartochkaning amal qilish muddati.

O‘zbekiston Respublikasida plastik kartochkalarni qo‘llash imkoniyatlari.

Plastik kartochkalari bir vaqtning o‘zid va depozit, hisob-kitob, kassa va kredit instrumenti funksiyalarini bajaradi. Ko‘plab rivojlangan mamlakatlar to‘lov tizimida plastik kartochkali naqd pulsiz hisob-kitob muhim o‘rinni egallaydi.

Bank-emitent-plastik kartochkani chiqargan va mijoz bank kartochkalarini ishlatganda, ularning hisob-kassa operatsiyalarini ro‘yobga chiqaruvchi, mijoz-jismoniy yoki yuridik shaxs, bank emitent bilan shartnoma tuzgan (bankdagi hisob shartnomasi, bankdagi jamg‘armasi, kredit shartnomasi va hokazo), (belgilangan chiqim limiti doirasida) plastik kartochka ishlatilganda operatsiyani ro‘yobga chiqaruvchi, ekvayrer-kredit uyushmasi, ekvayringni ro‘yobga chiqaruvchi, ekvayring bu savdo jamiyatlari bilan to‘lovni amalga oshirishdagi, plastik kartochkalarni qabul qiladigan, plastik kartochkaning egasining naqd pul tarqatadigan operatsiyani bajaruvchi uyushma, ushbu bankning mijosi bo‘lmasa ham. Jarayon markazi – tuzimni, to‘lov ishtirokchilari o‘rtasida texnik va informatik o‘zaro ishtirokni ta’minlovchi. To‘lov tizimi ishtirokchilarning harakati pullik asosda quriladi : tijorat mukofotini emitent, ekvayrer hamda jarayon markazi oladi.

Jismoniy shaxslarning rezidentlarining ham norezidentlarining ham emitent quyidagi kartochka turlarini berishi mumkin:

Hisob-kitob kartochkasi-bank kartochkasi bankda hisob raqamga ega bo‘lgan shaxsning beriladigan plastik kartochka egasining emitent va mijoz o‘rtasida tuzilgan shartnomaga muvofiq belgilangan limitda pullik hisob-kitob bajarishga

uning ulini hisob raqamida mavjud bo'lsin, emitent tomonidan tovarlar va xizmatlar uchun to'lov o'rnatilgan hamda naqd pul olinadi (bunday plastik kartochkalarni debetovli va debetным deb ham yuritiladi);

Kredit kartochkasi-bank kartochkasi, bunda plastik kartochkaning egasi emitent bilan tuzilgan shartnoma shartlarining muvofiq emitent tomonidan ajratilgan kredit liniyasi va xarajat limiti chegarasi miqdori operatsiyalari bajarishi mumkin, ya'ni tovar va xizmatlarni sotib olish yoki naqd pul mablag'larini olish operatsiyalari. Emitent yuridik shaxslarning hisob-kitob va korporativli kredit kartochkalari berishi mumkin bunda ushbu tashkilotning jismoniy shaxslarning ruxsat etilgan operatsiyalar ishlatish huquqini beradi. Bank kartochkasi schyotida vujudga keluvchi overdraft uning katta kichikligi hamda kartochka turining qarab ruxsatli ruxsatsiz overdraft nazorat etilmaydigan debet kartochkalari bo'yicha yuzaga keladigan hamda yuqoridan ruxsat etilgan xajmda kredit kartochkalarida yuzaga keladi. Mijoz schyotidagi vositalar ro'yxati to'g'risidagi to'lov hujjatlarni olish kunida (bajarilsa) ruxsatsiz overdraftni paydo bo'lishiga olib keluvchi ruxsatsiz overdraft summasi uzaytirilgan qarzlarning qarashiga asoslanadi. Mijoz banki plastik kartochkani muomalaga chiqarar ekan xalqaro naqdsiz to'lovlar tizimi tomonidan o'rnatilgan bir nechta majburiyatni oladi:

kartochkani chet elda ishlatganda pulga o'sha erning valyutasida beriladi, lekin schyotga schyotdagi valyutada imtiyozli kurs bankka yoziladi, dunyoning hoxlagan mamlakatida o'sha erning valyutasini naqd olish tovar va xizmatlarni to'lash mumkin;

xorijga chiqayotganda kartochkadagi pulni bojxona deklaratsiyasiga kiritish kerak emas;

hisob-kitob tizimi to'liq konfidensiallik va 100%li omonat qo'yishni ta'minlaydi. Kartochkada schyot to'g'risida hech qanday ma'lumot berilmadi, hisob-kitob tizimiga kirish uchun faqat kalit bo'la oladi;

kartochkalar qalbakilashtirishdan ishonchli himoyalangan, schyot esa – sanksionlashmagan kirishdan mijoz kartochka bilan shaxsiy identifikatsiya nomeriga ega bo'ladi – SHIN-kod;

kartochkadagi schyot bo'yicha qoldiqlarning ustiga talab qilib olinguncha omonotlardan foizlar qo'shib boriladi;

schyotda qoldiq doirasidaho xlaganchanaqd pulni qachonki kerak bo'lsa shu kuni olish mumkin;

kartochka yo'qotilganda bankning istalgan bo'limiga shaxsan yoki telefon orqali xabar berilsa kifoya natijada kartochka biokirovlanadi.

Qimmatliklarni saqlash va seyf xizmati.

Keng tarqatilishi maosh plastik kartochkalari deyiladi. Bunday kartochkalar schyoti faqat rublda ochiladi, qoldig'iga foizlar qo'shib boriladi. Maoshlik kartochkalar 14 yoshga etgan rezident mijozlarning berilishi mumkin. Maoshlik bankga schyotlarning ochilishi va plastik kartochkalar berilishi qonunga muvofiq markazlashgan va bank korxonalari ishtirokisiz amalga oshiriladi. Korporativ mijozlar bunda kassani muhim jixozlar bilanqurollantirish xarajatidan ozod etiladi, yirik bosqichlarda naqd pul bilan bo'ladigan ishlarga xarajatlar kamayadi, maoshlarni odatiy tarqatishdagi kabi muqarrar. Bank bunda mijoz bazasini

kengaytirish ko‘shimcha resurslarni jalb etish, mijozlarning xizmat ko‘rsatish tezligini oshirish imkoniyatlariga ega bo‘ladi.

Agar jismoniy shaxs plastik kartochkasiga kassa orqali naqd pul qo‘ysa, quyidagi provodka amalga oshiriladi:

Debet:10111Kredit:29801Bank xodimlariga oylik maoshini tushirishda esa quyidagiprovodkaamalgaoshiriladi:

Debet:29801Kredit:22618Savdo terminallari orqali o‘tgan tranzaksiyalarning inkassatsiyasi29804hisobvaraqqadayuritiladi.Plastik kartochka hisobraqamidagi qoldiq mablag‘lariga foizlar hisoblab boriladi.Hisoblab borilgan foizlar har oyning oxirgi kuni asosiy hisobraqamiga o‘tkaziladi.

Bunda quyidagi bank provodkalari amalga oshiriladi:

Debet:	50106	har	kunlik
Kredit:	22402		provodka.

Debet:	22402	har	oyning	oxirida	bir
--------	-------	-----	--------	---------	-----

Kredit: 22618 marta qilinadigan provodka.Naqd pulsiz chakana hisob-kitoblar bank plastik kartochkalari muomalasini kengaytirish va takomillashtirish borasida amalga oshirilgan ishlar natijasida 2012 yil 1 yanvar holatiga muomalaga chiqarilgan bank kartochkalari soni 8,3 mln. donaga etdi, chakana savdo va pullik xizmat ko‘rsatish ob‘yektlariga o‘rnatilgan to‘lov terminallari soni esa qariyb 100 mingtani tashkil qildi.O‘z navbatida, 2011 yil davomida plastik kartochkalar orqali amalga oshirilgan to‘lovlar hajmi 9,2 trln. so‘mni tashkil etib, 2010 yilga nisbatan 1,6 barobarga oshdi.Savdo va xizmat ko‘rsatish ob‘ektlarini to‘liq to‘lov terminallari bilan jihozlash, aholini etarli miqdorda plastik kartochkalar bilan ta‘minlash maqsadida plastik kartochkalar va to‘lov terminallarini respublikamizda ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi.Shuningdek, bank kartochkalari orqali to‘lovlarning o‘tkazilishini yanada tezlashtirish maqsadida, Yagona Umumrespublika Protsessing Markazi uskuna va dasturiy ta‘minotlari yangilanib, «Uzkart» banklararo to‘lov tizimini yangi texnologik platformasiga o‘tkazish ishlari jadal olib borilmoqda.Bank plastik kartochkalarini muomalaga chiqarish hajmlarini oshirish va ulardan samarali foydalangan holda naqd pulsiz hisob-kitoblar tizimi yanada kengaytiriladi.Tijorat banklarining investitsion faolligi va ular tomonidan ishlab chiqarishni texnik va texnologik qayta jihozlash, modernizatsiyalash bo‘yicha loyihalarni kreditlash hajmlari oshiriladi.Riteyl xizmatlar orkali axolini kreditlash yunalishi bank uchun yangi faoliyat turidir. Kup banklarda riteyl rivojlanishining kadamlaridan biri sifatida muddatli depozitlarni garovga kuyib kredit olish xizmatini kursatish mumkin. Ommaviy kredit maxsulotini yaratish maksadida banklar maxsus karzdorga karatilgan kreditlar berishni boshladilar. Bu eng avvalo, uz avtomobiliga ega bulmokchi bulganlarni kreditlashdan boshlandi. Keyinchalik bu yunalish-mebel, xujadik texnikalari yoki chetga turistik yullanma kabilar xisobidan yanada kegaydiVa nixoyat, sunggi paytlarda mijozdan xaridning anik maksadini suramasdan beriladigan kreditlar paydo buldi. Birok xozirda-bu kreditlar unchalik katta bulmagan xajmlarda-qarz

oluvchining 3-6 oylik maoshiga teng miqdorda berilmokda, biroq garovni rasmiylashtirishga xojat yo'q. Bu riteyl kreditlashning haqiqiy mevasidir.

Mijozlarga ish joyida va uyida xizmat ko'rsatish.

Hozirgi paytda O'zbekiston banklari bank xizmatining yangi turini, ya'ni elektron texnikasidan foydalanishi asoslangan bank operatsiyalarini mijoz uyida ko'rsatishni joriy etmoqda. Elektron bank xizmatlari tizimidan o'z o'ylarida foydalanuvchi mijozlar zarur uskunalarni oladilar, bank esa mijozlarni uy terminallari uskunalari va zarur dasturiy ta'minotlarni olish bo'yicha maslahatlar beradi. Bunday tizimlar bank mijoziga shaxsiy kompyuterlar, monitor ekranlari yordamida bank kompyuterining telekommunikatsion aloqa kanaliga bog'laydi. Har bir operatsiyaning boshlanashidan oldin hisob egasi tizimga noqonuniy kirib qolishlarga qarshi himoya kodining «kaliti»dan foydalanishadi. Bu tizimdan foydalanish joriy hisob raqamlarini, omonatlarni mijozning byudjet bilan o'zaro hisob-kitoblarni, to'lov va jamg'arma hisoblarini boshqarish imkoniyatini yaratadi. Shaxsiy kompyuterni bank kompyuter tizimiga bog'lash qo'yidagi operatsiyalarni bajarish uchun imkoniyat yaratadi: joriy kun hisobi bo'yicha balansni olish, qoida va yo'riqnomalarning detallari bilan tanishish; tegishli davr mobaynida hisobdagi pul mablag'larining harakati to'g'risida hisobot olish; tovar va xizmatlar uchun hisob-kitoblarni amalga oshirish; qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq va boshqa operatsiyalarni amalga oshirish. Yuqorida qayd etganimizdek, hozirgi paytda respublikamiz tijorat banklari «Bank - mijoz» tizimi bo'yicha o'z mijozlariga uylariga va ishxonalariga bank xizmatlarini ko'rsatishni taklif qilmoqda. Mijozlar-tizimdan foydalanuvchilar bankdan disket vaparolni

oladilar hamda shundan so'ng to'lov topshiriqnomasini to'ldirishlari va elektron imzo chiyokilgandan so'ng modem bo'yicha bankkayuborishlari mumkin. Bankda hujjatlar qabul qilinadi, tekshiriladi va kamchiliklar topilmasa, mijozning hisobidan pul mablag'lari avtomatik ravishda ko'chiriladi. «Bank-mijoz» tizimi: to'lov hujjatlarini bankka o'zlash; mijozning hisobidan ko'chirmalar olish; mijozlarning hisobiga pul mablag'larini kelib tushishi bo'yicha to'lov hujjatlarini nusxasini olish; bank bilan elektron matnli xabarlar orqali axborot almashinish; axborot tariqasidagi ma'lumotlarni olish. "Bank - mijoz" tizimi ko'p darajali himoya vositasiga

ega va o'zatilayotgan ma'lumotlarni maxfiyligi va saqlanishini, xaqqoniyligini ta'minlaydi. Yuridik yoki jismoniy shaxs bo'lgan bank mijozlari uchun bunday tizimdan foydalanuvchilar qatoriga kirishdan asosiy moment tizim xizmatidan foydalanganlik uchun xaq to'lashdir. Elektron bank xizmatlarining bu turini asosiy ustun tomoni har qanday ma'lumotli sutkaning har qanday vaqtida boshqa imkoniyatlardan foydalangan holda olishdir. Banklar uchun bu tizimning qanday samara keltirishini baholash juda qiyin: bir tomondan, bu bino, inshootlarni, shtatlarni, qog'ozli hujjat oborotini va boshqalarni qisqartirish, ikkinchi tomondan, mijozlarning foizlar keltirmaydigan schyotiga tegishli pul mablag'larini daromad keltiradigan schyotlarga tez ko'chirish natijasida turli yo'qotishlarni oldini olishdir. Bunday xizmatlarni ko'rsatayotgan chet el banklari va boshqa moliya - kredit institutlari tomonidan bo'layotgan raqobat ham jiddiy tahmini talab etadi.

Internet banking xizmatlari.

Mijozlarning uylariga ko'rsatiladigan bank operatsiyalarini takomillashtirish va yanada rivojlantirish kommunikatsiya tizimini modernizatsiya qismini talab etadi. Kelgusida mijozlarga o'z uylarida bank xizmatlarini ko'rsatish-aholiga ko'rsatiladigan xizmatlar shubhasiz, chakana bank xizmatlarining asosiy shakliga aylanadi. Bu bank bo'limlari tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlar, kredit va to'lov kartochkalari, bankomatlardan foydalanishga asoslangan xizmatlarni uyga ko'rsatiladigan bank xizmatlari yagona tizimiga birlashtiradi. Hisob- kitoblarni «bank mijoz» dasturiy majmuasi orqali amalga oshirish. «Bank mijoz» dasturiy majmuasi (dastur) bank va mijozning avtomatlashtirilgan o'zaro aloqasi uchun belgilagan bo'lib, pul mablag'larining operativ boshqarishning o'sishiga va quyidagilarga imkoniyatlar yaratadi:

Mijozning har kuni bankka qatnamasligi hisobiga o'z vaqtini va mablag'ini tejashga;

Manzilning o'zoq yaqinligiga qaramasdan mijozning bankni o'zi ixtiyoriy ravishda tanlashiga;

Bank mijozlari bo'lgan fuqarolarga ularning uyida, yuridik tashkilotlarga esa ularning idoralarida avtomatlashtirilgan ish joyini tashkil qilgan holda bank xizmatini ko'rsatishga;

Operatsion va axborotlar sohasida mijozga ko'rsatiladigan xizmat doirasini kengaytirishga;

Bank buxgalterlarining mehnat unumdorligini oshirishga;

Amallar (operatsiyalar)ning yuqori tszlikda va sifatli ro'yxat qilinishini ta'minlashga.

Bank mijoz dasturiy majmuasining ishlashi bank bilan mijoz o'rtasida kommunikatsion aloqa tarmog'i orqali faylda ma'lumotlar almashinuviga asoslangan.

Mijozlar bilan ma'lumotlarni almashish uchun bankda mijozlar uchun pochta qutisi tashkil qilinadi, unga parol va identifikator orqali kiriladi. Mijozlarning so'rovlarini qayta ishlash, ma'lumotlarni qabul qilish o'zatish avtomatlashgan holda amalga oshiriladi.

Bank mijoz dasturining asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

Elektron pul hisob-kitob hujjatlarini tayyorlash;

So'rovnomalar va xabarnomalarni shakllantirish;

Elektron imzo va ma'lumotlarni raqamlash;

Bank bilan modem aloqasi;

Ma'lumotlarni qabul qilish va o'zatish;

Qabul qilingan ma'lumotlarni qayta ishlash;

Kerakli ma'lumot va hisobot shakllarini bosmadan chiqarish;

Ma'lumotlarni arxivlash.

Mijozlarning elektron pul hisob-kitob hujjatlarni bankning ma'lumotlar bazasiga kiritish qo'yidagi sxema bo'yicha amalga oshiriladi:

Bank mijoz dasturi bankning shaxsiy mulki hisoblanadi. Bank mijozlari ushbu dasturning asosiy foydalanuvchilari hisoblanib, ular munosabatlari tartibga solinishi uchun shartnoma to'zilaiadi. →

Dasturiy majmuaga ulanishlari uchun mijozlarda qo'yidagilar bo'lishi talab etiladi:

4. Shaxsiy kompyuter;

* Modem;

* Printer;

* Mos dasturiy ta'minot (Windows 2000; Win NT4, NT Server, Windows, XR, Millennium va hokazolardan biri).

Elektron pul hisob hujjatlarining to'g'ri shakllantirilishi, shifrlanishi va ularning aloqa kanallari orqali bankka o'zatilishi bo'yicha javobgarlik mijoz zimmasiga yuklatiladi. Bank mijozning hisobvarag'idan mablag'larni to'g'ri hisobdan chiqarilganligi va o'tkazilganligi, hamda elektron to'lovlar tizimi bo'yicha axborotni o'z vaqtida o'zlash uchun javobgardir. «Bank mijoz» dasturiy majmuasining ish tartibi. Aloqa kanallari orqali mijoz bilan bank o'rtasidagi axborot almashinuvi shartnomada kelishilgan vaqtda amalga oshiriladi. YAngi amaliyot kuni boshlanishdan oldin mijoz o'tgan kun bo'yicha o'z depozit hisobvarag'idagi harakatlar (oborotlar) va qoldiqlarni bank bilan taqqoslab (tekshirib) olishi shart. Agar harakatlar va qoldiqlar mos kelsa, mijozga yangi amaliyot kunini boshlash va hujjatlarni kiritish uchun ruxsat beriladi. Aks holda ular o'rtasidagi farq sabablari aniqlanadi va mijoz axboroti bank axboroti bilan muvofiqlashtiriladi. SHaxsiy hisobvaraqlardagi harakatlar va qoldiqlarning taqqoslash natijalaridan qat'iy nazar bank bilan mijoz o'rtasidagi axborot surovnomalari va xabarlar almashinishi amalga oshiriladi. Bu tizim orqali hisob-kitob qilishda mijoz o'z hisobvarag'idan mablag'larni faqat to'lov topshiriqnomasi shaklida amalga oshiradi.

Bankda mijozlardan aloqa kanallari orqali olingan elektron pul hisob-kitob hujjatlari, to'lovlar amalga oshirilgandan keyin ikki nusxada bosmaga chiqariladi:

✓ bir nusxasi umumiy tartibda bankning kunlik hujjatlar yig'masiga tikiladi;

✓ boshqa nusxasi esa taqqoslash uchun pul hisob-kitob hujjatlarining asl nusxalarini olguncha bankda qoldiriladi.

Mijoz aloqa kanallari orqali jo'natilgan pul hisob hujjatlarining asl nusxalarini bankka shartnomada ko'rsatilgan muddatlarda etkazishi lozim, bunda elektron hujjatlar asl nusxa bilan solishtirilib, buxgalter imzosi va unga biriktirilgan bank shtampi bilan tasdiqlanadi va elektron hujjatlarning nusxalari bilan birgalikda bankning kunlik hujjatlariga tikib qo'yiladi. Dasturdan foydalanuvchi mijozlarning pul hujjatlarining asl nusxalarini yuritish uchun bankda alohida hujjat aylanmalari (dokument oborot) yuritiladi. Mijozning ish tartibi, mijoz pul hujjatlarini 60-yo'riqnomaga asosan rasmiylashtiradi. Mijoz ma'lumotlarini hisob-kitob hujjatining asl nusxasiga asoslangan holda amalga oshiradi. Kompyuterga kiritilgan hujjatlarning ro'yxati bosmadan chiqarilishi zarur. Javobgar xodim (bosh buxgalter yoki ushbu majburiyat yuklangan boshka bir shaxs) ushbu ro'yxatlarni pul hujjatlarining asl nusxalari bilan taqqoslashi, ularning mosligini tasdiqlashi va bankka jo'natish uchun ruxsat berishi lozim. Axborotlar elektron imzo bilan tasdiqlangandan keyin u kriptografik himoyaga o'tadi va aloqa kanali orqali xizmat ko'rsatuvchi tijorat bankiga o'zatiladigan elektron fayl shakllantiriladi. Kriptografik himoyadan o'tgan fayl, mijozni uni daxl qilish imkoniyatidan mahrum qiladi. Tijorat bankida qabul

qilingan axborotlar dasturiy ravishda qayta ishlanadi. Va kelib tushgan hujjatlar, elektron pul hisob-kitob hujjatlari, shaxsiy hisobvaraqlar ro'yxati shakllanadi. Mijoz qabul qilingan ma'lumotni kompyuter ekranida ko'rishi va uni bosmaga chiqarishi mumkin. Mijoz uni o'chirish yoki o'zgartirish imkoniga ega emas. Pul hisob-kitob hujjatlari bo'yicha bankdan jo'natilgan va qabul kilingan barcha axborotlar axborotlar dasturiy ravishda arxivlanadi hamda o'rnatilgan tartibda saqlanadi. Axborotlarni saqlash muddati tugashi bilan dasturiy ravishda arxivdan o'chiriladi. Arxivga faqat korxonaning javobgar yoki ruxsat berilgan xodimgina kirish mumkin. Mijozlar bilan axborotlar almashinish uchun bankda har bitta mijozga alohida pochta qutisi tashkil etiladi. Mijozlardan kelib tushgan barcha axborotlar dasturiy ravishda deshifratsiya qilinib, rekvizitli nazoratdan o'tadi va bankning ma'lumotlar bazasiga «Kiritilgan» maqomi ostida tushiriladi. Zarur hollarda bankning javobgar xodimi o'z ish joyida qo'shimcha tekshirilishi lozim bo'lgan elektron hujjatlarni bosmadan chiqaradi va bankning tegishli bo'limlari bilan kelishadi. Pul hujjatlari o'rnatilgan tartibda tekshirilgach ular tasdiqlanadi va bankning amaliyot kuniga qayta ishlash uchun yuboriladi, keyin esa elektron to'lovlar tizimi bo'yicha oluvchiga jo'natiladi. Mijozning hisobvarag'ida mablag'lar yo'q bo'lgan hollarda, pul ho'jjatlari bilan butun fayl qayta ishlashdan chiqarib tashlanadi va mijozning pochta qutisiga qaytariladi. Agar shartnomada yoki boshqa me'yoriy hujjatlarda boshqasi nazarda tutilmagan bo'lsa. Elektron to'lovlar tizimi orqali kelib tushgan pul hujjatlari ijro etilgandan so'ng mijozning pochta qutisiga joylashtiriladi. Kun davomida mijozlardan olingan barcha ma'lumotlar arxivlanadi va o'rnatilgan tartibda saqlanadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida tijorat banklarining mahsulot va xizmatlariga talab mavjud ekan, ular ham faoliyat ko'rsatadi. Tijorat banklari rivojlanish strategiyasida asosiy yo'nalish sifatida yangi bank mahsulotlari va xizmatlarini ishlab chiqish yoki ularni modernizatsiya qilishga e'tiborlarini qaratadilar. Yaqinda yuz bergan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi va uning oqibatlarini, shuningdek, hozirgi vaqtda jahonda globallashtirish jarayonlari chuqurlashib borayotganligini e'tiborga olgan holda, bank-moliya tizimi barqarorligini ta'minlash O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida moliya-bank tizimini isloh qilishni yanada chuqurlashtirish va barqarorligini oshirish hamda bank tizimiga aholi va korxonalarning ishonchini yanada mustahkamlash maqsadida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng qo'llagan holda ko'rsatilayotgan bank xizmatlarining turi va ko'lamini kengaytirish bo'yicha tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur. Binobarin, tijorat banklari yangi bank mahsulotlari va xizmatlarini o'zlarining iqtisodiy o'sishini va raqobatbardoshligini, barqarorligini ta'minlashda muhim vosita sifatida baholaydilar. Chunki banklar bozorda yangi mahsulotlarni joriy etish va sifatini yaxshilamasdan samarali faoliyat ko'rsata olmaydilar. Hozirgi vaqtda jahonda tezkorlik bilan rivojlanib kelayotgan, muammoli va istiqbolli yangi bank xizmati-internet-banking (internet-banking) hisoblanadi. Internet-bankingning rivojlanishi hozir etarli darajada istiqbollidir. Aksariyat ilg'or tijorat banklari, xususan, Ipak yo'li bank (Ipak yo'li-Online), Samarqand bank (Samarqand-Online), TIF Milliy bank (R-bank), Turon bank, O'zsanoatqurilishbank, Hamkorbank, Asia Alliance bank, Hi-Tech bank (i-bank),

Invest Finance bank va boshqalar internet orqali mijozlar bilan hamkorlik qilmoqdalar. Mutaxassislarning fikricha, kelajakda bank mijozlarining qariyb yarmi internetning global jahon tarmog'idan banklar bilan hamkorlik qilish uchun foydalanadilar. Ta'kidlash lozimki, mijozning talabi bo'yicha uning bank mutaxassisi bilan bevosita muloqotisiz bank mahsulotlari va xizmatlarini berishni ham masofadan bank xizmati ko'rsatish deb atash mumkin. Masofadan bank xizmati ko'rsatishni ta'riflash uchun bir qator asosiy omillarni ajratib ko'rsatish mumkin, lekin, bizning nazarimizda bankning mijoz talablariga darhol munosabat bildirishi eng muhim omildir. Ushbu omil asosida xizmatlarni darajalab, banklar masofadan bank xizmati ko'rsatish doirasida amalga oshiradigan hamma operatsiyalarni ikkita asosiy toifaga: oflayn (off-line) rejimida va onlayn (on-line) rejimida o'tadigan operatsiyalarga ajratish mumkin

Masofadan bank xizmati ko'rsatish. Oflayn rejimida masofadan bank xizmati ko'rsatish katta kamchilikka ega-mijozning bank operatsiyasini amalga oshirish istagi bilan bankning ushbu operatsiyani bajarish haqidagi farmoyishni ijro etish payti o'rtasida farq paydo bo'ladi. Ushbu farqning vujudga kelishi mijozning operatsiyani amalga oshirish haqidagi farmoyishini bankka uzatish uchun ancha vaqt sarflanishi bilan bog'liq. Masofadan bank xizmati onlayn rejimida ko'rsatilgan takdirda mijozning o'zi bank operatsiyasini amalga oshirish tashabbuskori bo'ladi va bu holatda ma'lumotlarni mijozdan bankka elektron usulda uzatish vaqtida vujudga keladigan arzimagan farq hosil bo'ladi. Masofadan bank xizmati ko'rsatishning onlayn rejimida amal qilayotgan eng jo'shqin rivojlanib borayotgan kanali bank mahsulotlari va xizmatlarini internet tarmog'i orqali taqdim qilishdan iboratdir. Ma'lumotlarni internet tarmog'i orqali uzatishdan foydalanadigan masofadan bank xizmati ko'rsatish tizimlarini amalga oshirish chog'ida banklar ikkita tizimli yondashuvni qo'llaydilar. Ko'pchilik banklar mijozlardan o'zlarining kompyuterlariga o'rnatilgan maxsus dasturiy ta'minotdan (mijoz-bank tizimidan) foydalanishni talab qiladi. Darhaqiqat, internet-ilovalarga (internet-bank tizimlari) asoslangan zamonaviy tizimlar masofadan bog'lanish moslamasini o'rnatib, ammo bank dasturiy ta'minotini foydalanuvchining kompyuteriga o'rnatmasdan, undan foydalanish imkonini beradi. Bu ikkala yondashuv ham mijozlar uchun ochiq afzallik va kamchiliklarga ega. Shunga qaramay, banklarning hozircha masofadan bank xizmati ko'rsatishdan foydalanmayotgan mijozlari birato'la internet-bank tizimlarini tanlab olsalar, to'g'ri ish qilgan bo'ladilar, chunki, an'anaviy tizimlar bir necha yildan keyinroq iste'moldan chiqib qoladi. Mijoz-bank tizimlariga maxsus kompyuter dasturidan foydalanish asos bo'ladi. Bu dastur mijozga xilma-xil bank operatsiyalarini bajarishda yordam beradi. Bunday dasturlar unga ishning asosiy qismini mustaqil oflayn rejimda bajarish, so'ngra esa, internet-ulanishni o'rnatib, bank operatsiyasini oxiriga etkazish imkonini beradi. Shunday qilib, Mijoz-bank tizimlari afzallikka ega bo'lib, mijozga o'zining bank axborotini boshqa moliyaviy ma'lumotlar bilan birlashtirish, bunda murakkab bo'lmagan dasturdan foydalanish imkonini beradi. Mijoz-bank tizimlari yordamida masofadan ko'rsatiladigan xizmatlardan foydalanuvchi mijozlar uchun asosiy muammo bankdagi o'z hisobvaraqlariga kirish amalga oshiriladigan kompyuterga qo'shimcha dasturiy

ta'minot o'rnatish zarurligidan iborat, ya'ni mijoz ushbu ilovani o'rnatishga ma'lum vaqt sarflashiga to'g'ri keladi. Eng yangi internet-bank tizimlari mijozga masofadan ulanish qurilmasini o'rnatish hamda o'z kompyuteriga biron-bir ilovalarni o'rnatmagan holda bankning dasturiy ta'minotidan foydalanish imkonini beradi. Buning ustiga bu ta'minotdan har qanday kompyuter orqali foydalanish mumkin. Bundan tashqari, internet-bank tizimlaridan foydalanish uncha qimmat emas. Umuman olganda, agar bank o'zining internetdagi vakolatxonasi yordamida oddiy elektron bank xizmatini ta'minlasa, bankning operatsiya xarajatlari qisqaradi. Bundan tashqari, bank mijozlar foydalanishi mumkin bo'lgan ko'pdan-ko'p shaxsiy moliyaviy dastur-ilovalarni moslashtirish o'rniga murakkab bo'lmagan kompyuter tizimini ishlatadi. Chiqimlarning kamayishi banklarga internet-bankda mijozga xizmat ko'rsatganlik uchun ancha kam haq olish yoki uni butunlay bekor qilish imkonini beradi. Ammo, mavjud farqlariga qaramay, mijoz-bank va internet-bank tizimlariga asoslangan masofadan bank xizmati ko'rsatish mijozlarga xizmat ko'rsatishning an'anaviy bank usullari oldida o'xshash afzalliklarga ega, ya'ni:

- kompyuter bor bo'lgan va internet global tarmog'iga kirish imkoni bo'lgan har qanday joydan turib, mijoz o'z hisobvaraqlaridan foydalanishi hamda transaksiyalarni amalga oshirishi mumkin;
- servisdan haftasiga 7 kun, sutkasiga 24 soat mobaynida foydalansa bo'ladi;
- transaksiyalar darhol bajariladi va tasdiqlanadi – ma'lumotlar ishlash vaqti bankomatda ma'lumotlar ishlash vaqti bilan bir xil;
- amalga oshiriladigan operatsiyalar doirasi ancha keng: hisobvaraqlar bo'yicha mablag'lar harakatini nazorat qilishdan tortib, ipoteka kreditiga buyurtma berishgacha operatsiyalarni bajarish mumkin.

Albatta, tabiiy savol tug'ilishi mumkin. Nima sababdan internet-bank va mijoz-bank tizimlari orqali xizmat ko'rsatish onlayn rejimida masofadan bank xizmati ko'rsatishning boshqa usullariga qaraganda istiqbolli? Buning sabablari bir nechta bo'lib, ularni batafsilroq tahlil qilishimiz mumkin.

Birinchidan, internet global tarmog'idan foydalanuvchilar soni ko'payib borayotganligi.

Ikkinchidan, internet global tarmog'i orqali sotiladigan bank mahsulotlari va xizmatlaridan foydalanuvchilar soni ko'payib bormoqda. Internetdan faol foydalanuvchilarning bu qadar tez ko'payib borayotganligi banklarga global tarmoq yordamida tarqatiladigan bank mahsulotlari va xizmatlaridan foydalanuvchilar sonini jadal sur'atlar bilan ko'paytirib borish imkonini bermoqda.

Uchinchidan, mijozlarga internet tarmog'i orqali bank xizmatlari ko'rsatilganida chiqimlar ancha kamayadi. Masofadan bank xizmati ko'rsatishni internet orqali sotish uchun bank kam deganda internet global tarmog'ida o'zining hozir bo'lishini ta'minlashi, ya'ni o'zining «virtual ofisini» ochishi kerak. Bu ofis orqali mijoz bank-mijoz yoki kompyuter buyurtmalari tizimining mijozlar qismi distributlarini o'ziga o'tkazib olishi yoki agar tizim mijozda biron-bir qo'shimcha dasturiy ta'minotni o'rnatish zaruratisiz amalga oshirilgan bo'lsa, internet-bankka kirishi mumkin. Bundan tashqari, bank mijozlarga xizmat ko'rsatadigan serverni o'rnatishi, avtomatlashtirilgan bank tizimidagi mijozlar qismidan axborot uzatish

uchun shlyuzlar yaratishi talab qilinadi va h.k. Bu esa qo'shimcha xarajatlar bilan bog'liq. Lekin, bank masofadan bank xizmati ko'rsatishni internet global tarmog'i orqali amalga oshirish uchun qiladigan hamma xarajatlar bir nechta bank bo'limini ochishga qaraganda ancha kam, vaholanki, internet orqali xizmat ko'rsatiladigan mijozlar soni real bank bo'limlari mijozlarining sonidan bir necha baravar ortiq bo'lishi mumkin. Shuningdek, bank kapital qurilish xarajatlarini qisqartirishi va xizmat ko'rsatuvchi xodimlar shtatini kamaytirishi, filiallar tarmog'ining bir qismini jismoniy shaxslar bilan qilinadigan ortiqcha kam daromadli operatsiyalardan ozod qilishi mumkin.

To'rtinchidan, elektron tijorat rivojlanishi bilan jismoniy shaxslarga internet orqali bank xizmati ko'rsatish zarurligi. Elektron tijorat rivojlanishi internet orqali mahsulot xarid qilinganida haq to'lash mexanizmlarini ishlab chiqishga sabab bo'ldi. Dastlab, internet orqali tovar va xizmatlar haqini to'lash uchun kredit va debet kartochkalaridan foydalanildi (kartochkaning rekvizitlari buyurtma bilan birga sotuvchiga jo'natiladi). 90-yillarning o'rtalaridan boshlab, to'lovlarni amalga oshirish uchun internetda internet-bank turidagi tizimlardan foydalanila boshlandi. Biroq, bank xizmatlarini ko'rsatish shakllarigina o'zgarib qolmasdan, internet tarmog'ida elektron tijoratning rivojlanishi, hatto, pul mablag'larining evolyusiyasiga ham ta'sir etdi – cheklar va banknotlarning o'xshashi bo'lgan «elektron pullar» (E-money) paydo bo'ldi. Yuqorida sanab o'tilgan dalillarning hammasi internet orqali bank mahsulotlari va xizmatlarini taqdim qilish yo'li onlayn rejimida amal qilayotgan boshqa yo'llarga qaraganda g'oyat istiqbolli deyish imkonini beradi. Global tarmoqda bank operatsiyalari hajmlarining ko'payishida internet orqali ko'rsatiladigan aloqa xizmatlari bahosining arzonligi muhim rol o'ynamoqda, u an'anaviy kanallardan (Teleks, SVIFT, o'xshash ixtisoslashgan telekommunikatsiya tarmoqlari va boshqalar) foydalanishga qaraganda ancha arzon. Internet eng arzon aloqa kanallaridan biri bo'lganligidan, undan foydalanish bank ancha qimmat aloqa kanallarini ishlatayotgan barcha hollarda maqsadga muvofiqdir. Xususan, banklar internetdan internet-bank tizimlari faoliyati uchun ham, ichki ehtiyojlar uchun ham foydalanishi mumkin. Masofadan bank xizmati ko'rsatish doirasida internet-bank va mijoz-bank tizimlari orqali onlayn rejimida taklif qilinayotgan qulay bank xizmatlari va mahsulotlari ro'yxati ancha xilma-xil. Deyarli barcha banklarda mijozga joriy hisobvaraqlar holatini tekshirish, pul jo'natmalarini amalga oshirish, elektron hisobvaraqlar bo'yicha pul to'lash imkoniyati beriladi. Murakkabroq tizimlar mijozlarga kredit (ssuda) olish uchun buyurtma tuzish, o'z hisobvaraqlariga doir axborotni o'z kompyuteriga kiritish, qo'shimcha bank kartochkasi chiqarishning tashabbuskori bo'lish yoki muddatli depozit ochish imkonini beradi. Ushbu xizmatdan foydalanish qulayligi mijoz uchun ham, bankning o'zi uchun ham shubhasizdir:

- bank mijozlari hisobvaraqlar, shu jumladan kommunal hisobvaraqlar bo'yicha o'zi uchun qulay bo'lgan har qanday paytda pul to'lashi va jarima, penyalardan holi bo'lishi mumkin;

- odatda, kommunal xizmatlar haqi internet-bank va mijoz-bank tizimlari yordamida to'langanida, mijozga to'lov summasining 1 foizidan 5 foizigacha

miqdorda kichikroq diskont beriladi. Bunda bank hujjatlar aylanishi va o'z xodimlarining vaqtidan tejalgan mablag'lar hisobidan vositachilik xaqini to'laydi; - rivojlanib borayotgan bank uchun bu xizmat, hatto, keng filiallar tarmog'ini yaratmasdan turib, mijoz topshirig'iga muvofiq operatsiyalarni amalga oshirish va shu yo'l bilan mijozlar bazasini ham, ko'rsatiladigan xizmatlar ro'yxatini ham kengaytirish imkonini beradi. Bunday xizmat bank mijozlariga hisobvaraqdagi vaqtincha bo'sh turgan mablag'larni tezkor ravishda investitsiyalashgina emas, balki kapitalning o'sish jarayonini ko'rish imkonini ham beradi. Chunki ba'zi tizimlarda omonatga qo'yilgan mablag'lardan har kuni olingan daromadni hisoblaydigan maydon bor. Bu mijozning bankka ishonchini bilvosita oshirishi mumkin.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida O'zbekistonda 2020–2025 yillarga bank xizmatlarini rivojlantirish istiqbollari.

2020–2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasiga o'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni

Moliyaviy sektorni izchil isloh qilish davomida qator chora-tadbirlar amalga oshirildi va natijada ilg'or bank biznesini yuritish hamda ushbu sektordagi aqobot muhitini kuchaytirish uchun zarur huquqiy shart-sharoitlarni yaratildi.

Xususan, xalqaro standartlarga muvofiq keladigan va moliyaviy sohaga xorijiy investitsiyalarni kiritish uchun jozibador huquqiy muhitni yaratadigan O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining Markaziy bank to'g'risida"gi, "Banklarning bank faoliyatiga o'g'risida"gi, "Valyutani tartibga solish to'g'risida"gi hamda "To'lovlar va to'lovti zimlarni to'g'risida"gi qonunlari qabul qilindi. Shubilan birga, bank sohasida gi hozirgi holatda bank sektoridagi davlatning yuqoridagi darajadagi aralashuvi, davlati shart-sharoitlari banklarning menejment va tavakkalchiliklarni boshqarish sifatining etarli emasligi, iqtisodiyotda moliyaviy vositachilikning past darajasi kabi bank sektorini iqtisodiy qayta tashkil qilish zarur ekanligi aniqlandi.

Moliyaviy xizmatlarning ommabopligini oshirish, banklarning hududlarga kirib borishini kengaytirish va barcha aholi punktlarida bir xil turdagi xizmatlarni ko'rsatishni ta'minlash bo'yicha qo'shimcha choralarni ko'rilishi lozim. Bank tizimiga zamonaviy servis ehtiyojlari asosida axborot texnologiyalarini, moliyaviy texnologiyalarni keng jori etish, axborot xavfsizligini o'z ichiga olgan darajada ta'minlash, shuningdek, moliyaviy xizmatlarni ko'rsatishda inson omili ta'sirini kamaytirish bo'yicha tezkor chora-tadbirlarni ko'rsatish zarur ekanligi aniqlandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 2 martdagi PF-5953-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2017–2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturi dabo belgilangan vazifalardan kelib chiqqan holda, shuningdek, xususi sektor rivojini rag'batlantirish, banklarning investitsiyaviy jozibador

rligini, bank xizmatlari ommabopligini va ularning sifatini oshirish uchun bank sektorini tubdan transformatsiya qilish maqsadida:

Quyidagilar O‘zbekiston Respublikasida bank sektorini isloh qilishning asosiy yo‘nalishlari e‘tibbelgilansin:

Moliya bozorida teng raqobat sharoitlarini yaratish, kreditlashni faqat bozor shartlari asosida amalga oshirish, banklarning davlat resurslariga qaramligini pasaytirish, banklardaxizmat ko‘rsatishni modernizatsiya qilish, samarali in frutuzil mayaratish va banklar faoliyatini avtomatlashtirish, shuningdek, banklarning asosiy faoliyat turi bilan bog‘liq bo‘lmagan funksiyalarini bosqichma-bosqich bekor qilish orqali bank tizimining samaradorligini oshirish; kredit portfelini va takkallchiliklarni boshqarish sifatini yaxshilash, kreditlash hajmlari o‘ sishining mo‘‘ tadil darajasiga amal qilish, muvozanatlashgan makroiqtisodiy siyosat yuritish, korporativ boshqaruvni takomillashtirish va xalqaro amaliy tajribaga ega bo‘lgan menejerlarni jalb qilish, moliyaviy takkallchiliklar ni baholash uchun texnologik echimlarni tatbiq etish orqali bank tizimining moliyaviy barqarorligini ta‘minlash; davlat ulushi mavjud tijorat banklarini kompleks transformatsiya qilish, bank tizimining za monaviy standartlarini, axborot texnologiyalarini va dasturiy mahsulotlarni joriy etish, banklardagi davlat aksiyalari paketini zarur tajriba vabilimga ega bo‘lgan investorlarga tanlovsavdolariasosida sotish, shuningdek, davlat ulushi mavjud tijorat banklari va korxonalarni bir vaqtning o‘zida isloh qilish orqali bank sektorida davlatning ulushini kamaytirish; etarli darajadaxizmat ko‘rsatilmayotgan vazifalarni davlat ishtirokini ko‘paytirish va manzilli chora-tadbirlarni amalga oshirish, aholi vakichik biznes uchun masofaviy xizmatlarni keng joriy qilish, kam xarj xizmat ko‘rsatish nuqtalarini tarmoq‘inirivojlantirish, shuningdek, respublikaning yagona moliyati tizimida gio‘zar o‘ldiruvchi qismlar sifatidan o‘bank kredit tashkilotlarining shakllanishi va rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish orqali moliyaviy xizmatlarni ommabopligini va sifatini oshirish.

1. Quyidagilar:

2020–2025 yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi 1-ilovaga muvofiq;

O‘zbekiston Respublikasi bank tizimini isloh qilish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi”

2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. 2020–

2025 yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha, shu jumladan, quyidagilarni nazard tutuvchi maqsadli ko‘rsatkichlar 3-ilovaga muvofiq belgilansin:

bank tizimining aktivlarining jami hajmi davlat ulushi bo‘lmagan banklar aktivlarining hissasini joriy 15 foizdan 2025 yilga kelib 60 foizgacha oshirish;

banklarning majburiyatlarining umumiy hajmi daxususiy sektoroldidagi majburiyatlar hissa sinijoriy 28 foizdan 2025 yil yakuniga 70 foizgacha oshirish;

2025 yilga kelib davlat ulushi mavjud kamida uchta bank kapitaliga zarur tajriba, bilim va nufuzga ega kamida uchta strategik xorijiy investorlarni jalb qilish;

umumiy kreditlash hajmida nobank kredit tashkilotlari ulushini joriy 0,35foizdan2025yilgakelib4foizgacha oshirish.

3. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Markaziy bankining quyidagilarto‘g‘risidagitakliflarima’qullansin:

xalqaromoliyainstitutlariko‘magida“Ipoteka-bank”ATIB,“O‘zsanoatqurilishbank” ATB,“Asaka” ATB, AT “Aloqabank”, “Qishloqqurilishbank” ATBva “Turonbank” ATBdagi davlat ulushlarini bosqichma-bosqich xususiylashtirish, bundabirinchi bosqichda ularni institutsional o‘zgartirishni (faoliyatini transformatsiyaqilish),ikkinchibosqichdaesadavlataksiyalaripaketinisotishninazarda tutish;

bank tizimini isloh qilish davrida aholining moliyaviy xizmatlarga bo‘lgantalabiniqondirish,investitsiyaloyihalariniqo‘llab-quvvatlashmexanizmini(“loyihalar fabrikasi”) keng joriy qilish, bank xizmatlarining hududiy

qamrovinita‘minlashmaqsadida“TashqiiqtisodiyfaoliyatMilliybanki”AJ,“Agrobank”ATBva“Mikrokreditbank”ATBustavkapitallaridadavlatulushinisaqlabqolish; ayrimbanklarningfaoliyatiniagnostikaqilishvamoliyaviyahvolinibaholash asosida, me‘yoriy talablaridan hamda qayta tashkil etishning iqtisodiyjihatdan maqsadga muvofiqligidan kelib chiqqan holda qonun hujjatlariga muvofiqlarnikonsolidatsiyalash.

4. O‘zbekistonRespublikasiMoliyavazirligihuzuridavazirlikningtasdiqlangansht atlarsonidoirasidaDavlatulushigaegatijoratbanklarinitransformatsiyaqilishvaxususi ylashtirishbo‘yichaloyihaofisi(keyingio‘rinlarda

Loyihaofisi)tashkiletilsinhamdaungaquyidagihuquqlarberilsin:

tijorat banklarini transformatsiya qilish va xususiylashtirish jarayonlarigamaslahatchisifatidaxalqarokonsultantlarni jalb qilish;

tijoratbanklarinitransformatsiyaqilish,shuningdek,ulardagidavlataksiyalaripaketinix ususiylashtirishgadoirmasalalardaxalqaromoliyainstitutlari va salohiyatli xorijiy investorlar bilan muzokaralar olib borish vabitimlartuzish.

Belgilansinki,LoyihaofisigaO‘zbekistonRespublikasimoliyavaziriningbirinchio‘rin bosari rahbarlikqiladi.

5. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki va Moliya vazirligi 2024 yildankechiktirmay Xalqaro valyuta jamg‘armasi va Jahon banki dasturi (FSAP) asosidamoliyaviy sektorholatini baholashnio‘tkazishchoralarni ko‘rsin.

6. Vazirliklar, idoralar va mahalliy davlat hokimiyati organlari rahbarlaritomonidanbanklarning,shujumladan,kreditportfelivabankaktivlarinishakll antirishbilanbog‘liqtadbirkorliktavakkalchiliklariniboshqarishfaoliyatiga aralashishtaqiqlansin.O‘zbekistonRespublikasiBoshprokuraturasibanklarvabankfao liyatito‘g‘risidagi qonunchilikning banklar faoliyatiga davlat organlarining ma‘muriy aralashuvigayo‘lqo‘ymaslikqismiijroetilishiustidannazoratnikuchaytirsin.

7. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirishvazirligiMoliyavazirligibilanbirgalikdaikkioymuddatdaTadbirkorlikfaoli yatiniqo‘llab-

quvvatlashdavlatjamg‘armasiniboshqarishbo‘yichakengashtarkibigamustaqila’zola rnikiritishorqaliuniinstitutsionaljihatdanmustahkamlashchoralariniko‘rsin.

8. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki va Moliyavazirligi boshqamanfaat dori vazirliklar va idoralar bilan birgalikda choymuddatda qonun hujjatlariga ushbu Farmondan kelib chiqadigan o‘zgartirish va qo‘shimchalar to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga takliflarni kiritsin.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi “Respublikaiqtisodiyotiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlarini yanadatokomillashtirish chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ—4300-son qaroriga 1-ilovaning 1–3-pozitsiyalarini o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

10. Mazkur Farmonning ijrosini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N. Aripov va O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki raisi M.B. Nurmuratov zimmasiga yuklansin.

O‘zbekiston Respublikasi

Prezidenti

Sh.MIRZIYOEV

Toshkent shahri, 2020 yil 12 may

Mavzu yuzasidan takrorlash uchun savollar

1. Tijorat banklari tomonidan ko‘rsatiladigan an‘anaviy va noan‘aviy xizmat turlari nimalardan iborat?
2. Plastik kartochkalar va ularni qo‘llash zaruriyati haqida gapirib bering?
3. Plastik kartochkalarning to‘lov tizimidagi o‘rni qanday?
4. O‘zbekiston Respublikasida plastik kartochkalarni qo‘llash imkoniyatlari haqida nimalarni bilasiz?
5. Qimmatliklarni saqlash va seyf xizmati qanday tartibda amalga oshiriladi?
6. Mijozlarga ish joyida va uyida xizmat ko‘rsatish haqida gapirib bering?
7. Internet banking xizmatlari nimalardan iborat?
8. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida O‘zbekistonda 2020-2025 yillarda bank xizmatlarini rivojlantirish istiqbollari haqida gapirib bering?

MAVZU: Tijorat banklarining balansdan tashqari operatsiyalari (4 soat)

REJA:

1. Tijorat banklarining balansdan tashqari operatsiyalarining mazmuni va turlari.
2. Aktivlar bo‘yicha foizlar va vositachilik haqlarining balansdan tashqaridagi hisobining yuritilishi.
3. Hosilaviy instrumentlar bo‘yicha transaksiyalarning balansdan tashqari operatsiyalari.
4. Bank kafolatlari bo‘yicha balansdan tashqari operatsiyalar
5. Garov sifatidagi qimmatli qog‘ozlar, mulklar va mulkiy huquqlar bo‘yicha talablarning balansdan tashqari operatsiyalari.
6. Tijorat banklarida balansdan tashqari operatsiyalarni takomillashtirish masalalari.

Tayanch so‘zlar: To‘g‘ri funksiyalari, diskresiya, aktivlar, balansdan tashqari operatsiyalar, bank kafolati.

Tijorat banklarining balansdan tashqari operatsiyalarining mazmuni va turlari.

Ko'pchilik rivojlangan davlatlar tijorat banklari yaqin yillarda komission daromad olishga qaratilgan balansdan tashqari faoliyatni sezilarli darajada kengaytirdilar. Mazkur faoliyat kengayishi an'anaviy kreditlash sohasidagi qisqarishlar bilan bog'liq.

Korporatsiyalarning qarz mablaglarini jalb qilish imkoniyatlarining ortishi, ya'ni qimmatli qogoz emissiya qilish orqali qarz jalb qilish, qolaversa nobank sektorining rivojlanishi banklarning kreditlash sohasidagi qisqarishlarga olib keldi. Balansdan tashqari moddalar aktivlari va passivlariga aloqasi bo'lmagan boyliklar, hujjatlar, topshiriqnomalarni hisobga olish maqsadida qo'llaniladi. Balansdan tashqari moddalar quyidagi bo'limlardan iborat:

- zaxira fondlaridagi pul biletlari va tangalar;
- qarzdorlarning muddatli majburiyatlari va ssudalar;
- bank tomonidan inkasso uchun va yo'ldagi hisob-kitob hujjatlari asosida kreditlar bilan ta'minlash uchun qabul qilingan hisob-kitob hujjatlari;
- qat'iy hisobotda turuvchi blankalar;
- pul belgilarini muomalaga chiqarishga ruxsatnomalar;
- to'lov uchun akkreditivlar va boshqalar;

Balansdan tashqari moddalar banklar balansida yakuniy balans hisobvaraqaalaridan keyin joylashtiriladi.

Xalqaro bank amaliyoti shuni ko'rsatadiki, 100 yillar davomida banklar aholidan o'zlarining mablag'larini ko'paytirish maqsadida mablag'lar jalb etilgan va qarzlariga asosiy daromad manbai sifatida tayanib qolishgan. Oxirgi yillarda esa banklar oldida jiddiy muammolar paydo bo'lib qoldi, ya'ni omonatchilar jamg'armalari va qarz oluvchilardan qarz mablag'lariga bo'lgan talablar orasidagi farqdan oshishi va odatiy qarz oluvchilar banklardan tashqari yana boshqa foydali kapital quyish manbalarini topishdi. Nobank moliyaviy institutlar (brokerlik, dilerlik, sug'urta kompaniyalari) banklardan farqli ravishda naqd pulni boshqarishning yangi xizmatlarini taklif qilishdi. Buning oqibatida depozitlarning hajmi kutilgandan ko'ra pasaydi va banklar yangi mablag' jalb etish yo'llarini qidirishga majbur bo'linmoqda. O'zbekiston moliya bozorida banklar etakchi o'rinni egallashi qimmatli qog'ozlar bozorining rivojlanmaganligi, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarining faolmsaligi bank aktivlarining sekyuritizatsiyalashning qo'llanmasligiga olib keldi. Sekyuritizatsiyalash tamoyili 1970 yillarda paydo bo'lgan va bu orqali bank qarzlarini fond bozorida erkin aylanuvchi qimmatli qog'ozlar sifatida aylanadi. Sekyuritizatsiyada bank daromadli aktivlarning bir qismini ipoteka va iste'mol ssudalariga joylashtiradi va ular ostida qimmatli qog'ozlar emissiya qilib sotadi. To'lash chog'ida daromadni aksiya egalari tomonga qaytaradi va yangi daromadidan foydalaniladi. Ko'pchilik rivojlangan davlatlar tijorat banklari yaqin yillarda komission daromad olishga qaratilgan balansdan tashqari faoliyatni sezilarli darajada kengaytirdilar. Mazkur faoliyat kengayishi an'anaviy kreditlash sohasidagi qisqarishlar bilan bog'liq. Korporatsiyalarning qarz mablaglarini jalb qilish imkoniyatlarining ortishi, ya'ni qimmatli qogoz emissiya qilish orqali qarz jalb qilish, qolaversa nobank sektorining rivojlanishi banklarning kreditlash sohasidagi qisqarishlarga olib keldi. Banklar qarzlardan nafaqat qimmatli qog'ozlar chiqarishda balki yangi

mablagʻlar shakllantirishda ham va ularni yangi egalariga sotish uchun ham foydalanishadi. AQSH banklarining sotadigan qarzlar odatda 90 kunlik boʻladi. Bu qarzlar yangi yoki sotuvchining qarzlar balansidan tashqaridan bir qancha vaqt yotgan ham boʻlishi mumkin. Qoidaga koʻra bank-sotuvchi yigʻilgan qarzlariga xizmat koʻrsatish va qarzdorlar manfaatiga qarab kam ish haqi uchun (3-8%) ishlaydi. Bunday qarzlarini sotib oluvchilar asosan xorijiy va mahalliy banklar, sugʻurta, pensiya kompaniyalari. Nobank qarz oluvchilardan esa vaqtinchalik kraynreyn fondlari hisoblanadi. Qarzlarini qayta sotilishi kuchsizlari «uchinchi dunyo mamlakatlari» hisoblanadi. Argentina, Braziliya, Meksika, Peru, Rimning eski qarzlar oʻz narxidan past narxlarda sotiladi. Asosan bunday qarzlarini oʻsha davlatda faoliyat yuritayotgan banklar, investitsion xorijiy kompaniyalar sotib oladi. Bir qancha «uchinchi dunyo»ga berilgan kreditlar oʻsha davlatlar tomonidan qayta sotib olinganda yaxshi daromad keltirgan. Mamlakatimizda «Banklar va bank faoliyati toʻgʻrisida»gi qonunga asosan banklar moliyaviy universal sifatida namoyon boʻladilar. Ushbu qonun va boshqa normativ hujjatlariga asosan banklar oʻz daromadlari va risklari differensiyalash ishlarini olib boradilar. Yana shu bilan birga bosh oʻz kapitalini koʻpaytirish yoʻllarini izlamokdalar. Bulardan asosiysi bankda turli xizmatlarni koʻrsatishdir. Bankning turli xizmatlarini koʻrsatishi uning xajmiga bevosita bogliqdir. Chunki bank qanchalik katta boʻlsa u shuncha koʻp operatsiyani amalga oshirish imkoniga ega boʻladi. Ammo bank qanchalik koʻp xizmat toʻrini amalga oshirsa, unda bu xizmatlarni boshqara olmaslik riski, xarajatlarni samarali nazorat qilish riski hamda bank xizmatlarini qiymatini oshishiga olib keladi. Ammo banklar oʻz likvidligini hamda daromadni diverfikatsiya qilishga majbur. Shuning uchun banklar asosiy xizmatdan boshqa xizmatlarni amalga oshiradi. Ular quyidagilar:

Yuqorida koʻrsatkichlarni bankning boshqa operatsiyalari jumlasiga kiritadi va ularni majburiyat (shartnoma) turiga koʻra quyidagicha boʻlishi mumkin:

Bankning boshqa operatsiyalari

Tijorat bankining boshqa operatsiyalari	Majburiyat turi (shartnoma)
1.Uchinchi shaxslar tomonidan (pul) majburiyatlarining bajarilishini nazarda tutuvchi kafolotlar berish koʻzda toʻtish	Kafolat shartnomasi
2.Uchinchi shaxslardan pul majburiyatlarining talab qilish huquqini olish	Talab qilish huquqini olish shartnomasi
3.Jismoniy va yuridik shaxslar pul mablagʻlari va boshqa mulklarni shartnomaga binosi shu binoni boshqarish	Mulk va mablagʻni ishonchli boshqarish shartnomasi

4.qimmatbaho metallar va boshqa qimmatbaho toshlar bilan operatsiyalar o'tkazish.	Sotish-sotib olish, saqlash, mukofot (komissiya) bo'yicha shartnoma
5. Turli boyliklarni soklash uchun qo'lay	Ijara, saqlash, mukofot (komissiya) shartnomasi
6. Lizing operatsiyalari	Moliyaviy ijara shartnomasi
7. Maslahat, axborot xizmatlari	Pudrat shartnomasi
8. Qo'shma (birlikdagi) faoliyat	Birgalikdagi faoliyat to'g'risidagi shartnoma

Trast operatsiyalari banklarga quyidagi imtiyozlarni beradi.

1. Operatsiya o'tkazish jarayonida Tijorat banlari uzoq muddatli moliyaviy mablag'larga yo'l ochiladi va ularni birjada qimmatbaho qogozlarga quyish mumkin.

2. Tijorat operatsiyalari tijorat banklari tomonidan mijozlarning ishonchi asosida olib boriladi va qonun bilan cheklanmaydi.

3. Tijorat banklari va boshqa banklarning operatsiyalari o'tkazish jarayonida mukofot oladi va o'z foydasi manbasinidiversifikatsiya qiladi hamda o'zini tusatdan moliyaviy xrisklardan ximoya qiladi.

4. Bank trast operatsiyalarida o'zining mablag'lari bilan emas balki, umuman begona kapital bilan ishtirok etadi. Asosiy risk qimmatbaho qogozga quyilma qo'yan shaxsga to'shadi Bank faqat javobgar hisoblanadi.

5. Ushbu operatsiyalarning barchasi banklarning balansdan tashqari operatsiyalari jumlasiga kiradi. Chunki bu operatsiyalar bank stavi balansidan tashqarida hisobi yuritiladi. Ammo ulardan to'shadigan daromad umumiy balans daromadiga kushib hisoblanadi.Ishonchli mulk (egasi) (trast)- ishonchli trast ta'sischisi, - ishonchli mulkdor (shaxs)- va benefislar (manfaatdor iste'molchi). Uchinchi shaxs bo'lib - benefislar va mulk egasi (trast ta'sischisi) bo'lishi mumkin.Trast operatsiyalarini boshqarish quyidagi alohida va birga (aktiv) operatsiyalarini o'z ichiga olishi mumkin:

1. Saqlash;

2. Ishonch bildiruvchi shaxs vakolatini bildirish (majlislarda qatnashish);

3. Daromad va investitsiyalarni boshqarish;

4. Aktivlarni sotish va sotib olish;

5. Zaymlarni jalb qilish va qoplash, qimmatbaho qogozlar birlamchi chiqarish va joylashtirish;

6. Yuridik shaxsni tashkil qilish, qayta tashkil qilish va likvidatsiya qilish;

7. Mulkni foydalanishga berish (sovga, vorisga).

8. Mijozning shaxsiy bank raqamini yuritish, kassa, moliya ho‘jaligi, majburiyatlar bo‘yicha hisob kitoblarni amalga oshirish;
9. Korxonadagi tasodifiy xolatlar, bashoratlar paytida korxonani vaqtinchalik boshqarish;

Umuman:

1. xususiy shaxslarga xizmat.
2. Tijorat korxonalariga xizmat.
3. Notijorat tashkilotlariga xizmat.
4. Majburiyatlar (uzoq muddatli)
5. Aksiya
6. ko‘zgalmas mulk
7. Chet el aksiyalari
8. Sotib olish sharti bilan aktivlar sotish
9. Venchur kapitali
10. Opsion
11. Fyucherslar.

Banklarning balansdan tashqari bajaradigan funksiyalari ikkiga bo‘linadi.

1. To‘g‘ri funksiyalari - mulk javobgarligini oladi, hisoblash, xujjatlashtirishni bajaradi.
2. Diskresiya - o‘zining xoxishiga ko‘ra investitsion qarorlarni amalga oshirish mumkin.

Daromadlari to‘g‘ri gonorar va mukofot xizmatlar uchun. Sum - trast aktivlari summasiga xajmidan kat’iy belgilangan yoki o‘zgaruvchan foiz asosida mukofot olish. Trast operatsiyalarini o‘zaro karama-karshi zachet asosida olib borish, mijozning hisob varagidan majburiy ravishda pulni undirish mumkin emas. Qimmatbaho metallar bilan operatsiyalar:

1. qimmatbaho metallar sotib olish va sotish bilan bogliq operatsiyalar;
2. qimmatbaho metallarni jamgarmaga jalb qilish operatsiyalari;
3. qimmatbaho metallar va toshlarni saqlash va transportirovka qilish;
4. qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlarga kredit berish yoki ularni garavga asosida kredit berish.
5. eksport operatsiyalari.
6. Overnayt-uik end paytida mablag‘larni quyish.

Metall miqdori x baho x foiz stavkasi (%-yil) kun

$$360 \times 100$$

qimmatbaho qogozlar bilan bogliq risklar:

- Baho riski, qimmatbaho qogozlar toshlar va metallarning bahosini o‘zgarishi.
- Likvidligining riski. Muddati va xajmini muvozanatini to‘g‘ri olib borilmasligini yoki to‘g‘ri kelmasligini natijasida risk paydo bo‘ladi.
- Huquqiy risk. Bank faoliyatiga bogliq bo‘lgan normativ xujjatlarni qabul qilishi natijasida oladigan zarar.

Mavzu yuzasidan takrorlash uchun savollar

1. Tijorat banklarining balansdan tashqari operatsiyalarining mazmuni va turlari.
2. Aktivlar bo'yicha foizlar va vositachilik haqlarining balansdan tashqaridagi hisobining yuritilishi.
3. Hosilaviy instrumentlar bo'yicha transaksiyalarning balansdan tashqari operatsiyalari.
4. Bank kafolatlari bo'yicha balansdan tashqari operatsiyalar
5. Garov sifatidagi qimmatli qog'ozlar, mulklar va mulkiy huquqlar bo'yicha talablarning balansdan tashqari operatsiyalari.
6. Tijorat banklarida balansdan tashqari operatsiyalarni takomillashtirish masalalari.

MAVZU:Tijorat banklarining daromadlari, xarajatlari va foydasi (6 soat)

REJA:

1. Tijorat banklarining daromadlari: foizli va foizsiz daromadlari.
2. Tijorat banklarining foizli va foizsiz xarajatlari.
3. Tijorat banklarining operatsion xarajatlari.
4. Spred tushunchasi va uni hisoblash tartibi.
5. Tijorat banklarining daromadliligini oshirishda spekulyasiya operatsiyalarining o'rni.
6. Bank daromadlarini ko'paytirish yo'llari.
7. Tijorat banklarining foydasi haqida tushuncha.
8. Tijorat banklari foydasi va uni taqsimlash.
9. Tijorat banklarini soliqqa tortish tartibi.
10. Tijorat banklari rentabellik ko'rsatkichlari.
11. Tijorat banklarining dividend siyosati. Bank foydasini oshirish yo'llari.

Tayanch so'zlar:korrespondentlik xizmati,lizing to'lovlar,ssuda biznesi,faktoring operatsiyalari,foizli daromadlar,foizsiz daromadlar,regress huquqi

Tijorat banklarining daromadlari:foizli va foizsiz daromadlari.

Tijorat banki daromadining asosiy manbai bo'lib quyidagilar hisoblanadi

Tijorat bankining daromadlari

№	Daromadlar manbai	Izoh
1	2	3
1.	Ssuda biznesi	Bu biznes ikki unsumni o'z ichiga oladi: • mijozlarga ssuda berish; • foyda olish maqsadida o'zining bo'sh turgan resurslarini boshqa tijorat banklariga vaqtinchalik berib turish. Ssuda biznesining ikkinchi qismi banklararo kredit yoki boshqa bankka qo'yilgan tezkor depozit shaklida bo'lishi mumkin.
2.	Diskontli biznes	Bu to'lanmagan veksellar, cheklarni muayyan diskont bilan bank tomonidan sotib olishga asoslanadi. Faktoring operatsiyalari diskontli biznesning har xil ko'rinishlaridan biridir. U ikki ko'rinishda bo'ladi: • regress (oborotli) huquqi bilan; • regress (oborotsiz) huquqsiz. Birinchi holda bank mablag'ni olgan (etkazib beruvchi)dan to'lanmagan majburiyatlarni undirib olishga haqli bo'ladi. Ikkinchi holda esa bunday huquqqa ega bo'lmaydi. SHu sababli u ko'proq mukofotlanishni talab qilib ko'proq tavakkalga boradi. Faktoring operatsiyasi uchun bankni mukofotlash etkazib beruvchining sotishdan olgan daromadini kamaytiradi. CHunki aynan shu qiymatdan skidka qilinadi. Masalan, 20 foiz skidka bilan mahsulotni sotish yoki mablag'ni qaytarish.
3.	Himoyali biznes	Bu bank operatsiyalariga mos tushuvchi xizmatlar bo'lib, ular trast (ishonchli) va vakilli xizmatlar
4.	Qimmatli qog'ozlar orqali biznes	Bunda bankning daromadi quyidagilar evaziga shakllanadi: • o'zining va boshqa emitentlarning qimmatli qog'ozlarini sotish chog'ida kurs tafovuti evaziga olingan daromad; • xususiylashtirishda bajarilgan xizmatlar evaziga olingan daromad (xususiylashtirish hujjatlarini talab darajasiga keltirish, korxonaning qiymatini aniqlash, aksiyalarni chiqarish va joylashtirish reestrlarni yurgizish va h.k.)
5.	Bankning kafillik faoliyati	Bu faoliyag evaziga bank bevosita va bilvosita daromad oladi. Mijozlarga bankdan kredit olish va boshqa operatsiyalarni bajarishlari uchun kafil xatlarini beradi va shu narsa evaziga bank daromad oladi

6.	Mijoz omonatlarini jalb qilish va omonatchilar topshirig'i bilan operatsiyalar amalga oshirish faoliyati	Bunda bank daromadi uning quyidagi vositachilik operatsiyalarni bajarish evaziga shakllanadi: • schyotlarni ochish; • schyotlarni olib borish; • schyotlar bo'yicha operatsiyalardan nusxa oldirish; • schyotlarni yopish; • naqd pulni berish bo'yicha hisob-kitoblarni bajarish va h.k.
7.	Korrespondent (rasmiy yozishma)lik xizmati	Bunda bank boshqa bank korschtyoti qoldig'i (salqdosi)dagi kreditdan foiz olish evaziga daromad oladi. U daromadning miqdori: • foiz stavkasi darajasiga; • foizni hisoblash tartibiga; • salqdodagi kredit miqdori va uning qanchalik davomligiga bog'liq bo'ladi. Bunda bank daromadi: • lizing; • axborot berishga oid (informatsion); • maslahat berish; • valyutani almashtirish; • mijozlarni o'qitish kabi xizmatlarni bajarish evaziga shakllanadi. Lizing operatsiyalarini bajarish evaziga olinadigan daromad: • lizing to'lovlar; • foiz to'lovlari; • vositachilik uchun to'langan haqlarni o'z ichiga oladi.
8.	Bank mulkini sotish bilan bog'liq bo'lgan ko'zda tutilmagan daromadlar	Bu daromad bank balansidagi qiymatdan bozor bahosining oshishi evaziga paydo bo'ladi. Aks holda xarajat bilan bog'liq operatsiyalar bankning to'g'ridan-to'g'ri zarar ko'rishiga olib keladi.

Shunday qilib, tijorat bankining barcha ko'rinishlardagi daromadini uchta guruhga bo'lish mumkin:

- foizdan olingan daromad;
- vositachilik (komissiya) evaziga olingan daromad;
- boshqa turli daromadlar (bozordagi operatsiyalarda kurs farqi, sotilgan bank mulkining balansdagi narx o'rtasidagi farq, qimmatli qog'ozlar va boshqa nominal bahosini qayta baholash, jarimalar evaziga olingan daromadlar).

Qayta qilingan xizmatlar evaziga olingan daromadlar bank xarajatlarini, riskini qoplab foyda olishini ta'minlashi kerak. **Ssuda foizi** - bu muayyan muddatga berilgan qarz uchun to'lanadigan foiz. Ssuda foizining turlari quyidagicha tavsiflanadi:

- **kredit shakllari bo'yicha:**

- tijorat foizi;
- bank foizi;
- iste'mol foizi;

- **kredit muassasalarining turlari bo'yicha:**

- Markaziy bank foizi;
- tijorat banklari foizi;
- lombard (garov)ga oid foiz;

- **ssuda muddatlari bo'yicha:**

- qisqa muddatli ssuda foizi;
- pul bozori stavkasi darajasidagi foiz;
- uzoq muddatli ssuda foizi;

- **ssuda turlari bo'yicha:**

- ssudalar bo'yicha foiz;
- banklararo kredit foizi;
- depozit foizi;

- **hisoblash usuli bo'yicha:**

- oddiy foizlar;
- murakkab foizlar;
- aniq foizlar;
- odatdagi foizlar va boshqalar.

Turli ko'rinishlardan qat'iy nazar bitimlashgan ssuda foizi kredit resurslarining bahosi va mazkur tijorat banki uchun zarur bo'lgan marja hisobiga shakllanadi. Jahon bank amaliyotida bank tijorat daromadlarining asosiy turlariga quyidagilar kiradi:

- ⇒ Ssuda operatsiyalaridan olinadigan daromadlar.
- ⇒ Diskont tijorati.
- ⇒ Qo'riqlash tijorati.
- ⇒ Qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshiriladigan operatsiyalar orqali olinadigan daromadlar.
- ⇒ Bank o'zi emissiya qilish asosida olinadigan daromadlar.
- ⇒ Boshqa emitentlar topshirig'i bilan amalga oshirilgan operatsiyalardan olingan daromadlar.
- ⇒ Kafolat va kafillik xizmatlari uchun olinadigan daromadlar
- ⇒ Omonatlarni jalb qilishva mijozlar topshirig'ini bajarish asosida olinadigan daromadlar.
- ⇒ Boshqa banklar vakillik hisob varaqlarini yuritishdan olinadigan daromadlar
- ⇒ Ssuda operatsiyalaridan olinadigan daromadlar.
- ⇒ Bu tijoratda bank mijozlarni o'z vaqtida to'lanmagan veksel, cheklari va boshqa to'lov hujjatlarini ma'lum skidka bilan sotib oladi (debitor qarzlarini).

⇒ Bizda keng tarqalgan turi-bu faktoring operatsiyalarini keltirish mumkin (faktoringni regresli qilish huquqi bilan (oborotli) va regressiz (oborotsiz)). Diskont tijorati. Bu tijorat doirasida masalan bank mijozga Trast (ishonch) va vositachilik xizmatlarini ko'rsatish orqali daromad oladi. Bu daromad bankga komission to'lovlar shaklida tushadi. Qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshiriladigan operatsiyalar orqali olinadigan daromadlar:

- Bank o'zi emissiya qilish asosida olinadigan daromadlar.
- Boshqa emitentlar topshirig'i bilan amalga oshirilgan operatsiyalardan olingan daromadlar. Bu tijoratda daromadlar kurslar o'rtasidagi farqlar, dividendlar, muddatli majburiyatnomalar uchun foiz daromadlari, qimmatli qog'ozlarni qayta realizatsiya qilish asosida olinadigan daromadlar. Kafolat va kafillik xizmatlari uchun olinadigan daromadlar-komission to'lovlari asosida tushadi-turli tushumlar shaklida. Omonatlarni jalb qilish va mijozlar topshirig'ini bajarish asosida olinadigan daromadlar:

Bu bank tijorati quyidagi shakllarda bo'lishi mumkin:

- ➡ komission mukofot to'lovlar;
 - a) schyotlar ochish
 - b) schyotlarni yuritish
- ➡ konkret muddat uchun o'rnatilgan komission to'lovlar (masalan, 100 so'm bir oy uchun);
- ➡ pulni oborotdan olinadigan foiz komission mukofot (masalan, kassa xizmati uchun 1,5 %, to'lov 0,4%) yotoq-mehmonxona 0,2% fakt).
 - a) qilingan operatsiyalar bo'yicha ko'chirmalar berish;
 - b) schyotlarni yopish.
- ➡ naqd tushumlarni berish yoki hisob – kitob bilan bog'liq operatsiyalar uchun to'lovlar.

Noan'anaviy bank xizmatlari keltiradigan daromadlar:

- lizing operatsiyalari – informatsion xizmatlar;
- konsultativ xizmatlar – mijoz xizmat o'qitish va x.z.

Tijorat banklarining daromadlari bir necha xususiyatlariga ko'ra tavsiflanishi mumkin.

1) qabul qilingan buxgalteriya hisobi tizimi va standartlariga bog'liq ravishda (keyinchalik to'xtalamiz)

2) olingan daromadlar davriga nisbatan joriy va kelgusi davr daromadlariga.

3) vaqt va iqtisodiy imkoniyatlariga ko'ra.

- doimiy (stabilный)-foizli daromadlar va foizsiz daromadlar;
 - vaqtinchalik (nestabilный)-qimmatli qog'ozlarni ikkilamchi bozor operatsiyalaridan olingan, ko'zda tutilmagan operatsiyalardan olingan daromad, valyuta operatsiyalaridan olingan daromad (ko'pchilik banklar shu kunlarda).
- Respublikamiz tijorat banklarining foizli daromadlar tarkibiga

9

taasosiy daromad turikiritilgan:

- Bankning Markaziy bankdagi hisobvaraqlari bo'yicha olingan daromadlar.
- Bankning boshqa banklardagi hisobvaraqlari bo'yicha olingan daromadlar.
- Sotib olingan veksellar bo'yicha olingan daromadlar.

- Investitsiya bo'yicha olingan daromadlar.
- Qimmatli qog'ozlarni sotib olish – sotish hisobvaraqlari bo'yicha olingan daromadlar.
- Mijozlarning majburiyatlari bo'yicha olingan daromadlar
- Mijozlarning majburiyatlari bo'yicha bankning qoplanmagan akseptlari bo'yicha olingan daromadlar.
- Ssudalar va lizing operatsiyalaridan olingan daromadlar.
- REPO operatsiyalaridan olingan daromadlar.
- Sof foizli daromad summasi foizli daromadlar summasidan ayirib tashlash yo'li bilan aniqlanadi.

Sof % daromad = % daromad summasi - % xarajat summasi.

Tijorat banklarining foizli va foizsiz xarajatlari.

Tijorat banklarining xarajatlari o'zining iqtisodiy mazmuniga ko'ra ikki yirik guruhga bo'linadi:

1. Foizli xarajatlar
2. Foizsiz xarajatlar

O'zbekiston Respublikasi bank amaliyotida tijorat banklarining xarajatlari uch yirik guruhga ajratiladi:

1. Foizli xarajatlar
2. Foizsiz xarajatlar
3. Operatsion xarajatlar.

Foizli xarajatlar o'z ichiga 8 ta xarajat turini olgan:

1. Joriy depozitlar bo'yicha foizli xarajatlar
2. Jamg'arma depozitlari bo'yicha foizli xarajatlar
3. Muddatli depozitlar bo'yicha foizli xarajatlar
4. Markaziy bankka to'lov hisovvaraqlari bo'yicha foizli xarajatlar
5. Boshqa banklarga to'lov hisobvaraqlari bo'yicha foizli xarajatlar
6. Markaziy bankdan olingan ssudalar bo'yicha foizli xarajatlar
7. Banklar kreditlar bo'yicha foizli xarajatlar
8. Boshqa foizli xarajatlar.

Respublikamiz tijorat banklarining foizsiz xarajatlari o'z ichiga 5 xarajat turini oladi:

1. Komission xarajatlar
2. Xorijiy valyutalardagi operatsiyalardan ko'rilgan zararlar
3. Qimmatli qog'ozlarni sotib olish – sotish hisobvaraqlari bo'yicha ko'rilgan zararlar
4. Investitsiyalardan ko'rilgan zararlar
5. Boshqa foizsiz xarajatlar.

Tijorat banklarining operatsion xarajatlari.

Respublikamiz tijorat banklarining operatsion xarajatlari o'z ichiga 7 ta xarajat turini oladi:

1. Ish haqi va unga tenglashtirilgan xarajatlar
2. Ijara to'lovlari
3. Safar va transport xarajatlari

4. Ma'muriy xarajatlar
5. Xayr-ehsonlar
6. Amortizatsiya xarajatlari
7. Soliqlar, sug'urta va boshqa xarajatlar

Spred tushunchasi va uni hisoblash tartibi.

Marja-bu savdo, birja, sug'urta va bank amaliyotida tovarlar narxi, valyuta va qimmatli qog'ozlar kursi, foiz stavkalari va boshqa ko'rsatkichlar farqini aniqlash uchun ishlatiladigan atama. Bank amaliyotida bu tushuncha quyidagicha ta'riflanadi. Marja - bu:

- Narxlar, kurslar, stavkalar o'rtasidagi farq;
- depozit, garov ta'minoti yoki valyutalar kursining yo'q qilishi mumkin bo'lgan tebranishlari bo'yicha qo'shimcha ulush;
- mol asosida bitimlarda, ochiq fyuchers shartnomalari bo'yicha qilinishi mumkin bo'lgan talofatlardan sug'urtalash bo'yicha brokerga yoki hisob-kitob palatasiga topshirilgan pul summasini yoki garobni anglatadi;
- forward valyuta kurslarini baholash usuli;
- birja bozorida xaridor qimmatli qog'ozlarni xarid qilish yoki sotishda brokerlik kreditidan foydalananda birja bozorida xaridor qimmatli qog'ozlarni xarid qilish yoki sotishda brokerlik kreditidan foydalanganda saqlaydigan summa;
- qarz oluvchi kredit qiymatiga qo'shib saqlaydigan ustama.

$$M = \frac{\text{Muayyan davrda olingan foizlar summasi}}{\text{Shu davr ichida to'langan foizlar summasi}}$$

Masalan, marjali ssudalar bo'yicha marjaning absolyut summasi quyidagicha hisoblanadi:

$$M_{ss} = \frac{\text{Ssudalar to'lovlari bo'yicha foizlar summasi}}{\text{Kredit resurslari bo'yicha foizlar summasi}}$$

Marjali ssudalar - bu qarz oluvchiga kredit qiymatiga ustama qo'shish evaziga beriladigan ssuda. Marjaning absolyut miqdori va uning dinamikasi bir qator omillar ta'sirida o'zgaradi:

- daromad keltiruvchi kredit quymalari va boshqa aktiv operatsiyalar miqdori;
- bankning aktiv operatsiyalar bo'yicha foiz stavkalari;
- bankning passiv operatsiyalari bo'yicha foiz stavkalari;
- aktiv va passiv operatsiyalari foiz stavkalari o'rtasidagi farq (spred);
- bank kredit portfelida foizsiz ssudaning ulushi;
- foizli daromad keltiruvchi riskli aktivlar operatsiyalari ulushi;
- jalb qilingan resurslar va bankning o'z kapitali o'rtasidagi nisbat;
- jalb qilingan resurslar va bankning o'z kapitali o'rtasidagi nisbat;
- jalb qilingan resurslar tarkibi;
- inflyasiya sur'ati va boshqalar.

Marja quyidagi nisbiy ko'rsatkichlarda tavsiflanadi:

$K_{hfm} =$	$\frac{\text{Olingan foizlar summasi} - \text{To'langan foizlar summasi}}{\text{Daromad keltiruvchi aktivlar}^{1)} \text{ summasining o'rtacha qoldig'i}}$
$K_{hfm} =$	$\frac{\text{Olingan foiz summasi} - \text{To'langan foiz summasi}}{\text{Aktivlar}^{2)} \text{ summasining o'rtacha qoldig'i}}$
$K_{ssm} =$	$\frac{\text{Ssudalar to'lovlari bo'yicha Kredit resurslari to'lovlari foizlar summasi} - \text{bo'yicha foizlar summasi}}{\text{Qarzdorlik ssudasi summasining o'rtacha qoldig'i}}$

Bu ko'rsatkichlardan tashqari marja foizining etarliligi ham hisoblanadi:

Bu ko'rsatkich bank uchun marjaning zaruriy minimal darajasini belgilaydi va uni hisoblashdan maqsad-qanchalik bank o'z xarajatlarini qoplash degan savolga javob berishdan iboratdir. Tijorat banklarining daromadlilikini oshirishda spekulatsiya operatsiyalarining o'ri. Bank daromadlarini ko'paytirish yo'llari. Tijorat banklarining foydasi haqida tushuncha. Tijorat banklarining foydasi va uning darajasini tahlil qilish usullaridan quyidagilarni qayd qilish mumkin:

- foyda manbalarini tarkibiy tahlil qilish;
- moliyaviy koeffitsientlar tizimini tahlil qilish;
- omilli tahlil.

Tarkibiy tahlil bank foydasi manbalarini aniqlash va bankning bugungi kundagi faoliyatining barqarorligi va kelgusida rivojlanish imkoniyatlarini baholash uchun zarur. Tijorat banklarida, foizli daromadlardan foizli xarajatlar summasi ayirib tashlangandan so'ng, sof foizli daromad hosil bo'ladi. Sof foizli daromad summasiga foizsiz daromad summasini qo'shib, olingan natijadan foizsiz xarajatlar summasi ayirib tashlansa, u holda soliq to'langunga qadar bo'lgan yalpi foyda yuzaga keladi. Soliq to'langunga qadar bo'lgan yalpi foyda summasidan kreditlardan ko'riladigan zararlarni qoplashga mo'ljallangan zahira ajratmalari summasini ayirib tashlasak, u holda soliq tugagunga qadar bo'lgan sof foyda summasi yuzaga keladi.

Tijorat banklari foydasi va uni taqsimlash.

Tijorat banklarining soliq to'langunga qadar bo'lgan sof foyda summasidan foyda solig'i summasini ayirib tashlasak, u holda bankning sof foydasi hosil bo'ladi. Yuzaga kelgan sof foyda hisobidan, aksionerlar umumiy yig'ilishining qaroriga asosan, dividendlar to'lanadi. Sof foydaning dividendlar to'langandan keyin qolgan qismi taqsimlanmagan foydadeyiladi. Sof foydaning hajmi pasayishiga yo'l qo'ymaslik tijorat banklari uchun katta amaliy ahamiyat kasb etadi. Buning boisi shundaki, sof foyda hisobidan dividendlar to'lanadi. Uning etarli darajada bo'lmashligi banklarining oddiy aksiyalariga to'lanadigan dividendlar miqdorini

¹⁾ **Daromadkeltiruvchiaktivlar**–

buyuridikvajismoniyshaxslarga, banklarga berilgan barcha kreditturlari, qimmatliqog'ozlar, factoring va lizing operatsiyalariga, boshqa korxonalarga safarbar qilingan qo'yilmamablag'lardir.

²⁾ **Aktivlar**– bu bank balansidagi mablag'lari yig'indisi.

kam bo'lib qolishiga sabab bo'ladi. Bu esa oddiy aksiyalarning bozor bahosini pasayishiga sabab bo'ladi. Buning natijasida ayrim aksionerlarning boshqa banklarga o'tib ketishi yuz berishi mumkin. Bu esa, bank ustav kapitalining kamayishiga va shuning asosida bankning to'lovga qobillik darajasining pasayishiga sabab bo'lishi mumkin. Absolyut (mutloq) sonlar tijorat banklari foydasining foydalilik darajasini ta'riflayolmaydi. Buning uchun bir qator moliyaviy koeffitsientlarni hisoblash zarur. Bankning daromadlilik darajasini tavsiflovchi ko'rsatkichlar tizimida aktivlarning bir so'miga to'g'ri kelgan foyda ko'rsatkichi eng asosiy ko'rsatkich bo'lib hisoblanadi. Ammo bu ko'rsatkich ham bank faoliyatining samaradorligini baholashda etarli emas. Bu, birinchidan, yuqori foyda olish katta risk bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan bu ko'rsatkichning dinamikasiga ta'sir qiluvchi omillar turli tuman va noaniqdir. SHu sababli bank rentabelligini tahlil qilishda bir vaqtning o'zida uni riskdan himoya qilish darajasi to'g'risida ham o'ylash kerak.

Tijorat banklarini soliqqa tortish tartibi

Bankning qisman soliq to'lovlariga quyidagilar kiradi:

- mulk solig'i;
- avtomobil solig'i;
- qo'shilgan qiymat solig'i;
- muhim tarmoqlarni qo'llab quvvatlash fondiga to'lanadigan soliq.

Barcha qayd qilingan soliqlar bank operatsiyalarni amalga oshirishda sarflanadigan xarajatlarga, tannarxga qo'shiladi. Foyda solig'i esa bank balansidagi foydadan to'lanadi.

Mavzu yuzasidan takrorlash uchun savollar

1. Tijorat banklarining daromadlari: foizli va foizsiz daromadlari nimalardan iborat?
2. Tijorat banklarining foizli va foizsiz xarajatlari qanday tarzda amalga oshiriladi?
3. Tijorat banklarining operatsion xarajatlari deganda nimani tushunasiz?
4. Spred tushunchasi va uni hisoblash tartibi qanday amalga oshiriladi?
5. Tijorat banklarining daromadlilikini oshirishda spekulyatsiya operatsiyalarining o'rnini nimalardan iborat?
6. Bank daromadlarini ko'paytirish yo'llari deganda nimani tushunasiz?
7. Tijorat banklarining foydasi haqida tushuncha nimalardan iborat?
8. Tijorat banklari foydasi va uni taqsimlash nimalardan iborat?
9. Tijorat banklarini soliqqa tortish tartibi nimalardan iborat?
10. Tijorat banklari rentabellik ko'rsatkichlari qanday tarzda amalga oshiriladi?
11. Tijorat banklarining dividend siyosati. Bank foydasini oshirish yo'llari haqida gapirib bering?

MAVZU: Tijorat banklarining daromadlari, xarajatlari va foydasi (6 soat)

REJA:

1. Tijorat banklarining daromadlari: foizli va foizsiz daromadlari.
2. Tijorat banklarining foizli va foizsiz xarajatlari.
3. Tijorat banklarining operatsion xarajatlari.

- 4.Spred tushunchasi va uni hisoblash tartibi.
- 5.Tijorat banklarining daromadlilikini oshirishda spekulyatsiya operatsiyalarining o'rni.
6. Bank daromadlarini ko'paytirish yo'llari.
- 7.Tijorat banklarining foydasi haqida tushuncha.
8. Tijorat banklari foydasi va uni taqsimlash.
- 9.Tijorat banklarini soliqqa tortish tartibi.
10. Tijorat banklari rentabellik ko'rsatkichlari.
- 11.Tijorat banklarining dividend siyosati. Bank foydasini oshirish yo'llari.

Tayanch so'zlar: korrespondentlik xizmati, lizing to'lovlar, ssuda biznesi, faktoring operatsiyalari, foizli daromadlar, foizsiz daromadlar, regress huquqi

Tijorat banklarining daromadlari: foizli va foizsiz daromadlari.

Tijorat banki daromadining asosiy manbai bo'lib quyidagilar hisoblanadi

Tijorat banking daromadlari

№	Daromadlar manbai	Izoh
1	2	3
1.	Ssuda biznesi	Bu biznes ikki unsumni o'z ichiga oladi: • mijozlarga ssuda berish; • foyda olish maqsadida o'zining bo'sh turgan resurslarini boshqa tijorat banklariga vaqtinchalik berib turish. Ssuda biznesining ikkinchi qismi banklararo kredit yoki boshqa bankka qo'yilgan tezkor depozit shaklida bo'lishi mumkin.
2.	Diskontli biznes	Bu to'lanmagan veksellar, cheklarni muayyan diskont bilan bank tomonidan sotib olishga asoslanadi. Faktoring operatsiyalari diskontli biznesning har xil ko'rinishlaridan biridir. U ikki ko'rinishda bo'ladi: • regress (oborotli) huquqi bilan; • regress (oborotsiz) huquqsiz. Birinchi holda bank mablag'ni olgan (etkazib beruvchi)dan to'lanmagan majburiyatlarni undirib olishga haqli bo'ladi. Ikkinchi holda esa bunday huquqqa ega bo'lmaydi. SHu sababli u ko'proq mukofotlanishni talab qilib ko'proq tavakkalga boradi. Faktoring operatsiyasi uchun bankni mukofotlash etkazib beruvchining sotishdan olgan daromadini kamaytiradi. CHunki aynan shu qiymatdan skidka qilinadi. Masalan, 20 foiz skidka bilan mahsulotni sotish yoki mablag'ni qaytarish.
3.	Himoyali	Bu bank operatsiyalariga mos tushuvchi xizmatlar

	biznes	bo‘lib, ular trast (ishonchli) va vakilli xizmatlar
4.	Qimmatli qog‘ozlar orqali biznes	Bunda bankning daromadi quyidagilar evaziga shakllanadi: • o‘zining va boshqa emitentlarning qimmatli qog‘ozlarini sotish chog‘ida kurs tafovuti evaziga olingan daromad; • xususiylashtirishda bajarilgan xizmatlar evaziga olingan daromad (xususiylashtirish hujjatlarini talab darajasiga keltirish, korxonaning qiymatini aniqlash, aksiyalarni chiqarish va joylashtirish reestrlarni yurgizish va h.k.)
5.	Bankning kafillik faoliyati	Bu faoliyag evaziga bank bevosita va bilvosita daromad oladi. Mijozlarga bankdan kredit olish va boshqa operatsiyalarni bajarishlari uchun kafil xatlarini beradi va shu narsa evaziga bank daromad oladi
6.	Mijoz omonatlarini jalb qilish va omonatchilar topshirig‘i bilan operatsiyalar amalga oshirish faoliyati	Bunda bank daromadi uning quyidagi vositachilik operatsiyalarni bajarish evaziga shakllanadi: • schyotlarni ochish; • schyotlarni olib borish; • schyotlar bo‘yicha operatsiyalardan nusxa oldirish; • schyotlarni yopish; • naqd pulni berish bo‘yicha hisob-kitoblarni bajarish va h.k.
7.	Korrespondent (rasmiy yozishma)lik xizmati	Bunda bank boshqa bank korschtyoti qoldig‘i (salqdosi)dagi kreditdan foiz olish evaziga daromad oladi. U daromadning miqdori: • foiz stavkasi darajasiga; • foizni hisoblash tartibiga; • salqdodagi kredit miqdori va uning qanchalik davomligiga bog‘liq bo‘ladi. Bunda bank daromadi: • lizing; • axborot berishga oid (informatsion); • maslahat berish; • valyutani almashtirish; • mijozlarni o‘qitish kabi xizmatlarni bajarish evaziga shakllanadi. Lizing operatsiyalarini bajarish evaziga olinadigan daromad: • lizing to‘lovlar; • foiz to‘lovlari;

		vositachilik uchun to'langan haqlarni o'z ichiga oladi.
8.	Bank mulkini sotish bilan bog'liq bo'lgan ko'zda tutilmagan daromadlar	Bu daromad bank balansidagi qiymatdan bozor bahosining oshishi evaziga paydo bo'ladi. Aks holda xarajat bilan bog'liq operatsiyalar bankning to'g'ridan-to'g'ri zarar ko'rishiga olib keladi.

Shunday qilib, tijorat bankining barcha ko'rinishlardagi daromadini uchta guruhga bo'lish mumkin:

- foizdan olingan daromad;
- vositachilik (komissiya) evaziga olingan daromad;
- boshqa turli daromadlar (bozordagi operatsiyalarda kurs farqi, sotilgan bank mulkining balansdagi narx o'rtasidagi farq, qimmatli qog'ozlar va boshqa nominal bahosini qayta baholash, jarimalar evaziga olingan daromadlar).

Qayta qilingan xizmatlar evaziga olingan daromadlar bank xarajatlarini, riskini qoplab foyda olishini ta'minlashi kerak. **Ssuda foizi** - bu muayyan muddatga berilgan qarz uchun to'lanadigan foiz. Ssuda foizining turlari quyidagicha tavsiflanadi:

- **kredit shakllari bo'yicha:**

- tijorat foizi;
- bank foizi;
- iste'mol foizi;

- **kredit muassasalarining turlari bo'yicha:**

- Markaziy bank foizi;
- tijorat banklari foizi;
- lombard (garov)ga oid foiz;

- **ssuda muddatlari bo'yicha:**

- qisqa muddatli ssuda foizi;
- pul bozori stavkasi darajasidagi foiz;
- uzoq muddatli ssuda foizi;

- **ssuda turlari bo'yicha:**

- ssudalar bo'yicha foiz;
- banklararo kredit foizi;
- depozit foizi;

- **hisoblash usuli bo'yicha:**

- oddiy foizlar;
- murakkab foizlar;
- aniq foizlar;
- odatdagi foizlar va boshqalar.

Turli ko'rinishlardan qat'iy nazar bitimlashgan ssuda foizi kredit resurslarining bahosi va mazkur tijorat banki uchun zarur bo'lgan marja hisobiga shakllanadi. Jahon bank amaliyotida bank tijorat daromadlarining asosiy turlariga quyidagilar kiradi:

⇒ Ssuda operatsiyalaridan olinadigan daromadlar.

⇒ Diskont tijorati.

⇒ Qoʻriqlash tijorati.

⇒ Qimmatli qogʻozlar bilan amalga oshiriladigan operatsiyalar orqali olinadigan daromadlar.

⇒ Bank oʻzi emissiya qilish asosida olinadigan daromadlar.

⇒ Boshqa emitentlar topshirigʻi bilan amalga oshirilgan operatsiyalardan olingan daromadlar.

⇒ Kafolat va kafillik xizmatlari uchun olinadigan daromadlar

⇒ Omonatlarni jalb qilishva mijozlar topshirigʻini bajarish asosida olinadigan daromadlar.

⇒ Boshqa banklar vakillik hisob varaqlarini yuritishdan olinadigan daromadlar

⇒ Ssuda operatsiyalaridan olinadigan daromadlar.

⇒ Bu tijoratda bank mijozlarni oʻz vaqtida toʻlanmagan veksel, cheklari va boshqa toʻlov hujjatlarini maʼlum skidka bilan sotib oladi (debitor qarzlarini).

⇒ Bizda keng tarqalgan turi-bu faktoring operatsiyalarini keltirish mumkin (faktoringni regresli qilish huquqi bilan (oborotli) va regressiz (oborotsiz)). Diskont tijorati.Bu tijorat doirasida masalan bank mijozga Trast (ishonch) va vositachilik xizmatlarini koʻrsatish orqali daromad oladi.Bu daromad bankga komission toʻlovlar shaklida tushadi.Qimmatli qogʻozlar bilan amalga oshiriladigan operatsiyalar orqali olinadigan daromadlar:

- Bank oʻzi emissiya qilish asosida olinadigan daromadlar.
- Boshqa emitentlar topshirigʻi bilan amalga oshirilgan operatsiyalardan olingan daromadlar.Bu tijoratda daromadlar kurslar oʻrtasidagi farqlar, dividendlar, muddatli majburiyatnomalar uchun foiz daromatlari, qimmatli qogʻozlarni qayta realizatsiya qilish asosida olinadigan daromadlar.Kafolat va kafillik xizmatlari uchun olinadigan daromadlar-komission toʻlovlari asosida tushadi-turli tushumlar shaklida.Omonatlarni jalb qilish va mijozlar topshirigʻini bajarish asosida olinadigan daromadlar:

Bu bank tijorati quyidagi shakllarda boʻlishi mumkin:

- ☞ komission mukofot toʻlovlar;
 - a) schyotlar ochish
 - b) schyotlarni yuritish
- ☞ konkret muddat uchun oʻrnatilgan komission toʻlovlar (masalan, 100 soʻm bir oy uchun);
- ☞ pulni oborotdan olinadigan foiz komission mukofot (masalan, kassa xizmati uchun 1,5 %, toʻlov 0,4%) yotoq-mehmonxona 0,2% fakt).
 - a) qilingan operatsiyalar boʻyicha koʻchirmalar berish;
 - b) schyotlarni yopish.
- ☞ naqd tushumlarni berish yoki hisob – kitob bilan bogʻliq operatsiyalar uchun toʻlovlar.

Noanʼanaviy bank xizmatlari keltiradigan daromadlar:

- lizing operatsiyalari – informatsion xizmatlar;
- konsultativ xizmatlar – mijoz xizmat oʻqitish va x.z.

Tijorat banklarining daromadlari bir necha xususiyatlariga ko'ra tavsiflanishi mumkin.

1) qabul qilingan buxgalteriya hisobi tizimi va standartlariga bog'liq ravishda (keyinchalik to'xtalamiz)

2) olingan daromadlar davriga nisbatan joriy va kelgusi davr daromadlariga.

3) vaqt va iqtisodiy imkoniyatlariga ko'ra.

- doimiy (stabilный)- foizli daromadlar va foizsiz daromadlar;
- vaqtinchalik (nestabilный)-qimmatli qog'ozlarni ikkilamchi bozor operatsiyalaridan olingan, ko'zda tutilmagan operatsiyalardan olingan daromad, valyuta operatsiyalaridan olingan daromad (ko'pchilik banklar shu kunlarda). Respublikamiz tijorat banklarining foizli daromadlar tarkibiga 9 ta asosiy daromad turikiritilgan:

- Bankning Markaziy bankdagi hisobvaraqlari bo'yicha olingan daromadlar.
- Bankning boshqa banklardagi hisobvaraqlari bo'yicha olingan daromadlar.
- Sotib olingan veksellar bo'yicha olingan daromadlar.
- Investitsiya bo'yicha olingan daromadlar.
- Qimmatli qog'ozlarni sotib olish – sotish hisobvaraqlari bo'yicha olingan daromadlar.
- Mijozlarning majburiyatlari bo'yicha olingan daromadlar
- Mijozlarning majburiyatlari bo'yicha bankning qoplanmagan akseptlari bo'yicha olingan daromadlar.
- Ssudalar va lizing operatsiyalaridan olingan daromadlar.
- REPO operatsiyalaridan olingan daromadlar.
- Sof foizli daromad summasi foizli daromadlar summasidan ayirib tashlash yo'li bilan aniqlanadi.

Sof % daromad = % daromad summasi - % xarajat summasi.

Tijorat banklarining foizli va foizsiz xarajatlari.

Tijorat banklarining xarajatlari o'zining iqtisodiy mazmuniga ko'ra ikki yirik guruhga bo'linadi:

3. Foizli xarajatlar

4. Foizsiz xarajatlar

O'zbekiston Respublikasi bank amaliyotida tijorat banklarining xarajatlari uch yirik guruhga ajratiladi:

4. Foizli xarajatlar

5. Foizsiz xarajatlar

6. Operatsion xarajatlar.

Foizli xarajatlar o'z ichiga 8 ta xarajat turini olgan:

9. Joriy depozitlar bo'yicha foizli xarajatlar

10. Jamg'arma depozitlari bo'yicha foizli xarajatlar

11. Muddatli depozitlar bo'yicha foizli xarajatlar

12. Markaziy bankka to'lov hisobvaraqlari bo'yicha foizli xarajatlar

13. Boshqa banklarga to'lov hisobvaraqlari bo'yicha foizli xarajatlar

14. Markaziy bankdan olingan ssudalar bo'yicha foizli xarajatlar

15. Banklaro kreditlar bo'yicha foizli xarajatlar

16. Boshqa foizli xarajatlar.

Respublikamiz tijorat banklarining foizsiz xarajatlari o'z ichiga 5 xarajat turini oladi:

6. Komission xarajatlar

7. Xorijiy valyutalardagi operatsiyalardan ko'rilgan zararlar

8. Qimmatli qog'ozlarni sotib olish – sotish hisobvaraqlari bo'yicha ko'rilgan zararlar

9. Investitsiyalardan ko'rilgan zararlar

10. Boshqa foizsiz xarajatlar.

Tijorat banklarining operatsion xarajatlari.

Respublikamiz tijorat banklarining operatsion xarajatlari o'z ichiga 7 ta xarajat turini oladi:

8. Ish haqi va unga tenglashtirilgan xarajatlar

9. Ijara to'lovlari

10. Safar va transport xarajatlari

11. Ma'muriy xarajatlar

12. Xayr-ehsonlar

13. Amortizatsiya xarajatlari

14. Soliqlar, sug'urta va boshqa xarajatlar

Spred tushunchasi va uni hisoblash tartibi.

Marja-bu savdo, birja, sug'urta va bank amaliyotida tovarlar narxi, valyuta va qimmatli qog'ozlar kursi, foiz stavkalari va boshqa ko'rsatkichlar farqini aniqlash uchun ishlatiladigan atama. Bank amaliyotida bu tushuncha quyidagicha ta'riflanadi. Marja - bu:

- Narxlar, kurslar, stavkalar o'rtasidagi farq;
- depozit, garov ta'minoti yoki valyutalar kursining yo'q qilishi mymkin bo'lgan tebranishlari bo'yicha qo'shimcha ulush;
- mol asosida bitimlarda, ochiq fyuchers shartnomalari bo'yicha qilinishi mumkin bo'lgan talofatlardan sug'urtalash bo'yicha brokeriga yoki hisob-kitob palatasiga topshirilgan pul summasini yoki garobni anglatadi;
- forward valyuta kurslarini baholash usuli;
- birja bozorida xaridor qimmatli qog'ozlarni xarid qilish yoki sotishda brokerlik kreditidan foydalananda birja bozorida xaridor qimmatli qog'ozlarni xaridor qimmatli qog'ozlarni xarid qilish yoki sotishda brokerlik kreditidan foydalanganda saqlaydigan summa;
- qarz oluvchi kredit qiymatiga qo'shib saqlaydigan ustama.

$$M = \frac{\text{Muayyan davrda olingan foizlar summasi}}{\text{Shu davr ichida to'langan foizlar summasi}}$$

Masalan, marjali ssudalar bo'yicha marjaning absolyut summasi quyidagicha hisoblanadi:

$$M_{ss} = \text{Ssudalar to'lovlari bo'yicha foizlar summasi} - \text{Kredit resurslari bo'yicha foizlar summasi}$$

Marjali ssudalar - bu qarz oluvchiga kredit qiymatiga ustama qo'shish evaziga beriladigan ssuda. Marjaning absolyut miqdori va uning dinamikasi bir qator omillar ta'sirida o'zgaradi:

- daromad keltiruvchi kredit quymalari va boshqa aktiv operatsiyalar miqdori;

- bankning aktiv operatsiyalar bo'yicha foiz stavkalari;
- bankning passiv operatsiyalari bo'yicha foiz stavkalari;
- aktiv va passiv operatsiyalari foiz stavkalari o'rtasidagi farq (spread);
- bank kredit portfelida foizsiz ssudaning ulushi;
- foizli daromad keltiruvchi riskli aktivlar operatsiyalari ulushi;
- jalb qilingan resurslar va bankning o'z kapitali o'rtasidagi nisbat;
- jalb qilingan resurslar va bankning o'z kapitali o'rtasidagi nisbat;
- jalb qilingan resurslar tarkibi;
- inflyasiya sur'ati va boshqalar.

Marja quyidagi nisbiy ko'rsatkichlarda tavsiflanadi:

$$K_{hfm} = \frac{\text{Olingan foizlar summasi} - \text{To'langan foizlar summasi}}{\text{Daromad keltiruvchi aktivlar}^{1)} \text{ summasining o'rtacha qoldig'i}}$$

$$K_{hfm} = \frac{\text{Olingan foiz summasi} - \text{To'langan foiz summasi}}{\text{Aktivlar}^{2)} \text{ summasining o'rtacha qoldig'i}}$$

$$K_{ssm} = \frac{\text{Ssudalar to'lovlari bo'yicha foizlar summasi} - \text{Kredit resurslari to'lovlari bo'yicha foizlar summasi}}{\text{Qarzdorlik ssudasi summasining o'rtacha qoldig'i}}$$

Bu ko'rsatkichlardan tashqari marja foizining etarliligi ham hisoblanadi:

Bu ko'rsatkich bank uchun marjaning zaruriy minimal darajasini belgilaydi va uni hisoblashdan maqsad-qanchalik bank o'z xarajatlarini qoplash degan savolga javob berishdan iboratdir. Tijorat banklarining daromadlilikini oshirishda spekulyatsiya operatsiyalarining o'rni. Bank daromadlarini ko'paytirish yo'llari. Tijorat banklarining foydasi haqida tushuncha. Tijorat banklarining foydasi va uning darajasini tahlil qilish usullaridan quyidagilarni qayd qilish mumkin:

- foyda manbalarini tarkibiy tahlil qilish;
- moliyaviy koeffitsientlar tizimini tahlil qilish;
- omilli tahlil.

Tarkibiy tahlil bank foydasi manbalarini aniqlash va bankning bugungi kundagi faoliyatining barqarorligi va kelgusida rivojlanish imkoniyatlarini baholash uchun zarur. Tijorat banklarida, foizli daromadlardan foizli xarajatlar summasi ayirib tashlangandan so'ng, sof foizli daromad hosil bo'ladi. Sof foizli daromad summasiga foizsiz daromad summasini qo'shib, olingan natijadan foizsiz xarajatlar summasi ayirib tashlansa, u holda soliq to'langunga qadar bo'lgan yalpi foyda yuzaga keladi. Soliq to'langunga qadar bo'lgan yalpi foyda summasidan kreditlardan ko'riladigan zararlarni qoplashga mo'ljallangan zahira ajratmalari

¹⁾ **Daromadkeltiruvchiaktivlar**–

buyuridikvajismoniyshaxslarga, banklarga berilgan barcha kreditturlari, qimmatliqog'ozlar, factoring va lizing operatsiyalariga, boshqa korxonalarga safarbar qilingan qo'yilmamablag'lardir.

²⁾ **Aktivlar**– bu bank balansidagi aktivlar yig'indisi.

summasini ayirib tashlasak, u holda soliq tugagunga qadar bo'lgan sof foyda summasi yuzaga keladi.

Tijorat banklari foydasi va uni taqsimlash.

Tijorat banklarining soliq to'langunga qadar bo'lgan sof foyda summasidan foyda solig'i summasini ayirib tashlasak, u holda bankning sof foydasi hosil bo'ladi. Yuzaga kelgan sof foyda hisobidan, aksionerlar umumiy yig'ilishining qaroriga asosan, dividendlar to'lanadi. Sof foydaning dividendlar to'langandan keyin qolgan qismi taqsimlanmagan foydadeyiladi. Sof foydaning hajmi pasayishiga yo'l qo'ymaslik tijorat banklari uchun katta amaliy ahamiyat kasb etadi. Buning boisi shundaki, sof foyda hisobidan dividendlar to'lanadi. Uning etarli darajada bo'lmasligi banklarining oddiy aksiyalariga to'lanadigan dividendlar miqdorini kam bo'lib qolishiga sabab bo'ladi. Bu esa oddiy aksiyalarning bozor bahosini pasayishiga sabab bo'ladi. Buning natijasida ayrim aksionerlarning boshqa banklarga o'tib ketishi yuz berishi mumkin. Bu esa, bank ustav kapitalining kamayishiga va shuning asosida bankning to'lovga qobillik darajasining pasayishiga sabab bo'lishi mumkin. Absolyut (mutloq) sonlar tijorat banklari foydasining foydalilik darajasini ta'riflayolmaydi. Buning uchun bir qator moliyaviy koeffitsientlarni hisoblash zarur. Bankning daromadlilik darajasini tavsiflovchi ko'rsatkichlar tizimida aktivlarning bir so'miga to'g'ri kelgan foyda ko'rsatkichi eng asosiy ko'rsatkich bo'lib hisoblanadi. Ammo bu ko'rsatkich ham bank faoliyatining samaradorligini baholashda etarli emas. Bu, birinchidan, yuqori foyda olish katta risk bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan bu ko'rsatkichning dinamikasiga ta'sir qiluvchi omillar turli tuman va noaniqdir. SHu sababli bank rentabelligini tahlil qilishda bir vaqtning o'zida uni riskdan himoya qilish darajasi to'g'risida ham o'ylash kerak.

Tijorat banklarini soliqqa tortish tartibi

Bankning qisman soliq to'lovlariga quyidagilar kiradi:

- mulk solig'i;
- avtomobil solig'i;
- qo'shilgan qiymat solig'i;
- muhim tarmoqlarni qo'llab quvvatlash fondiga to'lanadigan soliq.

Barcha qayd qilingan soliqlar bank operatsiyalarni amalga oshirishda sarflanadigan xarajatlarga, tannarxga qo'shiladi. Foyda solig'i esa bank balansidagi foydadan to'lanadi.

Mavzu yuzasidan takrorlash uchun savollar

1. Tijorat banklarining daromadlari: foizli va foizsiz daromadlari nimalardan iborat?
2. Tijorat banklarining foizli va foizsiz xarajatlari qanday tarzda amalga oshiriladi?
3. Tijorat banklarining operatsion xarajatlari deganda nimani tushunasiz?
4. Spred tushunchasi va uni hisoblash tartibi qanday amalga oshiriladi?
5. Tijorat banklarining daromadlilikini oshirishda spekulyasiya operatsiyalarining o'rnini nimalardan iborat?
6. Bank daromadlarini ko'paytirish yo'llari deganda nimani tushunasiz?
7. Tijorat banklarining foydasi haqida tushuncha nimalardan iborat?

8. Tijorat banklari foydasi va uni taqsimlash nimalardan iborat?
9. Tijorat banklarini soliqqa tortish tartibi nimalardan iborat?
10. Tijorat banklari rentabellik ko'rsatkichlari qanday tarzda amalga oshiriladi?
11. Tijorat banklarining dividend siyosati. Bank foydasini oshirish yo'llari haqida gapirib bering?

MAVZU: Tijorat banklarining to'lovga layoqatliligi va likvidliligi (4 soat)

REJA:

1. Tijorat banklarining to'lovga layoqatliligi va likvidliligi haqida tushuncha.
2. Tijorat banklarining likvidlik ko'rsatkichlari.
3. O'zbekiston tijorat banklarining likvidlik holati.
4. Xorijiy davlatlar amaliyotida tijorat banklarining likvidliligini baholash usullari.
5. Likvidlilik va rezervlarni boshqarish bo'yicha tijorat banklarining siyosati va strategiyasi.
6. GEP tahlili.
7. Banklarni reytingi va uni baholash usullari.
8. O'zbekistonda iqtisodiyotni modernizatsiyalashsharoitida tijorat banklarining to'lovga layoqatliligi va likvidliligini ta'minlash yo'llari.

Tayanch so'zlar to'lovga layoqatlik,likvidlik,bank likvidligi, baholash usullari, GEPTahlili.

Tijorat banklarining to'lovga layoqatliligi va likvidliligi haqida tushuncha

Tijorat bankining faoliyati va uning samaradorligi eng avvalo uning likvidligiga bog'liq. Likvidligi bo'lmagan bank to'lovga layoqatli bo'la olmaydi. Amalda aynan nolikvidlik banklarning to'lovga layoqatsizligining asosiy sababi bo'lib, ularni bankrotlikka va bank tizimining beqarorligiga olib keladi.«Likvidlik» atamasi lotincha «Liquidus» so'zidan olingan bo'lib, suyuq, oquvchi ma'nosini beradi. U turli korxonalar, birlashmalar, firmalar va banklarning o'z majburiyatlarini o'z vaqtida bajara olish (qarzni to'lash) imkoniyatini bildiradi. Barqaror talabga ega bo'lgan pul vositalari, bank depozitlari, qimmatli qog'ozlar, moddiy aylanma vositalar va pulga tez aylantiriladigan aktivlar likvid vosita (mablag')lari deb yuritiladi.«To'lovga layoqatlilik» likvidlik tushunchasiga nisbatan kengroq bo'lib, bank zarur muddatlarda omonatchilar va davlat oldidagi majburiyatlarini to'la summada bajara olish layoqatini bildiradi.To'lov qobiliyati bankning qisqa muddat ichida o'z majburiyatlaridan qutilish imkoniyatlarini ko'rsatadi.

Bank likvidliligi - bu o'z aktivlarni naqd pul sifatida ishlatish yoki ularning nominal qiymatini saqlab qolgan holda tezda pul mablag'lariga aylantirish yo'li bilan mavjud moliyaviy majburiyatlarni qoplay olish qobiliyatidir.

Agar bankning naqd pullari va likvid aktivlarning yig'indisi uning qarzi va moliya majburiyatlarini qoplash uchun etarli bo'lsa, bank faoliyati likvid deb sanalishi mumkin. Tijorat banklarining likvidligini ta'minlash maqsadida likvidlik zaxiralari tashkil qilinadi. Bu zaxira:

- favqulotda kutilmagan ehtiyojlarni qondirish;
- kredit va investitsiya bo'yicha manfaatli shartnomalarni tuzish;
- kreditga bo'lgan talabning mavsumga qarab o'zgarishini qondirish;

- qo'yilmalarni kutilmagan tarzda olinishini va aholi jamg'armalarining kutilmagan olinishini ta'minlash va boshqalar uchun zarur bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 1998 yil 2 noyabrdagi 421-sonli "Tijorat banklari likvidligini boshqarishga bo'lgan talablar to'g'risida"gi Nizomida likvidlikka bank majburiyatlarini bajarish va aktivlar o'sishini moliyalash bilan birgalikda depozitlar va qarz mablag'lari darajasining pasayishini samarali boshqarish deb ta'rif berilgan.

Bank likvidligi bu bankning o'z oldida turgan majburiyatlarini bajara olishi, mijozlarning kreditga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishi va omonatchilarning depozitlarni qaytarib olish bo'yicha talablarini qondira olish qobiliyatidir.

Likvidlik farqlanadi:

✕ **"Jamg'arilgan"** likvidlik asosida bankda mavjud aktivlarni sotish vositasida ta'minlanadi. Masalan, bank qimmatli qog'ozlarini sotish orqali likvidlikni ta'minlash. Bu usulda chetdan resurs jalb qilishga ehtiyoj sezilmaydi va o'z-o'zidan banklar qo'shimcha xarajatga yo'l qo'ymaydi. Banklar jamg'arilgan likvidlikda bo'sh turgan mablag'larni yuqori likvid qimmatli qog'ozlarga yo'naltirish, o'z navbatida, ma'lum daromadga ega bo'lishi mumkin.

✕ **"Sotib olinadigan"** likvidlik moliyaviy bozorda qarzlar olish yoki banklararo kredit resurslari bozoridan kreditlar olish hisobiga likvidlikni ta'minlashdir. Bunda jalb etilgan resurslarga bank muayyan xarajatlarni amalga oshiradi. Xorijiy davlatlar amaliyotida banklar likvidligini ta'minlashda banklararo kreditlar asosiy ahamiyat kasb etadi. Chunki ortiqcha resurslarga ega bank ularni zarur bo'lgan banklarga depozit sifatida joylashtiradi, resursga ehtiyoj sezilganda esa boshqa banklardan sotib oladi va shu orqali o'z likvidligini ta'minlaydi.

likvidlik kategoriyasiga ikki xil yondashuv:

✕ **ZAXIRA**

▪ Birlamchi

▪ Ikkilamchi

✕ **OQIM**

"Zaxira" likvidligi deganda banklar aniq belgilangan vaqtda aktivlar tarkibini yuqori likvidligiga asoslangan holda o'zgartiradi va mavjud aktivlar zaxirasi hisobiga mijozlar oldidagi majburiyatlarini bajara olish darajasini ko'rsatadi. "Zaxira" likvidlik orqali bankning aniq belgilangan vaqtdagi likvidligi, ya'ni joriy majburiyatlarni bajarish qobiliyati tushuniladi.

✕ Birlamchi likvidlik zaxirasi asosiy bank likvidligi manbai sifatida qaraladi. Bularga kassadagi naqd pullar, inkassatsiya jarayonidagi zarur to'lov hujjatlari, majburiy zaxira mablag'lari, vakillik hisobvaraqlaridagi mablag'lar kiradi.

✕ Ikkilamchi likvidlik zaxirasiga yuqori likvid daromad keltiruvchi aktivlar kiradi. Bularga davlat qimmatli qog'ozlari hamda tez kunda qaytariladigan kreditlar kiradi.

"Oqim" likvidligida banklar belgilangan vaqtda mijozlar oldidagi majburiyatlarini bajarishida turli qiyinchiliklar yuzaga kelganda aktiv va passiv moddalarining samarali boshqarishi, shuningdek, qo'shimcha qarz mablag'larini jalb qilish natijasida majburiyatlarini bajaradi.

✕ Lahzalik likvidlik-tijorat banklarining talab kilib olinguncha saqdanadigan depozit xisobvaraqlaridagi mablag'larini bir-ikki bank ish kunida qaytara olish qobiliyatini ko'rsatadi. Banklardan mavjud talab qilib olinguncha saqdanadigan depozitlarni bir vaqtda talab etish ehtimoli uncha katta emas. Lekin bank o'z faoliyati davomida turli qiyinchiliklarga duch kelsa, mijozlar joriy hisobvaraqlardagi mablag'larni birdaniga talab qila boshlaydilar. Bunday vaqtda bank ushbu mablag'larni tezda qaytara olmasligi muammosiga duch keladi. Lahzalik likvidlik me'yori (LLK) yuqori likvid aktivlarning (YULA) talab qilib olinguncha depozitlarga (TQOD) nisbati orqali aniqlanadi.

✕ Joriy likvidlik – bank likvid aktivlarini, 30 kungacha muddatli kreditlar bo'yicha foizlar va boshqa tushumlar hisobiga talab qilib olinguncha depozitlarni, shuningdek, 30 kunlik majburiyatlarni qoplay olish kobiliyatini ko'rsatadi.

✕ Joriy likvidlik ko'rsatkichi (JLK) joriy likvid (30 kungacha bo'lgan muddat chegarasida) aktivlar (JLA) ning bank joriy (talab qilib olinguncha depozitlar hamda 30 kungacha bo'lgan) majburiyatlari (JM) ga nisbati orqali aniqlanadi.

Hozirgi kunda ushbu me'yor O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan majburiy talab kilinadigan yagona ko'rsatkich xisoblanadi va unga barcha tijorat banklari amal qilishi kerak. Uning minimal talab mikdori 30%.

✕ Uzoq muddatli likvidlik-bankning bir yilga joylashtirgan depozitlari va bergan kreditlari hisobiga kapital hamda uzoq muddatli bank majburiyatlarini qoplay olish qobiliyati tushuniladi. Bunda likvidlikni uzoq muddatlarga hisoblash, prognozlash, boshqarish strategiyasi va taktikasini ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

Bu erda: UMLK – uzoq muddatli likvidlik me'yori;

K_r – bir yilga joylashtirilgan depozitlar va berilgan kreditlar-ning umumiy summasi;

K – bank kapitali summasi;

M – bir yildan oshgan muddatli majburiyatlar summasi.

Bank likvidliligiga ta'sir qiluvchi omillarni quyidagi ichki va tashqi omillarga bo'lib tahlil qilish mumkin.

I. Ichki omillar:

- bankning mustahkam kapital bazasi;
- bank aktivlarining sifati;
- depozitlar sifati;
- tashqi manbalarga unchalik bog'liq emaslik;
- aktiv va passivlarning muddatlar bo'yicha muvofiqligi;
- bankdagi menejment darajasi;
- bankning birinchi darajali imiji (nufuzi).

II. Tashqi omillar:

- mamlakatdagi iqtisodiy va siyosiy holat;
- pul va qimmatli qog'ozlar bozorining rivojlanganlik darajasi;
- banklararo bozorning barqaror va rivojlanganlik darajasi;
- Markaziy bankning remoliyalashtirish imkoniyati;
- Markaziy bankning nazorat funksiyasi va uning samaradorligi.

Bankning mustahkam kapital bazasi eng avvalo uning o'z kapitalining mustahkamligini ta'riflaydi. O'z kapital qanchalik ko'p bo'lsa, shunchalik bankning likvidligi yuqori bo'ladi. Chunki, aynan mustahkam kapital omonatchilar va depozitorlarning ishonchli himoyachisi bo'libgina qolmay, u moliyaviy barqarorlikni ta'minlovchi kuchli vosita hamdir.

Bank aktivlarining sifati quyidagi mezonlar asosida aniqlanadi:

- likvidlik;
- risklilik;
- daromadlilik;
- diversifikatsiyalanishi, ya'ni har tomonlama rivojlanish imkoniyati.

Bank aktivlarining yalpi riski qanchalik yuqori bo'lsa, shunchalik bank ko'p daromadga ega bo'ladi.

Aktivlarning diversifikatsiyalanishi quyidagi ko'rsatkichlarda o'z ifdasini topadi:

- resurs qo'yilmalarining yo'nalishlari bo'yicha aktivlar tarkibi;
- ob'yektlar va sub'yektlar bo'yicha kredit qo'yilmalarining tarkibi;
- valyuta operatsiyalarini bajarishda ishlatiladigan valyuta tarkibi;
- qimmatli qog'ozlar portfeli tarkibi va boshqalar.

Aktivlar qanchalik diversifikatsiyalashgan bo'lsa, shunchalik bank likvidligi yuqori bo'ladi.

Depozitlarning sifati ularning barqarorligi bilan belgilanadi. Depozitlar qanchalik barqaror bo'lsa, shunchalik bank likvidligi yuqori bo'ladi. Chunki depozitlar ya'ni, jamlangan resurslar bankni tark etmaydi. Depozitlarning barqaror qismining oshib borishi bankning likvid aktivlarga bo'lgan ehtiyojini pasaytiradi.

Banklararo kreditlar bank likvidligiga deyarli xuruj qilmaydi, aksincha ular bankning qisqa muddatli likvidli mablag'larga bo'lgan etishmovchiligini to'ldiradi. Summalar va muddatlar bo'yicha **aktiv va passivlarning o'zaro muvofiqligiga** rioya qilmaslik asosan jalb qilingan mablag'lar hisobiga faoliyat ko'rsatuvchi banklarni nihoyat tang ahvolga tushirishi mumkin. Natijada bank kreditorlar oldidagi o'z majburiyatlarini bajaraolmaslik holatiga tushishi muqarrar. SHuning uchun ham bank investitsiya qilinayotgan pul mablag'larining muddati va summasini omonatchilar bilan kelishgan holda o'rnatishi lozim.

Bankda menejmentning holati ham uning likvidligini aniqlab beruvchi muhim omillardan hisoblanadi. Boshqaruv samaradorligi quyidagilarda o'z aksini topadi:

- bank siyosatining mavjudligi va pishiqligi;
- bankning yuksak darajadagi joriy va strategik vazifalarini amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'lgan tashkiliy maqbul tarkibi;
- aktiv va passiv operatsiyalarni boshqarishning ishlab chiqilgan mavjud mexanizmi;
- mas'ul qarorlarni qabul qilish imkoniyatlari va h.k.

Imij, ya'ni nufuzning yuqori bo'lishi mazkur bankka boshqa banklarga nisbatan o'z faoliyatidagi mavjud kamchiliklarni oson va zudlik bilan bartaraf etishga, bo'sh mablag'larni jalb qilishga, depozitlar barqarorligini ta'minlashga imkon yaratadi.

Tijorat banklarining likvidlik ko'rsatkichlari.

Tijorat banklarining real likvidlik darajasini hisoblashda amaliyotda turli xil mezonlardan foydalaniladi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tijorat banklari faoliyatini tartibga solishni xalqaro andozalarga mos ravishda takomillashtirish, real baho berishni 1997 yil 22 avgustda tasdiqlangan 10-sonli «Tijorat banklari faoliyatini tartibga solish qoidasi»ga asoslanib olib boradi.

Bu qoidaga binoan tijorat banklari faoliyatini baholashning quyidagi iqtisodiy me'yorlari tasdiqlangan va ular barcha banklar tomonidan bajarilishi shart deb, belgilab berilgan:

- bank kapitalining etarliligi;
- bank kapitalining uning majburiyatlariga bo'lgan nisbati;
- bankning likvidlik koeffitsienti;
- bitta qarz oluvchiga to'g'ri kelgan maksimal risk darajasi;
- bitta kreditorga (jamg'armachiga) to'g'ri kelgan maksimal risk darajasi;
- qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarda bankning o'z mablag'laridan foydalanish darajasi;
- insayderlar bilan ish olib borish me'yorlari.

Bank kapitalining etarlilik koeffitsienti bank kapitalining (BK) o'z aktivlari ($\bar{A}$) bo'yicha riskni hisobga olgan holda o'rtacha tortilgan summasiga nisbati bilan aniqlanadi:

$$K_{BKE} = \frac{BK}{\bar{A}}$$

Bank kapitali «asosiy» va «qo'sh» illardan tashkil topadi. Asosiy kapital bankning umumiy kapitalining 50 foizidan kam bo'lmashligi lozim. Bank aktivlari o'zining risklilik darajasiga qarab 4 ta asosiy guruhga bo'linadi:

- riskdan xoli bo'lgan aktivlar;
- minimal riskli aktivlar;
- yuqori riskli aktivlar;
- maksimal riskga ega bo'lgan aktivlar.

So'nggi koeffitsientning minimal darajasi 0,08 ga, ya'ni 8 foizga teng bo'lmog'i lozim. Bank kapitalining (bk) uning majburiyatlari (bm)ga bo'lgan nisbati bankning boshlang'ich likvidligini (bbl) bil

$$K_{BBL} = \frac{BK}{BM}$$

Bu ko'rsatkich bank majburiyatla ali tomonidan ta'minlanganligini ifodalaydi. K_{bbl} qanchalik yuqori bo'lsa, boshlang'ich likvidlik ham shunchalik yuqori bo'ladi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, bankning likvidligi uning o'z majburiyatlari bo'yicha to'lovlarni o'z vaqtida va to'liq bajarish hamda mijozlarning kreditga bo'lgan ehtiyojini o'z vaqtida qondira olish qobiliyatini bildiradi. Banklar uchun quyidagi likvidlik ko'rsatkichlari o'rnatilgan. **Lahzalik likvidlik koeffitsienti** bankning yuqori likvid (ya'ni, g'aznadagi pul va korrespondentlik varaqasidagi) mablag'larning joriy majburiyatlarga nisbati sifatida aniqlanadi va u bankning joriy to'lovlari tezkorlik bilan amalga oshiraolish qobiliyatini ko'rsatadi. Bankning joriy majburiyatlariga:

- talab qilib olgunga qadar bo'lgan depozitlar bo'yicha majburiyatlar;
- yaqin orada to'lanishi lozim bo'lgan boshqa banklardan olingan kreditlar bo'yicha majburiyatlar kiradi.

Bu me'yor bank aktivlarining likvid qismi bankning eng nobarqaror resurslarini qanchalik darajada sug'urtalay olish imkonini ko'rsatadi. SHuning uchun lahzalik likvidlikni banklar har kuni tekshirib borishlari va uning minimal darajasi 0,25 dan kam bo'lmasligini ta'minlashlari lozim.

Bankning likvidlik koeffitsientlari

№	Ko'rsatkichlar	Hisoblash tartibi	Izoh
1	2	3	4
1.	Lahzalik likvidlik koeffitsienti (K_{ll})	$K_{ll} = \frac{ПША}{ЖМ}$	PSHA - bankning pul shaklidagi aktivlari MJ - bankning talab qilgunga qadar bo'lgan varaqalar bo'yicha joriy majburiyatlari
2.	Joriy likvidlik koeffitsienti (K_{jl})	$K_{jl} = \frac{ЛА}{ММ}$	LA - likvid aktivlar va bankning to'lash muddati 30 kungacha bo'lgan qo'yilmalari (muddati uzaytirilgan yoki o'tgan ssuda bo'yicha qarzlari hisobga kirmaydi) MM - talab qilib olgunga qadar bo'lgan mablag'lar va to'lash muddati 30 kungacha bo'lgan majburiyatlar
3.	Qisqa muddatli likvidlik koeffitsienti (K_{qm})	$K_{qm} = \frac{A}{Д + БК}$	A - to'lash muddati 30 kundan 1 yilgacha bo'lgan bank aktivlari D - muddati 30 kundan 1 yilgacha bo'lgan jalb qilingan depozitlar va resurslar BK - bank kapitali
4.	Bitta qarz oluvchiga to'g'ri keladigan maksimal risk darajasi (K_{qord})	$K_{qord} = \frac{ЙК}{БК}$	YK - bitta mijozga berilgan eng yirik kredit miqdori qo'shilgan depozitlar bilan ta'minlanganligini chegirgan holda shu mijozga bank tomonidan berilgan majburiyatlarning 75 foizi
5.	Barcha yirik kreditlar uchun maksimal risk darajasi (K_{ykrd})	$K_{ykrd} = \frac{ЖЙК}{БК}$	JYK - ja'mi yirik kreditlar. Ja'mi berilgan yirik kreditlar miqdori bank kapitalining 3 barobaridan ko'p bo'lmasligi kerak.
6.	Bir kreditor (jamg'armachi)ga to'g'ri kelgan maksimal risk (K_{kmr})	$K_{kmr} = \frac{\sum M}{БК}$	$\sum M$ - bankning jamg'armalar, olingan kreditlar, depozit varaqalar bo'yicha bir mijozga to'g'ri keluvchi ja'mi majburiyatlar K_{kmr} ning darajasi 1,0 atrofida bo'lishi lozim.

Banklarning kreditlash jarayoni risk bilan bog'liq. Shu sababli banklarning likvidligini ta'minlashda ular beradigan kreditlar bo'yicha risk darajasini nazorat qilib borish o'ta zarurdir. Agar bank biror mijozga yirik summada kredit beradigan bo'lsa, unga to'g'ri kelish mumkin bo'lgan risk darajasini tekshirib turishi lozim. Shu maqsadda K_{qord} ko'effitsienti hisoblanadi. Bu me'yor davlat kafolatlangan kreditlariga tegishli emas. Likvidlik ko'effitsientlarining me'yoriy darajalarini quyidagi jadvalda keltiramiz.

Likvidlik ko'effitsientlarining me'yoriy darajalari

Koeffitsientlar	Me'yor darajalari
K_{ll}	0,25
K_{jl}	0,30
K_{qm}	1,00
K_{qord}	0,25
K_{ykrd}	>3,00
K_{kmr}	1,00

MDI davlatlari bank tizimida bajarilishi lozim bo'lgan qator normativlar o'rnatilgan. Masalan, Rossiya Federatsiyasi tijorat banklarga quyidagi me'yorlarga rioya qilishlarini shart qilib qo'ygan.

Tijorat banklari tomonidan bajarilishi lozim bo'lgan normativlar

№	Normativlar	Hisoblash tartibi	Izoh
1	2	3	4
1.	Bank majburiyatlarini cheklovchi ko'effitsient (K_1)	$K_1 = \frac{\sum M}{\check{Y}K}$	$\sum^M$ - bankning ja'mi majburiyati O'K - bankning o'z kapitali
2.	Aholi omonatlarini cheklovchi ko'effitsient (K_2)	$K_2 = \frac{AO}{\check{Y}K}$	AO - aholi omonatlari summasi
3.	Bitta zayomchiga to'g'ri kelgan maksimal risk hajmi (K_3)	$K_3 = \frac{CK}{\check{Y}K}$	SQ - bitta zayomchiga to'g'ri kelgan ssuda qarzi
4.	Bank balansi joriy likvidlik ko'effitsienti (K_4)	$K_4 = \frac{JA}{M_{30}}$	LA - likvid aktivlar M_{30} - 30 kungacha bo'lgan bank majburiyatlari
5.	Bank balansining o'rta muddatli likvidlik ko'effitsienti (K_5)	$K_5 = \frac{A}{M}$	A - bir yildan ortiq muddatdagi aktivlar M - bir yildan ortiq muddatdagi majburiyatlar

K1-bu bankning ja'mi majburiyati bilan uni kapitali o'rtasidagi bog'lanishni ifodalaydi. Bunday bog'lanishni kuzatish va unga rioya qilishning zaruriyati shundaki, bank o'z majburiyatlari hajmini o'z kapitaliga nisbatan haddan tashqari oshirmasliklari lozim. Aks holda u o'z mijozlari oldidagi majburiyatlarni bajarolmaydi. Bankning ja'mi **majburiyati** quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- korxona, tashkilot, muassasa, shu jumladan, jamoa tashkilotlari hisob raqamlaridagi mablag'lar qoldig'i;
- yuridik shaxslarning omonatlari va depozitlari;
- aholi omonatlari;
- hisobdagi mablag'lar;
- boshqa banklardagi zayomlar;
- 50 foizli kafolat va kafillik.

Bankning **o'z kapitali (BO'K)** quyidagicha hisoblanadi:

$$BO'K = \sum \Phi + TF + BQ + DQ + d$$

Bu erda,

$\sum \Phi$ - bankning ustav, zaxira va boshqa fondlar yig'indisi;

TF - taqsimlanmagan foyda (foydadan chegirib tashlangan mablag'lardan tashqari);

BQ - bino va inshootlar qiymati;

DQ - debitor qarzdorlar;

d - boshqa korxonalaridagi ulushi.

K₁ ning normativ darajasi tijorat banklari uchun 1/20; kooperativ banklar uchun esa 1/12 dan kam bo'lmashligi kerak.

K₂ - bu aholi omonatlari bilan uning o'z kapitali o'rtasidagi bog'lanishni ifodalaydi. Bunday bog'lanishni aniqlash va unga rioya qilishning zaruriyati shundaki, har qanday bank o'z mablag'larining summasi doirasidagina aholi omonatlarini jalb qilaolishi mumkin, xolos. Shu sababli **K₂** ning normativ darajasi 1 ga teng qilib o'rnatilgan.

K₃ ning normativ darajasi 0,5 dan oshmasligi kerak.

K₄ ning normativ darajasi 0,3 dan past bo'lmashligi lozim.

Shunga muvofiq har bir bank joriy to'lovlarni amalga oshirishi uchun qisqa muddatli majburiyatlarning eng kamida 30 foizi miqdoridagi aktivi bo'lishi lozim.

K₅ ning normativ darajasi 1 dan katta bo'lmashligi kerak. Barcha normativlarni quyidagi jadvalda keltiramiz .

Chegaralangan normativlar

Normativlar	Me'yor darajalari
K ₁	0,5
K ₂	1,0
K ₃	0,5
K ₄	0,3
K ₅	1,0

Bank tomonidan berilgan barcha «yirik» kreditlar bankning o'z resurslari hajmidan 8 martadan ko'pga oshmasligi kerak. Eng yirik beshta kreditning summasi (balans orti operatsiyalarni hisobga olganda) bankning o'z

mablag'laridan uch martadan ko'pga oshmasligi kerak.

Rossiya Federatsiyasi tijorat banklari uchun quyidagi me'yorlarni ham belgilab bergan. Ular quyidagilardir:

•
$$H_1 = \frac{K}{M}$$

Bu erda,

N_1 - bankning boshlang'ich likvidlik darajasi;

K - kapital;

M - majburiyatlar.

Bu me'yor bank majburiyatlarini o'z kapitali tomonidan qanchalik darajada ta'minlanganligini ko'rsatadi. N_1 qanchalik yuqori bo'lsa, bankning boshlang'ich likvidligi ham shuncha yuqori bo'ladi.

•
$$H_2 = \frac{K}{C}$$

Bu erda,

N_2 - kredit bo'yicha qarzlarning hisob-kitob, joriy va depozit varaqalari hamda qo'yimalarga nisbati;

Q - qarzlari;

S - joriy va depozit varaqali qo'yimlar.

Rossiya banklarida N_2 me'yorning darajasini 0,7-1,5 oralig'ida ushlab turish maqsadga muvofiq keladi deb hisoblanadi. Kredit bo'yicha ehtiyojlarni qondirishga qancha ko'p mablag'lar sarf etilsa, N_2 ning qiymati shunchalik yuqori bo'ladi. N_2 ning oshishi bank likvidligini tushishidan dalolat beradi. Buni tijorat banklari o'z kredit va investitsiya siyosatini olib borishda hisobga olishlari kerak.

•
$$H_3 = \frac{La}{C}$$

Bu erda,

N_3 - likvid aktivlarning umumiy qo'yimalarga nisbati;

La - likvid aktivlar, ya'ni to'lash muddati 30 kungacha bo'lgan bank kreditlari va shu muddatga kelib tushishi kerak bo'lgan boshqa tushumlar.

N_3 me'yoring darajasini 0,2-0,5 oralig'ida ushlab turish belgilab berilgan. Garchi N_3 iqtisodiy mazmuni bo'yicha N_2 ga o'xshashroq bo'lsada, N_3 bank likvidligi to'g'risida aniqroq ma'lumot beradi. Sababi, N_2 koeffitsienti likvidsiz hisoblanmish kreditlar orqali bank likvidligini ifodalaydi.

•
$$H_4 = \frac{Aa}{A}$$

Bu erda, N_4 - likvidaktivlarning bankning umumiy aktivlariga bo'lgan nisbati, A - aktivlarning umumiy hajmi, ya'ni 30 kundanki muddatdagi kreditlar, shujumladan bankka kelib tushishi lozim bo'lgan to'lovlar va muddat o'tgan kreditlar. Buko'rsatki qanchalik yuqori bo'lsa, bankning likvidligi shunchalik yuqori bo'ladi.

•
$$H_5 = \frac{La}{BM}$$

Bu erda,

N_5 - likvid aktivlarning (La) talab qilib olgunga qadar bo'lgan qo'yilmalari bo'yicha bank majburiyati nisbati;

BM - talab qilib olgunga qadar bo'lgan qo'yilmalar bo'yicha bank majburiyati, ya'ni tugash muddati bir oygacha bo'lgan depozitlar, 30 kun ichida tugatishi lozim bo'lgan bankning olgan kreditlari, 30 kun ichida bajarilishi lozim bo'lgan bank kafolatlari.

Bu me'yor aktiv mablag'larining likvid qismi qay darajada olinishi lozimligini, shuningdek, kutilayotgan majburiyatni qoplay olish darajasini ifodalaydi.

$$H_6 = \frac{A_{m,l}}{DB + MK}$$

•

Bu erda,

A_d - bankning bir yildan ortiq vaqt ichida to'lashi lozim bo'lgan aktivlari;

DV - depozit varaqalar bo'yicha majburiyatlar;

MK - bir yildan ortiq muddatli kreditlar.

Bu me'yorning maksimal darajasini 1,0-1,5 atrofida saqlanishi maqsadga muvofiq deb yuritiladi. N_6 bankning bir yildan uzoq majburiyatlarning ta'minlanganligi bo'yicha likvidlik darajasini ifodalaydi. Bankning likvidligi quyidagi talablarni qondiradigan darajada bo'lishi lozim:

- olinadigan depozitlarni;

- aktivlar bilan majburiyatlarni to'lashda mavjud bo'lgan farqni;

- pul oqimlaridagi tebranishlarni;

- rejalashtirilmagan boshqa xarajatlarni qoplay oladigan darajada bo'lishi kerak.

Likvidlikni ta'minlay olmagan banklar to'lovga layoqatsiz bo'lib qolishlari natijasida bankrotlikka uchrashishlari muqarrar. Likvidlikni ta'minlashning eng oddiy usuli bankning bir qism aktivlarini likvid shaklida, masalan, naqd pul, Markaziy bank va boshqa banklardagi vakillik hisob varag'idagi qoldiqlar, davlat qisqa muddatli obligatsiyalari (DQMO) shaklida saqlash hisoblanadi. Banklar likvidligining o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillarni hisobga olgan holda likvid aktivlarining zarur miqdorini belgilab olishlari zarur. Mazkur omillarga quyidagilar kiradi: omonatlarning ko'payishi yoki kamayishiga ko'ra mablag'larga ega bo'lish yoki ularni yo'qotish omonatlar summasining o'sishi yoki qisqarishiga muvofiq majburiy zaxiralarning me'yoriy miqdorini ko'paytirish yoki kamaytirish, ssudalar va investitsiyalar summasining oshishi yoki kamayishiga ko'ra mablag'lar oqib kelishini ko'paytirish yoki kamaytirish. Ushbu omilning ta'siri shundan iboratki, ssudalar va investitsiyalar miqdorining oshishi, likvid aktivlar ulushini kamaytiradi, sababi investitsiyalar aksariyat hollarda uzoq muddatga jalb qilinadi. Daromadlilik oshayotgan bir paytda, likvidlikni maqbul darajasini ta'minlash uchun bank jalb etilgan omonatlar muddatlari va ularga doir xarajatlarni tahlil qilib, kredit qo'yilmalari va investitsiyalar muddatlari hamda rejalashtiriladigan daromadlar bilan taqqoslash lozim. Bunday taqqoslash joylashtirilgan va jalb etilgan mablag'larni muddatlari bo'yicha qiyoslash va shu asosda bank likvidligi holatini aniqlash, shuningdek, likvidlikning zarur darajada eng ko'p foydaga

erishish uchun qisqa, o'rta va uzoq muddatli kreditlarning optimal nisbati nuqtai nazardan kredit siyosatini olib borish imkoniyatini beradi.

O'zbekiston tijorat banklarini likvidlik holati.

O'zbekiston tijorat banklarini likvidlik holatini quyidagi o'tgan yillardagi ko'rsatkichlar bo'yicha misollar sifatida ko'rishimiz mumkin, Ya'ni, 2011-2015 yillarda respublikamiz tijorat banklarining kapitallashish darajasi o'rtacha 2,1 martaga oshishi kerak. Yillar kesimida oladigan bo'lsak, tijorat banklarining kapitallashuv darajasining oshishi quyidagi prognoz ko'rsatkichlariga ega:

2011 yil – 4114 mlrd. so'm;

2012 yil – 4731 mlrd. so'm;

2013 yil – 5441 mlrd. so'm;

2014 yil – 6257 mlrd. so'm;

2015 yil – 7357 mlrd. so'm.

Respublikamiz tijorat banklarining likvidliligini yanada oshirish borasida quyidagi muammolar mavjud:

1. Tijorat banklari depozit bazasining umumiy hajmida talab qilib olinadigan depozitlar salmog'ining yuqori ekanligi.

2. Respublikamiz tijorat banklari aktivlarining umumiy hajmida yuqori likvidli qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar salmog'ining kichik ekanligi.

3. Markaziy bank majburiy zaxira talabnomasining tijorat banklarining likvidliligiga nisbatan salbiy ta'sirining mavjudligi.

Yuqorida qayd etilgan muammolarni hal etish maqsadida quyidagi tadbirlarning amalga oshirilishini maqsadga muvofiq:

1. Tijorat banklari brutto depozitlari hajmida talab qilib olinadigan depozitlarning salmog'ini pasaytirish maqsadida talab qilib olinadigan depozitlarga belgilangan majburiy zaxira stavkasi bilan muddatli depozitlarga belgilangan majburiy zaxira stavkasi o'rtasidagi farqni kamida 2 barobar darajasida bo'lishini ta'minlash lozim. Buning natijasida tijorat banklarining muddatli depozitlar hajmini oshirishdan bo'lgan manfaatdorligi va joriy likvidlilik darajasi oshadi.

2. Tijorat banklarining yuqori likvidli qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalari hajmini oshirish maqsadida, birinchidan, hukumat va Markaziy bank tomonidan emissiya qilinadigan qimmatli qog'ozlar hajmini oshirish lozim; ikkinchidan, to'lovi hukumat tomonidan kafolatlangan korporativ qimmatli qog'ozlarni muomalaga kiritish zarur va ular Markaziy bank tomonidan yuqori likvidli aktiv sifatida tan olinishi lozim.

3. Markaziy bankning majburiy zaxira stavkasini depozitlarning muddatiga bog'liq ravishda tabaqalashtirish tartibi saqlangani holda, ushbu stavkalarni inflyasiya

darajasiga mos ravishda pasaytirish lozim. Natijada, majburiy zaxira stavkalari tijorat banklarining depozitlari bo'yicha quyidagicha belgilanadi:

- 1 yilgacha muddatga jalb qilingan depozitlar bo'yicha- 7,5 %;
 - 1 yildan 3 yilgacha muddatga jalb qilingan depozitlar bo'yicha- 6 % (7,5 foizning 80 foizi darajasida);
 - 3 yildan ortiq muddatga jalb qilingan depozitlar bo'yicha- 5,3 % (7,5 foizning 70 foizi darajasida).
- Mamlakat bank tizimi faoliyatini baholash uchun etakchi xalqaro reyting tashkilotlari tomonidan qo'llaniladigan xalqaro me'yor, andozalarni va baholash ko'rsatkichlarini joriy etish ishlari davom ettiriladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2011-2015 yillarda O'zbekiston iqtisodiyotida islohotlar ko'lamini kengaytirish va chuqurlashtirish, mamlakatda ishchanlik muhitini shakllantirishning mezonlari va baholash tizimini aniqlash va amalga oshirishga doir chora-tadbirlar Dasturi to'g'risida» 2011 yil 7 yanvardagi PQ-1464-sonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida qator tadbirlar amalga oshiriladi. Tijorat banklari faoliyatini va butun respublika moliya-bank tizimini baholash uchun «Fitch Reytings», «Mudis» va «Standart end Purs» etakchi xalqaro reyting kompaniyalari tomonidan qo'llaniladigan me'yor, andozalarni va baholash ko'rsatkichlari bosqichma-bosqich joriy etib boriladi. Shuningdek, respublika tijorat banklari tomonidan ushbu etakchi xalqaro reyting kompaniyalarining reyting baholarini muntazam ravishda yangilanib borilishi ta'minlanadi. Tijorat banklari kapitallashuv darajasi va resurs bazasini yanada oshirish hamda ko'rsatilayotgan bank xizmatlari ko'lamini kengaytirish borasidagi ishlar davom ettiriladi. Tijorat banklari Kengashlari tomonidan kelgusi yil davomida manbalarni aniqlagan holda bank kapitalini oshirish bo'yicha tegishli chora-tadbirlar qabul qilinib, ularning bajarilishi choralari ko'riladi.

Xususan:

- banklar jami kapitalini yil mobaynida kamida 15 foizga o'sishini ta'minlash;
- 2012 yilda aholi va xo'jalik sub'ektlarining tijorat banklaridagi depozitlari hajmini kamida 20 foizga oshirish;
- aholi va xo'jalik sub'ektlari talablarini hisobga olgan holda depozit va omonatlarning yangi turlarini muntazam ravishda joriy qilish, shu jumladan, uzoq muddatli obligatsiyalar va depozit sertifikatlarni chiqarish, subordinar qarzlarni faol jalb qilish borasidagi ishlarni davom ettirish ko'zda tutilmoqda. Bank tizimining umumiy ustav kapitalida nodavlat sektori ulushini oshirish bo'yicha qabul qilingan chora-tadbirlarni amalga oshirish borasida ishlar davom ettiriladi. Ko'rsatilayotgan bank xizmatlarining sifati va ko'lamini axborot-aloqa texnologiyalarni keng qo'llash bilan kengaytirish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshiriladi, shu jumladan 2015 yilgacha respublikaning barcha tijorat banklari tomonidan yuridik va jismoniy shaxslarga internet-banking bo'yicha xizmatlar ko'rsatilishini yanada kengaytirish borasida tegishli tadbirlar olib boriladi.

Xorijiy davlatlar amaliyotida tijorat banklarining likvidliligini baholash usullari

Rivojlangan mamlakatlar bank tizimlari bir-biriga o'xshash bo'lib tuyulsada ularning har biri asrlar mobaynida tashkil topgan uziga xos bank ishi milliy munosabatlari va ularning tarkibiy qismlariga ega. Tijorat banklari faoliyatini

tartibga solish va ularni barqarorligini ta'minlash borasida xar qandaydavlat hamo'ziga xostajribalarga ega. Hozirgi iqtisodiy inqiroz sharoitida bank tizimining likvidlik riski haqidagi savollar doimo vujudga keladi,- deb ta'kidlaydi iqtisodchi olim Angela Roma bank likvidligihaqida. Jahon banklari amaliyotida ichki va tashki nazoratni tashkil etishga turlicha yondashuvlar mavjud. Intsitustional nuqtai nazardan bu tizimining tashkiliy tuzilish usullari, Markaziy bankning ushbu tizimdagi o'zni va roli bilan farq qiluvchi uch guruh mamlakatlarini ajratish mumkin:

nazorat faoliyati fakatgina Markaziy bank tomonidan amalga oshiriladigan mamlakatlar: Avstraliya, Buyuk Britaniya, Islandiya, Ispaniya, Irlandiya, Italiya, Yangi Zelandiya,

Portugaliya. Nazorat faoliyati Markaziy bank tomonidan boshqa organlar bilan birga amalga oshiriladigan mamlakatlar: AQSh-Federal Rezerv Tizimi (FRT), Moliyavazirligi va munitsipal agentlik -

Depozitlarni sug'urtalash Federal Korporatsiyasi (DSFK) bilan birgalikda, Shveytsariya - Markaziy bank, Federal Bank Komissiyasi bilan birgalikda; Frantsiya - Frantsiya Banki, Bank Komissiyasi bilan birgalikda, Germaniya-Bundesbank, Kredit Nazorati Federal Xizmati bilan birgalikda.

Nazorat faoliyati Markaziy bank tomonidan emas, balki boshqa organlar tomonidan amalga oshiriladigan mamlakatlar: Kanada, Daniya, Lyuksemburg, Shvetsiya, Avstraliya, Finlandiya, Norvegiya. Shunday qilib, bank nazorati ob'ektiv zarur ekan, ushbu faoliyatni amalga oshiruvchi maxsus organlar xam zarurdir.

Ushbu organlar maqomida bo'yicha turlicha bo'lishi mumkin, ammo ular ichida xamisha davlat organlari mavjud buladi.

Shu bilan birgalikda ayrim mamlakatlarda bank faoliyatini tartibga soliq tizimining tashkiloti topishining amaliyoti tarixiy jixatdan karalgan dastun ko'rsatmoki daki, ushbu jarayonlar turli mamlakatlarda turlicha ligidank o'rako'proq umumiy xususiyatlar ga ega AQSh dapul-

kredit siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish uchun mas'ul organ bo'lib - Federal Rezerv Tizimi (Markaziy bank) hisoblanadi. AQSh da banklar faoliyatini nazorat etish va boshqarish bizdan farq qiladi. Bugungi kunda AQSh banklarini boshqarish va ularni faoliyatini nazorat etish quyidagi idoralar tomonidan olib boriladi:

1. Federal rezerv sistemasi.
2. Pul muomalasi nazoratchisi barcha milliy banklarni nazorat qiladi.
3. Depozitlarni sug'urtalovchi Federal korporatsiyasi bank va mijozlar depozitlarini sug'urtalaydi, bankrotlikka uchragan banklarga o'z vakolati doirasida yordam beradi.
4. Adliya vazirligi.
5. qimmatli qogozlar va birjalar bo'yicha komissiya.
6. Shtatlardagi bank faoliyati bo'yicha komissiya yoki bank sovetlari yangi banklar ochilishi uchun charterlar beradi va o'z navbatida shtatda charter olgan barcha banklarni doimiy tekshiradi hamda ularni doimiy ravishda nazorat etadi.

Hozirgi kunda AQShda tijorat banklari faoliyatini tartibga soliq quyidagi makroiqtisodiy maqsadlarni amalga oshirishga yo'naltirilgan, Iqtisodiy me'yorlar tizimini aniklash va uning bajarilishi ustidan nazoratni Federal Rezerv Tizimi amalga oshiradi. AQShda hozirgi kunda iqtisodiy me'yorlar tizimini ishlab chiqishda Bazelu bitimining takliflari asos kilib olingan. 1988 yilgacha AKShda etarli kapital mikdori barcha aktivlarning 5%i darajasida belgilangan edi. 1988 yildan boshlab kapitalning etarlilik talablari xatarni xisoblab chamalangan aktivlarning 8% darajasida belgilandi. 1993 yilning 1-yanvaridan boshlab barcha amerika banklari Bazelu bitimi talablariga bo'ysinishga majburligi konun yo'li bilan belgilab qo'yildi. Xuddi shu tizimga o'xshagan xolat Angliya bank tizimi faoliyatiga xam tegishli. Angliya Bank tizimining o'ziga xos xarakatlantiruvchi asosiyismi va London pul bozorining asosiy qatnashchilari yirik tijorat banklaridan iborat cheklangan guruh xisoblanadi. Ular jumlasiga avvalo mamlakatning yirik «katta to'rtlik» banklari: «Lloyds», «Midland», «Barklayz» va «Neshnl Vetsmintser» kiradi. Tijorat banklari va kredit-moliya institutlarining faoliyatini tartibga solish Angliya Banki tomonidan amalga oshiriladi. Ushbu faoliyatni atroflicha taxlil qilish uchun bu soxada qabul kilingan muxim qonun va karorlarni kurib chiqishlozim. Buyuk Britaniya bank tizimi tarixan kup xam nazoratga olinmagan, 1973-74 yillarda bir qator banklarning nisbatan qisqa muddatga mablag'larni jalb qilib uzoq muddatga kredit berishi oqibatida bank tizimi inkirozga uchradi va bu xol 1979 yil bank konunining qabul qilinishiga asos bo'ldi. Ushbu qonunga muvofiq depozit qabul qiluvchi institutlar ikki toifaga, banklar va listenziyalangan depozit qabul qiluvchilarga ajratildi. Bank sifatida listenziya olish uchun muassasalar etarlicha mablag'larga ega bo'lishi va o'z mijozlariga turli-tuman bank xizmatlari ko'rsatish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim. Listenziyalangan depozit qabul qiluvchilar esa bank maqomiga ega bo'lish uchun qo'yilgan shartlarga to'liq javob bera olmaydigan, ammo ayrim turdagi bank operatsiyalari bilan shug'ullanuvchi moliya muassasalari edilar. Ushbu qonunda shuningdek "bank" so'zini faqatgina etarlicha bank kapitaliga ega bo'lgan xamda banklarga xos ko'p turdagi operatsiyalarni amalga oshiruvchi moliya muassalarigina ishlatishi belgilab qo'yildi. 1979 yilgi bank qonuni mayda bank depozitorlari va jamg'armachilarini bank inkirozlaridan ximoya qilish maqsadida bank depozitorlarini himoyalash tizimini ishlab chiqdi. Ushbu AQShdagi Depozitlarni Sugo'rtalash Federal Korporatsiyasi (DSFK) singari faoliyat ko'rsatadi. Ushbu tizim a'zo banklarning vakillaridan tashkil topgan Depozitlarni ximoyalash Boshqarmasi tomonidan boshqariladi va uning boshlig'i Angliya Bankining raisi hisoblanadi. Bu boshqarma Depozitlarni himoyalash Fondini boshqaradi xamda barcha banklar va depozit qabul qiluvchi muassalar o'z depozit bazalariga nisbatan 0,3%, ammo 300,000 funt tserlingdan oshmagan miqdorda badal to'lashlari shart. 1981 yilda qabul qilingan «Monetar Nazorat to'g'risidagi nizom»ga binoan bank muassasalari va depozit qabul qiluvchilarning likvidligini ta'minlash maqsadida bu muassasalar o'z majburiyatlarining 0,5% ini Angliya Bankidagi operatsiyalarda qatnashmaydigan xisob rakamida saqlashlari shart qilib qo'yildi. Shuningdek ushbu nizomga muvofiq Angliya Banki tomonidan uchet stavkalari e'lon qilinmaydigan bo'ldi, ammo bu instrumentni zarur paytda qo'llash

kukuki saqlab kolindi. Lekin shunday bo'lsada kupgina tijorat banklari va depozit qabul qiluvchi muassasalar beraetgan kreditlari uchun foiz stavkasini belgilash jarayonida Angliya Banki tijorat banklariga berayotgan kreditlar uchun belgilaydigan foiz stavkalarini asos qilibolmoqdalar. Germaniya bank tizimida kredit tizimining turli zvenolari o'rtasidagi o'zaro aloqalarning asosi sifatida universallashtirish tamoyili qo'llaniladi. Unga binoan turli kredit muassasalari moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirishda bir hil xuquqqa egadirlar. Germaniyada tijorat banklari faoliyatini tartibga solish vazifasi Bundesbank va Kredit Nazorati Federal Xizmati zimmasiga yuklangan. Bundesbank faqat birgina real ta'sir vositasiga ega, ya'ni u xam bo'lsa majburiy rezervlashning eng kam miqdorini urnatish va tijorat banklari ustidan nazorat qilishning fakatgina ikki intrumentiga ega - bular mablag'larni rezervlash va xisobotlar qabul qilish. Boshqa nazorat funktsiyalari Moliya vazirligiga bo'ysinuvchi Kredit Nazorati Federal Xizmati zimmasiga yuklangan. Germaniyada faoliyat ko'rsatayotgan tijorat banklari Bundesbankka bank balansi likvidligining ahvoli xakida xar oyning oxirida talab etilgan shakllar bo'yicha xisobot topshiradilar. Frantsiya bank tizimi xam dunyodagi eng qadimgi va hozirgi kunda taraqqiy etgan tizimlardan biri sanaladi, shu sababli xam bizningcha uning tajribasini o'rganish foydadan xoli emas.

Likvidlilik va rezervlarni boshqarish bo'yicha tijorat banklarining siyosati va strategiyasi.

Bank likvidlilikini boshqarish deganda likvidlik darajasini hamda bank faoliyatining barqarorligi va ishonchliligini ta'minlash borasidagi siyosat tushuniladi. Bu siyosat likvidlikni boshqarish bo'yicha asosiy holatlarni qamrab oladi hamda bankning turli xil moliyaviy vositalarni qo'llashga nisbatan munosabatini, masalan, turli moliyaviy vositalardan foydalanishni aniq ifoda etadi. Likvidlini boshqarish siyosati bank boshqaruvi tomonidan ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi. Bunda likvidlikni boshqarish bo'yicha qarorlar bank Kengashida muntazam ravishda ko'rib boriladi. Tar bir bankda resurslarni boshqarish qo'mitasi tuziladi hamda unga likvidlikni samarali boshqarishni ta'minlash maqsadida turli bank bo'linmalari faoliyatlarini muvofiqlashtirish majburiyati yuklatiladi. Qo'mita tarkibiga bankning asosiy tarkibiy bo'linmalari rahbarlari kiradi. Unga bank Boshqaruvi raisi rahbarlik qiladi. Resurslarni boshqarish qo'mitasi kamida haftasiga bir marta biznes-reja va bank faoliyatining iqtisodiy sharoitiga asoslanib resurslarga bo'lgan joriy va istiqboldagi ehtiyojlarni ko'rib chiqish uchun yig'iladi. Qo'mita qarorlari bank bo'linmalari tomonidan amalga oshirilishi lozim bo'lgan tezkor va strategik tavsiyanomalar ko'rinishida bo'ladi.

Likvidlikni samarali boshqarish quyidagi omillar ta'sirida ta'minlanadi:

Bank likvidlilikini boshqarishni yo'lga qo'yishda quyidagi omillarni tahlil qilgan holda qarorlar qabul qilishi kerak:

- joriy likvidlik holati;
- resurslarga bo'lgan talabning davriy o'zgarib turishi;

- resurslarga bo'lgan talablarning mo'ljallanayotgan o'zgarishlari;
 - resurslar manbalari. Rahbariyat banklararo bozorda aktivlarni sotish va xarid qilishni yoki boshqa manbalarni tanlashi lozim.
 - resurslarning qiymati;
 - **aktivlarning sifati.** Ma'lumki, aktivlarning sifati bank likvidligiga ta'sir qiladi. Muammoli kreditlar, ya'ni muddati o'tgan, foyda keltirmayotgan kreditlar va pul mablag'lari harakatining kamligi bank likvidligiga ta'sir ko'rsatadi;
 - **resurslarning jamlanganligi.** Masalan, bankning, davlatning va yirik korxonalarning depozitlaridan haddan ortiq qaramligi bankning likvidlik tavakkalchiligidan oshishiga sabab bo'ladi. Chunki ushbu depozitlar har xil byudjet to'lovlari yoki ish haqini to'lash uchun har qanday vaqtda qaytarib olinishi mumkin;
 - **bank kapitali va foydaliligini hisobga olgan holda bankning umumiy moliyaviy holati.** Bankning moliyaviy holati yomon bo'lsa, talab qilinayotgan vositalarni yo'l qo'yib bo'lmaydigan yuqori narxlarda oshishi yoki banklararo bozorga kira olmasligi mumkin. Vositalardan foydalanish imkonini bo'lsada, qarz beruvchi DQO yoki depozit singari yuqori likvidli yoki oson sotiluvchan ta'minot berilishini talab qiladi. Bank esa bunga yo'l qo'ya olmaydi.
 - **balansdan tashqari majburiyatlar va shartnomalar,** jumladan, ishlatilmayotgan kredit liniyalari, akkreditivlar, qimmatli qog'ozlar va valyutani sotib olish uchun tuzilgan kelishuvlar. Mablag'larni joylashtirish haqidagi qarorlarga juda ko'p, ba'zan bir biriga zid omillar ta'sir etadi. Masalan, agar rahbariyat naqd pul kabi yuqori likvidli yirik aktivlarga ega bo'lishni istasa, u joriy daromaddan voz kechadi. Banklararo bozorda ancha arzon resurslarni olish imkoniyati mavjud bo'la turib, likvidlikka bo'lgan talabni qondirish maqsadida yuqori likvidli DQO larni sotish ham daromad olmaslikka sabab bo'lishi mumkin. Banklar ko'p usullar bilan resurslarni ko'paytirishi mumkin:
 - doimiy ravishda depozitlarni jalb qilish;
 - banklararo yoki Markaziy bank kreditlarini olish kabi usullar bilan.
- Jalb qilingan mablag'lar narxlarining raqobatlashuv va majburiyatlarni qaytarish muddati aktivlarni qaytarish muddatiga mos kelishi kerak. Aktivlar va majburiyatlarni qaytarish muddatlarining mos kelmasligi likvidlik xatarining asosiy manbai hisoblanadi. Bankning likvidlik pozitsiyasi birinchi navbatda, uning resurslar bazasining barqarorligiga bog'liq. Turli vositalar orqali resurslarni jalb qilishning barqarorligini aniqlashda birinchi galda resurslarning manbalarini ko'rib chiqish kerak. Turli passiv toifalar darajalarining barqarorligiga bog'liq holda ba'zi umumlashtirishlarga yo'l qo'yilishi mumkinligiga qaramasdan (har qanday vaqtda ancha yuqori stavkalarga intilib, bankdan chiqib ketishi mumkin bo'lgan yirik depozit sertifikatlariga nisbatan jamg'arma hisob varaqlari ancha ishonchlidir, joriy depozitlarga nisbatan uzoq muddatli depozitlar ancha barqarordir) resurs manbai turi muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Masalan, uzoq muddatli kredit olgan bank aksiyadorlari yoki qarz oluvchilariga tegishli bo'lgan yirik depozitlar odatda raqiblarning biroz yuqori foiz stavkalari bo'yicha takliflardan so'ng bankdan chiqib ketish tendensiyasiga ega bo'lmaydi. Aktivlarni

sotish bilan bir qatorda naqd pulning tezda ortishiga ehtiyoj sezgan bank kreditlar uchun banklararo bozorga murojaat qilishi mumkin. Bankning ushbu bozordan kredit olish imkoniyatlari bir nachta omillar bilan birgalikda bankning moliyaviy holatiga, kapitalning etarliligiga, bozorning fikrini bilgan holda yuqori likvidli garovning mavjudligiga, bozorning likvidligiga va umumiy makroiqtisodiy ahvolga bog'liqdir. Banklararo kreditlar bozori resurslarning muhim va yirik manbai bo'lib hisoblanadi. Ushbu bozorda operatsiyalar quyidagi muammolarni hal etishi uchun xizmat qilishi mumkin:

- tijorat banklari vakillik hisob varaqlaridagi zaxiralarning taqchilligini qoplash va uni talab darajasiga etkazish;
- mo'ljallanayotgan uzoq muddatli kreditlash ehtiyoji vujudga kulguncha yoki yirik depozitni qaytarish talabi bildirilguncha resurslarni samarali joylashtirish (shu jumladan kamida bir kunlik muddatga) uchun sharoit yaratish;
- Markaziy bankdan olingan uzoq muddatli kreditlarni qaytarish.

Banklararo bozor ishtirokchilari boshqa har qanday ishtirokchiga ortiqcha zaxirani qarzga berishi (olishi) mumkin. Banklararo bozordagi operatsiyalar qarz oluvchi yoki qarz beruvchi istak bildirganda boshqa banklarga resurslar sotish yoki sotib olish taklifi bilan murojaat qilib amalga oshirilishi mumkin. Operatsiya tashabbuskori birinchi bo'lib bildirilgan taklifni qabul qilish majburiyatini o'z zimmasiga olmaydi. Bundan tashqari u ancha ma'qul narx (foiz stavkasi)da muqobil taklif kiritishi mumkin. Operatsiya shartlari bo'yicha og'zaki yoki yozma ravishda kelishuvga erishilgach, qarz beruvchi bank shu zahoti o'z vakillik hisob varag'idagi resurslarni qarz oluvchi bankning vakillik hisob varag'iga o'tkazib berishi kerak. Banklararo kreditlarning muddati bir kundan bir necha oygacha davom etishi mumkin. Foiz stavkalari kontragent banklar o'rtasidagi bitim asosida Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasi yoki DQO lari bo'yicha stavkalarni asos qilib olgan holda belgilanadi. Ta'minotga ega bo'lmagan banklararo kredit bitimlarini tuzganda bir qarz oluvchiga beriladigan qarz me'yorlariga amal qilishadi. Faqatgina **overnayt** operatsiyalari bundan istisno, ular bo'yicha limit chegarasi bank kapitalining 25 foizi atrofida o'rnatiladi. Banklararo kreditlarning ta'minoti sifatida DQO lari kabi yuqori likvidli va oson sotiluvchi qimmatli qog'ozlar qabul qilishnishi mumkin. Ta'minot sifatida topshirilgan qimmatli qog'ozlar uchinchi shaxsning (tijorat banki yoki Markaziy bankda) ekstrouhisob varag'ida joylashtiriladi yoki Markaziy bank daftarlarida ularning garovga olinganligi belgilab qo'yiladi. **Repo** operatsiyalarida qo'llaniluvchi qimmatli qog'ozlar oson sotiluvchi va likvid vositalar, ya'ni DQO lari ko'rinishida bo'lishi kerak. Agar banklar boshqa qimmatli qog'ozlarni afzal deb bilsa, u holda qarz beruvchi tomon ularning yuqori likvidlik talablariga javob berishiga ishonch hosil qilishi va ularni o'zlarida saqlanishini ta'minlash kerak. Bundan tashqari tomonlar qimmatli qog'ozlarni uchinchi tomonda saqlash haqida kelishib olishi mumkin. Repo operatsiyalari Markaziy bank talablariga rioya qilgan holda amalga oshiriladi. Kelishuvda har bir tomonning huquq va majburiyatlari ko'rsatilgan bo'ladi. Kredit beruvchi tomon qimmatli qog'ozlarning to'lov muddatiga qarab garov qiymatining kredit qiymatidan kamida 10 foizga yuqori bo'lishini ta'minlashi kerak. To'lov muddati qancha yaqin bo'lsa, marja shunchalik katta

bo'lishi zarur. Ta'minot sifatida DQO laridan foydalanilgan holda garov qiymatini, joriy diskont asosida aniqlash to'g'riroq bo'ladi. Kuponli qimmatli qog'ozlar qiymati ularning bozor narxi hamda hisoblangan foizlar miqdorida aniqlanadi. Hozirgi vaqtda garov turi bo'yicha ma'lum cheklovlar o'rnatilmagan bo'lsada, banklar bozorda kotirovka qilinmaydigan qimmatli qog'ozlar va asosiy vositalar kabi garovning nolikvid shakllarini qo'llashda o'zlarning zimmalaridagi xatarni anglashlari lozim. Qimmatli qog'ozlar rivojlanishining cheklanganligi va likvidligi korxonalar aksiyalarni garov sifatida qo'llanilishiga imkon bermaydi. SHu tufayli davlat qimmatli qog'ozlardan tashqari boshqa qimmatli qog'ozlar garovi asosida berilgan kredit «ta'minlangan» bitim deb hisoblanmaydi. Barcha tijorat banklari joriy likvidlik me'yorlarini bajarishlari lozim, ular joriy aktivlarning (to'lov muddati 30 kungacha bo'lgan barcha likvid aktivlari, bank qo'yilmalarining bir marta bo'lsa ham muddati uzaytirilgan yoki avval berilgan ssudalarni to'lash uchun, shuningdek, qaytarish muddati o'tib ketgan kreditlar bundan istisno qilinadi) talab qilib olinguncha majburiyatlar summasi nisbatiga va ijro etish muddati 30 kungacha bo'lgan holda aniqlanadi. Ushbu ko'rsatkich 30 foizdan kam bo'lmasligi kerak. Bank likvidligini tahlil qiluvchi davr (oylik, choraklik, yillik) mobaynida o'zgarishlar tendensiyasiga ahamiyat berishi va o'zgarishlar ahamiyatini hamda xarakterini o'tgan davrlarga nisbatan baholashi, resurslar jalb qilishning o'tgan va joriy strategiyalarini baholashi, shuningdek, imkoni bo'lsa, o'xshash banklar bilan taqqoslash lozim. Likvidlik koeffitsientlari o'z-o'zidan likvidlikni etariligi bo'yicha aniq ma'lumot bermaydi, ularga umumiy bahoning bir qismi sifatida qarash kerak. Kreditlarning depozitlarga nisbati (K/D) - depozitlarning, ayniqsa, mayda omonatchilarga tegishli qismi odatda resurslarning barqaror manbaidir. Mazkur ko'rsatkichlarning juda yuqori qiymati (80 foizdan ortiq) va (yoki) o'sishi dastlabki muammolar bankdan chiqib ketadigan resurslar (banklararo bozordan olingan qisqa muddatli qarzlar) manbalariga bo'lgan talabning pastligini bildiradi. Garovga qo'yilgan qimmatli qog'ozlar (GQQ)ning ja'mi qimmatli qog'ozlar (JQQ)ga bo'lgan nisbati (GQQ/JQQ) garovga qo'yilgan qimmatli qog'ozlar umumiy ko'rsatkichi bo'lib, u likvidlikka tezkor talablarni qoplash uchun qo'llanilmaydi. Shuni ta'kidlash lozimki, bank rahbariyati joriy likvidlikdan tashqari o'zining likvidlik ko'rsatkichlari tizimini ishlab chiqishi va undan foydalanishi mumkin. Mazkur ko'rsatkichlar to'liq bo'lishi uchun har doim bankning moliyaviy holatini baholovchi boshqa ma'lumotlar bilan birgalikda baholanishi lozim.

Bank quyidagi hollarda likvid mablag'larga ehtiyoj sezadi:

- mijozlar o'z hisob varaqlarida pul mablag'larini olish istagini bildirganda;
- mijozlarga kredit berishga qaror qilinganda;
- bankning boshqa banklardan yoki markaziy bankdan olgan qarzi, soliq to'lovi va aksiyadorlarga dividend to'lash muddati kelganda;
- mijozlar jamg'armalari hisobiga;
- bank aktivlarining sotilishi hisobiga;
- mijozlar olgan kreditlarini qaytarishi hisobiga;

- nodepozit bank xizmatlari va pul bozoridagi pul mablag'larini jalb qilinishi hisobiga. Likvid mablag'lar bo'yicha talab va taklif manbalarining bunday turlarini nazarda tutib, bankning har qanday sharoitdagi likvid ahvoliga baho berishi mumkin. Banklar doimo likvidlikning muammolariga duch keladilar va bu muammolar quyidagi hollarda yuzaga keladi:

1. Banklar aholining zaxiralari va qisqa muddatli depozitlarini, boshqa banklar va kredit muassasalarining mablag'larini jalb qilib, ularni uzoq muddatli kreditlarga yo'naltiradilar. Bu o'rinda bank aktivlarining qoplanish muddati bilan asosiy majburiyatlarining qaytarilish muddati o'rtasida nomutanosiblik paydo bo'ladi. Buning ma'nosi shuki, bu nomutanosiblik vaqt bo'yicha tafovutga oid bo'lib shu vaqt mobaynida majburiyatlarni qoplash uchun mablag' zarur bo'lganda, bank aktivlarini naqd pulga aylantirish imkoniyatiga ega bo'lmasligi mumkin.

2. Bank likvidligining ikkinchi muhim muammosi - bu banklarning foiz stavkasiga bo'lgan sezuvchanligidir. Foiz stavkasining o'sishi natijasida ko'pgina mijozlar ko'proq daromad olish maqsadida o'z mablag'larini qaytarib oladilar. Qarz past foiz bilan ochilgan kredit tizimidan tezroq foydalanib qarzni tezroq to'lashga shoshiladilar. Mijozlarning kreditlar va depozitlarga bo'lgan talabining oshishi likvidlik darajasiga ta'sir ko'rsatadi. Foiz stavkasining oshishi esa bankning qo'shimcha likvid mablag'larini jalb qilish maqsadida sotishga bo'lgan aktivlarning va qarzlarning bozor narxiga bo'lgan ta'sirining kuchayishiga olib keladi. Ushbu muammolarning mavjudligiga qaramasdan, bank likvid mablag'larga bo'lgan talabini qondirish uchun bor imkoniyatdan foydalanishi, hamda yirik omonatchilar va kredit tizimlari egalari bilan mustahkam aloqa o'rnatishlari lozim. Chunki mijozlar talablarini o'z vaqtida qondira olmagan bank o'z obro'sini yo'qotadi.

Likvidlikni tartibga solishda bank rahbarlariga qo'yiladigan talablar quyidagilar:

- aktivlar hisobiga likvidlikni ta'minlash, ya'ni aktivlarni boshqarish orqali likvidlikni boshqarish;
- pul mablag'lariga bo'lgan talabni qondirishda eng avvalo qarzga olingan likvid mablag'lardan foydalanish, ya'ni passivlarni boshqarish;
- likvidlikni muvozanatli boshqarish, ya'ni aktivlar va passivlarni bir vaqtda boshqarish.

Aktivlarni boshqarish orqali bank likvidligini boshqarish, pul mablag'lari va tez sotiladigan qimmatli qog'ozlarni to'plash orqali bajarilishi mumkin. Likvid mablag'larga ehtiyoj yuzaga kelganda, naqd pulga bo'lgan talab qondirilguncha, zaxiradagi aktivlar sotiladi. Buni boshqacha qilib aktivlar o'zgarishi, ya'ni pul ko'rinishida bo'lmagan aktivlarni zarur vaqtda naqd pulga aylantirish deyiladi.

Likvid aktivlar quyidagi xususiyatlarga ega bo'lishlari lozim:

- naqd pulga aylantirish imkoniyatiga ega bo'lishi;

- aktivlarning barqaror narxi, ya'ni bozorda sotilishi zarur bo'lgan aktivlarning bahosini pasaytirmasdan qabul qilib olish imkoniyatiga ega bo'lishi;
- sotuvchi ativlarni birlamchi investitsiya narxining eng past xatar bilan qoplash imkoniyatiga ega bo'lishi lozim.

Passivlarni boshqarish orqali bank likvidligini boshqarish deganda, likvid mablag'larga bo'lgan talablarni to'liq va o'z vaqtida qondirish maqsadida tezda sotiladigan mablag'larni qarzga olish tushuniladi. Yirik hajmdagi aylanma depozit sertifikatlari qarzga olinuvchi likvid mablag'lar manbai hisoblanadi. Likvid mablag'larni qarzga olish pul bozoridagi foiz stavkalarining o'zgarishiga bog'liq bo'lganligi tufayli bank uchun xatarli bo'ladi. Qarzga olingan likvid mablag'lar yuqori xavf-xatarga ega bo'lganligi tufayli banklar bir vaqtning o'zida aktivlar va passivlarni boshqarish orqali bank likvidligini boshqarishga harakat qiladilar. Bu uslublarga ko'ra banklar talab qilinishi ko'zda tutilgan likvid mablag'larning bir qismini qimmatli qog'ozlar, depozitlar sifatida boshqa banklarda ushlaydi. Ba'zi bir talablar esa vakil banklarda kredit liniyalarini ochish yo'li bilan ta'minlanadi. Favqulodda talab qilingan (to'satdan vujudga kelgan) likvid mablag'lar esa qisqa muddatli qarzlar hisobiga qoplanadi.

Bank likvidligini boshqarish jarayonida bank boshqaruvchilari quyidagilarga rioya qilishlari lozim:

- mablag'larni jalb qiluvchi va ulardan foydalanuvchi barcha bank bo'limlarini qattiq nazorat qilishlari;
- bankning eng yirik kreditorlari va omonotchilari qaysi vaqtda va qancha miqdorda kreditlar olishi va omonatlar qo'yishini (iloji bo'lsa) oldindan bilishga harakat qilishlari;
- bank likvidligini va likvid mablag'larni boshqarish bankning ustuvor vazifasi ekanligini doimo esda saqlashlari;
- likvid mablag'lar taqchilligi yoki ortiqchaliligining oldini olish maqsadida bankning likvid mablag'larga ehtiyojlarini va bu mablag'larning joylashtirilishini doimo tahlil qilib borishlari lozim.

GEP tahlili

Foiz stavkalari o'zgarishiga ta'sirchan aktiv va passivlar o'rtasidagi miqdorning uzilishi pullik GEP (yoki bankning sof bahosi) deb nomlanadi va u quyidagi formula orqali nomlanadi:

$$\text{GEP} = \text{ATF} - \text{PTF}$$

Ushbu ko'rsatkich foiz riski darajasini baholash imkoniyatini beradi. Foiz riskini baholovchi boshqa ko'rsatkich GEP munosabat deb nomlanadi

$$\text{GEP}(\%) = \frac{\text{ATF}}{\text{ACF}}$$

Bank amaliyotida aktiv va passiv operatsiyalar o'tkazish bilan bog'liq foiz riski darajasini hisoblash uchun amerika iqtisodchilari quyidagi ko'rsatkichlardan foydalanadilar:

foiz riskining darajasi:

Da, Dp-muddatlari bo'yicha tortilgan aktivlar (passivlar);

bank mablag'larini jalb qilish va joylashtirish muddatlari o'rtasidagi farqning integral ko'rsatkichi:

Maksimal qo'yilishi mumkin bo'lgan qiymat 1.75ga teng, optimali esa 1.25ni tashkil qiladi.

sof kapital indeksi (NCR) riskni o'lchash nuqtai nazaridan muammoli banklarni aniqlash imkoniyatini beradi:

• **Minimal qo'yilishi mumkin bo'lgan qiymat 2.74%ni tashkil etadi.**

Musbat GEP bank aktivlarining foiz stavkalari o'zgarishiga ta'sirchan bo'lgan passivlariga nisbatan ko'proqligini anglatadi. Agar foiz stavkalarining darajasi kamayish tendensiyasiga ega bo'lsa, bankning foiz daromadi foiz qaytarish to'lovlari xarajatlariga nisbatan tezroq kamayadi. SHu tariqa musbat GEP holatiga ega bo'lgan bank foizlar tushishidan zarar ko'radi va uning oshishidan daromad oladi. Ushbu holatda bank musbat GEP holatiga ega, ya'ni mablag'larni uzoq muddatga jalb qiladi va qisqa muddatli kreditlashga ishlatadi. Bunda bank qayta moliyalashlashning uzoq va qisqa muddatli stavkalari o'rtasidagi tafovutdan foyda ko'radi. Lekin foiz stavkalarining tushishi kutilayotganda musbat GEP holatiga ega bo'lgan bank zarar ko'ra boshlaydi. Manfiy GEP holatidagi bank bu holda investitsiyalashdan emas, balki foiz stavkalarining tushishidan foyda ko'radi.

sof daromadining o'zgarishi $SFD = GEP * \Delta I$ yoki $\Delta SFD = (ATF - PTF) * \Delta I = ATF * \Delta I - PTF * \Delta I$.

Bank siyosatining asosiy moliyaviy ko'rsatkichlari

• 1. Sof foiz daromadi (foizli daromad) $SFD = FD - FX$;
 $SFD = (3600 * 0,13 + 1200 * 0,16) - (4000 * 0,1 + 800 * 0,12) = 660 - 496 = 164$ (mln.rub.).

• 2. Sof foiz marjasi $SFM = 164 / (3600 + 1200) = 0,0342$ (3,42%), natija normativ qiymatga to'g'ri keladi.

• 3. $GEP = 3600 - 4000 = -400$ Tahlil qilayotgan bankimizning GEPning qiymati manfiy «Likvidlik» termini lotin tilidagi «liquidus» so'zidan olingan bo'lib, suyuq, oqib yuruvchi ma'nosini anglatadi. So'zning ma'nosi jihatidan yondoshadigan bo'lsak ham moddiy qimmatliklarning pul mablag'lariga oson realizatsiya bo'lishini va tez konvertatsiya qilinishini anglatadi. Tijorat banklari likvidligi tushunchasi bu uning barcha kontragentlari oldidagi qarz va moliyaviy majburiyatlarini o'z vaqtida va to'liq bajarish qobiliyatiga tushiniladi va bu qobiliyat bankning yetarli o'z kapital mablag'lariga ega bo'lishi, aktivlari tarkibi, muddati jihatidan passivlarning tarkibi va muddatiga mos kelishi bilan aniqlanadi. Rossiyalik olim professor, i.f.d O.I. Lavrushinning o'quv qo'llanmasida likvidlik tushunchasiga quyidagicha ta'rif beriladi: «Likvidlilik – bu bank faoliyatining umumlashtirilgan jihatlaridan biri bo'lib, uning ishonchliligini anglatadi. Bank likvidligi-bankning omonatchilari va kreditorlari oldidagi o'z majburiyatlarini o'z vaqtida va to'liq bajarish qobiliyatiga tushiniladi». Likvidlik darajasi bo'yicha aktivlarning ikkinchi guruhini jismoniy va yuridik shaxslarga berilgan qisqa muddatli ssudalar, banklararo kreditlar, faktoring operatsiyalari, aksionerlik jamiyatlarning tijorat qimmatli qog'ozlari tashkil qiladi. Bu aktivlarni pul shakliga keltirish uchun nisbatan ko'proq muddat kerak bo'ladi. Bank likvidligining funksional mohiyatlari quyidagilarda ifodalanadi:

1. Bank likvidligi o'zlarining hisob va joriy raqamlaridan to'lovlarni amalga oshiruvchi va kredit olish uchun murojaat qilgan mijozlarning, shuningdek, depozitlardan o'z mablag'larini tasarruf qilayotgan omonatchilarning pulga bo'lgan talabini qondirishga qaratilgan.

2. Bank likvidligi bankning obro'si bilan o'zaro bog'liq bo'ladi, ya'ni bankda likvidlik bo'yicha muammolar bo'lmasa u holda, kredit tashkilotining moliyaviy nobarqarorlik xataridan uzoqda yuruvchi mijoz uchun shu bank jozibali hisoblanadi.

3. Bank likvidligi zararli va foydasiz bo'lgan operatsiyalarni bajarilishini oldini olish maqsadida aktivlarni noo'rin sotmaslik imkoniyatini beradi.

Likvidlik holati ikki pozitsiya tomonidan xarakterlanadi:
Defitsit

Ortiqcha

Bank likvidlik holati bank faoliyatidan tashqarida yotuvchi bir qator tashki faktorlarga ham bog'liq. Bular:

- mamlakatning umumiy iqtisodiy va siyosiy holati;
- qimmatli qog'ozlar bozori va banklararo bozorning rivojlanganligi;
- qayta moliyalash tizimini tashkil qilinishi;
- mamlakatimiz Markaziy bankining nazorat funksiyalari effektivligi.

Bank likvidligi tahlil qilinganda ma'lum bir muddat oralig'ida (oylik, chorak, yillik) likvidlik koeffitsiyentlarining o'zgarish dinamikasiga e'tibor 101 berish kerak. Bunda likvidlik koeffitsiyentlari o'zgarishining qonuniyatini aniqlash va ularning istiqbolini belgilash mumkin bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankning majburiy tartibda nazorat qilish pozitsiyasidan qaralganda K1 ko'rsatkichining minimal qiymatini ushlab turish bu omonatchilar manfaatini bevosita davlat tomonidan himoyalash shakli hisoblanadi. Bankning qisqa muddatli majburiyatlarini qoplash uchun likvid mablag'lar bilan ta'minlanganlik darajasini baholash maqsadida likvidlikning quyidagi koeffitsiyentlaridan ham foydalaniladi:

• $K1 = (Kassa + Vakillik\ hisob\ varaqlaridagi\ mablag'lar + DQMO) / Qisqa\ muddatli\ depozitlar$
 $K2 = (Qisqa\ muddatli\ likvid\ aktivlar + O'rta\ muddatli\ qimmatli\ qog'ozlar) / Qisqa\ muddatli\ omonatlar$
 $K3 = (Qisqa\ muddatli\ likvid\ aktivlar + O'rta\ muddatli\ qimmatli\ qog'ozlar + Uzoq\ muddatli\ qimmatli\ qog'ozlar + Immobilizatsiya) / Qisqa\ muddatli\ jalb\ qilingan\ mablag'lar$
K formulasini tahlil qilgan holda qayd etish zarurki, ushbu ko'rsatkichning maqbul qiymati 1-1,5 doirasida bo'lishi lozim. Agar ushbu koeffitsiyent 1,5 dan yuqori bo'lsa, demak bankda aktivlar nomuvofiq taqsimlanmoqda, bu esa bank moliyaviy faoliyatining kam rentabellikligiga olib keladi. Agar koeffitsiyent 1 dan kichik bo'lsa bankning likvidlik darajasi kichik ekanligidan dalolat beradi. Bunday holatda DQMO va o'rta muddatli qimmatli qog'ozlarni sotib likvidlik yetishmasligini qoplash mumkin. K formulasini tahlil qilgan holda qayd etish zarurki, ushbu ko'rsatkichning maqbul qiymati 1-1,5 doirasida bo'lishi lozim. Agar ushbu koeffitsiyent 1,5 dan yuqori bo'lsa, demak bankda aktivlar nomuvofiq taqsimlanmoqda, bu esa bank moliyaviy faoliyatining kam rentabellikligiga olib

keladi. Agar koeffitsiyent 1 dan kichik bo'lsa bankning likvidlilik darajasi kichik ekanligidan dalolat beradi. Bunday holatda DQMO va o'rta muddatli qimmatli qog'ozlarni sotib likvidlilik yetishmasligini qoplash mumkin.

Lahzali likvidlik (K_2) koeffitsiyenti bankning yuqori likvidli aktivlar yig'indisining, bankning talab qilib olinguncha hisob raqamlari bo'yicha majburiyatlar yig'indisiga nisbati orqali aniqlanadi:

- $K_2 = (L_2 / M_{t2}) * 100\%$.
- Bu yerda:
- L – yuqori likvidli aktivlar (O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki metodikasi orqali aniqlanadi);
- M_{t2} – talab qilib olinguncha bo'lgan majburiyatlar.
- Mazkur majburiyatlarning asosiy summasi Markaziy bank metodikasi orqali aniqlanadi va bunga bank tomonidan chiqarilgan talab qilib olinguncha vekselar ham kiritiladi.
- K_2 koeffitsiyentining miqdori 20%dan kam bo'lmasligi kerak.

bu yerda:

- bu yerda:
 - Kyo-milliy va xorij valyutasida bir yildan ortiq muddatga berilgan kreditlar, shuningdek, bir yildan ortiq muddatga bank tomonidan berilgan kafi llik va kafolatlarning 50%;
 - Myo-bankning bir yildan ortiq muddatga olgan kreditlari va shu muddatli boshqa qarz majburiyatlari;
 - K bank kapitali.
- Uzoq muddatli likvidlik (K_3) koeffitsiyenti bank tomonidan bir yildan ortiq muddatga berilgan kreditlar yig'indisining bank kapitaliga, shuningdek, bankning bir yildan ortiq muddatga olgan kreditlari va shu muddatli boshqa qarz majburiyatlariga nisbati orqali aniqlanadi:

$$K_3 = (K_{yo} / (K + M_{yo})) * 100\%$$

Bu yerda:

- Bu yerda:
 - A – bank balansining barcha aktivlari yig'indisi, Markaziy bank metodikasi asosida aniqlanadi.
 - **K4-** ko'rsatkichining minimal qiymati 20% miqdorida belgilanadi.
- Likvidli aktivlarning jami aktivlarga nisbati (K_4) koeffitsiyenti quyidagicha hisoblanadi: $K_4 = (L_A / A) * 100\%$

Bank likvidligini tahlil qilish quyidagi maqsadlarni ko'zlaydi:

- bank likviligining koeffitsiyentlarini hisoblash tizimi to'g'riligini va to'liqligini tasdiqlash;
- bank holati bo'yicha xulosalarni shakllantirish;
- salbiy tendensiyalarni vujudga keltirgan omillarni tahlil qilish;
- bank balansi likvidligining yomon holatga kelayotganligidan darak beruvchi real va salbiy potensial tendensiyalarni aniqlash;

- bank balansi likvidligini tahlil qilish va tekshirish natijalariga ko'ra bank uchun takliflarni belgilab olish.

Joriy likvidlik koeffitsiyentini hisoblashda quyidagi ko'rsatkichlardan foydalanildi:

- 1) O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki metodikasi orqali hisoblanadigan likvidli aktivlar, yaqin 30 kun muddatga milliy va chet-el valyutasida berilgan kreditlar (hech bo'lmaganda bir marta prolongatsiya qilingan ssudalar bundan mustasno), shuningdek, bank foydasiga bo'lgan yaqin 30 kun ichida amalga oshiriladigan to'lovlar,
- 2) Talab qilib olinguncha bo'lgan majburiyatlar-O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki metodikasi orqali hisoblanadi, bunda boshqa kredit tashkilotlaridan 30 kun muddatga olingan kreditlar va bank tomonidan 30 kun muddatda majburiyatlarni o'z zimmasiga olish bo'yicha kafolat va kafi liklarning 50% ni ham o'z ichiga oladi

Banklarni reytingi va uni baholash usullari.

XX asr oxirida har bir sohada o'z etakchilarini bilish istagi kuchaydi. Eng yaxshi korxona, eng yaxshi bank, eng yaxshi mutaxassis, eng rivojlangan tuman, viloyat, mamlakat va hokazolar.

O'z o'rnini aniqlab olishga harakat qilish biznesga ham xosdir. Bu sohada ham dastlabki o'rta eng yirik bank, ishonchlilar orasida eng ishonchli sug'urta agentliklari, dunyoning yuzta eng yirik korxonasi va boshqalar aniqlanmoqda. Reyting bo'lmasa, na butun amaliy hayotni, na shaxsiy hayotni tasavvur qilish mumkin. Chunki «Kimga qarab ish tutish kerak, kim bilan bitim tuzsa bo'ladi, mening ishonchli sherigim kim?» degan muammolarga duch kelamiz. **Reyting**-bu muayyan ob'ekt yoki sub'ekt to'g'risidagi natijaviy baho bo'lib, qaror qabul qilish bo'yicha g'oyat muhim vosita hisoblanadi. Chunki u, aytaylik, bankirga bankning taraqqiy etish yo'nalishini, ishbilarmonlikning jonlanishini, demak, foyda olish imkoniyatlarini ham hech shubhasiz ko'rsatib beradi. Shuningdek, reyting tizimi:

- banklar faoliyatini xalqaro amaliyotda qabul qilingan me'yorlar asosida qiyosiy tahlil qilishda;
- mazkur bankning moliyaviy bozordagi o'rnini, nufuzini, shuningdek, muammoli banklarni aniqlashda;
- banklar taraqqiyotidagi mayl (tendensiya)larni kuzatish, umumlashtiruvchi va xususiy ko'rsatkichlarning dinamikasini tahlil qilishda;
- banklar samaradorligiga baho berishda juda ham zarur.

Barcha manfaatdor tomonlarning xohish va istaklarini inobatga oluvchi reyting usuli yordamida aholi omonatlari qaeatlarda ko'proq, qaysi banklarda qanday foizlarda joylashtirilyapti, depozitlar bo'yicha ahvol qanday, sertifikat va aksiyalarning sotib olinishi qay darajada kabi savollarga ham javob olish mumkin. Xalqaro amaliyotda bank reytinglarini baholashning juda ko'p turlari mavjud. Ular ichida quyidagi ikki usul eng ko'p tarqalgan:

- miqdoriy ko'rsatkichlar orqali baholash;
- sifat ko'rsatkichlari orqali baholash.

Miqdoriy ko'rsatkichlar orqali baholash usuli asosan banklar faoliyatining rivojlanishini tahlil qilish maqsadida qo'llanilib, ularga quyidagilar kiradi:

- aktivlar summasi;
- depozitlar;
- kreditlar;
- o'z kapitalining summasi;
- daromad summasi.

Bu ko'rsatkichlar orqali banklar faoliyati ommalashtiriladi.

Baholashning ommaviy axborot vositalari yordamida ikkinchi turi **sifat ko'rsatkichlari** bo'lib, ular bankning ishonchlilik darajasini ifodalaydi. Bu ko'rsatkichlar turkumiga quyidagilar kiradi:

- kapitalning etarliligi;
- aktivlar sifati;
- daromadlilik darajasi;
- bank likvidliligi.

Chet el mamlakatlarida bank ishonchliligi hukumat tomonidan nazorat qilinadi. Banklar ishonchliligini ta'minlash bo'yicha bir qator me'yoriy hujjatlarga amal qilinishi nazoratda bo'ladi. Jahon amaliyotida tijorat banklari faoliyatini baholashning bir necha tizimi mavjud. Masalan, qator mamlakatlarda riskni baholash va diagnostika uchun bir nechta tizimlardan foydalaniladi. Ularning ayrimlari mavjud muammolarni aniqlab bersa, ayrimlari joriy tavakkalchiliklar asosida kelgusida ehtimoliy yondoshuvlar haqida ma'lumot olish imkonini beradi.

Umuman bunday tizimlar quyidagi vazifalarni hal etadi:

- kredit tashkilotlarini inspeksiya va uzoqlashtirilgan monitoring doirasida bir tizimga keltirilgan tarzda rasman baholash;
- banklarni va muammolar mavjud bo'lgan yoki paydo bo'lishi mumkin bo'lgan yo'nalishlarni identifikatsiya qilish;
- nazorat idoralari resurslarini maqbul taqsimlash uchun tekshiruvlarning ustuvor yo'nalishlarini aniqlash;
- nazorat organining o'z vaqtida ish boshlashini uyushtirish.

Tizimlar quyidagi xususiyatlari bilan bir-biridan farq qiladi:

- tekshiruvlarning chuqurligi va davriyligi;
- hisobotlar xususiyati;
- boshqa haqqoniy manbalardan foydalana olish imkoniyatining mavjudligi;
- o'tgan davrlardagi tanazzullar va bankrotlik holatlari haqidagi statistik axborotlar;
- texnik ta'minot darajasi;
- pul va inson omili.

Xalqaro hisob-kitoblar bankida o'tkazilgan tadqiqotga ko'ra diagnostika tizimini shakliy belgilariga qarab to'rtta keng toifalarga ajratish mumkin:

- banklarni baholashning reyting tizimi;
- moliyaviy koeffitsientlar va guruhlab tahlil qilish tizimlari;
- bank riskini baholashning yalpi tizimlari;

- statistik modellar.

Qator tizimlardan foydalanish, hech bo'lmasa, ulardan bittasining muammoli bankni aniqlab berishi ehtimolini oshiradi. Tizimlar sifatini baholashda asosan kompyuter yordamida amalga oshiradilar. Ularning ayrimlarida ekspert xulosalar asosiy o'rin tutsa, boshqalarida kompyuter dasturlarining hisob-kitoblari ustunlik qiladi. Reyting asosan, bankning yillik faoliyati natijalari asosida beriladi. Banklarni baholash (audit)ning bugungi kunda xalqaro amaliyotda o'rin olgan usullaridan biri «CAMEL» reyting tizimidir. 1978 yilda AQSH banklaridan biri bo'lgan «Sheshunoff Bank» ning ekspertlari bank faoliyatini quyidagi 7 guruh omillar asosida tahlil qilish va baholash uslubini ishlab chiqdilar:

- bankning o'sishi (rivojlanishi);
- bankning kategoriyasi (bank faoliyatining ma'lum guruhga kirishi);
- risk darajasi yuqori bo'lgan sohalarga investitsiyalar;
- bankning ishonchliligi (uning «kapital» mavqei);
- muammoli kreditlar summasi va tendensiyalari;
- daromad manbalari, boshqa banklarga nisbatan umumiy foydalilik;
- yirik «beqaror» majburiyatlar bo'yicha bankning darajasi.

Bank mutaxassislari ushbu omillarning barchasini muhim deb bilgan holda, ulardan oxirgi 5 tasiga alohida e'tibor beradilar va ularning bosh harflari birlashtirilib «CAMEL»-omillar deb yuritila boshlandi. Shunday qilib, banklar faoliyatini baholashning «CAMEL» reyting tizimiga asos solindi. Ushbu baholash uslubiga ko'ra omillar quyidagicha tavsiflanadi. Ushbu besh tarkibiy qism aniqlangach, bankning yakuniy umumiy reytingini belgilash imkoni tug'iladi. «CAMEL» reyting tizimining asosiy jihatlari quyidagilarda ko'rinadi:

«CAMEL» omillari tavsifi

№	Omillar	Izoh
1	2	3
1.	“C” (Capital adequacy)	• Kapitalning etarliligi, ya'ni bankning o'z mijozlarini kafolatlash uchun zarur bo'lgan xususiy sarmoyasi miqdori. Etarli sarmoyaga ega bo'lgan banklar jiddiy zarar ko'rgan taqdirda ham mijozlar o'z pullaridan ajrab qolishlariga yo'l qo'ymaydi.
2.	“A” (Asset quality)	• Aktivlar sifati. Bu omil aktivlarning darajasini va balansdan tashqari moddalarni, shuningdek gumonli aktivlar va zararlarni tasniflash asosida muammoli qarzlarning moliyaviy ta'sirini aniqlaydi.
3.	“M” (Management quality)	• Bankni boshqaruv sifati. Bu ko'rsatkichni tahlil qilish yordamida ish samaradorligi, bank siyosati, qonun va yo'riqnoma larga amal qilish darajasi baholanadi. Va shu asosda bank siyosatining qay darajada maqsadga muvofiq shakllantirilganligi, uning yozma ravishda belgilangan tartibda hujjatlashtirilganligi va unga rioya qilinganligi aniqlanadi. SHu sababli menejment sifatini tahlil etish eng oxirida amalga oshiriladi.

4.	“E” (Earning record)	• Bankning daromadlilik darajasi. Bu bankning kelgusida o‘sishi uchun etarli bo‘lishi nuqtai nazaridan uning daromadi yoki foydasini tavsiflovchi omil-ko‘rsatkichdir.
5.	“L” (Liquidity)	• Bankning likvidlilik darajasi. Bu bankning oddiy va kutilmagan majburiyatlarni yo‘qotishlarsiz bajaraolish uchun zarur darajada mablag‘ bilan ta‘minlanganligini tavsiflovchi ko‘rsatkichdir.

• «CAMEL» tizimi, ko‘proq masofaviy nazoratga asoslangan evropacha usuldan farqli o‘laroq, joyida tekshirishga asoslangan bo‘lganligi sababli, banklarni tashqi audit qilishda juda ham qo‘l keladi. Mazkur tizim AQSH tijorat banklari faoliyatini nazorat qilishda qo‘llaniladigan andozalashtirilgan reyting tizimi bo‘lib, aniq va mukammal bo‘lganligi sababli, foydalanish uchun qulaydir. Ushbu tizim orqali tijorat banklari moliyaviy mustahkamligining asosiy komponentlari:

- kapitalning etarliligi (S);
- aktivlar sifati (A);
- bank menejmenti (M);
- daromadlilik (E);
- likvidlilik (L) tahlil etilishi natijasida bankning moliyaviy mustahkamligini har tomonlama to‘laqonli tahlil qilish va baholash mumkin. Banklar faoliyati va ishonchliligini baholashni «CAMEL» reyting tizimi misolida ko‘rib chiqamiz. Unga binoan banklar 5 ball bo‘yicha baholanadi. Nazoratdan o‘tgan bankka har bir komponent bo‘yicha alohida reyting bahosi berilib, so‘ngra barcha faoliyat bo‘yicha umumiy reyting bahosi asosida baholanadi. Reyting bahosining eng yuqori darajasi 1 ko‘rsatkichi bilan belgilanib, bunda qaysi komponentda bunday baho berilsa, demak u **xalqaro me‘yorlarga** to‘liq javob berish darajasida tashkil etilganligidan dalolat beradi.

bank faoliyatini baholashning «CAMEL» tizimi:

- bank faoliyatini oydinlashtirishga yordam beradi;
- bank hisobotlarining to‘g‘riligini tasdiqlaydi;
- ob‘ektni xalqaro audit kiritilishiga tayyorlaydi.

Ushbu afzalliklar umumlashib, eng oliy maqsad, ya‘ni, bankni bankrotlikdan saqlab qoladi va shu orqali jismoniy hamda yuridik shaxslarning omonatlari-yu, depozitlarining behudaga sarflanib ketishining oldini oladi.«CAMEL» tizimining tahlil qilinadigan birinchi ko‘rsatkichi - bu **bank kapitalining etarliligi** hisoblanadi. Bu ko‘rsatkich ikki ko‘rsatkichni tahlil qilish orqali aniqlanadi, ya‘ni:

- ja‘mi kapitalning $\sum^K$ riskka tortilgan aktivlarga nisbati (Art);
- asosiy kapitalning (AK) riskka tortilgan aktivlarga nisbati (Art);

Kapital etarliligining minimal xalqaro normasi 8 foiz qilib belgilangan. Bazel shartnomasidagi talablarga binoan bank asosiy kapitalining ja‘mi kapitaldagi ulushi 50 foizdan kam bo‘lmasligi kerak. Umuman, Bazel shartnomasiga muvofiq, bank kapitali ikki darajaga bo‘linadi; birinchi daraja **asosiy kapitaldan** iborat bo‘lib, unga to‘langan aksiyalar summasi, aktivlarni sotishdan yuzaga kelgan

kursdagi farqlar summasi, zaxira fondining ustav fondini mustahkamlashga doir qismi, taqsimlanmagan foyda, sugʻurta fondi kiradi.

- ikkinchi darajada zaxira fondining bir qismi va balans hisob varaqalarda hisobga olinadigan fond mablagʻlarini oʻz ichiga oladigan qoʻshilgan kapitaldir. Shunday qilib, CAMEL reyting tizimi boʻyicha kapital nazorati ushbu jarayonning birinchi komponenti boʻlib, bunda bank kapitalining etarlilik darajasi, kapitalni koʻpaytirish borasida olib borilayotgan faoliyat va dividendlarni toʻlash siyosati tahlil qilinadi. Bundan tashqari, kapital tahlili jarayoni bank aksiyadorlarining yangilangan roʻyxati, jaʼmi aksiyadorlar ulushining balans hisobotidagi toʻlangan kapital summasiga tengligi hamda bank kapitali Markaziy bankning 2000 yil 26 apreldagi «Tijorat banklari kapitalining etarligiga qoʻyiladigan talablar toʻgʻrisida»gi 420-sonli Nizomi talablariga javob bera olishini tekshirish masalalarini qamrab oladi. Ikkinchi tahlil koʻrsatkichi **aktivlar sifatini** baholashdir. Bundan asosiy maqsad muayyan bank aktivlarining riskka tortilganlik darajasini tahlil qilishdir. «CAMEL» tizimida risklar boʻyicha aktivlarni tasniflash 4 guruhga boʻlinadi:

- 1 foiz - maxsus aktivlar;
- 20 foiz - standart boʻlmagan aktivlar;
- 50 foiz - shubhali aktivlar;
- 100 foiz - zarar keltiradigan aktivlar.

Tijorat bankining moliyaviy ahvolini aniqlashda aktivlar sifatini baholash muhim ahamiyatga ega boʻlib, ularning haqiqiy qiymati buxgalterlik hisobida aks ettirilgan qiymatga toʻgʻri kelmaydi. Aktivlarning sifatini tahlil qilish uchun muammoli qarzlarni tasniflash asosida berilgan ssudalar va boshqa aktivlarni baholash zarur. Aktivlarni andozaviy, shubhali va zarar keltiradigan turlariga tasniflash tizimi barcha aktivlar reytingini miqdor jihatdan aniqlash, shuningdek, kreditlardan zarar koʻrish hollariga moʻljallangan zaxiralarning etarililigini baholash imkonini beradi. Asosan uzoq muddatli ssudalar naqd pullar va vakillik hisob varaqalari, ssudalar va boshqa aktivlar tekshiriladi. Aktivlar sifatining tahlilida asosiy eʼtibor aktivlarning qaytishiga qaratiladi. Ularning holati aniqlanganda, haqiqatdan ham, kreditlarning oʻz vaqtida qaytarilishi oʻta muhimdir. Respublikamiz tijorat banklarida mavjud oʻz vaqtida qaytarilmagan kreditlar jaʼmi summasi kredit qoʻyilmalarining 1 foizga ham etmagan holda MDI tarkibidagina emas, balki jahon miqyosida ham bu eng yaxshi koʻrsatkich boʻlib hisoblanadi. Lekin mamlakatimizda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar maqsadi har qanday mablagʻning ham yuqori darajada samarali boʻlishiga qaratilgan. Aktivlar sifati bankning kredit tavakkalchiligi bilan ham bevosita bogʻliq va asosan, eng yirik kreditlar tekshiriladi. Bank faoliyatining asosiy maqsadi, yuqori daromad olishdan iborat. Odatda yuqori daromad oladigan banklar samarali faoliyat yuritayotgan bank deb tan olinadi. Biroq, **aktivlar sifati** bilan tushum oʻrtasidagi oʻzaro bogʻliqlikka unchalik eʼtibor berilmaydi. Biron bir bankda aktivlar sifati muammoli boʻlsa, uning aktivlari bahosi yomonlashadi. Bahodagi bu oʻzgarish tushum hisobiga qoplanadi va natijada bank daromadi

kamayadi. Demak, bankning daromadlilik darajasi aktivlarning iqtisodiy mohiyatiga, aniqrog'i, sifatiga bog'liq. Unga ko'ra aktivlar:

- daromad keltiruvchi;
- daromadni «eb qo'yuvchi» turlarga bo'linadi.

Daromad keltiruvchi aktivlarga ishlayotgan aktivlar (barcha kredit qo'yilmalar va qimmatli qog'ozlar) kiradi. Daromad keltirmaydigan aktivlarga nomoddiy xarajatlar, binolar, kapital xarajatlar va to'lov muddati 90 kundan oshgan kreditlar, shuningdek kreditlar va amal qilmaydigan deb tan olingan kreditlar bo'yicha foizlar ta'luqlidir. Daromad keltiruvchi aktivlar kredit salohiyatining asosini va bankning ssuda portfelini tashkil etadi. Shu bois bank kapitalini oshirish va kredit potensialini mustahkamlash ham uning daromadligiga bog'liqdir. Bankning daromadi, asosan, kreditlar bo'yicha foiz stavkasi, kredit qo'yilmalar hajmi va bank likvidligiga bog'liq.

Bank daromadlarni quyidagi manbalardan oladi:

- operatsiyalardan (olingan foizlar);
- qimmatli qog'ozlar savdosidan;
- foizsiz daromad hisobidan;
- mulkni va boshqa aktivlarni sotishdan;
- boshqa manbalardan.

«CAMEL» tizimi daromadlarni miqdor va sifat tomonlarini hisobga olgan holda baholashni tavsiya etadi. Daromadlilik darajasi quyidagi ikki ko'rsatkichni tahlil qilishni taqozo etadi:

- balans foydasining aktivlarga nisbati;
- soliqlar chegirib tashlangan foydaning aktivlarga nisbati.

Daromad yo'nalishining ijobiy va salbiy tomonlarini tahlil qilish va baholashda dastlab quyidagi masalalar:

- tushumning o'zgarishligi yoki ja'mi aktivlarga nisbatan foiz hisobida kamayishi;
- operatsion xarajatlarning operatsion daromadlarga nisbatan o'zgarishi;
- foizli xarajatlar bilan foizli daromadlar o'rtasidagi marjaning o'zgarishi;
- foizsiz xarajatlar va daromadlarning o'zgarishlari inobatga olinadi.

Bank daromad va xarajatlarning salbiy va ijobiy moddalarini aniqlashda asosan quyidagi omillarga ahamiyat beriladi:

- aktivlarning foydaliligi;
- kapitalning foydaliligi;
- aktivlar va passivlar asosiy kategoriyalarining o'sish koeffitsienti;
- daromadning asosiy manbalari;
- xarajatlarning barcha asosiy kategoriyalari.

Qayd qilingan barcha ko'rsatkichlar boshqa o'xshash banklarga taqqoslangan holda qiyosiy tahlil qilinadi.

Likvidlik ko'rsatkichi to'rtinchi tahlil qilinadigan omil hisoblanadi.

CAMEL tizimi gamuvofiq,

likvidlik bankning majburiyatlar bo'yicha to'lovlarni o'zvaqtida bajarishlayoqativaxiz

matko'rsatilayotgan mijozlarning kreditgabo'lganehtiyojini qondirishga tayyorlikdara jasini ifodalaydi. Likvidlik darajasi ham shular orqali baholanadi.

Baholashda likvidlik katta' sirko'rsatuvchi omillar, ya'ni:

- aktiv va passivlarning tarkibi;
- aktiv va passivlarni boshqarish sifati;
- depozit bazasining holati kabi ko'rsatkichlar tahlil qilinadi.

Bankning majburiyatlar bo'yicha to'lovlarni o'z vaqtida bajarish layoqati, pul mablag'lariga bo'lgan ehtiyojning qondirilishi ko'p jihatdan **aktiv va passivlar** tarkibiy tuzilishining muvofiqlik darajasiga bog'liq. Bank tomonidan likvidlikni etarli darajada saqlab turish foyda olishga qaratilgan harakat bilan muvozanatlashgan holda amalga oshirilishi darkor, ya'ni ko'proq foyda olish maqsadida aktivlarning samarasiz joylashtirilishi likvidlik holatining yomonlashuviga olib keladi.

Aktiv va passivlarni boshqarish sifati bankning pul fondlarini tashkil etish, ular narxlarini shakllantirish va joylashtirish jarayonlariga ta'luqlidir. Ushbu jarayon asosan balans hisobotida aks ettiriladi. Aktiv va passivlarni boshqarishning eng maqbul yo'li qisqa muddatli likvidlikni past bo'lgan instrumentlarga joylashtirish orqali yuqori foyda olish orasidagi muvozanatni ta'minlashdan iboratdir.

Depozitlar bazasi holatiga, ya'ni depozitlarning doimiylikiga jahon amaliyotida juda katta ahamiyat beriladi. Bundan tashqari likvidlikni tahlil qilishda banklarning tashqi manbalarga chiqish imkoniyatlari alohida o'rin tutadi. Ayniqsa likvidlikni baholashda aktivlarning naqdlikka aylanish darajalari ham tahlil qilib chiqiladi. Shuni ta'kidlash lozimki, likvidlik darajasi bankning likvidlik holatini to'laigicha yoritib bera olmaydi va unga umumiy bahoning bir qismi sifatida qaraladi. Shunday ekan, likvidlik koeffitsienti boshqa ko'rsatkichlar bilan qiyoslangan va to'ldirilgan holda tahlil qilinishi maqsadga muvofiqdir. Likvidlik holati tekshiruvining yakuniy bosqichlarida bank tomonidan qonunchilikning buzilish holatlari ro'yxati tuzilishi hamda ularga tegishli qonun va nizomlar ilova qilinishi ko'zda tutiladi. CAMEL tizimining yuqoridagi to'rtta ko'rsatkichi aniqlanganidan so'ng mazkur reyting tizimining beshinchi baholash ko'rsatkichi - **menejment**, ya'ni bankni boshqarish darajasi tahlil etiladi. Bu ko'rsatkich bank ishonchliligini baholashning oxirgi ko'rsatkichidir. Mazkur ko'rsatkich oldingi ko'rsatkichlar natijalariga bog'liq bo'ladi. Chunki kapitalning etarliligi, aktivlar sifati, daromadliligi va yuqori likvidlik darajasiga ega bo'lgan banklarning, xususan, menejment ham yuqori bo'ladi. Bunda:

- kadrlarning bilim darajasi;
- me'yoriy hujjatlarga amal qilinishi;
- bank, kadr, kredit, investitsiya, foiz siyosatlarining mukammalligi va to'g'ri yo'lga qo'yilganligi tahlil qilinadi. Bankni boshqarish darajasi ko'pincha bank siyosatining qay darajada maqsadga muvofiq shakllantirilganligi, uning yozma ravishda belgilangan tartibda hujjatlashtirilganligi va unga rioya qilinishi bilan xarakterlanadi. Ma'muriyat faoliyatiga baho berishda esa quyidagilarga alohida e'tibor beriladi:
- sardorlik va rahbarlik qilish qobiliyati;

- bank faoliyati qoidalariga rioya qilish darajasi;
- o'zgaruvchan vaziyat va holatlarda to'g'ri qarorlarni qabul qilaolish va unga tez moslasha bilish qobiliyati;
- muvaffaqiyat qozonish;
- bank xizmatlariga bo'lgan ijtimoiy ehtiyojlarni qondirishga intilish va boshqa ko'rsatkichlar.

1.Shunday qilib, bankni boshqaruv sifati bank rahbariyati tomonidan olib borgan siyosatning samaradorlik darajasini ifodalovchi ko'rsatkich bo'lib, qator omillar va ko'rsatkichlar orqali aniqlanadi.O'zbekistonda iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida tijorat banklarining to'lovga layoqatliligi va likvidliligini ta'minlash borasidagi islohotlar.2012 yilda bank tizimini rivojlantirish va isloh qilishda asosiy e'tibor O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 26 noyabrdagi PQ-1438-sonli Qarori bilan tasdiqlangan «2011-2015 yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha kompleks chora-tadbirlar» dasturida hamda bank tizimiga oid boshqa Farmon va qarorlarida belgilangan vazifalarni bajarishga qaratiladi. Xususan:Bank nazorati tizimini, xususan, tijorat banklari kapitalining etarligiga va likvidligiga qo'yilgan talablarni xalqaro andozalar asosida yanada takomillashtirish, bu boradagi Bazel qo'mitasining yangi tavsiyalarini tadbqiq etish ishlari davom ettiriladi.Bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasining yangi tavsiyalarini joriy qilish uchun xalqaro moliya institutlaridan texnik yordam va ekspertlar jalb etilib, bu borada tegishli chora-tadbirlar amalga oshiriladi.Bunda, bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasi tomonidan bank kapitalining etarliligi bo'yicha tavsiyalar, jumladan, birinchi darajali bank kapitalini sifatini va uning etarlilik darajasini oshirishni, konservatsion bufer kapitalini (moliyaviy inqirozlar davridagi zararlarni qoplash uchun zaxira) hamda kontrsiklik bufer kapitalini (siklik o'zgarishlar zararlari oldini olish uchun zaxira) tashkil etishni nazarda tutadi.SHuningdek bank likvidligi bo'yicha normativlarni, xususan, qisqa va uzoq muddatli likvidlik normativlarini Bazel qo'mitasining yangi tavsiyalari asosida qayta ko'rib chiqish va takomillashtirish ko'zda tutilmoqda.Banklar kapitali, aktivlari, boshqaruvi, daromadlari, majburiyatlarining sifati va darajasini xolis baholanishini ta'minlovchi CAMEL(S) tizimining yangi talqinini inspeksion tekshirishlarda tadbqiq qilish ishlari davom ettiriladi.

O'zbekistonda iqtisodiyotni modernizatsiyalashsharoitida tijorat

banklarining to'lovga layoqatliligi va likvidliligini ta'minlash yo'llari.

Tijorat banklarida boshqaruv samaradorligini oshirishga e'tibor kuchaytiriladi, bank Kengashlari roli yanada oshiriladi va korporativ boshqaruv tizimi faoliyati yanada takomillashtiriladi.Bank Kengashi tomonidan bank Boshqaruvi raisi va a'zolari, ichki audit bo'limi rahbarlarining bank aktivlari, kredit va investitsiya portfelli holati, bank kapitalining o'sishini ta'minlash, daromadlilik va likvidlilik ko'rsatkichlari, shuningdek bank tizimi oldiga qo'yilgan boshqa ustuvor vazifalarning ijrosi to'g'risidagi masalalar bo'yicha hisobotlarini muntazam ravishda har chorakda ko'rib chiqish va ta'sirchan choralar belgilab amalga oshirish amaliyotidan keng foydalaniladi.Tijorat banklarining moliyaviy

barqarorligi va likvidligini ta'minlashda ichki audit xizmatlarining rolini oshirish va ularning faoliyatini amaldagi me'yoriy hujjatlar talablariga muvofiqlashtirish borasida ishlar olib boriladi. Hukumatning bank tizimiga oid qaror va dasturlarida belgilangan vazifalarni bajarishga qaratildi, jumladan:

- tijorat banklarining kapitallashuv darajasini yanada oshirish, ushbu sohaga xususiy kapitalni jalb etish, depozit bazasini kengaytirish;
- tijorat banklarining aktivlari sifati, ular faoliyatidagi tavakkalchiliklar, ayniqsa kredit tavakkalchiligini boshqarishning sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarish;
- aholi va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning pul mablag'larini uzoq muddatli depozitlarga jalb qilishni rag'batlantirish;
- bank nazoratini xalqaro amaliyotdagi yangi o'zgarishlarni inobatga olgan holda takomillashtirish;
- respublika tijorat banklari va bank tizimi faoliyatini baholashda xalqaro amaliyotda qo'llaniladigan me'yorlar, mezonlar va andozalarni joriy etish va ularning bajarilishiga erishish;
- iqtisodiyotga yo'naltirilayotgan kreditlar hajmini oshirish va banklarning investitsiya jarayonlaridagi ishtirokini yanada kengaytirish;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga kreditlar ajratish mexanizmini yanada soddalashtirish va ularga ajratiladigan kreditlar hajmini oshirish, avvalambor, investitsiya maqsadlariga, boshlang'ich sarmoyani shakllantirishga, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish hamda texnologik yangilash uchun uzoq muddatli kreditlar berishni rag'batlantirish;
- bank qonunchiligini, jumladan, xususiy banklar va xususiy mulkka asoslangan moliya institutlarini tashkil etishning qonunchilik asoslarini takomillashtirish orqali moliya-bank sohasiga xususiy kapitalni jalb qilishni ko'paytirish;
- tijorat banklarida hisob va hisobotni yuritishda zamonaviy texnologiyalar va uslublarni joriy etish, ularning sifati va shaffofligini ta'minlash bilan bog'liq chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Bank tizimi likvidligini domiy ravishda monitoring qilib borish doirasida tijorat banklarining vakillik hisobvarag'idagi va boshqa yuqori likvidli aktivlarining harakati tahlil qilib qilib boriladi va ularning eng maqbul darajada bo'lishini ta'minlash uchun Markaziy bank tomonidan aniq maqsadli chora-tadbirlar amalga oshiriladi. Likvidlikni tartibga solish vositalarini rivojlantirishning quyidagi yo'nalishlari taklif etilgan:

- ✗ a) overnait kreditlaridan foydalanish ko'lamini oshirish.
- ✗ b) lombard kreditlaridan foydalanish amaliyotini joriy etish.
- ✗ v) ochiq bozor operatsiyalari, shuningdek, REPO operatsiyalari orqali banklarning likvidligini tartibga solish amaliyotini rivojlantirish.
- ✗ g) Markaziy bank va tijorat banklari o'rtasida, shuningdek, bevosita tijorat banklari o'rtasida valyuta svopi bo'yicha operatsiyalarning yo'lga qo'yish lozim.

Bazel qo'mitasining 2009 yil 8-9 dekabrda yig'ilishida qator tavsiyaviy xarakteri ega bo'lgan hujjatlar ("Bank sektori barqarorligini oshirish", "Likvidlik xatarini o'lchash, standartlar va monitoring bo'yicha xalqaro yondashuvlar") ma'qullandi.

✘ Bank kapitali va likvidligini tartibga solish hususida quyidagi tavsiyalar belgilandi:

✘ bank kapitali sifati va shaffofligini oshirish yuzasidan amaldagi standartlarni (“Bazel II”) qayta ko‘rib chiqish, xususan, birinchi darajali kapitalning muhim va etakchi shakllari sifatida oddiy aksiyalar va taqsimlangan foydaga ustuvorlik berish;

✘ sekyuritizatsiyalangan pozitsiyalar bo‘yicha bank kapitaliga nisbatan qo‘shimcha talablarni belgilash;

✘ kapital etarligini baholovchi qo‘shimcha ko‘rsatkich – leveraj (leverage ratio) koeffitsienti (o‘z mablag‘lari va qarz mablag‘lari nisbati) ni kiritish. Bunda koeffitsientning o‘rtacha choraklik darajasi hisoblanadi va dastlabki bosqichda uning me‘yoriy darajasi 3 foiz etib belgilangan;

✘ siklik salbiy ta‘sirini kamaytirish maqsadida iqtisodiy o‘sish fazasida regulativ kapitalga qo‘yilgan minimal talablardan oshadigan kapital zaxirasini shakllantirishga nisbatan qo‘shimcha talablarni joriy etish, shuningdek ehtimoliy yo‘qotishlarga nisbatan zaxiralarni shakllantirish; xalqaro bozorlarda faoliyat yurituvchi banklar uchun likvidlikni boshqarish bo‘yicha qo‘shimcha talablarni, xususan, yaqin 30 kun mobaynida bankning o‘z faoliyatini davom ettirish qobiliyatini baholash imkonini beruvchi minimal likvidlik koeffitsientini (liquidity coverage ratio), shuningdek, bir yillik vaqt diapazonida bank likvidligini baholash imkonini beradigan uzoq muddatli likvidlik (longer-term structural liquidity ratio) koeffitsientini joriy etish.

Bank kapitali bo‘yicha “Bazel III” talablarini joriy etish muddatlari(foizda).

	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019
Oddiy aksiyalarga minimal talab (Minimum Capital Ratio)	3,5	4,0	4,5	4,5	4,5	4,5	4,5
Maxsus zaxira kaptiali (Capital Conservation Buffer)				0,625	1,25	1,875	2,50
Oddiy aksiyalarga minimal talab + Maxsus zaxira kaptiali	3,5	4,0	4,5	5,125	5,75	6,375	7,0
I darajali kapitalga minimal talab (Minimum Tier I Capital)	4,5	5,5	6,0	6,0	6,0	6,0	6,0
Umumiy kapitalga minimal talab (Minimum Total Capital)	8,0	8,0	8,0	8,0	8,0	8,0	8,0

Umumiy kapitalga minimal talab + Maxsus zaxira kaptiali	8,0	8,0	8,0	8,625	9,25	9,875	10,5
---	-----	-----	-----	-------	------	-------	------

“Bazel-3”ga muvofiq, tijorat banklari likvidliligini tartibga solish bo‘yicha 2 ta koeffitsientni **Joriy likvidlilik koeffitsienti** (*Liquidity Coverage Ratio (LCR)*)

✖ **Sof barqaror manbalar koeffitsienti** (*The Net Stable Funding Ratio (NSFR)*) joriy etish ko‘zda tutilgan. Joriy likvidlilik koeffitsienti (**Liquidity Coverage Ratio (LCR)**) 2015 yil 1 yanvardan boshlab joriy qilinadi. Bunda joriy likvidlilik koeffitsienti quyidagicha aniqlanadi:

✖ **$LCR = (\text{yuqori sifatli likvid aktivlar zaxirasi}) / (30 \text{ kun mobaynidagi sof pul chiqimlari}) \geq 100\%$** .

✖ Ushbu koeffitsient banklarning yuqori sifatli likvid aktivlari zaxirasi yaqin 30 kun mobaynida kutilishi mumkin bo‘lgan pul chiqimlari – majburiyatlarni qay darajada qoplay olishini anglatib, uning me‘yoriy darajasi minimum 100 foiz etib belgilanadi.

Sof barqaror manbalar koeffitsienti (**The Net Stable Funding Ratio (NSFR)**) 2018 yil 1 yanvardan boshlab joriy etiladi va quyidagicha aniqlanadi:

✖ **$NSFR = (\text{barqaror manbalarning mavjud miqdori}) / (\text{barqaror manbalarning talab qilingan miqdori}) \geq 100\%$** .

✖ Bunda barqaror manbalar tijorat bankining kapitali, 1 yil va undan ortiq muddatda so‘ndiriladigan qarz majburiyatlari, bank depozit bazasining barqaror qismi kabilardan tashkil topadi. Barqaror manbalarning talab qilingan miqdori bank aktivlarini aktivlar turiga qarab belgilangan omilga ko‘paytirish orqali aniqlanadi. Bunda omil bank aktivlari turiga qarab quyidagicha belgilanadi:

✖ naqd pul, pul bozori instrumentlari, bir yildan kam muddatda so‘ndiriladigan qimmatli qog‘ozlar, boshqa moliyaviy muassasalarga be-rilgan kreditlarning 1 yildan kam muddatda so‘ndiriladigan qismiga **0 %**;

✖ hukumat, markaziy banklar, AA va undan ortiq reytingga ega bo‘lgan ko‘p tomonlama taraqqiyot banklarining 1 yil va undan ortiq muddatda so‘ndiriladigan qimmatli qog‘ozlariga **5 %**;

✖ 1 yil va undan ortiq muddatda so‘ndiriladigan kamida AA reytingiga ega bo‘lgan korporativ obligatsiyalarga **20 %**;

✖ yirik birjalar va kapital bozori indekslariga kiritilgan aksiyalar va likvid bozorlarda faol savdo qilinadigan, 1 yil va undan ortiq muddatga ega va AA- dan A-gacha reytinga ega bo‘lgan korporativ obligatsiyalar, korporativ mijozlarga berilgan kreditlarning 1 yildan kam muddatda so‘ndiriladigan qismiga **50 %**;

✖ chakana mijozlarga beriladigan kreditlarning 1 yildan kam muddatda so‘ndiriladigan qismiga **85 %**;

✖ boshqa aktivlarga **100 %**.

Mavzu yuzasidan takrorlash uchun savollar

1. Tijorat banklarining to‘lovga layoqatliligi va likvidliligi haqida tushuncha?
2. Tijorat banklarining likvidlik ko‘rsatkichlari deganda nimani tushunasiz?
3. O‘zbekiston tijorat banklarining likvidlik holati haqida gapirib bering?

4. Xorijiy davlatlar amaliyotida tijorat banklarining likvidliligini baholash usullari deganda nimani tushunasiz?
5. Likvidlilik va rezervlarni boshqarish bo'yicha tijorat banklarining siyosati va strategiyasi haqida gapirib bering?
6. GEP tahlili nima?
7. Banklarni reytingi va uni baholash usullari nimalardan iborat?
8. O'zbekistonda iqtisodiyotni modernizatsiyalashsharoitida tijorat banklarining to'lovga layoqatliligi va likvidliligini ta'minlash yo'llari qanday?

MAVZU: Tijorat banklari risklari va ularni boshqarish usullari 4 (soat)

REJA:

1. Bank riski tushunchasi va uning turlari.
2. Kredit riski va uni hisoblash yo'llari.
3. Bank risklarini boshqarish masalalari.
4. Tijorat banki riskini baholashda aktivlar diversifikatsiyasining o'rni.
5. Bank risklarini sug'urtalash usullari.
6. Bank risklarini boshqarish asoslari va uni takomillashtirish

Tayanch so'zlar bank riski, kredit riski, riskni baholash,

Bank riski tushunchasi va uning turlari.

Bank faoliyatidagi risklar va ularga xos xususiyatlarni tadqiq qilishdan avval «risk» so'zining lug'aviy ma'nosi va risk kategoriyasiga aniqlik kiritish maqsadga muvofik sanaladi. "Risk" so'zining etimologiyasi lotin tilidagi «rescum» - «dengizdagirisk», «xavf» so'ziga borib takaladi. «Risk- bu shunday narsaki, undan kochish lozim.»

Risk iqtisodiy faoliyatning eng asosiy elementlaridan biri hisoblanib, u keng ma'noga ega bo'lgan ko'p tarmoqli tushuncha: shuning uchun bank faoliyatining samaradorligini oshirish, uning moliyaviy barqarorligini ta'minlash uchun iqtisodiyotdagi mavjud risklar, ularning bank faoliyatiga ta'sir qilish tomonlarini chuqur o'rganib chiqish zarur. Risk insoniyat faoliyatining barcha bosqichlarida mavjud bo'lgan tarixiy va iqtisodiy kategoriya bo'lib, u kishilar faoliyatida yoki tabiiy xodisalarda mumkin bo'lgan yo'qotishlar salmog'ini bildirgan. To'var pul munosabatlarining rivojlanishi riskning iqtisodiy kategoriya sifatida yuzaga kelishiga va sub'ektlar faoliyatida mustaxkam o'rnatilib olishiga imkoniyat yaratadi. SHuning uchun ham risklar bizni doimo har joyda o'rab keladi. U bizning xayotimizda har doim ham qochib bo'lmaydigan va echimi lozim bo'lgan bir jarayon bo'lib biror bir natijani yuzaga kelishiga asos bo'ladi. Bunday natija salbiy va ijobiy bo'lishi mumkin. Riskning sinonimi sifatida biz ishonchsizlikni, imkoniyatsizlikni, bir voqea bo'lish bulmasligini oldindan aytib bera olmaslik kabilarni misol qilib ko'rsatishimiz mumkin.

Insoniyat tabiatan riskdan qochishga intiladi. Agar biz riskni nazorat qila olmasak odatda undan qochishga harakat qilamiz. Chunki har qanday ishonchsizlik o'ziga xos tarzda ma'lum darajadagi yo'qotishlarni olib keladi. Biz xayotimizda riskning mavjudligini tan ola turib har bir harakatimizda riskni minimum darajaga tushirishga harakat qilamiz. Endi biz riskning tub mohiyatini ko'rib chiqadigan bo'lsak «risk» so'zi ispancha-portugalcha so'zdan olingan bo'lib, «suv ostidagi qoya» degan ma'noni bildiradi. Shuning uchun ham risk xavf tug'dirish ehtimoli

mavjudligini bildiradi. “Risk” soʻzi Evropaning koʻp tillarida mavjud. Misol uchun greklarda ridsikon soʻzi mavjud boʻlib, u qoya, choʻqqi maʼnosini bildiradi. Italiyaliklar tilida risiko soʻzi xatar, tahdid maʼnosini, risicare soʻzi qoyadan mohirona oʻtish maʼnosini bildiradi. Vobster lugʻatida risk-xavf-xatar, zarar va yoʻqotish ehtimoli deb taʼriflangan. Iqtisodchi E.S.Stoyanovanning “Moliyaviy menejment” kitobida “Risk-bu zararning paydo boʻlishi yoki prognozlashtirilganidek daromad ololmaslik xavfi ehtimoli” deb taʼrif beradi. Graboviy.P.G, Petrova S.N.larning “Zamonaviy biznesda risk” kitobida taʼriflanishicha, “Risk deganda maʼlum bir ishlab chiqarish va moliyaviy faoliyat natijasida korxona tomonidan oʻz resurslarini maʼlum qismidan ayrilish, foyda ololmaslik yoki qoʻshimcha xarajatlar qilish ehtimoli”dir. Iqtisodchi Chaliy-Prilutskiy. V.A.ning “Bozor va risk” kitobida keltirilishicha: “Risk - bu tanlov sharoitida bajarilgan shunday faoliyatki, qachonki muvaffaqiyatsizlik sharoitida tanlov oldidagiga nisbatan ogʻirroq sharoitga tushib qolish ehtimoli mavjud boʻladi”. Sh.Z.Abdullaevaning fikricha: risk va xavf-xatar alohida narsa, yaʼni risk bu iqtisod subʼektining faoliyatidir va u tanlov bilan bogʻliq. Bu faoliyat subʼektning xavf-xatar sharoitidagi tanloviga asosan amalga oshiriladi.

Risk tushunchasi va unga berilgan taʼriflar

Muallif	Nashr etilgan kitob nomi	Taʼrif
S.Stoyanova	“Moliyaviy menejment”	“Risk - bu zararning paydo boʻlishi yoki prognozlashtirilganidek daromad ololmaslik xavfi ehtimoli”
Graboviy.P.G, Petrova S.N.	“Zamonaviy biznesda risk”	“Risk deganda maʼlum bir ishlab chiqarish va moliyaviy faoliyat natijasida korxona tomonidan oʻz resurslarini maʼlum qismidan ayrilish, foyda ololmaslik yoki qoʻshimcha xarajatlar qilish ehtimoli”
CHaliy-Prilutskiy. V.A.	“Bozor va risk”	“Risk - bu tanlov sharoitida bajarilgan shunday faoliyatki, qachonki muvaffaqiyatsizlik sharoitida tanlov oldidagiga nisbatan ogʻirroq sharoitga tushib qolish ehtimoli mavjud boʻladi”
Granaturov.V.M.	Ekonomicheskiy risk: suщnost, metody izmereniya, puti snijeniya. Moskva “Delo i servis”. 1999	“Risk - bu muqarrar tanlov sharoitidagi noaniqlikni bartaraf qilish bilan bogʻliq faoliyat boʻlib, bu jarayonda moʻljallangan natijaga erishishni, muvaffaqiyatsizlik va moʻljaldan farqlanishlarni miqdoriy va sifat jihatdan baholash imkoniyati mavjud”

Sh.Z.Abdullaeva	"Bank risklari va kreditlash"	risk va xavf-xatar alohida narsa, ya'ni risk bu iqtisod sub'ektining faoliyatidir va u tanlov bilan bog'liq. Bu faoliyat sub'ektning xavf-xatar sharoitidagi tanloviga asosan amalga oshiriladi. Xavf, xatar qanchalik yuqorilashgan sari sub'ekt shunchalik risk qilmaydi va risk nolga yaqinlashadi.
i.f.d. M.Sharifxujaev, Yo.Abdullaevlar	"Menejment: 100 savol va javob"	xavf - biror ko'ngilsiz hodisa yoki falokat yuz berish ehtimolligi; xatar; qo'rqinch; tavakkalchilik - bu oqibatning yaxshi bo'lishiga umid bog'lab, xavf ehtimolligini zimmasiga olgan holda kilinadigan harakat;

Rus olimi Granaturov.V.M.ning fikricha, "Risk - bu muqarrar tanlov sharoitidagi noaniqlikni bartaraf qilish bilan bog'liq faoliyat bo'lib, bu jarayonda mo'ljallangan natijaga erishishni, muvaffaqiyatsizlik va mo'ljaldan farqlanishlarni miqdoriy va sifat jihatdan baholash imkoniyati mavjud". Xavf, xatar qanchalik yuqorilashgan sari sub'ekt shunchalik risk qilmaydi va risk nolga yaqinlashadi. Riskni talqin qilishda i.f.d. M.Sharifxo'jaev, Yo.Abdullaevlarning hammualliflikdagi "Menejment: 100 savol va javob" kitobida ham mantiqiy, ham lug'aviy ma'nodan kelib chiqib yondashilgan. Ularning o'zbek tilining izohli lug'atiga tayanib bergan fikricha:


- xavf - biror ko'ngilsiz hodisa yoki falokat yuz berish ehtimolligi; xatar; qo'rqinch;
- xatar - biror baxtsizlikka, falokatga olib kelishi mumkin bo'lgan sharoit; xavf, tahluka;
- xavf - xatar - xavf va xatar, biror narsadan qo'rqish;
- tavakkalchilik - bu oqibatning yaxshi bo'lishiga umid bog'lab, xavf ehtimolligini zimmasiga olgan holda kilinadigan harakat;
- tavakkalchilik - bu resurs yoki daromadni to'la yoxud qisman yo'qotish xavfi;
- tavakkalchilik - bu noaniklik sharoitida har qanday dovyurak menejer uchun tabiiy holat, vaziyat. Tavakkalchilik botirning ishi;
- tavakkalchilik - bu omadsiz oqibatning miqdoriy baholanishi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, riskka quyidagicha ta'rif berishimiz mumkin: risk bu resurs yoki daromadni to'liq yoki qisman yo'qotish xavfini oldindan hisobga olib, noaniqlik sharoitida biror faoliyatni amalga oshirishdir. Bunda risk realizatsiyasiga qarshi chora – tadbirlar amalga oshirib qo'yilgan bo'lishi lozim. Har bir faoliyatini amalga oshirishda ikkilanish yoki havf-xatar bo'lishi mumkin. Lekin ularni risk mazmunida ifoda etib bo'lmaydi. Xavf-xatar deganda biz oldindan biron salbiy natija beruvchi yoki biron bir salbiylikka yoki zarar, talofatga olib keluvchi jarayon mavjudligini bilamiz va shu vokelikka yondashamiz. Fikrimizcha, havf-xatar oldindan mavjud vokelikdir, ya'ni aksariyat hollarda xavf-xatar birlamchi. Risk ikkilamchi. Odatda xavf-xatr mavjudligini bila turib, uni ijobiy hal qilishga qaror qilish riskni yuzaga keltiradi. Xavf-xatar aksariyat xolda salbiy natijaga olib keladi. Ijobiy natijaga faqat risk qilish

orkaligina erishishimiz mumkin. Xavf-xatarni kamaytirish yoki uni umuman yo'q qilish bo'yicha risk qilinmasa, u doimo salbiy natija olib keladi va uning natijaviy imkoniyati kengroq bo'lishi mumkin.

Masalan, yong'in bu xavf-xatar. Yongin o'chirilmasa u katta zarar keltiradi. Biz ushbu yonginni o'chira olamizmi yoki yo'qmi Agar o'chira olsak qanday natijaga erishamiz. Shularni hisob-kitob qilgan xolda biz riskka boramiz.

Xavf-xatar va riskni bog'liqligi¹



X -har bir xavfli xolat

1-hol. Xavf-xatar Risk qilinmagan xolda salbiy natija -mol- mulkni yo'qotish, daromadni yo'qotish, bankrot bo'lish va xk

2-hol. Xavf-xatar.Risk qilish-ijobiy natija mol-mulk saqlanib qoladi.,daromad saqlanadi,ko'paytiriladi va xz.

A - risk qilish orkali ijobiy natija.

Risk nisbiylikni ifodalaydi. Mavjud xavf-xatarlarning barcha xollarida ham risk qilinmasligi mumkin. Risk qilish doimo ijobiy natijaga erishish bilan bog'liq. Har bir sub'ekt ijobiy natijaga erishish maqsadida riskka boradi. Shu asnoda xavf-xatar darajasining qancha yuqori bo'lishi risk qilish imkoniyatining shunchalik past bo'lishiga olib keladi. Bunday xollarda risk qilinmasligi mumkin.

Bu xulosamizning asosi bo'lib qo'yidagidlar hisoblanadi:

- birinchidan,xavf-xatar riskka nisbatan aksariyat xollarda birlamchidir;
- ikkinchidan, xavf-xatar darajasi past bo'lgan xollarda risk qilinadi.
- uchinchidan,havf-xatar va risk bir-biriga teskari proporsional bo'lgan jarayondir.
- to'rtinchidan xavf-xatar darajasi (ko'lami) yuqori bo'lsa u holda risk «O» bo'ladi.

Banklar faoliyatidagi tavakkalchilik esa bank uz resurslarini yukotishi, daromadni to'lik ololmasligi yoki kushimcha kuzda tutilmagan xarajatlarning paydo bo'lishi bilan boglik yukotishlar yoki olinadigan daromad kurinishida ifodalanadi.Tavakkalchiliklar va yukotishlar- bir tomondan daromad olish mumkinligini ifodalasa, ikkinchi tomondan daromad olish tabiatiga tavakkalchilikning ta'siri mavjudligini xam anglatadi.Banklar nafakat uz faoliyatiga xos risklarga, balki mijozlari va kontragentlariga boglik risklarga ham duch keladi. Doimiy uzgaruvchi iqtisodiy muxit, moliyaviy instrumentlar

bozorining rivojlanishi, instrumentlarning murakkablashib borishi ham bank risklarini yuzaga keltiruvchi asosiy manbalardan hisoblanadi.

Bank risklarini turlicha talqinlarini taxlil kilar ekanmiz, riskni aniklashga bulgan uch yondashuvni alohida ajratib ko'rsatish mumkin, deb hisoblaymiz. Birinchi yondashuvga muvofik risk axborotlarning noaniqligi bilan tavsiflanuvchi boshkaruv qarorini qabul qilish vaziyati bilan aniklanadi. Ikkinchi yondashuvga ko'ra, bank risklari muayyan fursatda banklar tomonidan amalga oshirilgan biror faoliyatning natijasini oldindan aytish imkonining mavjud emasligi bilan aniklanadi. Uchinchi yondashuvda esa bank risklari ular tomonidan likvidlilikning yukotilishi yoki zarar kurish, bank faoliyatiga ta'sir kiluvchi ichki va tashki omillar bilan boglik ravishda daromadni tulaligicha olmaslik ehtimoli bilan aniklanadi. Bank risklarining kelib chikish sabablari bulib turli iktisodiy omillar, shuningdek bank faoliyatiga nisbatan olganda esa tashki va ichki omillar xisoblanishi mumkin. Kayd etib utilgan omillarning barchasi bankning likvidliliigi, rentabelligi va xavfsizligiga nisbatan salbiy ta'sirni yuzaga keltirishi extimoldan xoli emas. Bu esa, banklardan kutilishi mumkin bulgan salbiy ta'sirni bartaraf etish yuzasidan zaruriy choralarni kurishni takazo etadi. Tijorat banklarining eng katta riskli operatsiyasi- bu kredit operatsiyalari bulib, bu operatsiyalar kreditlarni tugri rasmiylashtirish talablariga javob bersa, bank faoliyatida eng kup daromad keltiradigan operatsiya xisoblanadi. Bunda albatta bank boshkaruvi va bank kredit kumitasi a'zolarining kredit tavakkalchiligi va uning kaytarilishini inobatga olgan xolda chikargan karorlari muxim ahamiyat kasb etishini unutmastlik joiz.

Kredit riski va uni hisoblash yo'llari.

Bilamizki har qanday faoliyat turi ma'lum bir turdagi risk bilan bog'liq. SHu jumladan bank tizimida xam bir qator risklar mavjud. Ushbu risklar qatoriga foiz riski, valyuta riski, kredit riski, operatsion risk, bank majburiyatlari bilan bog'liq risklar va bashqa bank operatsiyalari bilan bog'liq risklarni kiritish mumkin. O'z navbatida ularning ichida kredit riskining o'rni va ahamiyati kuchliroq hisoblanadi. Chunki kredit operatsiyalari bank operatsiyalarining 60-80 % ini tashkil etadi. Bu esa bank faoliyatining ko'pgina ko'rsatkichlari aynan kredit operatsiyalariga va ulardan keladigan daromadlarga bog'liqligini ko'rsatadi. Kredit operatsiyalarini samarali amalga oshiririshini ta'minlash va ulardan keladigan foizli daromadlarni barqarorligini ta'minlash uchun berilayotgan va avval berilgan kreditlarning risk ko'rsatkichi qay darajadaligini to'g'ri aniqlay olish xamda kreditning riskka uchrashi yoki uni chetlab o'tishi va riskni boshqarish chora-tadbirlarini amalda to'g'ri qo'llay olish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bularning barchasi kredit riskini baholash orqali amalga oshiriladi.

Kredit riski-bu bank kreditlarining o'z vaqtida qaytmasligi xamda ularga xisoblangan foizlarni to'lashda yuzaga keladigan muammolarining yuzaga kelishidir/

1)Mijozning moliyaviy va sifat ko'rsatkichlari:

- Mijozning kreditga layoqatlilik ko'rsatkichlari;
- Kapital etarlilik ko'rsatkichlari;
- Kreditlash shartlari va ta'minot masalalari bilan bog'liq omillar;
- Biznes reja ko'rsatkichlari;

● Boshqa omillar.

2) Tashqi omillarni :

- Turli xil mikro va makroiqtisodiy ko'rsatkichlar;
- Mamlakatdagi iqtisodiy va siyosiy vaziyatlarni hamda qonunchilikning mavjud holatini o'zgarishi;

Kreditlanayotgan tarmoqning bugungi holati va istiqboli.

Kredit riskini baholashda kredit riski darajasini aniqlash tushunchasi ham qo'llaniladi. Kredit riski darajasini aniqlashda risk koeffitsientidan foydalanish mumkin.

Risk koeffitsientini aniqlash tartibi

№	Ko'rsatkichlar	variantlar	
		1-variant	2-variant
1	O'z mablag'lari, mln so'm	10000	60000
2	Mumkin bo'lgan yo'qotishlarning maksimal summasi, mln so'm	6000	2400
3	Risk koeffitsienti	0.6	0.4

Alohida ssudalar va ularning portfelli kredit riski kattaligi boshqaruv hisobi tizimida tegishli operatsiyalar/operatsiyalar guruhi bo'yicha zararni qoplash uchun yaratilgan zaxira ko'rinishida aks ettiriladi:

$$V^t = NR^t * CE^t \quad (7)$$

bu erda V^t - t vaqti boshida yaratilgan zaxira hajmi, NR^t - moliya instrumenti uchun zaxira yaratish me'yori; CE^t - Credit exposure – kredit uchragan pozitsiya (kredit/kreditlar portfeli hajmi).

Kredit riski ta'sirida daromadning ma'lum vaqtda o'zgarishi aktiv operatsiyalarining ma'lum turi bo'yicha zararni qoplash uchun yaratilgan zaxiralar hajmi o'sishi yoki qisqarishiga teng. Demak t vaqtda ko'rilayotgan kredit riski quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

$$PL_{kr}^t = dNR^t * CE^t = \frac{dNR^t}{NR^t} * V^t \quad (8)$$

bu erda PL_{kr}^t - t vaqtda kredit riski (zaxiralar yaratilishi natijasida aktivlar portfelinin toza bahosi o'zgarishi); dNR^t - vaqt mobaynida portfelni zaxira yaratish me'yori o'zgarishi; V^t - t vaqt boshida yaratilgan zaxiralar hajmi.

Shunday qilib, zaxira yaratish me'yorining nisbatan o'zgarishi kredit riski omili bo'ladi, zararni qoplash uchun yaratilgan zaxiralar hajmi esa uning pozitsiyasi bo'ladi. Alohida operatsiyalar uchun zaxira yaratish me'yori professional fikr-mulohazalarga reyting berish protseduralarini amalga oshirish chog'ida yuzaga keladigan reyting metodikasi asosida aniqlanadi. Operatsiyalar kredit riskini baholash usuli kontragent/emitent tipiga bog'liq bo'ladi, ularning ichida quyidagilar ajratiladi:

- Rossiya Federatsiyasi sub'yektlari hokimiyat organlari va mahalliy hokimiyat organlari;
- banklar;
- korporativ kontragentlar va emitentlar;
- kichik biznes sub'ektlari;
- jismoniy shaxslar.

Kredit riskining tashqi va ichki omillarini (bir guruh omillar) baholashga va shu risklarning kontragentning o'z zimmasiga olgan majburiyatlariga ishlash va ularni yopish qobiliyatiga ta'siri darajasidan kelib chiqqan holda ichki kredit reytinglari tizimlari kontragentlarni kredit riskining ma'lum kategoriyasiga kiritishni nazarda tutadi.

Risk omillari:

- kontragentning moliyaviy ahvoli;
- kontragentning kredit tarixi;
- kontragentning ishbilarmonlik obro'si;
- aksiyadorlik kapitalituzilmasi, guruh tuzilmasi;
- kontragent to'g'risidagi ma'lumotlar oshkoraligi ;
- kontragent biznesi xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan taqdirda baholanishi kerak

Baholash natijalari bo'yicha belgilangan shkala bo'yicha kontragentga reytinglardan biri beriladi. Berilgan reyting asosida kredit riski bilan bog'liq operatsiyalarni o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilish bosqichida kontragentlar/o'zaro bog'liq kontragentlar guruhi bilan operatsiyalarga limit belgilanadi va tegishli balans pozitsiyalari ochiladi. So'ngra operatsiya o'tkazish chog'ida ichki reyting monitoringi hamda shartnomada ko'zda tutilgan va amalda prognoz qilingan pul oqimlarini taqqoslash orqali zararlarni qoplash uchun zaxira yaratish me'yori belgilanadi. Kredit riskiga uchraydigan bir xil aktivlar portfelini zaxiralash me'yorlari qiymatlarining nisbiy o'zgarishlari bo'yicha tarixiy ma'lumotlar majmuini o'rganib chiqib, kredit riski omilini taqsimlash funksiyasini tuzish hamda EAR va VAR xarakteristikalarini baholash mumkin. Kredit risklari modellarini tuzish murakkabligi kredit reytinglarini qayta ko'rib chiqish hollari nisbatan "kam uchrashi" bilan bog'liq. Agar qimmatli qog'ozlar kotirovkasini bozor har kuni belgilasa, kredit risklari va ularni qoplash uchun zarur zaxiralar to'g'risida professional fikr-mulohazalar bir oyda bir marta chiqadi. Kredit riskini kamaytirish usullaridan biri - kreditni sindikatlashgan asosda berish xisoblanadi.

Respublikamizda yirik investitsiya loyixalarini sinditsiyalashtirilgan kreditlash amaliyoti Markaziy bank Boshkaruvining 2005 yil 16 iyuldagi 15/4-sonli karori bilan tasdiklangan "Tijorat banklari tomonidan yirik

investitsiya loyixalarini sinditsiyalashtirilgan kreditlashni amalga oshirish tartibi tugrisida"gi Nizom asosida tartibga solinadi.

Ushbu Nizomga muvofik umumiy kiymati tijorat banklarining birinchi darajali kapitalining 25 foizidan oshadigan investitsiya loyixasi yirik investitsiya loyixasi xisoblanadi. Bunda sinditsiyalashtirilgan kreditlar fakat yuridik shaxslarga beriladi. Sinditsiyalashtirilgan kreditlashda tashabbus bilan chikkan va zimmasiga ishtirokchi-banklar nomidan kredit xujjatlarini yuritish mas'uliyati yuklatilgan karz oluvchining asosiy talab kilib olinguncha depozit xisobvaragiga xizmat kursatuvchi bank etakchi bank xisoblanadi. Etakchi bank tomonidan muammoli kreditni paydo bulishini oldini olishga karatilgan chora-tadbirlar boshka ishtirokchi-banklar bilan kelishilgan xolda amalga oshiriladi. Shuningdek etakchi bank kredit xujjatlarini notugri rasmiylashtirish, yuzaki monitoring utkazish, ishtirokchi banklarga kredit kaytarilishi bilan boglik bulgan muammolar borligi xakida ma'lum kilmaslik karz oluvchining depozit xisobrakamida mablaglari bulgan takdirda, kreditlarni kaytarish uchun mablaglarni uz vaktida utkazmaganlik kabi xatti-xarakatlar buyicha javobgarlikni uz zimmasiga oladi.

Tijorat banklarining kreditlash faoliyatini samarali tashkil etishda Markaziy bank Boshkaruvining 2000 yil 22 fevraldagi 429-son karori bilan tasdiklangan (Adliya vazirligida 2000 yil 2 martda 905-sonli rakam bilan ruyxatga olingan) "Tijorat banklari kredit siyosatiga kuyiladigan talablar tugrisida"gi Nizom muxim ahamiyat kasb etadi. Nizomga muvofik bankning kredit siyosati - kreditlash jarayonida yuzaga keluvchi risklarni boshkarishda bank raxbariyati tomonidan kabul kilinadigan choralar va uslublarni belgilovchi xamda bank raxbariyati va xodimlarini kreditlar portfelini samarali boshkarishga doirkursatmalar bilan ta'minlovchi xujjatdir. Ayni chogda, kredit siyosati bankning kredit faoliyati maksadlarini anik kursatishi va aniklab berishi shart. Ta'kidlash joizki, tijorat banklari kredit siyosati aloxdda xujjat sifatida ishlab chikiladi va bank Kengashi tomonidan tasdiklanadi. Bu urinda kredit siyosatini ishlab chikish va ijro etish yuzasidan javobgarlik bank Kengashi va Boshkaruvi a'zolari, bankning boshka mansabdor shaxslariga yuklatilishi mumkin. Shuningdek kredit siyosati kredit berish jarayoniga jalb etilgan kredit xodimining lavozimi va vakolatlariga karab ularning xar biri uchun kreditlash borasida karor kabul kilish va kredit mikdorini cheklash tartibini belgilab beradi. Kreditlash uchun mas'ul bulgan barcha shaxslar vakolatlari kredit siyosatida kayd etiladi. Bundan tashkari, kredit siyosatida bank tomonidan beriladigan kreditlar toifalari va turlari anik kursatilishi lozim. Jumladan, kreditlash soxalari buyicha: sanoat, kishlok xujaligi, kurilish va boshkalar. Kredit turlari buyicha: kredit liniyalari orkali kreditlash, lombard va veksell kreditlari va boshkalar. Kredit siyosati kreditlashning turli kursatkichlari buyicha kreditlarning tuplanishi darajasini aniklash va uni monitoring kilish tugrisidagi talablarni uz ichiga olishi zarur. Kredit siyosati muntazam ravishda raxbariyatga topshiriladigan tegishli xisobotlarni tayyorlashga doyr talablarni belgilashi lozim.

Kredit siyosati muayyan turdagi qimmatliklar (kuchmas mulk avtomobillar va b.) garovi asosida beriladigan ssudalarning maksimal miqdori limitlarini uz ichiga olishi xamda ta'minlangan ssudalarning xar bir turi uchun kredit xujjatlari

tuplamini rasmiylashtirish choralarini belgilashi lozim. Bank kredit siyosatida garov kreditlashning uni berish vaqtidayok kreditni tulash manbasi (nakd pul yoki davlat kiska muddatli obligatsiyalari (xazina veksellari) bilan ta'minlangan kreditlar bundan mustasno) hisoblangan yagona asosi bulmasligi belgilab kuyilishi zarur.

Kredit siyosatida kreditlarni tasniflash tizimi anik ifodalanishi lozim. Kredit xodimlari kredit portfelidagi barcha ma'lum bulgan salbiy uzgarishlar tugrisida raxbariyatga xabar berishlari kerak Kdrzdor yoki garov axvoli yomonlashishini oldindan aniklash extimoliy yukotishlarni kamaytirish uchun juda muximdir. Kredit siyosati bank xizmatlari va bulinmalari tomonidan Bank Boshkaruvi va Kengashiga kreditlashning turli jixatlari buyicha topshiriladigan xamda kredit portfeli sifati va kredit portfelini boshkarish bilan boglik bulgan boshka ma'lumotlarni uz ichiga olgan xisobotlar turi va davriyligini belgilashi lozim.

Xozirgi kunda mamlakatimizda xo'jalik sub'yektlarining kreditga layokatliligini tijorat banklari mustaqil baxolaydilar. Mijozning kreditga layoqatliligi asosan quyidagi koeffitsientlar orkali baholanadi:

- likvidlilik koeffitsenti;
- koplash koeffitsenti;
- muxtorlik koeffitsenti va qo'shimcha ko'rsatkichlardan aylanma mablaglar xolati va aylanish koeffitsentilari aniqlanadi.

Shuningdek pul oqimi, ta'minot, iqtisodiy sharoitlar, karz oluvchini baholash buyicha xam ballar belgilanadi. Shuningdek respublikamiz tijorat banklari amaliyotida xujalik sub'ektining kreditga layokatliligini aniqlashda yukorida qayd etilgan kursatkichlarning darajalariga kura karz oluvchilarni sinflarga ajratish uslubi xam rivojlangan. Bunda mijozning kreditga kobilligi 3 ta sinf buyicha tasniflanadi. Birinchi sinfga taallukli bulgan mijozlar umumiy tartibda kreditlanadi. Shuningdek ular imtiyozli, ishonchli kreditlarni ham olishlari mumkin. Ikkinchi sinfga oid mijozlar kandaydir salbiy kursatkichlarga ega bulsa, ular ustidan nazoratni kuchaytirish maksadida garov xukukini kuchaytirish, foiz stavkalarini oshirish, kredit mikdori va undan foydalanish muddatlarini chegaralash kabi kushimcha choralar kuri lishi mumkin. Uchinchi sinfga mansub mijozlar kreditga layokatsiz xisoblanadi va ular ba'zi xollardagina, yukori foiz stavka va kat'iy mol-mulk garovi ostida kreditlanishi mumkin. Kreditga layokatlilik ko'rsatkichlari uchinchi sinfdan xam past bulgan mijozlarni kreditlashga yul kuyilmaydi.

kredit riski bilan boglik muammolarini kamaytirishda muxim kadam buldi.

Ushbu institutning asosiy vazifalari etib kuyidagilar xisoblanadi:

- tijorat banklari va ularning karz oluvchilari kredit operatsiyalari, karz oluvchilarning majburiyatlarini ta'minlash turlari tugrisidagi ma'lumotlarni tuplash va taxlil kilish, tegishli ma'lumotlar bazasini shakllantirish;
- O'zbekistan Respublikasi Markaziy banki tomonidan bank nazorati funksiyalarini amalga oshirish, kredit siyosatidagi uzgarishlarni ^{va} tijorat banklarining kredit portfeli xolatini taxlil etish maksadida kredit axborotining yagona reestrini yuritish;
- shartnoma asosida tijorat banklariga va kredit-axborot byuolariga kredit axboroti berish. Bundan tashkari, O'zbekistan banklari assotsiatsiyasining "Kredit-

axborot byurosi" shu'ba korxonasi yuridik shaxe xukukiga ega bulgan tashkilot - Banklararo kredit byurosiga aylantirildi.

Ushbu byuro faoliyatining asosiy yunalishlari bulib quyidagilar xisoblanadi:

- tijorat banklarining karz oluvchilari-jismoniy va yuridik shaxslar tugrisida ularning kredit tarixini shakllantirish uchun zarur bulgan ma'lumotlar bazasini shakllantirish va axborotlarni taxlil kilish;
- real sektor korxonalari faoliyatini taxlil etish va qarz oluvchilarni reyting baxolash tizimini shakllantirish;
- shartnoma asosida banklarga va boshka kredit tashkilotlariga, shuningdek karz oluvchilarning uziga ularning surovnomalari buyicha karz oluvchilarning kredit tarixi tugrisidagi ma'lumotlarni berish.

Mamlakatimiz tijorat banklari tomonidan kredit risklarini baholash va tartibga solishni takomillashtirishda quyidagilarni asosiy omillar sifatida e'tirof etish mumkin.

1)Mijozning moliyaviy ko'rsatkichlari bilan bog'liq omillar:

- Mijoz moliyaviy faoliyati barqarorligi tahlili;
- Qarzdorning kreditga layoqatliligi tahlili;
- Kapital etarliligi tahlili;
- Likvidlilik va to'lovga layoqatlilik ko'rsatkichlari tahlili;
- Foydalilik(rentabellik) ko'rsatkichlari tahlili va boshqalar.

2) Mijoz faoliyatining sifat ko'rsatkichlari bilan bog'liq omillar:

Mijozning bozordagi obro'si;

- Boshqarish sifati;
- Bozordagi ish tajribasi;
- Mijozlar bilan aloqasi va ular soni;
- Korxonaning narx-navo siyosati;
- Ichki nazorat va boshqalar.

3) Mijoz faoliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatmaydigan tashqi omillar:

- Mamlakatdagi iqtisodiy va siyosiy vaziyatning o'zgarishi;
- Kreditlanayotgan tarmoq istiqboli;
- Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar o'zgarishi ta'siri tahlili;
- Valyuta kursi o'zgarishi ta'siri;
- Narx-navoning o'zgarishi va boshqa omillar.

4) Kreditlash shartlari va u bilan bog'liq omillar tahlili:

- Kredit muddati va miqdori;
- Kredit foiz stavkasi va boshqa to'lovlar;
- Kredit ta'minoti tahlili;
- Kreditlashga doir hujjatlashtirish va boshqalar.

5) Biznes reja va TIA(texnik iqtisodiy asos) tahlili:

- Biznes rejaning asoslanganligi;
- Biznes rejaning xarajatlarni qoplash bilan bog'liq bo'limining mavjudligi va uning asoslanganligi;
- Pul oqimlarining etarliligi;
- Biznes rejadagi o'z mablag'larining mavjudligi va ularning etarliligi tahlili va boshqalar.

Shularni inobatga olgan holda boshqaruv sifatining kredit riski, uni baholash va tartibga solishni takomillashtirish maqsadida tijorat banklarimiz quyidagilarni inobatga olishlari maqsadga muvofiq bo'ladi. Ular quyidagilar:

- Boshqarish sifati ya'ni boshqaruv tizimini yaxshi tashkil etilganligi;
- Risklar bilan ishlash va kredit bo'limlari xodimlarining malakasi, bilimi hamda tajribasi etarliligi;
- Riskni baholash va tartibga solish jarayonlarini kredit siyosati va boshqa normativ hujjatlarda yoritilishini ta'minlash;
- Bank risklari va ularning kelib chiqish sabablari, risklarni baholash va boshqarish borasida o'quv seminarlarning muntazam tashkil etib borilishi;
- Kredit risklarini baholash va tartibga solish borasidagi yangi taklif va mulohazalarni shuningdek ba'zi bir xorijiy davlatlar tajribalarini amalda qo'llash tartiblarini ishlab chiqish;
- Va boshqa omillarni inobatga olish lozim.

Kredit risklarini baholash va tartibga solish borasida quyidagi takliflarni kiritish mumkin:

- Kredit risklarini baholashning mavjud usullari negizida kredit riski darajasini aniq sonlarda ifodalay oladigan usullarini ishlab chiqish;
- Kredit risklarini baholashda kredit riskini keltirib chiqaruvchi omillar tahliliga ko'proq e'tibor qaratish lozim;
- Kredit riskini baholashda matematik va statistik usullarni qo'llashni kengaytirish;
- Kredit risklarini tartibga solishda kredit riskini namoyon bo'lish shakliga qarab turlarga ajratish va ushbu risk bo'yicha tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirish;
- Kredit riskining bank daromadlilik va likvidlilik ko'rsatkichlariga ta'sirini doimiy tahlil qilib borish;
- Kredit risklarini baholashda xorij tajribalarin amalda sinab ko'rish va boshqalar.

Bank risklarini boshqarish masalalari.

Bank risklarini boshqarishni samarali tashkil etish ularni muayyan belgilari bo'yicha aniq guruxlarga bo'lish bilan bog'liq. Vaqti bo'yicha risklar uch turga bo'linadi.

1. retrospektiv risklar;
2. joriy risklar;
3. kelajakdagi risklar.

Bank risklari klassifikatsiyasi.

Risklartasnifi ularni har birining umumiy tizimdagio'rnini belgilash, ularni boshqarishni ngsamarali usullarini qo'llashimkonini beradi.

Bank risklarini tasniflashni qo'yidagiasosiy tamoyillarasosida olib boriladi.

1. Riskni paydobo'lish sabablarivata'sir qilish harakteribo'yicha.
2. Namoyonbo'lish shakllaribo'yicha.
3. Boshqarishimkoniyatiga qarab risklarni bo'lib chiqish
4. Hisoblash usuliga qarab risklarni ajratish.

5. Yuzaga kelish va ta'sir vaktiga qarab risklarni ajratish.

6. Yuzaga kelish soxasiga qarab risklarni tasniflash.

Paydo bo'lish sabablariga ko'ra risklar sof va sun'iy risklarga bo'linadi. Sof risklar ko'pincha ob'ektiv xususiyatiga ega va salbiy «o» natijaga erishish ehtimolini bildiradi. Bunday risklarga tabiiy ekologik transport risklari, tijorat riskini bir qismi kiradi. Namoyon bo'lish shakllariga qarab bank risklari tizimli yoki tizimsiz risklarga bo'linadi. Tizimli risklar bank tizimidagi umumiy vaziyat natijasida bankning moliyaviy axvoli o'zgarishi ehtimoli sifatida ta'riflanadi. Tizimsiz yoki nomuntazam risklar bank tizimida umumiy axvol barqaror saklangan xolda aloxida olingan bankning moliyaviy axvoli yomonlashishi ehtimolini bildiradi. Boshqarish imkoniyatiga ko'ra bank risklari ochiq va yopiq bo'ladi. Ochiq risklarni tartibga solib bo'lmaydi. Yopiq risklarni esa boshqarish mumkin. Yopiq risklar diversifikatsiya siyosatini o'tkazish yuli bilan amalga oshiriladi. Ya'ni bunda :

1. bank operatsiyalarini umumiy xajmini saklash maqsadida bir necha mijozlarga berilgan kreditlarni kichik so'mmalardan keng miqyosda taqsimlash

2. yirik kreditlarni konsorsial asosda berish;

3. depozit sertifikatlarini joriy qilish,

4. qayta hisobga olish operatsiyalarini kengaytirish,

5. kredit va depozitlarni sug'urtalash amalga oshiriladi.

Balanslashmagan likvidlik riskini paydo bo'lishi bank boshqaruv va xodimlari malakasi, bank faoliyatini va nazoratini tashkil qilish, risklarni tartibga solish uchun qo'llanayotgan usullarning ishonchliligi, aloxida bank operatsiyalari yoki ularning guruxlari bo'yicha risklar koeffitsienti shkalasini tuzishga asoslanadi.

Bank risklari iqtisodiy klassifikatsiyasi qo'yidagi elementlardan shakllangan:

1. Tijorat bankining turi.

2. Bank risklarini ta'sir doirasi va kelib chiqishi.

3. Bank mijozlarining tarkibi.

4. Risklarni hisoblash metodi.

5. Bank risklari miqdori.

6. Bank risklarini boshqarish.

7. Bank risklari boshqarish metodi.

Tijorat bankining ish faoliyatida tarmoqda o'rtacha risklarni miqdorini inobatga olmoq kerak. Universal harakterga ega bo'lgan banklar faoliyatida hamma turdagi risklar inobatga olingani maqsadga muvofiqdir. Ko'rib o'tilgan variantlarda risklarni miqdor darajasi ko'proq tarmoq banklariga tegishlidir. Tarmoq banklari tarmoqqa bog'liqdir. Risklar universal banklarga nisbatan kamroq ta'sirlidir. Buning sababi universal banklar bir operatsiya turidan zarar ko'rsa, uni boshqa turdagi operatsiyalardan olingan foyda bilan qoplashi mumkin.

Bankning risklari 2 ga bo'linadi:

1. Ichki risklar

2. Tashqi risklar

Ichki risklar bank faoliyatidan kelib chiqib ikki turdan iboratdir:

• Asosiy faoliyatdan kelib chiqadigan risklar,

• Yordamchi faoliyatdan kelib chiqadigan risklar.

Asosiy faoliyatdan kelib chiqadigan risklar:

1. Kredit berishdan kelib chiqadigan risklar;
2. Foiz risklari;
3. Valyuta risklari;
4. Bozor risklari- qimmatli qog'ozlar bilan risklar;
5. Naqd pulsiz hisob-kitob risklari.

Yordamchi faoliyatdan kelib chiqadigan risklar:

1. Depozitlarni muddatdan oldin talab qilinsa;
2. Yangi turdagi operatsiyalardan kelib chiqadigan risklar;
3. Bank muttahamgarchiliklaridan kelib chiqadigan risklar.

Tashqi risklar:

1. Siyosiy o'zgarishdagi risklar;
2. Iqtisodiy o'zgarishlar risklari;
3. Harbiy harakat (urush) boshlanishi risklari;
4. Natsionalizatsiya;
5. Xususiylashtirish;
6. Qarz kompensatsiyasi;
7. Import litsenziyasini bekor qilish;
8. (er qimirlashi, suv bosishi, yong'in).

Tijorat banklarining mijozlari tarkibi bank risklarini hisoblash metodikasini aniqlab beradi. Mayda kredit oluvchilar bozor iqtisodiyoti spetsifikasidan kelib chiqadigan risklarga monanddir.

Tijorat banki riskini baholashda aktivlar diversifikatsiyasining o'rni.

Tijorat banklari faoliyatida uning aktivlari va ular bilan bog'liq aktiv operatsiyalarning risklilik darajasini aniqlash, bu jarayonni boshqarib borish muxim o'rin tutadi.

Tijorat banklarining aktivlari o'ziga xos belgilariga qarab tasniflanadi:

1. Likvidlik darajasiga qarab
2. Risk darajasiga qarab
3. Daromad darajasiga qarab

I. Birinchi gurux-yuqori likvidli aktivlar.

a) kassadagi va yuldagi nakd pullar, kimmatbaho toshlar, moneta, cheklar va boshqalar.

b) korschetdagi mablag' koldiklari.

v) «Nostro» va «Vostro» schetlaridagi koldiklar

g) majburiy rezervlar scheti bo'yicha mablag'lar

d) qimmatli qog'ozlar schetdagi mablag'lar koldigi xazina veksellari va boshqalar.

Ikkinchi gurux likvid aktivlar

a) berilgan kreditlar.

b) O'zbekiston investitsiyalari

v) boshqa qimmatli qog'ozlar
uchinchi gurux nolikvid aktivlar.

a) Muddati o'tgan sudalar.

b) Muddat o'tgan foizlar

v) Sud aralashuvi bilan o'zlashtirilishi ko'zda to'tilgan ssudalar.

g) Tugallanmagan ishlab chiqarish

d) Asosiy vositalar.

Risklilik darajasiga qarab aktivlar to'rt guruxga bo'linadi.

1 guruh-riskdan xoli bo'lgan aktivlar.

Bularga nakd pullar Nostro, Vostro hisob varaq koldiqlar? MB qimmatli qog'ozlari va obligatsiyalar.

2-gurux (kichik) minimal riskli aktivlar Nostr, Vostro hisobvaraqdagi olinishi lozim bo'lgan mablag'lar, evro obligatsiyalar, kiska muddatli birinchi sinf ta'minlanganlikka ega bo'lgan kreditlar. Bu aktivlar bo'yicha risk darajasi 20 % ga teng.**3-gurux** Yuqori riskli aktivlar, boshqa banklarga berilgan kreditlar, boshqalar uchun bank bergan garov va kafolatlar, bu aktivlar bo'yicha risk 50%ga teng.

4-gurux Eng yuqori darajadagi riskli aktivlar:

qimmatli qog'ozlar sotish va sotib olish scheti, sotib olingan vekselar, trast xujjatlar va akkreditivlar bo'yicha mijozlarning majburiyatlari, sud jarayonida bo'lgan kreditlar, akkreditivlar, forward, bank va banklararo sotish va sotib olish.

Bu aktivlar bo'yicha risk darajasi 100%.

Daromad keltirishiga qarab bank aktivlari daromad keltiruvchi va daromad keltirmaydigan aktivlarga bo'linadi.

Daromad keltiruvchi aktivlarga:

- Barcha berilgan kreditlar
- Investitsiyalar (o'ziniki)
- Xazina veksellari.
- Davlat obligatsiyalari.
- qimmatli qog'ozlar

Daromad keltirmaydigan aktivlar:

- Pul aktivlari guruxi
- Asosiy vositalar
- Kapital harajatlar
- Barcha moddiy aktivlar
- Nomoddiy aktivlar

Daromad keltirmaydigan aktivlarni shartli ravishda deb belgilaymiz va ularning darajasi umumiy aktivlarning xajmidan 3% oshmasligi lozim. Agarda bunday aktivlar o'rnatilgan normadan miqdorda 2 va undan ortiq marta ko'p bo'lsa, bank faoliyati juda muammoli, uning kredit siyosati juda zaif deb baholanadi.

Tijorat banklarining faoliyatini taxlil qilish va aktivlar bahosini belgilashning asosi bo'lib uning balansi hisoblanadi. Balans asosida tijorat banklarining faoliyatini taxlil qilishda bir marta bo'ladigan harajatlar yoki daromadlarni aloxida hisobga olgan ma'quldir. Chunki bu bir martalik bo'ladigan tushum yoki harajat bank faoliyatining olib borilishi uning likvidligi ko'rsatmasligi mumkin.

Bularni neytral harajatlar va neytral daromadlar deyiladi.

Neytral harajatlar

- Bir martalik to'lovlar (yongin, pul ugirlish)
- Bank biznesiga taallukli bo'lmagan to'lovlar.
- O'tgan davrdagi foizlar bo'yicha harajatlar.

Neytral daromadlar:

- Bir martalik tushumlar
- O'tgan davrdagi foizlar bo'yicha tushumlar
- Bank biznesiga taallukli bo'lmagan tushumlar

Banklarning asosiy daromad keltiruvchi operatsiyalari kredit operatsiyalari hisoblanadi. Shu sababli bank kredit operatsiyalari bo'yicha oladigan daromadi va u bo'yicha risk darajasini aniqlashi lozim.

Banklar kredit berishda o'z kapitaliga to'g'ri kelishi mumkin bo'lgan foiz stavkasini hisoblashi kerak. Chunki bank kapitaliga to'g'ri keluvchi foiz yoki foyda normasi bank likvidililigini ta'minlashning asosi hisoblanadi. Bank o'zi beradigan kreditning samaradorlik darajasini aniqlash uchun bankda amalga oshiriladigan har bir operatsiya bilan bog'liq harajatlarni aniqlashi lozim. Bu esa har bir operatsiya uchun sarflanadigan vaqtни aniqlashni talab qiladi. Operatsiyani amalga oshirish uchun ketadigan vaqt aniq bo'lishi uchun bu jarayon 2-3 hafta, 1 oy davomida yozib borilishi: har bir operatsiya vakti, minutlari xronometrik yul bilan o'lganishi kerak.

Bank risklarini sug'urtalash usullari.

Risk strategiyasini ishlab chiqishning muxim tarkibiy qismi **xedjirlash** ya'ni riskni kamaytirish yoki uning paydo bo'lishini ogoxlantirish tadbirlarini ishlab chiqish xisoblanadi. Xorijiy bank amaliyotida eng keng tarqalgan, kredit riskini pasaytirishga qaratilgan tadbirlar quyidagilar xisoblanadi:

Qarzdor kreditga layokatligini baxolash. Xorij bank amaliyotida ssuda oluvchini balli baxolashga asoslangan metod juda keng tarkalgan. Bu metod mijoz reytingini aniklashni ko'zda tutadi. Karzdorni baholash kriteriyalar xar bir bank uchun qattiq individuallashtgan bo'lib, uning amaliyotdagi mavkeidan kelib chiqadi va vaqti-vaqti bilan qayta ko'rib chiqiladi. Bir qarzdorga beriladigan kreditning xajmini kamaytirish. Bu usul qachonki, bank mijozning kreditga layokatligiga tuliy amin bo'lmasagina qo'llaniladi.

Kreditlarni sug'urtalash. Kreditni sug'urtalash uning qaytmaslik riskini tuliy sug'urta bilan shug'ullanuvchi tashkilot zimmasiga yuklanishini ko'zda tutadi. Sug'urtalash bilan bog'liq barcha xarajatlarni ssuda oluvchilar tomonidan to'lanadi.

Etarli ta'minlanishni jalb qilish. Bunday metod bankka berilgan summaning kaytishini va foiz olinishini kafolatlaydi. Kredit riskidan ximoya qilishda asosiy e'tibor zararlarni koplash uchun muljallangan etarli ta'minotni jalb qilishiga emas, balki ushbu zararlarga yo'l kuymaslik uchun qarzdor kreditga layokatligini taxlil qilishga qaratiladi. Chunki ssuda kredit kelishuviga muvofiq qaytarilishini xisobga olib beriladi.

Diskontli ssudalar berish. Diskontli ssudalar unchalik katta bo'lmagan darajada kredit riskini pasaytirishga erdam beradi. Bunday usulda kredit berish minimum kreditga to'lovni olishni ta'minlaydi. Agar kredit riskidan ximoyalalaninning boshqa metodlari qo'llanilmasa, uning kaytishi tugrisidagi savol javobsiz kolaveradi.

Yuqorida aytib o'tilganlardan tashkari quyidagilarga e'tibor berish ham kredit riskini kamaytirishda katta ahamiyatga molikdir. Tomonlar o'rtasida kredit munosabatlarining samarali amalga oshirilishiga ham okilona kredit siyosati orkali erishish mumkin. Chunki kredit siyosati kreditlash jaraenida yuzaga keladigan risklarni boshqarishda bank raxbariyati tomonidan kabul kilinadigan chora va

uslublarni, bank kredit portfelini samarali boshqarishga doir ko'rsatmalarni o'zida ask ettiradi. Xar bir bank o'zining kredit siesatini mamlakatdagi iktisodiy, siyosiy, geografik, tashkiliy va boshka bank faoliyatiga ta'sir kiluvchi omillarni xisobga olgan xolda ishlab chiqadi. Kredit siesati bank strategiyasining ajralmas qismi sifatida kredit bozorida bankning xarakat kilishidan ko'zlangan maksadini, tamoyillarini va yunalishlarini o'z ichiga oladi. Taktik jixatdan esa bu siyosat moliyaviy va boshka instrumentlarni, kredit bitimlarini amalga oshirishdagi bankning maksadlariga erishish yunalishlarini va koidalarini hamda kredit jarayonini tashkil kilish tartiblarini ishlab chiqishni kamrab oladi.

Bank risklarini boshqarish asoslari va uni takomillashtirish.

«O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tugrisida» gi konunga (1995 yil 21 dekabr) muvofik Markaziy bank bank aktivlari sifatini tasnif kilish va aktivlar buyicha kurulishi mumkin bulgan zararlar urnini koplash uchun shunga monand rezervlar yaratishga doir talablarni belgilash, ishonchsiz aktivlarni xisobdan chikarish shartlari va tamoyillarini aniklash vakolatiga egadir.

Shuningdek ushbu konunning 52-moddasiga muvofik Markaziy bank tomonidan banklar uchun majburiy bulgan normativlar, xususan:

- bir qarz oluvchi yoki bir-biriga daxldor qarz oluvchilar guruxiga tavakkalchilikning eng kup mikdorini;
- yirik kredit tavakkalchilik va investitsiyalarning eng ko'p mikdorini;
- aktivlarni tasniflash va baxolashga doir talablarni, shuningdek bunday tasniflar asosida bankning operatsion xarajatlari jumlasiga kiritiladigan chegirmalardan shubhali va xarakatsiz karzlarga karshi tashkil etiladigan zaxiralarni shakllantirishni;

- qarzlarga doir foizlarni xisoblab chikish va ularni bank daromadlari xisobvaraklari xisbovaragiga kiritishga doir talablarni;

- bank tomonidan kursatiladigan lizing xizmatlarining eng yirik kiymatini;

- bank tomonidan kimmatli kogo zlarga kuyilmalarining eng kup mikdorini;

Bank bir karz oluvchi yoki bir gurux uzaro alokador karz oluvchilarga, 1-darajali kapital xajmidan ta'minlangan ssudalar buyicha - 25% ta'minlanmagan ssudalar buyicha - 5% chegaralarida kredit berishning limit cheklanishlari

orkali likvidlikni yukotishlar usishni kamaytirish choralarini kuradi. Barcha yirik kreditlar summasi jamlanmasi 1 darajali kapitalning 8 barobaridan oshmasligi lozim. Bank tomonidan kursatiladigan lizing xizmatlarining umumiy miqdori (avializingdan tashkari) Bank 1-darajali kapitalining 25 foizidan oshmasligi kerak. Mazkur cheklovlar kuyidagi hollarda tatbiq etilmaydi:

a) qimmatbaxo kogo zlarning va kafolatlarning bozor kiymati kreditlarni 125 foizga koplay oladigan bulib, davlat kimmatbaxo krgo zlari, O'zbekistan Respublikasi Hukumatining kafolati yoki boshka majburiyatlari bilan ta'minlangan kreditlar;

b) kredit bergan bank tomonidan navd depozitlar bilan ta'minlangan sumlardagi yoki Iktisodiy xamkorlik va rivojlanish tashkiloti ishtirokchilari mamlakatlari valyutasidagi kreditlar berilgan xolda;

v) sotib oluvchi bank dastlabki kreditni bergan bank sifatida tulanmagan karzlar buyicha tavakkalchilikni tulik uz zimmasiga olganda kreditning xammasini yoki uning bir kismini boshka bankka regress (kdyta sotib olish majburiyati) xukukisiz sotish paytida. Ishtirok etish tukrisidagi shartnoma karzlar tulanmagan xolda xar bir bank investitsiyalariga mutanosib tarzda tavakkalchilikni taksimlash tartibini kamrab olishi lozim. Sotib oluvchi bank xarid kilgan kreditning bir kismi Markaziy bank belgilagan cheklovlar va yuzaga kelishi mumkin bulgan yirik zararlar summasi buyicha cheklovlarga tugri kelishi kerak. Shuningdek bankka daxldor shaxslarga beriladigan kreditning eng yukori summasi buyicha xam iktisodiy me'yorlar urnatiladi. Bunda, Bankka daxldor shaxslarga beriladigan bitta kreditning umumiy xdjmi bir yoki uzaro daxldor karz oluvchilar guruxiga beriladigan bitta kredit tavakkalchiligining maksimal mivdoriga nisbatan tartibga solinadi. Bankning barcha daxldor shaxslarga bergan kreditlarining umumiy summasi bankning birinchi darajali (asosiy) kapitalining 100 foizidan oshmasligi kerak bank tomonidan kimmatli kogoizlarga kuyilmalarni amalga oshirishda kuyidagi cheklovlar belgilanadi:

a) bankning bir korxona ustav kapitaliga, shuningdek ushbu korxonaning boshsa kimmatli kogoizlariga silgan suyilmasi mikdori birinchi darajali bank regulyativ kapitalining 15 foizidan oshmasligi kerak Ushbu me'yor bir emitentning xam "Investitsiyalar" bankning korxona ustav kapitaliga va uning kimmatli kogoizlariga kuyilmalarining eng yukori kiymatini belgilaydi. Uzbekistonda tijorat banklari faoliyatidagi risklar, xususan, kred p risklarini boshkarishga nisbatan minimal talablar Markaziy bank Boshgaruvi tomonidan 2011 yil 7 mayda 14/2 - sonli karor bilan tasdiklangan "Tijorat banklarining bank tavakkalchiliklarini boshkarishga nisbatan kuyiladigan talablar tugrisida" gi nizomga muvofik; belgilanadi.

Unga muvofiq tijorat banklari risklarni boshqarishda:

- bank faoliyati va uning atrofidagi muxitning uziga xos xususiyatlarini xisobga oluvchi, anik ifodalangan va xujjatlashtirilgan risklarni boshkarish siyosatini ishlab chikishlari;
- bank risklarini boshkarish vazifalari yuklangan tarkibiy bulinmani tashkil etishlari;
- bank risklarini boshkarish bulinmasini tajribali va malakali mutaxassislar bilan ta'minlashlari;
- bank yangi xizmatlarni joriy kilishda, yirik bitimlarni tuzishda, xorijiy moliya institutlari bilan aloka urnatishda, investitsiyalarni jalb kilishda, chet el valyutasidagi mablaglarni aktivlarga joylashtirishda, yangi xodimlarni ishga qabul qilishda va boshka bank risklari yuzaga kelishi mumkin bo'lgan bank operatsiyalarini amalga oshirishda bank risklarini boshqarish bulinmasi bilan kelishishlari talab etiladi.

O'zbekistan Respublikasi Markaziy bankining 1998 yil 2 noyabrdagi tasdikdangan 422-sonli "Bir karzdor yoki uzaro daxldor bulgan karzdorlar guruxiga to'gri

keluvchi tavakkalchilikning eng yukori darajasi tugrisida"gi Nizomiga muvofiq bir qarzdorga yoki o'zaro daxldor qarzdorlar guruhiga berilgan kredit mikdoriga kuyidagi summalar kiritiladi:

-kreditning asosiy summasi (ssudalar, kafolatlar, akseptlar va akkreditivlar, moliyaviy lizing, faktoring va repo operatsiyalari) xamda «ko'zda tutilmagan xolatlar» xisobvarakdarida aks ettirilgan majburiyatlar va xisoblangan foizlar;

-moliyalashtirishga doir barcha yuridik jixatdan boglik majburiyatlar;

- overdraftlar (mijozlarning jamgarma xisobvaraklaridagi debet koldikdari);

balansdan chikarib tashlangan ("ishonchsiz" deb tavsiflangan) barcha summalar (karzdorning tulash majburiyati u bankrot deb e'lon kilinganligi natijasida yuridik jixatdan bekor kilingan dollar bundan mustasno). Xar kanday bir karzdor yoki uzaro alokador karzdorlar guruxining balansdan tashkari majburiyatlarini xam xi obga olgan xolda, kreditlarijami summasi I darajali bank regul'yativ kapitalining 10 foizdan oshgan xolat yirik kredit deb hisoblanadi. Xar bir bank kreditlarga doir yuzaga kelishi mumkin bulgan barcha yirik zararlar tugrisidagi ma'lumotni xar oyda bir marotaba Markaziy bankka takdim etishi kerak.

O'zbekistan Respublikasi Markaziy bankining tijorat banklarining kredit operatsiyalariga nisbatan iqtisodiy darajasi

No	Ko'rsatkich	Me'yoriy darajasi
1.	Birqarzdoryokiuzarodaxldorqarzdorlargo guruhigaberilgankredit (ta'minlangan)	Kredit summasi /1 darajali kapital < 25 %
2.	Bir qarzdor yoki uzaro daxldor karzdorlar guruxiga berilgan kredit (ta'minlanmagan)	Kredit summasi /1 darajali kapital < 5 %
3.	Jami yirik kreditlar	Barcha yirik kreditlarining umumiy xajmi/ I darajali kapital < 800 %
4.	Jami lizing operatsiyalari	Jami lizing summasi / I darajali kapital < 25 %
5.	Jami daxldor shaxslarga berilgan kreditlar	Jami kreditlar summasi /1 darajali kapital < 100 %

Bu ma'lumot bankda yuzaga kelishi mumkin bulgan yukotishlar mavjud bulgan xar bir karzdor yoki uzaro daxldor karzdorlar guruxi tugrisida kuyidagi tafsilotlarni uz ichiga olishi kerak: xar bir karzdorning nomi, karzdor tulamagan bank kreditining umumiy summasi va uzaro daxldor karzdorlar guruxi tulamagan kreditning umumiy summasi. Shuningdek ma'lumotga bankning yuzaga kelishi mumkin bulgan barcha yirik zararlari umumiy summasi xam kiritilishi lozim.O'zbekistan Respublikasi Markaziy bankining 1998 yil 9 noyabrdagi 242-son "Tijorat banklari va ularning filiallari tomonidan aktivlar sifatini tasniflash, ssudalar buyicha yuzaga kelishi mumkin bulgan yukotishlar urnini koplash uchun

tashkil etiladigan zaxirani shakllantirish va undan foydalanish" tartibiga muvofik tijorat banklarining kredit qo'yilmalari tasniflanadi va ular bo'yicha maxsus zaxiralar shakllantiriladi. Kreditni tasniflash tizimi quyidagi mezonlar bo'yicha qarzdorni baxolashdan boshlanadi:

- tendensiya va tarmok (iqtisodiy sektor) kelajagi;
- qarzdorning moliyaviy axvoli;
- mijozning kredit tarixi;
- muayyan loyixaning iqtisodiy jihatdan asoslanishi;
- korxonadagi menejment sifati.

Bankaktivlarikuyidagitoifalarbuyichatasniflanadi: yaxshi, standart, substandart, shubxalivaumidsiz. O'zbekistanRespublikasiPrezidentining 2010 yil 26 noyabrdagiPK-1438-sonliqarorining 1-ilovasi 32-bandida, banktavakkalchiliklariniboshkarishdachukuromillitahlilniamalgaoshirishninganikm exanizminijoriykilish, zaxiralarnishakllantirish, kreditportfelinidiversifikatsiyalashnikuzdatutganxoldabanklaraktivlarisifatimonitor inginitakomillashtirish,

shuningdekmuammolikarzdorlikpaydobulishigayulkuymaslikyuzasidanogoxlantiru vchichoralarkabulkilishbelgilangan. Mazkurvazifaijrosinita'minlashmaksadida 2011 yil 10 sentyabrdaMarkaziybankBoshkaruvining «Aktivlarsifatinitasniflash, tijoratbanklaritomonidanularbuyichaextimoliyyukotishlarnikoplashhuchunzaxiralarn ishakllantirishvaundanfoydalanishTartibigauzgartirishlarvakushimchalarakiritishtug risida»gi 26/1-sonlikarorikabulkilindi. Markaziybankning

«Aktivlarsifatinitasniflash,

tijoratbanklaritomonidanularbuyichaextimoliyyukotishlarnikoplashhuchunzaxiralarn ishakllantirishvaundanfoydalanishTartibi»gakiritilganuzgartirishlarvakushimchalar da, jumladankuyidagilarifodalangan. Markaziy bankda tijorat banki aktivlari buyicha extimoliy

yukotishlarni koplash uchun zaxiralanadigan majburiy zaxira depoziti tashkil kilindi xamda ushbu majburiy zaxira depozitiga tijorat banklari uz aktivlari buyicha extimoliy yukotishlarga karshi shakllantirilgan maxsus zaxiralar summasiga teng mikdordagi mablaglarni vakillik xisobvaraklaridan utkazib borish talabi kuyildi. Majburiy zaxira depozitiga utkazilishi lozim bulgan mablaglar mikdori xar oyning 10, 20-sanalari va oy yakuni buyicha shakllantirilgan aktivlar buyicha extimoliy yukotishlarga karshi zaxira summasidan kelib chikib kayta xisob-kitob kilinadi. Hisob-kitob natijalariga kura, uch ish kuni mobaynida tijorat banklari maxsus zaxiralar summasiga etmayotgan mikdordagi mablaglarni majburiy zaxira depozitiga utkazishi yoki tijorat banklarining asoslantirilgan murojaatiga kura Markaziy bank tomonidan ortikcha mablaglar banklarga kaytariladi. Shuningdek yangi kiritilgan uzgartirishlarga kura, Markaziy bank tijorat banklari kredit portfelini taxlil kilgan xolda, tijorat banklariga kushimcha ravishda aktivlar buyicha extimoliy yukotishlarga karshi zaxiralar shakllantirish yuzasidan ijro etilishi majburiy bulgan kursatmalar yuborishi mumkin. Bundan tashqari, yangi kiritilgan o'zgartirishlar va qo'shimchalarga ko'ra, bank tomonidan ajratilayotgan barcha kreditlar bo'yicha to'lovlar kredit shartnomasining butun amal qilish muddatiga taqsimlangan xolda bo'lib-bo'lib to'lanishi belgilab

qo'yildi. Ushbu qoida banklarda muammoli kreditlarning paydo bulishiga yul kuymaslik yuzasidan ogoxlantiruvchi belgi sifatida xizmat kiladi. Shu bilan birgalikda, kiritilgan uzgartirishlar kura, tijorat banklari uz aktivlari sifatini tasniflash buyicha bir kator yangiliklar kiritildi. Jumladan, eski qoidalarga ko'ra, 30 kungacha tulov muddati utgan kreditlar «standart», 90 kungacha tulov muddati utgan kreditlar «substandart» va 180 kundan ortik kunga tulovi kechiktirilgan kreditlar «umidsiz» sifatida tasniflangan bulsa, yangi tartibga kura shartnoma muddatida to'lanmagan va grafik buyicha asosiy karz va foizlar buyicha oralik tulovlar 180 kundan kechiktirilgan barcha kreditlar «umidsiz» sifatida tasniflanadi. Bundan tashkari, sud jarayonidagi aktivlar, karzdorning moliyaviy xolati yomonligi va tulovga kobiliyatsizligi sababli to'lov muddati uzaytirilgan aktivlar xamda bank faoliyatida foydalanilmaydigan, muammoli kreditlarni koplash uchun olingan mulklar, ular bank balansiga olingan kundan boshlab uch oy muddatda sotilmagan aktivlar xam «umidsiz» sifatida tasniflanadi. Tijorat banklarimizning barcha operatsiyalari albatta risklarsiz amalga oshirilmaydi. Demak shunday ekan ushbu risklardan tijorat banklarimiz kanday xolis bulishi mumkin yoki uni kamaytirish uchun kanday masalalarga aloxida jiddiy e'tiborni karatmok lozimligi xususida fikr yuritamiz. Tavakkalchiliklarni samarali boshkarish maksadida bankning xar bir tarmoq bo'linmasi uz faoliyat yunalishidan kelib chikib ishtirok etadi va tavakkalchiliklarni oldini olish va ularni minimallashtirish maksadida tegishli choralar kuradi. Tavakkalchiliklarni boshkarishda ma'lumotlarni yigish va ularni dastlabki statistik kayta ishlash uslublaridan keng foydalaniladi. Mazkur turdagi izlanishlarda kullaniladigan statistik kuzatuvning keng tarkalgan uslublariga, yalpi bulmagan statistik kuzatuv (anketa, tasodifiy asosdagi reprezentativ tanlov, tasniflangan asosda yunaltirilgan tanlov) uslublari kiradi. Tavakkalchilikni samarali boshkarishning muxim shartlaridan bulib, tahliliy va monitoring ishlarini yaxshi yulga kuyilganligi bilan borlivdir. Bozor iqtisodiyotida tavakkalchilikni boshqarishga nisbatantizimli yondoshishning kullanilishi va uning bank aktivlari va passivlarini boshkarish tizimini shakllanishida (keyinchalik esa rivojlantirishda) foydalanilishimaksadga muvofiqdir. Tavakkalchilikni bopqarishdagi tizimli yondashuv asosida, xorij tajribasi asosida ishlab chitsilgan tamoyillar yotadi- Generally accepted risk principles (GARP). GARP - bu umumiy tuzilma va u orkdli banklar uz tavakkalchiliklarini boshkdrish va taksimlash imkoniga ega va undan raxbariyat, boshkaruv va konun chikdruvchilar foydalanishlari mumkin. Samaradorlikni nazorat kilish nukdai nazaridan tavakkalchilik boshkdrilishini tarkiblashtirish kullaniladi va bunda kuyidagilar xisobga olinadi:

- a) Bank Kengashining roli;
- b) Bank Boshkaruvining roli;
- v) tavakkalchilik bilan bogaik strategiya;
- g) tavakkalchiliklarning umumiy boshkarilish;
- d) samarali boshsaruv;
- e) samarali nazorat;
- j) kadrlar, ma'lumotlar sifati va ochik-oydinligi.

Likvidlik tavakkalchiligini baxolash va bolqarish, xar kandy bankning muxim funksiyalaridan biri xisoblanadi. Likvidlik tavakkalchiligini baxolashning keng tarsalgan instrumentlari bulib, aktiv va passivlarni muddatlari buyicha tuzilishi xamda yukori likvidli aktivlar xajmini etarliligini xarakterlovchi turli koeffitsientlar xisoblanadi. Ikkinchi muxim parametr bulib, kiska va uzok muddatli istiqbolda likvidlikni qullab turishni ta'minlovchi, yukori likvid aktivlar xajmini etarliligi xisoblanadi. U bank depozit bazasini diversifikatsiyalanganlik darajasini xisobga olgan xolda baxolanishi lozim. Bunday baholash oddiy uslubda bir kreditordan jalb etilgan mablaadar maksimal xajmini yukori likvidli aktivlar xajmiga nisbatini ulchash orkali amalga oshirilishi mumkin. Foizli tavakkalchilikni ulchash va boshkarish uchun 2 standartuslub mavjud. Bular, GAP (GEP-taxlil) - bozor foiz stavkalariuzgarishiga bank ikgisodiy kiymatining sezgirlilik baxosini taxlil etish va ulchash uslubi. GEP-aktiv va passivlar moddalarinimuddatlar buyicha, ularni joylashtirishni (jalb etishni) baxoshartlarini kayta kurilguncha, guruxlashtirish xisoblanadi (birvaktda kayta baxolanayotgan aktiv va passivlarni xajm jixatdanuzaro muvofikligini urgangan xolda). Bunday izlanish, foizstavkalar darajasini usishi yoki kutarilishi jarayonida bank foizspredini uzgarishi buyicha xulosalar kilish imkonini beradi. Ma'lumki tijorat banklarimizning eng kup riskli operatsiyalaridan biri kreditlash jarayoni xisoblanadi. Bu jarayonda kuyidagi masalalarga jiddiyrok nazar tashlansa bank kredit riklarini biroz kamayishiga erishishimiz mumkin:

- Bank boshkaruvi va bank kredit kumitasi a'zolarini kredit oluvchi sub'yekt haqida to'lik aniq ishonchli ma'lumotlar bilan ta'minlagan holda oqilona qaror qabul qilish;
- Mijozdan kredit ta'minotining eng likvidlisini olish va albatta xaridorbop, tez realizatsiya kilinishga qodir, eng muhimi, kreditni qoplashga etarli garov ob'ektlarini olish.

Xozirgi kunda tijorat banklarimiz kredit portfeli ulushida sezilarli darajada muddati utgan kreditlarning salmogi kundan kunga ortib bormokda. Buning asosiy sabablaridan biri kreditni barkaror ishlab turgan sektorga yo'naltirilmaganligi va shu mijozlarning bankrot bulib ketishi, mijozlardan olingan garov ta'minotining etarli emasligi yoki nolikvidliligi, takdim qilingan garov ob'yektning o'z narxidan sezilarli darajada uta yukori baxolanganligi va bank baxolash komissiyasi tomonidan ham shu ma'lumotlarga tayanib baxolanganligi va boshka qator ko'plab kamchiliklarni keltirib utishimiz mumkin. Bu albatta bank mijozlarining kreditlarni o'z vaqtida kaytarolmayotganlidan va bank tomonidan kurilgan birinchi chora uning muddatini o'zaytirish orkali suntirtirishga harakat qilishi bilan baholanadi va albatta bular ijobiy ko'rsatkichlar emasligidan dalolat berishi yuqoridagi ko'rsatkichlardan yaqqol kurinib turibdi. Agarda ushbu kreditlar yuqorida muddatida kreditlarni kaytarolmayotgan mijozlaga emas, yuqori likvidli va yukori daromad bilan ishlaydigan korxonalarga diversifikatsiya kilinganida bank umumiy xisobda kredit portfeliga nisbatan 16 % ga yakin muddati utgan kreditlar salmogiga ega bulmay, balki yukori daromadga erishish mumkin edi. Ushbu kamchiliklarni albatta garov ta'minotiga kabul kilingan ob'ektlar misolida xam kursatish

mumkin. Har qanday taraqqiyot jarayoni qarama-qarshiliklar, muammolar asosida mukammallashib boradi. Mamlakatimiz tijorat banklari taraqqiyoti jarayonida ham bir qator echimini kutayotgan muammolar mavjud:

1. Tijorat banklari faoliyati real sektordan uzilib qolgan va asosan qisqa muddatli, riski kam operatsiyalarga o'rganib qolgan. Buni jami bank tizimi aktivlarining YAIM dagi ulushida ko'rishimiz mumkin. 2012 yil boshiga jami bank tizimi aktivlarining YAIM dagi ulushi 34,3 % ni tashkil etgan. Braziliya, Meksika, AQSHda bu ko'rsatkich 50% dan ko'p, Fransiya va Germaniyada 150-200%ni tashkil etadi. Jami bank tizimi kredit portfelining YAIM dagi ulushi 18,2% , qimmatli qog'ozlarga investitsiyalar esa 1,4% ni tashkil etadi.

2. Banklarni kapitallashuv darajasi 2012 yil boshiga 20,4 %ga o'sgan bo'lsa, aktivlarni o'sishi 34,9 % ni tashkil etgan. Mutaxassislar bu ikki ko'rsatkich bir – biriga mutanosib ravishda o'sishi maqsadga muvofiq deb hisoblashadi. Chunki bank kapitali eng barqaror resurs hisoblanadi.

3. Tijorat banklarimiz depozitlari asosiy qismining muddatsiz yoki qisqa muddatliligi. Tijorat banklar depozitlari tarkibida talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlarning ulushi ko'p (63%) va ular arzon bo'lishiga qaramasdan, riski yuqori resurs hisoblanadi. Mablag'larni jamlash operatsiyalarining hajmi va tarkibi banklarning kredit va investitsiya portfeli holatini belgilaydi hamda investitsiya faoliyatiga ta'sir qiluvchi asosiy omil hisoblanadi. Investitsiyalar uzoq muddatli operatsiyalar bo'lganligi sababli, uzoq muddatli resurslarni talab qiladi. Tijorat banklarimiz resurslarining asosiy qismi esa talab qilib olinguncha depozitlarga yoki qisqa muddatli depozitlarga to'g'ri keladi. Jami depozitlar tarkibida uzoq muddatlilarining ulushini ko'paytirish maqsadida banklarimiz uchun mamlakatimizda bir qancha imtiyozlar joriy qilingan.

4. Aholining bank tizimiga ishonchini yanada oshirish kerak; Jismoniy shaxslar omonatlarining jami bank tizimi depozitlaridagi ulushi taxminan 27% dan ko'proqni tashkil qiladi. Bu jami banklar aktivlariga nisbatan 10,8% ni tashkil etadi.

5. Jahon amaliyotida investitsiya faoliyatini asosan yirik banklar amalga oshiradi. Bizda bunday salohiyatli yirik banklar sanoqli.

1. Respublika tijorat banklari faoliyatida kredit risklarini boshkarish bilan bog'liq kuyidagi muammolarning mavjudligi aniklandi:

- tijorat banklariga mijozlar tomonidan takdim etilayotgan biznes rejalarning mukammal ishlanmaganligi va ularning banklar tomonidan tug'ri baxolanmasligi natijasida xakikatda pul okimlarining kredit bo'yicha asosiy karz va foiz tulovlariga xizmat kursatishga etarli bulmasligi;

- likvidli garov ob'yektlarining cheklanganligi va baholash ishlaridagi kamchiliklar;

- kreditning foydalanilishi ustidan monitoringning sustligi;

- karz oluvchilarning risk darajasi, kreditga xizmat kursatish borasidagi intizomidan kelib chikib ularga turli xil foiz stavkalarini belgilash amaliyotining etarli darajada rivojlanmaganligi;

- kredit riskini sugurtalashning xosila moliyaviy vositalaridan foydalanish imkoniyatining mavjud emasligi;
- kredit riskini boshkarish bilan boglik infratuzilmaviy muammolar;
- respublikamiz tijorat banklarining kredit portfellari buyicha kredit riski darajasining nisbatan yukori ekanligi;
- kredit portfelini diversifikatsiyalash bilan boglik muammolar;
- respublika bank amaliyotida Bazel talablari buyicha kredit reytingining yangi metodik ta'minotidan foydalanish bilan boglik muammolar.

2. Respublika tijorat banklarida kredit riskini boshkarishni takomillashtirishning ustuvor yunalishlari ishlab chikildi:

- banklarda kredit riskini baxolash va boshkarish buyicha xalkaro xalkaro talablarga tayanish;
 - tijorat banklarida kredit risklarini boshqarishning samarali tizimini shakllantirish maksadida bankning turli tarkibiy bulinmalari urtasida munosabatlarni optimallashtirish;
 - banklarda kredit riskini kamaytirish usullarini takomillashtirish;
 - tijorat banklari kreditlari buyicha yuzaga kelishi mumkin bulgan muammolarni oldini olishga karatilgan profilaktik choralarni kuchaytirish;
 - kredit portfeli risklari monitoringini kuchaytirish. 2012 yilda respublika bank tizimidagi islohotlar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 26 noyabrdagi PQ-1438-sonli Qarori bilan tasdiqlangan «2011 - 2015 yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha kompleks chora-tadbirlar» hamda Hukumatning bank tizimiga oid qaror va dasturlarida belgilangan vazifalarni bajarishga qaratildi, jumladan:
 - tijorat banklarining kapitallashuv darajasini yanada oshirish, ushbu sohaga xususiy kapitalni jalb etish, depozit bazasini kengaytirish;
 - tijorat banklarining aktivlari sifati, ular faoliyatidagi tavakkalchiliklar, ayniqsa kredit tavakkalchiligini boshqarishning sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarish;
- Bank tavakkalchiliklarini boshqarishda chuqur omilli tahlilni amalga oshirishning aniq mexanizmlari joriy qilinadi, zaxiralarni shakllantirish, kredit portfelini diversifikatsiyalashni ko'zda tutgan holda bank aktivlari sifati monitoringi takomillashtiriladi, shuningdek muammoli qarzdorlik paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaslik yuzasidan ogohlantiruvchi choralar qabul qilib boriladi. Tijorat banklari bank operatsiyalarini amalga oshirishda operatsion va bozor tavakkalchiliklarini aniqlash va tegishli choralar ko'rishni «Tijorat banklarining bank tavakkalchiliklarini boshqarishiga nisbatan qo'yiladigan talablar to'g'risida» Nizom (ro'yxat raqami 2229-son, 2011 yil 25 may) talablariga rioya qilingan holda amalga oshirish ta'minlanadi. Banklar tomonidan ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etilgan mijozlarining kreditga layoqatliligini skoring-tahlil qilish zamonaviy uslubiyotining amaliyoti yanada kengaytiriladi. Ushbu tahlil natijalari bank aktivlari va passivlarini samarali boshqarish hamda ularning sifatini ta'minlashga

yordam beradi. Shuningdek, kredit operatsiyalarining qaytishlilik, ta'minlanganlik va daromadlilikidan hamda amalga oshirilayotgan investitsion loyihalarning samaradorlilikidan kelib chiqqan holda bevosita kredit ajratish masalalari bilan shug'ullanuvchi tijorat banklari rahbar va xodimlarini rag'batlantirish tizimi yanada takomillashtiriladi, banklar kredit resurslarini joylashtirishda sub'yektiv omillarning ta'siri kamaytiriladi.

Barcha bank risklarini vujudga kelish sohasi bo'yicha 2 turga ajratish mumkin:

1) Tashqi risklar

2) Ichki risklar

Tashqi risklar-bu bevosita bank faoliyati va uning mijozlari bilan bog'liq bo'lmagan risklardir. Ular makromuhit darajasida yuzaga keladi. Tashqi risklar darajasiga ko'pgina faktorlar –siyosiy, iqtisodiy, jug'rofiy, demografik va boshqalar ta'sir etadi. Ular orasida siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va ta'biy-iqlim risklarini alohida ko'rsatish zarur. Siyosiy risklar mamlakatdagi siyosiy vaziyat va davlatning faoliyati bilan bog'liq. U urushlar, revolutsiya, milliylashtirish, chetga to'lovlarni tahqiqlash, qarzlarni konsolidatsiyalash, embargo joriy qilish, importga litsenziyani bekor qilish, ta'biy ofatlar natijasida yuzaga keladigan yo'qotishlarni o'ziga jamlaydi. Tashqi risklarni o'ziga xos xususiyati shundaki ular bank faoliyati natijalariga ham bevosita, ham bilvosita ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bu bank oldida pul majburiyatlariga ega bo'lgan xo'jalik subyektlarining ushbu riskga aloqadorligi va munosabatiga bog'liq. Iqtisodiy risklar mamlakatdagi umumiy iqtisodiy vaziyatdan kelib chiqadi. Tuzilish belgilariga ko'ra iqtisodiy risklar mulkiy, tarmoq va moliyaviy risklarga bo'linadi. Mulkiy risklar o'g'irlik, diversiya, terrorchilik harakati ekologik tanglik va boshqa sabablarga ko'ra mulkiy yo'qotish ehtimoli bilan bog'liq. Tarmoq risklari iqtisodiyot tarmoqlaridagi ahvolning o'zgaruvchanligi tufayli yuzaga keladi. Moliyaviy risklar pulning xarid quvvati o'zgarishi natijasida pul mablag'lari yo'qotish ehtimoli bilan bog'liq. Unga pulning qadrsizlanishi va deflyatsiya risklari kiradi. Tabiiy-iqlim risklari tabiiy ofat va halokatlar, zilzila, suvtoshqini, bo'ron, yong'in, epidemiya, odamlarning noo'rin faoliyati natijasida ekologik muvozanatning buzilishi va boshqalarga bog'liq. Qamrab olish ko'lamiga ko'ra tashqi risklarni xalqaro, mamlakat, hudud va mintqa risklariga ajratib ko'rsatish mumkin. Xalqaro risk deganda global muammolar bilan bog'liq, yer sharining ma'lum bir mintaqalarni qamrab oluvchi riskni tushunish lozim. Mamlakat riski, xalqaro bank amaliyotida va bank tashkilotlari, qo'shma banklar faoliyatida pul oqimi, kredit va hisob operatsiyalari sohasida bo'lgan risklar bilan bevosita bog'liq.

Bu risklarning bo'lishi va ularning darajasi esa importyor yoki eksportyor davlatlar yoki kontragent mamlakatlardagi siyosiy, iqtisodiy barqarorligiga bog'liq. Chet-el kapitali ishtirokidagi banklar va bosh litsenziyaga ega bo'lgan bank tashkilotlari uchun shu mamlakatdagi risk darajasini baholay olish dolzarb masaladir. Bank amaliyotida bank rahbariyati tomonidan chet el kontragentlarining moliyaviy barqarorligiga noto'g'ri baho berish natijasida ancha xatolarga yo'l qo'yiladi. Shuning uchun biror davlat bilan uzviy iqtisodiy aloqani o'rnatishda ayniqsa kredit va hisob kitoblar bilan bog'liq munosabatlarni olib borishda, undagi

iqtisodiy-siyosiy barqarorlikni tahlil qilib risk darajasini aniqlash zarur. Mamlakat riskini konvertlangan risklar, transfert risklari yoki maratorel to'lovlari bo'yicha risklarga turkumlash mumkin. Uni hisoblashda Germaniyaning BERI firmasi tomonidan ishlab chiqiladigan BERI INDEKS dan foydalanish mumkin. Ushbu indeks ekspertchilar guruhi faoliyatining natijalari asosida keltirib chiqariladi. Ushbu ekspertchilar guruhi 1 yilda 4 marta turli davlatlarning iqtisodiy va siyosiy holatlarini tahlil qiladilar. Ular 15 ta baholovchi kriteriyalar asosida tahlil qiladilar va har bir mamlakat bo'yicha ballar yig'iladi. Qaysi mamlakatda to'plangan ballar miqdori yo'qori bo'lsa, u holda u davlatning amalakat iski arajasi past bo'ladi. Mamlakatlar riskini baholashda asosiy ko'rsatgichlar sifatida quyidagi ko'rsatgichlarni tahlil qilish lozim: iqtisodiyotning samaradorligi (bunda davlat bo'yicha yalpi milliy mahsulotning o'rtacha yillik o'sishi hisoblanadi)

- **siyosiy risk darajasi ;**

-**jahon banki ma'lumotlari asosida olingan kreditlar miqdori, ular bo'yicha darajasi kreditni qaytib to'lash jarayonining amalga oshirish sifati, eksport hajmi, tashqi qarzlar , tashqi savdo oboroti va boshqalar;**

- **bank kreditlarni olish imkoniyati ;**

- **qisqa muddatli kreditlash imkoniyati;**

- **uzoq muddatli kreditlash imkoniyati;**

- **fors-major holatlarining yuzaga kelishi;**

- **mamlakatning kreditga layoqatlilik darajasi;**

- **tashqi qarzlar bo'yicha to'lanmagan majburiyatlar va boshqalar.**

Ichki risklar-bu bankning va o'zining mijozlarining kontragentlarning faoliyati natijasida yuzaga keladigan risklardir. Shuningdek, alohida olingan bank faoliyatiga sezilarli ta'sir qiluvchi risklar ichki risklardir.

Ichki risklar darajasiga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatadi:

-**bank rahbariyatining tadbirkorlik faolligi;**

-**bankning strategiya va taktikaning to'g'ri tanlash va boshqalar**

Ichki risklar bank turlari, mijozlarning tarkibi va bank operatsiyalarining xususiyati bo'yicha guruhlariga bo'linadi. Bankning turlari bilan bog'liq risklar. Tijorat banklarining 3-turi mavjud: tarmoq, ixtisoslashgan va universal. Universal tijorat banklari barcha turdagi bank xizmatlari (kredit, hisob-kitob, moliya)ni ko'rsatadilar lizing faktoring, kliring, qimmatbaho qog'ozlar bilan operatsiyalar hamda boshqa operatsiyalarni sababli bank risklarining barcha turlariga uchraydilar. Ixtisoslashgan tijorat banklari asosan qandaydir aniq xizmat turlarini ko'rsatish asosida faoliyat yuritadi. Ularga misol qilib, innovatsiya , investitsiya , ipoteka, depozit kliring va boshqa banklarni keltirish mumkin. Boshqa banklar esa tarmoqlar (qishloq xo'jaligi, sanoat , qurilish) bo'yicha yoki funksional (birja, sug'urta, trast, kommunal) belgilari bo'yicha faoliyat yurituvchi mijozlarga xizmat ko'rsatishga ixtisoslashadi. Shuning uchun ular uchraydigan risklar asosan mijozlarning faoliyatida uchraydigan iqtisodiy risklarga bog'liq bo'ladi. Bank mijozlarning tarkibi bo'yicha risklar tarmoqli risk, mulkchilik shakli bo'yicha risk va hajmi bo'yicha risklarga ajratiladi.

Bank operatsiyalari xususiyatiga ko'ra risklar :

-**balans operatsiyalari riski ;**

-balansdan tashqari operatsiyalar riski ;

-moliyaviy xizmatlarni amalga oshirish bilan bog'liq risklarga bo'linadi

O'z navbatida balans operatsiyalari risklari bankning aktiv operatsiyalari risklari hamda bankning aktiv operatsiyalari uchun amalga oshiriladigan ishlarni bank passiv operatsiyalar riski aktivlar va passivlarni boshqarish sifati bilan bog'liq riskga bo'linadi. Aktiv operatsiyalar riski foiz riskining darajasi bilan bog'liq bo'lib ,banklar o'z faoliyatlari davomida ushbu risk turiga doimo duch keladi. Foiz riskini boshqarish esa bevosita aktivlarni boshqarish (kredit va investitsiyalar)va passivlar (jalb qilingan mablag'lar)ni boshqarishdan tashkil topadi. Aktivlarni boshqarish bankning likvidlik darajasi shuningdek, baholi va bahosiz raqobatning darajasiga bog'liqdir. Passivlarni boshqarish esa ssuda berish uchun mablag'larning yetarli bo'lishiga bog'liq. Aktiv va passivlar o'rtasidagi munosabatni boshqarish esa bankning daromadlilikiga va ishonchlilikiga bog'liq aktiv operatsiyalar riskiga kredit,hisob-kitob kassa bozor valyuta lizing, faktoring risklari moliyalash va investitsiyalar bilan bog'liq risklar kiradi. Kredit risklari mijoz tomonidan asosiy qarz summasini va kredit buyicha foizlarini tulay olmaslik ehtimoli bo'lganda yuzaga keladi.Hisob-kitob ishlari bankning kelishilgan shartnoma bo'yicha mijozning talabiga asosan hisob kitoblarni o'z vaqtida o'tkaza olmasligi sharoitida yuzaga keladi. Kassa risklari bank kassasi orqali o'tuvchi naqd pullarning saqlanishi bilan bog'liq xavfli holatlardan kelib chiqadi.Bozor riski foiz stavkalarining barqaror emasligi oqibatida moliyaviy aktivlarning bozor qiymatining o'zgarish sababli bankning aktiv operatsiyalaridan keluvchi daromadni o'zgarishi ehtimoli tufayli yuzaga keladi. Valyuta riski valyuta almashtirish kursining o'zgarishui natijasida chet el valyutasida olib boriladigan operatsiyalar bo'yicha yoqotishlar yoki yuqori foyda olish ehtimolini ifodalaydi. Lizing operatsiyalari bo'yicha risk ijarachining bankdan olgan mulkidan foydalana olmasligi natijasida shartnomada ko'rsatilgan to'lovni o'z vaqtida amalga oshira olmasligi natijasida yuzaga keladi. Faktoring operatsiyalar bo'yicha risklar bankning 3-shaxsdan sotib olgan qarzdorning majburiyatlari buyicha to'lovni o'z vaqtida amalga oshira olmaslik sharoitida yuzaga keladi. Investitsiya risklari bank sotib olgan qimmatli qog'ozlar buyicha oladigan daromadlarining tushib ketishi yoki uni oshirish bilan bog'liq risklardir. Tijorat banklari faoliyatida portfel risklariga ham etibor berish lozim. Portfel risklari qimmatli qog'ozlarning alohida turlari hamda ssudalarning barcha kategoriyalari buyicha zarar ko'rish ehtimoli bilan belgilanadi. Portfel risklari moliyaviy likvidlik tizimli va tizimsiz risklarga bo'linadi.Moliyaviy risklar quyidagicha aniqlanishi mumkin: banklar, aksiyadorlik jamiyatlari, korxonalar shuningdek qo'shma banklarning jalb qilingan mablag'lari qancha kop bulsa ularning aksiyadorlari va tasischilari uchun risk shu darajada yuqori buladi. Shu bilan birgalikda jalb qilingan mablag'lar moliyalashtirishning muhim va foyda keltiruvchi manbaalaridir. Chunki qimmatli qog'ozlarni chiqarish ko'pincha sotishga nisbatan arzonroqqa tushadi. Qabul qilingan meyorlarga asosan qarzdor un oz mablaglari va jalb qilingan mablaglar ortasidagi nisbat yani qarzdorlik koiffitsiyenti (KK) 0.2-0.3 o'rtasida bulishi zarur. Moliyaviy riskni quyidagi formula orqali aniqlash mumkin:

$$\text{ROE}=\text{ROA}*\text{EM} ;$$

Bu yerda ROA-aktivlarning ishlatilishi Yani bankning barcha aktivlarni ishlatishning samaradorlik darajasi;

ROE-aksiyadorlik kapitalida foydalanishning samaradorlik darajasi

EM-bankning moliyaviy mustaqillik koeffitsienti va ushbu koeffitsient 0.5 dan katta bo'lishi kerak

Likvidlik riski bu moliyaviy aktivlarni tezroq ravishda naqtga aylantira olish qobiliyatidir. Markaziy birjalarni aksiyalari muomalada bo'lgan yirik va taniqli iahlab chiqaruvchi va banklar uchun uahbu turdagi riskka uchrash ehtimoli unchaalik katta emas. Lekin yangi tashkil etilgan kichik korxonalar esa ushbu katta turdagi riskka uchrash ehtimoli katta. Tizimli risk aksiya bahosining o'zgarishiga, unng daromatligiga obligatsiyalar bo'yiocha jo'riy va kutilayotgan foiz hamda kutilayotgan o'lchamdagi dividend va qo'shimcha foyda hajmiga bog'liq bo'ladi va foiz stafkalari o'zgarish riski umumbozor narxlar o'zgarishi riskini va inflyuatsiya riskini birlashtiradi. Tizimsiz risk bozorning olatiga bogliq bo'lmay aniq bir korxona, bankning o'ziga xos xususiyati hisoblanadi.

U tarmoqi va moliyaviy bo'lishi mumkin. Portfelli tizimsiz riskning darajasiga quyidagi omillar tasir etasdi:

-moliyaviy resurslarni quyish uchun muqobil sohalarning mavjudligi;

-tovar va fond bozorlarining kandikturasi va boshqalar

Passiv operatsiyalar risklari asosan, aktiv operatsiyalrning resurslari bilan taminlashda kelib chiqadigan qiyin muammolar bilan bog'liq. Bank aynan passiv operatsiyalar yordamida bankning aktiv operatsiyalarni amalga oshirish uchun zarur bulgan mablaglarni jalb qiladi. Tjorat banklarining passiv operatsiyalariga ustav kapitalini shakllantirish (oshirish) uchun foydadan chegirmalar ajratish,boshqa yuridik shaxslardan olingan kreditlar va depozitlar kiradi. Balansdan tasgqari operatsiyalar risklari mijozlarning majburiyatlari yuzasidan berilgan kafolatlar buyicha tulasgh zaruriyati yuzaga kelishi ehtimoli bilan bog'liq. Aktiv va passivlarni boshqarish sifati bilan bog'liq risklarga tulovga layoiqatsizlik (yoki bankrotlik) rikka, balanslanmagan likvidlik riski, foiz riski, foyda ololmaslik riski, suv iste'mol etishliklar riski va boshqalar kiradi. Bankrotlik riski o'z kapitali resurslarini yuqotish oqibatida o`z majburiyatlari bo`yicgha tulovga layoqatsiz bulish va faoliyatini tuxtatish bilan bog'liq riskdir. Balanslanmagan likvidlik riski aktiv va passiv operatsiyalarning likvidlik risklarini o'z ichiga oladi . U esa bankning resurs sifatida jalb qilingan mablag'lari bilan kreditga bergan mablag'lari miqdori,muddati,foiz stafkasining darajasi bo'yicha mos kelmasligi sababli yuzaga keladi. Foiz riski bozorda foiz stafkalarini uzgarish natijasida va marja kursining qiymati kutilmagan holatda 0 ga teng bulishi yoki manfiy qiymatga teng bo'lishi holatida vujudga keladi. Foyda ololmaslik riski bank resurslarini yuqotishi, ulardan samarali foydalana olmasligini ifodalaydi. Suist'emollik riski bank boshqaruvi yoki rahbariyati, xodimlari tomonidan bank faoliyatini tamoyillariga zid moilaviy qarorlar qabul qilinganda vujudga keladi.Moilaviy xizmatlarni amalga oshirish bilan bog'liq risklar operatsion, texnologik,innovatsiyalar,xavfsizlik va risklarni oz ichiga oladi. Operatsion va texnologik risklarga bank texnika va texnologiyasida uchrab turadigan axborotlarni yo'qotishdan kiradi. Innovatsiya riski ma'lum bir sabablar tufayli bankning

innovatsiyaga yo'llangan mablag'lari mo'ljallangan samarani bermasa yoki yo'qotilgan bo'lsa yuzaga keladi. Bank xavfsizligi riski-bu bank binosi, unda mavjud axborot kompyuter tarmoqlarining xavfsizligi bilan belgilanadi.

Mavzu yuzasidan takrorlash uchun savollar

1. Bank riski tushunchasi va uning turlari nimalardan iborat?
2. Kredit riski va uni hisoblash yo'llari haqida gapirib bering?
3. Bank risklarini boshqarish masalalari deganda nimani tushunasiz?
4. Tijorat banki riskini baholashda aktivlar diversifikatsiyasining o'rni deganda nimani tushunasiz?
5. Bank risklarini sug'urtalash usullari qanday?
6. Bank risklarini boshqarish asoslari va uni takomillashtirish deganda nimani tushunasiz?

GLOSSARIY

Avizo – (ital. aviso)- bank, tijorat amaliyotida hisob-kitob harakatlarining bajarilganligi to'g'risida rasmiy xabarnoma. Bir konragent tomonidan ikkinchisiga jo'natiladi. Avizo yordamida banklar o'z mijozlarini hisob varaqalari bo'yicha kirim va kredit qaydlari, hisob varaqasidagi qoldiq mablag'lar, pul o'tkazmalarini to'lash, chek talabnomasi akkreditiv ochish va boshqa harakatlar to'g'risida xabardor qiladi. Tovar jo'natuvchi tomonidan tovarni qabul qiluvchiga tovar jo'natilgani haqidagi xat ham avizo deb ataladi.

Akkreditatsiya to'g'risida guvohnoma - Markaziy bankning Vakolatxona akkreditatsiyalangani va ro'yxatdan o'tganini tasdiqlovchi yozma hujjati.

Akkreditiv (lot. accredo - ishonaman) – pul hisob-kitob hujjati; bank majburiyati.

1) tomonlar o'rtasida tuzilgan shartnomaga asosan amalga oshiriladigan hisob-kitob turi bo'lib, unga ko'ra qarz beruvchi (kreditor) belgilangan muddatlarda, kelishilgan shartlar asosida kelishuvda ko'rsatilgan bank orqali o'ziga tegishli to'lovlarni olib boradi; 2) jamg'arma bankining aholiga ko'rsatiladigan xizmat turlaridan biri; bank bo'limining tegishli bir shaxsga ma'lum miqdordagi so'mlarga beradigan buyrug'i, maxsus blank vositasida amalga oshiriladi. Bulardan tashqari akkreditiv turli shaxslarga joylashgan korxonalarning mulkiy munosabatlarida, xalqaro hisob-kitoblarida keng qo'llaniladi.

Aktiv pul oboroti - bu to'lov jarayonlarida bevosita ishtirok etayotgan harakatdagi pul massasidir.

Aktiv to'lov balansi - to'lov balansida tushumlar summasi to'lovlar summasidan ortiq bo'ladi.

Aksept (lat. acceptus – rozilik berilgan) – 1) pul, hisob-kitob, tovar hujjatlarini yoki tovar haqini to'lashga rozilik berish yoki to'lashga kafillik; 2) taklif etilgan shartlarda shartnoma tuzishga rozilik. Aksept yetkazib berilgan tovarlar ichki va xalqaro tovar-pul muomalasida ko'rsatiladigan xizmat uchun haq to'lash shakllaridan biri sifatida keng qo'llaniladi; 3) veksel, chek va boshqa qimmatbaho qog'ozlar, shuningdek tovar hujjatlari bo'yicha hisob-kitob qilish shakli.

Akseptli kredit –bunda bank, unga mijoz tomonidan qo'yilgan o'tkaziluvchan Vekselni ma'lum shart bilan akseptlashdir.

Aksiya - bu fransuzcha «action» soʻzidan olingan boʻlib, u aksiyadorlik jamiyatining ustav fondiga muayyan hissa qoʻshganligini guvohlik beruvchi, uning egasiga foydaning bir qismini olish va odatda ushbu jamiyatini boshqarishda ishtirok etish huquqini beruvchi qimmatli qogʻozdir.

Analitik schyotlar - sintetik schyotlardagi (sintetik schyotga qarang) maʼlumotlarni tavsiflab, aniqlashtirib koʻrsatuvchi schyotlar.

Analitik hisob - analitik schyotlar yordamida amalga oshiriladigan hisob.

Anderreytingning turlari. «qatʼiy majburiyatlar asosidagi» anderryayting. Bunday sharoitda anderryayter aksiyalarning butun nashrini yoki uning bir qismini qatʼiy narxlarda joylashtirish boʻyicha qatʼiy majburiyatlarga ega boʻladi.

Bank - moliyaviy korxona boʻlib, u vaqtincha boʻsh boʻlgan pul mablagʻlarini oʻzida saqlaydi, iqtisodiyot obyektlariga kreditlar beradi, korxonalar, muassasalar yoki alohida shaxslar bilan toʻlovlar va hisob-kitoblarda vositachilik qiladi, mamlakatning pul muomalasini tartibga solib boshqaradi.

Bank aktivlari-bank balansining aktiv qismida joylashgan moddalarining sifat nuqtai nazaridan uning umumiy miqdoridagi ulushi tushuniladi.

Bank aksepti- importyor banki tomonidan uning Vekselini akseptlanishidir.

Bank kapitali - banklarga jalb qilingan va ular tomonidan kredit hisob-kitob va boshqa operatsiyalar uchun foydalanadigan pulli kapitallar yigʻindisi, yaʼni bankning resurslari; 2) bank kapitalining bir qismini tashkil etuvchi banklarning oʻz kapitali.

Bank krediti – bu moliya muassasalari(banklar, fondlar, tashkilotva uyushmalar) tomonidan har qanday xoʻjalik subyektlari(tadbirkorlar, korxonalar, tashkilotlar va boshqalar)ga pul shaklida ssuda tarzida beriladi.

Bank krediti - eksport va importni kreditlashda ssuda formasida namoyon boʻladi va u tovarlar, tovar hujjatlari, veksellarni, xamda trattani garovga olgan holda beriladi. Baʼzan banklar oʻzlariga chambarchas aloqada boʻlgan yirik eksportyor-firmalarga blankli kredit, yaʼni rasmiy taʼminlanmagan kreditlar berishadi.

Bank krediti-banklar pulni uning sohiblariga foiz toʻlash sharti bilan oʻz qoʻlida jamlaydilar va oʻz nomidan qarzga berib, foiz olishdir.

Bank passivlari-yuridik va jismoniy shaxslarning boʻsh pul mablagʻlari, oʻz mablagʻlari hamda Markaziy bankning kreditlaridan tashkil topadigan , bank xarajatlari bilan bogʻliq operatsiyalar majmui.

Bank sindikati - sinditsiyalashtirilgan kredit berish borasida ikki yoki undan ortiq banklar oʻrtasida oʻzaro kelishuv.

Banklararo kredit-boshqa tijorat banklaridan olingan kredit.

Banklararo kreditlar – bank kreditining keng tarqalgan shakllaridan biri. Banklararo kreditning joriy stavkasi maʼlum bir tijorat bankning boshqa turdagi ssudalar berish siyosatini aniklab beruvchi muhim omil hisoblanadi. Bu normaning aniq miqdori Markaziy bank tomonidan belgilanadi.

Benefitsiar bank - bu toʻlov operatsiyasini yakunlovchi bank.

BERI indeksi- mamlakat iqtisodiy risklari xajmini belgilovchi koʻrsatkich.

Biznes (biddines) – daromad keltiradigan yoki boshqa naf beradigan xoʻjalik faoliyati yoki sohibkorlik–tijorat ishlari bilan shugʻullanish, pul topish maqsadida

biror ish bilan band bo'lish. Biznes mahsulot ishlab chiqarish va uni sotish, xizmat ko'rsatish, transport va boshqa sohalardagi faoliyatdir.

Vaqtinchalik usul - to'lov balansi defitsitini chet el kapitalini, ya'ni tadbirkorlik va ssuda kapitallarini kiritish yo'li bilan qoplashga aytiladi.

Valyuta - bu xalqaro hisob-kitoblarda ishlatiladigan u yoki bu mamlakat milliy pul birligida ifodalangan to'lov hujjatlari va pul majburiyatlaridir.

Valyuta arbitraji - bu foyda olish maqsadida valyutani sotib olish – sotish bo'yicha operatsiyalardir. Valyuta arbitraji – bu valyuta kurslari farqidan foyda olish maqsadida valyutani sotib olish va bir vaqtning o'zida sotishdir.

Valyuta bozorlari - bu talab va taklif asosida turli xil valyutalar oldi-sotdi qilinadigan rasmiy markazlardir.

Valyuta bozorlaridagi operatsiyalar- tashqi savdo bo'yicha xalqaro hisob-kitoblar, xalqaro turizm, kapitallar va kreditlarning davlatlararo harakati va chet el valyutasini oldi-sotdi qilisht bilan bog'liq boshqa hisob-kitob operatsiyalari hisoblanadi.

Valyuta dempingi - bu valyuta kursini tushirish natijasida uning xarid qilish qobiliyatining pasayishidan foydalangan holda tashqi bozordagi raqobatchilarni siqib chiqish maqsadi bilan bog'liq holda tovarlarni jahon o'rtacha narxlaridan past darajada keng ko'lamda eksport qilishdir.

Valyuta intervensiyasi - Markaziy bank tomonidan milliy valyuta kursiga ta'sir etish maqsadida chet el valyutani sotish va sotib olish operatsiyalaridir.

Valyuta qamali - xalqaro tashkilotlar yoki ayrim mamlakatlar guruhi tomonidan ba'zi bir mamlakatlarga nisbatan valyuta tushumlarining kelish jarayonida to'sqinlik qilish tushuniladi.

Valyuta kursi - valyuta bozoridagi chet el valyutasiga ega bo'lgan talab va taklifdan kelib chiqadi.

Valyuta munosabatlari- valyutaning jahon oborotidagi harakati natijasida vujudga keladigan pul munosabatidir.

Valyuta operatsiyalari - chet el valyutalari va valyutaviy qimmatliklarga mulk huquqini almashinishi bilan bog'liq operatsiyalarga aytiladi.

Valyuta rezervlarini diversifikatsiya qilish-bir vaqtning o'zida 1 necha yetakchi erkin almashinadigan valyutalarda chet el valyuta rezervlarini tashkil qilish - valyuta rezervlarini diversifikatsiya qilish deyiladi.

Valyuta riski - valyuta kurslarini o'zgarishi natijasida yuzaga keladigan zarar ko'rish xavfi tushuniladi.

Valyuta siyosati - bu xalqaro valyuta munosabatlari sohasida amalga oshiriladigan tadbirlar yig'indisidir.

Valyuta tizimi- valyuta munosabatini tashkil qilishning davlat huquqi shakli.

Valyutaviy inqiroz - xalqaro valyuta munosabatlarida yuzaga keladigan keskin ziddiyatlarga aytiladi.

Valyutaning kurs rejimi-birinchidan, agar milliy valyutaning kursi erkin tarzda valyuta bozorida talab va taklif asosida aniqlansa, bu erkin suzib yuruvchi kurs rejimi deb ataladi.

Varrant (warrant) – opsiinning bir turi bo‘lib, egasiga belgilangan muddat ichida emitentdan imtiyozli sharoitda ma’lum bir miqdordagi aksiyalarni sotib olish imkonini beradi.

Veksel- karz majburiyati bulib, veksel beruvchining Ushbu vekselini ko‘rsatilgan muddatda taqdim etganda, veksel ushlovchiga uning nominal qiymatini to‘lab berish guvohini beruvchi qimmatli qog‘ozlar va to‘lov vositasidir.

Vekselli kredit- eksportyor tovarni sotish xaqida bitim tuzib, o‘tkazma veksel (tratta)ni importyorga jo‘natadi, importyor tijorat hujjatlarini olib akseptlaydi, ya’ni unda ko‘rsatilgan muddatda to‘lovni amalga oshirishga rozilik beradi.

Vositalashgan kafolatlar- kafolat beruvchi o‘ziga xos tarzda vositachilik vazifasini o‘taydi. Bunday kafolatlar eksport-import operatsiyalarida keng ishlatiladi.

Davlat krediti- banklar davlatdan qarz olishidir.

Davlat krediti- kreditning bu shaklining asosiy xususiyati kredit munosabatlarida davlatning qatnashuvidir. Davlat kreditida davlat bir tomondan qarz beruvchi va ikkinci tomondan qarz oluvchi sifatida ishtirok qilishi mumkin. Qarz beruvchi vazifasini bajara turib, davlat, davlat kredit institutlari, jumladan Markaziy bank orqali iqtisodning har xil sohalarini kreditlashni o‘z zimasiga oladi. Davlat kreditining xarakterli xususiyati, davlat tomonidan lingan qarz mablag‘lari ishla chiqarish fondlari aylanishida yoki moddiy boyliklar yaratishda ishtirok qilmaydi. Bu mablag‘lar davlat qarzlarini qoplash uchun ishlatiladi.

Daromad (income) – ishlab chiqarish omillarini ishlatishdan keladigan pul va natural tushumlar.

Devalvatsiya - bu milliy valyuta kursining chet el valyuta kursiga nisbatan rasman qonuniy asosda pasaytirilishi.

Devidend - deb ataluvchi daromad aksionerlarga ularning kulidagi aksiyalar soniga muvofik tulanadi.

Deviz siyosati -bu davlat organlarining chet el valyutalarini sotish yoki sotib olish orqali milliy valyuta kursiga ta’sir etish siyosatiga aytiladi.

Depozit operatsiyalari- yuridik va jismoniy shaxslarning bo‘sh pul mablag‘larini jalb qilish bilan bog‘liqoperatsiyalar.

Depozit sertifikatlari- jamgarmachining banka kuygan pul mablagini ifodalovchi va muomla muddati tugaganidan keyin kuygan pul mablagini xamda foyda sifatida ustama foizini xukuk va imkoniyatini beruvchi kimmatli kogozdir. Depozit sertifikati bank tomonidan beriladi.

Diskont stavkasi-uchyot stavkasi, Markaziy bank tomonidan tijorat banklariga ularning ixtiyoridagi trattalarni qayta hisobga olish yo‘li bilan beriladigan kreditlarning foiz stavkasidir.

Diskont siyosati - Markaziy bankning uchyo stavkasini o‘zgartirish yo‘li bilan milliy valyuta kursiga va to‘lov balansining holatiga ta’sir etish siyosatidir.

Yevrovalyuta- o‘sha valyutani mamlakat tashqarisidagi barcha yig‘indisidir.

Yevrokreditlar-yevrovalyutalarda beriladigan kreditlardir.

Yetakchi bank - sinditsiyalashtirilgan kreditlash tashabbusi bilan chiqqan va zimmasiga ishtirokchi-banklar nomidan kredit hujjatlarini yuritish mas’uliyati

yuklatilgan qarz oluvchining asosiy talab qilib olinguncha depozit hisobvarag'iga xizmat ko'rsatuvchi bank.

Jamg'arma sertifikatlari - bu bank tomonidan chikariladigan va uni egasiga oldindan shartlashilgan vaktida belgilangan summani olish xukukini beruvchi kimmatli kog'ozdir.

Jamg'armachi-tijorat banklariga qo'yilgan pul mablag'i jismoniy va yuridik shaxslardir.

Jahon moliyaviy inqirozi - bu bank-moliya tizimida ro'y bergan chuqur tanglik holati, buning natijasida yirik banklar va moliyaviy tuzilmalarning likvidlik, ya'ni to'lov qobiliyati zaiflashib, moliyaviy inqirozga aylanib ketishi, dunyoning yetakchi fond bozorlarida eng yirik kompaniyalar indeksleri va aksiyalarning bozor qiymati halokatli darajada tushib ketishi, oqibatda ko'plab mamlakatlarda ishlab chiqarish va iqtisodiy o'sish sur'atlarining keskin pasayib ketishi bilan bog'liq ishsizlik va boshqa salbiy oqibatlarni keltirib chiqaruvchi holatdir.

Joriy likvidlilik-likvid shakldagi balans aktivlari bankning talab qilib olinguncha saqlanadigan va muddati 30 kungacha bo'lgan hisobvaraqlar bo'yicha majburiyatlari summasi o'rtasidagi nisbatni tavsiflaydi.

Imtiyozli aksiyalar - oddiy aksiyalar singari firmani, korxonaning kapitalini bir kismiga egalik kilish xukukini beradi, ammo uning egasi boshkaruvda ishtirok etish xukukini bermaydi.

Inflyatsiya - mamlakat iqtisodiyotida iste'mol tovarlari va xizmatlari narxlari umumiy darajasining o'sishi.

Iste'mol krediti - bu aholining iste'mol talablarini qondirishga yordam beruvchi kreditdir va uy-ro'zg'or buyumlari: radio-elektron va maishiy asbob-uskunalar, mebellar, interyer buyumlari, turar uy-joylarni ta'mirlash bilan bog'liq tovarlarni xarid qilish, avtomashina sotib olish va aholiga ko'rsatiladigan tibbiy xizmatlar va boshqa xizmatlarning haqini to'lash uchun 3 yilgacha bo'lgan muddatda beriladi.

Iste'mol krediti-tijorat banklari itse'molchilarga tovar sotib olish uchun bergan qarzidir.

Ishonchsiz kreditlar – ishonchsiz deb turkumlangan aktivlar qaytishi mumkin bo'lmagan aktivlar deb qaraladi. Bunday aktivlar juda pats qiymatga ega va ularni bank aktivlari sifatida hisobga yuritish maqsadiga muvofiq emas deb hisoblanadi. Bunday turkumlash bu aktivlarning hech qanday likvidatsion bahosi yuq degani emas, lekin banklarga bunday aktivlarni o'z balansida yuritish tavsiya etilmaydi va bu aktivlar likvidatsiya qilinishi kerak.

Qayta moliyalashtirish siyosati - Markaziy bank tomonidan kredit institutlarining veksellarni sotib olish shakli va qimmatbaho qog'ozlarni garovga olish yo'li bilan kreditlash tushuniladi.

Kapitallar va kreditlarning harakati balansi- tadbirkorlik bilan ssuda kapitalining harakati aks ettiriladi.

Kapitalning tarkibiy qismi bilan bog'liq risklar — bu risklar passivlarning tarkibiy qismi va ishbilarmonlik riski bilan bog'liq.

Qimmatli kog'ozlar_- moliyaviy bozorda savdo predmeti bulib xisoblanadi. qimmatli kog'ozlar bu meyoriy xukukiy talablarga muvofik rasmiylashtirilgan,

hujjat bulib, uning egasiga (yoki soxibiga) muayyan mulkiy xukuklarni ta'minlaydi va shu bilan birga kiymatga ega buladi.

Qimmatli qog'ozlar komissiyasi- qimmatli qog'ozlar mijozdan o'z mablag'larihisobiga sotib olish yoki o'z portfelidan qimmatli qog'ozlarni sotishdir.

Qimmatli qog'ozlar hosilalari-foydasi yoki zarari bir necha bozor ko'rsatkichlari Bilan, ya'ni bozor indeksleri Bilan bog'liqdir.

Qisqa muddatli likvidlilik-bankning so'ngidirish muddati 30 kundan 1 yilgacha bo'lgan aktivlar bilan 30 kundan 1 yilgacha qabul qilingan depozitlar va resurslarga nisbati tushuniladi.

Qisman ta'minlangan kreditlar-“yaxshi ta'minlanmagan kreditlar” mezoniga muvofiq kelmaydigan ta'minotga ega kreditdir.

Kichik korxona - mulkchilik shaklidan qa'tiy nazar, yengil va oziq -ovqat sanoati, metalga ishlov berish va asbobsozlik, yog'ochni qayta ishlash, mebel va qurilish materiallari sanoatida band bo'lgan xodimlarning o'rtacha yillik soni 100 kishidan, mashinasozlik, metallurgiya, yoqilg'i-energetika va kimyo sanoati, qishloq xo'jaligi maxsulotlarini yetishtirish va qayta ishlash, qurilish hamda boshqa sanoat-ishlab chiqarish sohalarida 50 kishidan, fan, ilmiy xizmat ko'rsatish, transport, aloqa, xizmat ko'rsatish sohasi (sug'urta kompaniyalaridan tashqari), savdo va umumiy ovqatlanish hamda boshqa ishlab chiqarishga aloqador bo'lmagan sohalarda 25 kishidan oshmagan korxonalar.

Kontokorrent krediti-bankning mijozi bo'lgan korxona ko'p sonli korxonalar bilan ikki tomonlama aloqada bo'lgan hollarda qo'llashdir.

Kredit – iqtisodiy kategoriya bo'lib, u vaqtincha o'z egalari qo'lida bo'sh turgan pul mablag'larini boshqalar tomonidan ma'lum muddatga haq to'lash sharti bilan qarzga olish va qaytarib berish yuzasidan kelib chiqadigan munosabatlarni bildiradi.

Kredit- o'zga mulki bo'lgan pulni qarzga olib ishlatish borasidagi munosabatdir.

Kredit vazifalari

- pulga tenglashtirilgan to'lov vositalarini (Veksel, chek, sertifikat) yuzaga chiqarib, ularni xo'jalik oborotiga jalb qilishdir
- bo'sh turgan pul mablag'larini xarakatdagi, ishdagi kapitalga aylantirib, pulni pul topadi, degan qoidani amalga oshirishdir.
- qarz berish orqali pul mablag'larini turli tarmoqlar o'rtasida qayta taqsimlash bilanishlab chiqarish resurslarining ko'chib turishini ta'minlashdir
- qarz berish, qarzni undirish vositalari orqali iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishdir.

Kredit diskriminatsiyasi - bu kredit olishda, undan foydalanishda yoki xalqaro kreditni to'lashda ma'lum bir qarz oluvchilarga iqtisodiy va siyosiy bosimni yuzaga keltiruvchi og'ir va qiyin shartlarni qo'yishdir.

Kredit mexanizmi- xo'jalik mexanizmining tarkibiy qismi bo'lib, kreditlash shartlarini usullari va kreditni boshqarishdir.

Kredit mexanizmi-kredit munosabatlarini tashkil qilishda qo'llaniladigan elementlar majmuasidir.

Kredit obykti- vaqtincha bo'sh turgan, berilishi mumkin bo'lgan pullar va tovarlardir.

Kredit paketi-kreditlash jarayoni uchun zarur bo'lgan xujjatlar majmuasi tushuniladi.

Kredit portfelining diversifikatsiyasi – bu bankning ba'zi mijozlaridan ko'rgan zararlarni boshqa mijozlardan ko'rgan daromad hisobidan qoplash maqsadida bankning kredit resurslarini kam miqdorda ko'p sonli mijozlar o'rtasida taqsimlash demakdir.

Kredit portfeli-tojorat banklari tomonidan berilgan jami kreditlar jamlovchi xujjat.

Kredit potentsiali-bankdagi yig'ilgan, tarkib topgan mablag'lardan likvidlilik rezervlarini ayirmasiga teng.

Kredit resurslarining auksioni-kredit resurslarini erkin, ochiq tarzda auksion orqali sotishdir.

Kredit siyosati-bankning kredit resurslarini joylashtirish sohasidagi qarorlarni qabo'l qilishga imkon beruvchi qoidalar va cheklanishlar majmuidir.

Kredit subyektlari – har hil bo'lishi mumkin. Bularga korxona, firma, tashkilot, davlat va turli toifadagi aholi kiradi.

Kredit subyektlari-korxona, firma, tashkilot, davlat va turli toifadagi aholidir.

Kredit summasi – bu qarzga beriladigan pul birligining hajmi.

Kredit tamoyillari- tovar va pul ko'rinishidagi mablag'larni:

- Maqsadlilik
- qaytarib berishlik,
- muddatlilik
- foiz to'lash
- garov shartlari asosida berish natijasidir.

Kredit tizimi – bank va kredit muassasalari ularning kredit operatsiyalarini bajarish uslublari, takil etishning huquqiy shakllari majmuini ifodalaydi.

Kredit turlari

- qisqa muddatli kreditlar (muddati bir yilgacha bo'lgan kreditlar)
- uzoq muddatli kreditlar (muddati bir yildan ortiq bo'lgan kreditlar) dir.

Kredit ekspansiyasi-mamlakatning ssuda kapitallari bozorida foiz stavkalarining pasayishi natijasida kredit oluvchilarning ko'payishi va buning oqibatida, kredit qo'yilmalari hajmining keskin ko'payishidir.

Kreditga layoqatlilik-korxonaning bankdan so'ragan ssudani u o'z vaqtida va tuliq qaytara olish imkoniyatidir.

Kreditlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zaxira-bank kredit portfeli va balansdan tashqari mmajburiyatlarida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan yoki mavjud zararlarni qoplash uchun qiymat summasini o'zida aks ettiradigan bankning barcha kreditlari bo'yicha zararlarni qoplash uchun tashkil etilgan zaxiralar kontr-aktiv hisobvarag'i.

Kreditlash jarayoni-kreditni rasmiylashtirish jarayoni boshlangandan to berilishigacha bo'lgan jarayonni qamrab oladi.

Kreditlash obyektlari-kredit hisobidan nima tashkil qilinsa yoki kredit nimaga yo'naltirishsa o'sha tushuniladi.

Kreditlash strategiyasi-kredit siyosati borasida iron ir bankning moliya bozoridagi mazmunli, maqsadli va aniq tamoillarga kredit munosabatlari hisoblanadi.

Kreditlash subyektlari-kredit munosabatlari qatnashuvchi tomonlaranglanadi.

Kreditlash taktikasi-kredit jarayonida ko'zlangan maqsadga erishish uchun qo'llaniladigan moliyaviy va boshqa dastaklar majmuidir.

Kreditlash chegarasi-kredit munosabatlari subyektlariga yoki ssudalarning turlariga nisbatan aniq ko'rsatkichlar shaklida belgilab qo'yiladigan kreditdan foydalanishning qat'iy chegarasi kreditlash chegarasidir.

Kreditlashtirish-kredit resurslari hisobidan tadbirlarni amalga oshirish darajasidir.

Kreditni qayta taqsimlash-jamiyatdagi vaqtinchalik bo'sh pul mablag'larini bu pullarga ehtiyojmand bo'lgan subyektlar o'rtasida qayta taqsimlashdir.

Kreditning vazifalari – taqsimlash, emissiya qilish, nazorat qilish, bo'sh pul mablag'larini harakatdagi pul mablag'lariga aylantirish va rag'batlantirish vazifalari kredit kategoriyasiga xosdir.

Kreditning chegaralari-kreditning boshqa iqtisodiy kategoriyalardan farqli tomonlarini, ayni vaqtda, o'sha kategoriyalar bilan o'zaro aloqalarini mujassamlashtiruvchi tushunchadir.

Kredit-o'z egalari qo'lida vaqtincha bo'sh turgan pul mablag'larini boshqalar tomonidan ma'lum muddatga xaq to'lash sharti bilan olish va qaytarib berish yuzasidan kelib chiqqan munosabatdir.

Kredit-foiz va ma'lum shartlar asosida kredit beruvchi tomonidan berilgan qarz summasi.

Kritik risk zonasi-yo'qotishlar bo'lish havfi borligini ifodalaydi, olinadigan foydadan bir qismining Biron jarayon uchun yo'naltirilganligini vash u mablag'larning qaytib kelishida , havf borligini ifodalaydi.

Kross kurs - bir mamlakatning valyutasini ikkinchi bir mamlakat valyutasiga nisbatan USD orqali ifodalanadigan nisbati. Kross kurs xalqaro miqyosda keng qo'llaniladi. Uni asosan yirik kompaniyalar va korporatsiyalar qo'llaydi. Bu valyuta kursini aniqlashning real yo'li hisoblanadi.

Libor- Londondagi jahon ssuda kapitallari bozorida yetakchi erkin almashinadigan valyutalar-AQSH dollari, Germaniya markasi, Yaponiya iyenasi, Buyuk britaniya funt serlingi kabi valyutalardagi depozitlarga to'lanadigan foiz stavkasidir.

Lizing turlari

- operativ lizing
- moliyaviy lizing

Lizing-bu zavodlarni, sanoat tovarlarini, uskunalarni, qo'zg'almas mulklarni mulk egasi tomonidan ularni ishlab chiqarish maqsadlarida ishlatish uchun ijaraga berish to'g'risidagi shartnomadir.

Lizing-tomonlar o'rtasidagi mulkiy va moliyaviy munosabatlarni tashkil etuvchi, asosiy vositalarni uzoq muddatli ijara asosida sotilishidir.

Likvidlik riski-Tijorat banklarining likvidligini pasayishi ,ilan bog'liq risklardir.

Likvidlilik koeffitsiyenti-mavjud mablag'larni qanchalik qismi tez orada qoplash uchun yo'naltirilishi mumkinligini ifodalovchi ko'rsatkich.

Likvidlilik-aktivlarni pul mablag'lariga aylantirishning asosan amalga oshirilishini, ya'ni bankning Markaziy bank yoki vakil banklardagi naqd pul mablag'laridan foydalanish likvid aktivlarni sotish imkoniyati va hokazolarni anglatadi.

Lombard krediti- qisqa muddatli, miqdori qat'iy belgilangan ssuda bo'lib, oson sotiladigan qo'zg'aluvchi mulkdir.

Lombard krediti -tijorat banklari Markaziy bankdan o'zlarining portfelidan qimmatbaho qog'ozlarni garovga qo'yish orqali kredit olish - bu lombard krediti hisoblanadi.Mamlakatlarning xalkaro hisob-kitoblarini amalga oshirish rejasini belgilash, xalqaro hisob-kitoblar turi:

Majburiy zaxiralar siyosati-tijorat banklari jalb qilgan mablag'laridan ma'lum bir qismini Markaziy bankning zaxira fondiga o'tkazilishidir.

Marja – banklarning oladigan foizi bilan beridigan foizi o'rtasidagi farqdir.

Marja- savdo, birja, sug'o'rta va bank amaliyotida tovarlar narxi, valyuta va qimmatbaho qog'ozlar ko'rsi, foiz stavkalari va boshqa ko'rsatkichlar farqini ifodalash uchun ishlatiladigan atamadir.

Markaziy bank-o'z sarf-xarajatlarini o'z daromadlari hisobidan amalga oshiruvchi, iqtisodiy jihatdan mustaqil muassasa bo'lib, u davlat gerbi tushirilgan va nomi yozilgan muhriga ega.

Maxsus zahiralar-bu zahiralar har bir kreditlar bo'yicha tashkil etilgan zahira summalaridir.

Maxsus imtiyozli kreditlash jamg'armasi” - kichik va o'rta tadbirkorlik subyektlariga imtiyozli kreditlar, shuningdek, mikrokreditlar berish maqsadida tashkil qilingan jamg'armadir. Imtiyozli kredit berish jamg'armasi hisobidan beriladigan mikrokreditlar bo'yicha foiz stavkalari mikrokredit berilgan kundagi Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasining 50 foizdan ortiq bo'lmagan miqdorda belgilanadi

Mikrokredit - qarz oluvchiga tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun eng kam ish haqining 1000 baravari miqdoridan oshmaydigan pul mablag'idir.

Mikrofirma - bu mulkchilik shaklidan qat'iy nazar, ish bilan band bo'lgan xodimlarning o'rtacha yillik soni ishlab chiqarish sohasida 20 kishidan, xizmat ko'rsatish soxasi va boshqa ishlab chiqarishga aloqador bo'lmagan tarmoqlarda 10 kishidan, ulgurji, chakana savdo, va umumiy ovqatlanish sohasida 5 kishidan oshmagan korxonalar

Milliy valyutaning pariteti - milliy valyuta qiymatining xorijiy valyuta qiymatiga nisbati bo'lib, u hisoblanadigan ko'rsatgich hisoblanadi va milliy valyuta kursini belgilash uchun asos bulib xizmat qiladi.

Moliya-barcha xo'jalik subyektlarining o'ziga tegishli pul mablag'lari xususidagi aloqadir.

Moliyaviy bozorlar – moliyaviy resurslarni taklif kiluvchilarni va ularga extiyoj sezayotlar oddatda fond birjalariga uxshash vositachilar yordamida bitim tuzish uchun birlashtirish mexanizmidir

Moliyaviy derivativlar_(financial derivatives) – bozor narxiga ega bulgan pulli dastak bulib, uning soxibiga birlamchi kimmabaxo kog'ozlarni sotish yoki

sotib olish xukukini beradi. Bularga opsiolar, fyucherslar, warrantlar, svoplar kiradi.

Moliyaviy institutlar – masalan, banklar va ssuda omonat assotsiatsiyalari – oddatda omonatlarni kabul qiladilar va keyin pulni kreditga beradilar yoki boshqa pul bilan mablag‘ larni investitsiyalaydilar.

Moliyaviy lizing - bu ijara munosabatlarining alohida turi bo‘lib, bunda bir tomon (lizing oluvchi) ning topshirig‘iga binoan uchinchi tomonidan (sotuvchidan) mulk (lizing obyekti) ni lizing shartnomasida belgilangan shartlarda lizing oluvchiga to‘lov asosida foydalanish va egalik qilish uchun hamda keyinchalik lizing oluvchining xususiy mulkiga o‘tishi sharti bilan berish maqsadida sotib oladi.

Muammoli ssudalar- qaytarilish muddati kelgan, lekin bank mijozining to‘lovga noqobilligi tufayli to‘lanmayotgan ssudalardir.

Muddati uzaytirilgan kredit - ayrim hollarda kreditni qaytarish muddati kelmasdan avval qarzdor tomonidan bankka taqdim etilgan iqtisodiy asoslangan yozma iltimosnoma asosida kreditni qaytarish muddatini keyinroqqa surilishi to‘g‘risida filial kredit komissiyalari qarorlari asosida Bosh bank kredit qo‘mitasi bilan kelishilgan holda ijobiy qaror qabul qilingan qarzlardir.

Muddati o‘tgan kreditlar - kredit shartnomasida belgilangan qaytarish muddati, shuningdek, garchi ularning muddati uzaytirilgan bo‘lsa, uzaytirish muddati ham tugagan qarzlardir. Muddati o‘tgan kreditlar iqtisodiy mohiyatiga ko‘ra qayta rasmiylashtirilgan hisoblanadi, chunki kredit shartnomasida muddati o‘tqazib yuborilganligi uchun oshirilgan foiz stavkalarini qo‘llash ko‘zda tutiladi.

Muddati o‘tgan kreditlar-qarzdor tomonidan kredit shartnomasida ko‘zda tutilgan to‘lash shartlari va jadvali buzilganhamda asosiy qarz va unga doir foizlarning navbatdagi to‘lovi muddati yetib kelgandan so‘ng to‘lanmagan kreditlar.

Muddatli kredit - kredit shartnomasiga ko‘ra to‘lav muddati hali yetib kelmagan ssudadir.

Nostro hisobvarag‘i-bir bankning boshqa bankdagi hisobvarag‘i.

Nota - (karz majburiyati) (note) - qisqa muddatli (3-6 oy) pulli dastak bulib, bank bilan kelishuv asosida karz oluvchining uz nomiga chikariladi, bozorda joylashtirilishi kafolatlanadi va sotilmagan notalar sotib olinadi, rezerv kreditlar bilan ta‘minlanadi. Keng tarkalgan notalar – Yevronotalardir.

Obligatsiya- “Obligo” – lotincha tilida “Karz olish” mazmunini bildiradi. Emitentga obligatsiya egasi tomonidan malum bir pul mablagini kiritganligi va unda kursatilgan muddatda nominal qiymatini xamda kushimcha foiz tulab berish majburiyatini guvoxlovchi kimmatli kogosdir. Obltgatsiya uning egasiga emitentning ishini boshkarishda katnashish xukukini bermaydi.

Obligatsiyalar - zayom oluvchilarni (emmitentini)va kreditlarni (investorni) munosabatlarini rasmiylashtiruvchi kimmatli kog‘oz bulib, emmitentini belgilab pul summasini kelishilgan vaktida tulash shartini ifoda kiladi.

Overdraft - kontokorrent hisob raqamining maxsus shakli hisoblanadi. Uning o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, bank mijozning asosiy “talab qilib olinguncha” depozit hisob raqamida qisqa muddat mobaynida debetli

(qoplanmagan) qoldiq bo'lishiga ruxsat beradi. Overdraft hisob raqamidan foydalanish xuquqi eng ishonchli mijozlargagina beriladi.

Opsion (option)- shartnoma (kimmatbaxo kog'oz) bulib, xaridorga ma'lum bir kimmatbaxo kog'oz yoki tovarni belgilangan muddatdan sung yoki ma'lum bir davr ichida kat'iy belgilangan narxlarda sotib olish yoki sotish huquqini beradi.

Ochiq schyotlar bo'yicha beriladigan kredit- Eksportyor jo'natilgan xar bir tovarlar qiymatini importyorning xisobiga qarz sifatida qayd qilib boradi. Importyor shartnomada ko'rsatilgan vaqtda kredit summasini to'lab boradi. Ochiq schyotlar bo'yicha beriladigan kreditlar faqatgina doimiy aloqada bo'lgan firmalar o'rtasidagina amalga oshirilishi mumkin.

Passiv to'lov balansi-tushumlar summasi to'lovlar summasidan bo'ladi.

Pul aylanish tezligi – nominal yalpi ichki mahsulotning o'rtacha yillik pul massasiga nisbati orqali aniqlaniladi.

Pul massasi - bank tizimining majburiyati bo'lib, qo'yidagi passivlarni o'z ichiga oladi:

Rambursli kredit-akkreditivni akseptli kredit bilan uyg'unlashuvdir.

Real investitsiyalar (kapital kuyilmalar) – pul mablag' larini korxonaning moddiy va nomoddiy aktivlariga sarflanishidan iborat.

Revalvatsiya - bu milliy valyuta kursining chet el valyuta kursiga nisbatan oshirish. Revalvatsiya asosan importni rag'batlantirish va milliy bozorni o'sha mamlakat tovarlari bilan to'ldirish maqsadida qo'llaniladi.

Remoliyalashtirish siyosati- markaziy bank tomonidan tijorat banklari ixtiyoridagi tijorat Veksellarni hamda qimmatbaho qog'ozlarni garovga olish va shu yo'l bilan kredit berishdir.

Savdo balansi- eksport va import operatsiyalari bo'yicha valyuta to'lovlari va tushumlarining haqiqatdagi summasi aks ettiriladi. Kreditga sotib olingan tovarlar qiymati bu yerda aks ettirilmaydi.

Svop (swap) – savdo qoidalariga amal qilgan xolda bitta karzni tulash bo'yicha ma'lum bir muddat o'tgandan so'ng shartlarni o'zgartirish bo'yicha bitim.

Svop operatsiyasi - bir valyutani spot operatsiyasi bo'yicha sotib olish va forvard sharti bo'yicha sotishiga yoki forvard sharti bo'yicha sotib olish va spot sharti bo'yicha sotishga aytiladi.

Spot operatsiyalari - valyuta bitimi tuzilgandan so'ng, valyutalar ikki ish kunida kelib tushadigan operatsiyalar.

Ssuda kapitali-qarzga berilgan pul ishga solinib, yangidan pul topish, daromad olish uchun ishlatilishidir.

Ssuda-qarzga beriladigan pul ssuda deyiladi.

Substandart - bu aktivlar aniq ifodalangan kamchiliklarga ega bo'lib, bu holat dastlabki shartnomaga muvofiq qarz qaytarilishi shartlarining bajarilishiga shubha uyg'otadi. Substandart sifatida tasniflangan aktivlar bo'yicha tijorat banklar qarzini to'lanmagan summasi 25 foiziga teng bo'lgan zahiralar ikkilantirishi lozim.

Substandart kreditlar-2 to'lov davrida foiz yig'indisi to'lanmagan kreditlardir.

Sug'urtalash-bankning amalga oshirayotgan operatsiyalarida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan risklarni ma'lum bir sug'urta badali asosida sug'urta kompaniyalari tomonidan ko'rilgan zararni qoplab berish shartnomasini tuzish.

So'nggi usul - mamlakatning oltin valyuta rezervlarini ishlatish yo'li bilan to'lov balansi defitsitini qoplashga aytiladi.

Taklif foiz stavkalarining xar kanday darajasida investitsiyalarni kancha miqdorda mablag' bera olishiga tayyor ekanligini kursatadi.

Talab deganda korxona va uy xujaliklarini turli baxo darajasida-foiz stavkasiga karamay jami mablag' miqdorini karzga olishga rozi bulgan xolatni nazarda tutadi.

Tasdiqlangan kafolatlar- kafolatlarni tasdiqlash shaklida namoyon bo'ladi. Masalan, bank o'z mijozi bo'lgan importyorning to'lov majburiyatlari bo'yicha kafolat bergan bo'lsa, eksportyorning banki ham ushbu kafolatlar bo'yicha majburiyatni o'z zimmasiga oladi. Bu esa, mavjud kafolatlarni tasdiqlash yo'li bilan amalga oshiriladi.

Tasnifiy baholash modeli- kreditni baholashning balli modeli (reyting uslubi) va bankrotlikni bashorat qilish (MDA – Multiple Discriminate Analysis ga asoslangan statistik baholash) modellariga asoslanadi.

Ta'lim kreditlari - tijorat banklari filiallari tomonidan oliy ta'lim muassasalarining kunduzgi bo'limlariga to'lov-kontrakt asosida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi fuqorosi bo'lgan talabalarning o'qishi uchun talabalarning o'zlariga, ularning ota-onalariga yoki vasiylariga berilishi mumkin.

Ta'minlanmagan kreditlar-biror bir ta'minotsiz berilgan kreditlar.

Ta'minlanmagan kreditlar-biror bir ta'minotsiz berilgan kreditlar.

Tijorat banki-tijorat tashkiloti bo'lib, bank faoliyati deb hisoblanadigan yuridik va jismoniy shaxslardan omonatlarni jalb qilish va ularni kreditga berish, to'lovlarni amalga oshirish bilan shug'ullanuvchi amalga oshiradigan yuridik shaxsdir.

Tijorat krediti-sotuvchilarning xaridorlarga tovar shaklida beradigan kreditidir.

Tranzaksion depozitlar- yuridik shaxslarning bo'sh pul mablag'lari ularni mablag'ini talab qilib olinguncha saqlanadigan depozit turi.

Tranzit komission bitimlar-birjada ishtirok etish huquqi berilgan banklarning birjada ishtirok etish huquqi berilmagan kredit institutlari nomidan ishtirok etishi.

Trast operatsiyalari-bank mijoz topshirig'i bilan ma'lum mulkni, pul, qimmatli qog'ozlar ko'rinishida saqlash, o'tkazish va boshqarishni o'z zimmasiga oladi.

To'g'ri kafolatlar – bunda kafolat beruvchi tomon bevosita eksport-import operatsiyalariga kafolat beradi. Bunda mazkur to'lov bo'yicha majburiyatlarini to'liq o'z zimmasiga oladi. Bunday kafolatlar to'lov talabnomalari bo'yicha hisob-kitoblar, hujjatlashtirilgan akkreditiv bo'yicha hisob-kitoblarda keng qo'llaniladi.

To'lov balansi - mamlakatning xorijiy davlatlar bilan bo'ladigan aloqalari natijasida yuzaga keladigan valyuta tushumlari va to'lovlarining haqiqatdagi summasi aks ettiriladi.

To'lovga layoqatlilik-bank zarur muddatlarda kredit-omonatchilar, banklar davlat oldidagi majburiyatlarini to'la summada bajara olish layoqatini bildiradi.

Umidsiz deb tasniflangan kreditlarga qaytarilmaydigan kreditlar kiradi. Umidsiz kreditlar bo'yicha bank asosiy qarzning to'lanmagan summasining foizi miqdorida

zahiralar yaratishi kerak.

Umumiy zahiralar-bunday zahiralar kredit portfeli uchun tashkil etiladi. Umumiy zahiralar kredit portfeliga xos bo'lgan yashirin tavakkachilikdan ximoya qilish maqsadida tashkil etiladi. Ular odatda ssuda bo'yicha qarzdorlik summasiga nisbatan foizda belgilanadi.

Umumiy kapitalning yetarliligi-bankning umumiy kapitali miqdorini riska tortilgan aktivlarga nisbatini orqali aniqlovchi ko'rsatkich.

Umumiy usullar-bank risklaring miqdorini uni daromadlariga bog'liq ravishda baholash va bashorat qilish hamda bank likvidliligiga nisbatan belgilangan iqtisodiy normativlarni bajarish kiradi.

O'zaro aloqador shaxslar-tijorat banki aksiyadorlari va boshqaruvida o'z faoliyati yurituvchi shaxslarning qarindoshlari hisoblanadi.

O'stirilmaydigan kreditlar-belgilangan tartibga muvofiq foizlar hisoblanishi to'xtatiladigan kreditlar.

Faktoring - bu xo'jalik yurituvchi subyektlar – mol yetkazib beruvchilarni (bundan keyingi matnda - mijoz) ular tomonidan bank - moliya agentiga to'lovchilardan (bundan keyingi matnda -to'lovchi) jo'natilgan tovarlar, bajarilgan ishlar yoki ko'rsatilgan xizmatlar uchun ular tomonidan akseptlangan, lekin hali to'lanmagan to'lov talabnomalari bo'yicha pul to'lovini olish huquqini o'tib berishlari evaziga, regres huquqsiz, moliyalashtirish borasidagi bank xizmati turidir.

Faktoring-hisob-kitoblarni tashkil etish sohasidagi yangi xizmat turi bo'lib, mijozning kapitalini kreditlash bilan shug'ullanadi.

Firma krediti - eksportyor mamlakatning bir firmasi boshqa mamlakatning importyoriga to'lovni kechiktirish shaklidagi ssuda berishiga tushuniladi.

Foiz stavkasi-qarzdor kishining olgan qarzi uchun pul egasiga to'laydigan to'lovidir.

Foiz xavf xatari- foiz stavkalarining darajasi va xarakatining o'zgarishi natijasida zarar ko'rish xavfidir.

Foiz xavf xatarini boshqarish usullari

- aktivlarni boshqarish
- passivlarni boshqarish
- foiz marjasini boshqarish

Foydalilik-risk-bank xodimi o'zini ortiqcha risklardan saqlagan holda foyda meyorini cheklashidir.

Forvard bitimlar -kelgusi bitimda belgilangan oldindan kelishilgan narx buyicha ma'lum miktordagi ba'zi asosiy aktivlarni sotish, boshka tomon esa sotib olish majburiyatiga muvofik tuzilgan kelishuvlaridir.

Forvard kurs (forward rate)- asosiy karz summasining ma'lum bir uzgarmas kismiga nisbatan belgilangan vaktda tulanadigan foiz stavkasining xajmi tugrisida kelishuv bulib, u usha kundagi foiz stavkasidan past yoki yukori bulishi mumkin.

Forvard operatsiyalari - belgilangan muddatda, ammo ikki ish kunidan oshiq bo'lgan muddatda amalga oshiriladigan operatsiyalarga aytiladi. Amaliyotda

forvard bitimlarini amalga oshirishning standart muddatlari uchraydi. Standart muddatlarga 1; 3; 6; 9; va 12 oylarni kiritish mumkin.

Fyuchers (futures) –kimmatbaxo kog‘ozlarni, valyuta yoki tovarlarni belgilangan narx va kelajakdagi belgilangan muddatda sotish yoki sotib olish borasidagi bajarilishi majbur bulgan kiska muddatli standart shartnomalardir.

Xazina majburiyatlari- uning egasi tomonidan malum bir pul mablagini byudjetga kiritganligi va uning butun aylanish davrida anik chegaralangan foizni tulab berish majburiyatini guvoxlovchi kimmatli kogosidir.

Xalqaro kafolatlar - tovarlar va kapitallar harakatini uzluksiz va doimiy harakat qilinishini ta’minlanishiga xizmat qilib Markaziy banklar, tijorat banklari, korporatsiyalar, hukumat va xalqaro tashkilotlar tomonidan beriladi.

Xalqaro kredit – bir davlat, shu davlat banki, huquqiy shaxsi tomonidan ikkinchi bir davlatga, uning banklariga, boshqa huquqiy shaxslariga muddatlilik va to‘lovlilik asosida beriladigan kreditdir.

Xalqaro kredit munosabatlarining subyektlari - tijorat banklari, markaziy banklar, davlat organlari, yirik korxonalar, regional va xalqaro moliya-kredit tashkilotlari qatnashadi.

Xalqaro kredit-bu ssuda kapitalining xalqaro miqyosdagi harakati bo‘lib, bu xarakat tovar va valyuta ko‘rinishidagi mablag‘larni qaytarib berishlik, muddatlilik va xaq to‘lashlik asosida berish bilan bog‘liqdir.

Xalqaro hisob-kitoblar-tashqi savdo, kapitallar va kreditlarning harakati bilan bog‘liq valyutaviy operatsiyalar, valyutada oldi-sotdi qilish operatsiyalari va boshqa tovarsiz harakatdagi operatsiyalar majmui tushuniladi.

Xarid avansi - eksportni kreditlashning bir formasi bo‘lib hisoblanadi va shu vaqtning o‘zida importyorning majburiyatini ta’minlovchi vositadir. Chunki importyor o‘zi buyurtma bergan tovarni sotib olishga majbur bo‘ladi. Rivojlangan mamlakatlarning import bilan shug‘ullanuvchi firmalari rivojlanayotgan mamlakatlardan farqli o‘laroq, xarid avansidan shu davlatlarning qishloq xo‘jalik mahsulotlarini olib chiqib ketishda foydalanmoqdalar.

Xarid krediti- eksportyor bankning to‘g‘ridan to‘g‘ri milliy eksportyorni kreditlamasdan, balki chet ellik xaridorni, ya’ni, importyor mamlakat firmasi va uning bankini kreditlash hisoblanadi.

Xizmatlar va tijorat xarakteriga ega bo‘lmagan to‘lovlar balansi- transport, pochta, telegraf, telefon, turizm, madaniy aloqalar, perevodlar, xorijiy mamlakatlar hududida harbiy qismlarni saqlash, chet elda savdo va diplomatik vakolatxonalarni ochish, xalqaro kreditlar bo‘yicha to‘lanadigan foizlar va boshqa shu kabi sohalarda yuzaga keluvchi valyutaviy tushumlar va to‘lovlar summasi aks ettiriladi.

Hisob-kitob balansi -shunday iqtisodiy kategoriyaki, bunda mamlakatning xorijiy davlatlarga nisbatan talab va majburiyatlarining umumiy summasi ko‘rsatiladi.

Hisobli kredit-Vekselni tijorat bankiga sotish yo‘li bilan olinadigan kreditdir.

Chet el valyutalarini diversifikatsiya qilish - bir vaqtning o'zida bir nechta chet el valyutasida rezervlar tashkil qilish tushuniladi.

Shubhali kreditlar — bu ziyon qilish ehtimoli yuqori bo'lgan, lekin ayrim ijobiy amallari mavjud bo'lgan ushbu kreditlar sharoit oydinlashguncha shubxali deb tasniflanadi. Shubhali deb tasniflangan kreditlarga asosiy to'lanmagan summasini 50 foizini miqdorida zahira tashkil etiladi.

Shubhali kreditlar- 3 to'lov davrida foiz yig'indisi to'lanmagan va 1 marta asosiy qarz yig'indisi to'lanmagan kreditlardir.

EAV- mamlakatning to'lov balansini joriy operatsiyalar bo'limiga valyutaviy cheklashlar bo'lmasa, bu mamlakatning puli erkin almashadigan valyuta deb tan olinadi.

Emitent-qimmatli qog'ozlarni chiqargan tashkilot hisoblanadi.

YAIM deflyatori - mamlakatda narxlar umumiy darajasining o'sishini ifoda etuvchi umumlashtiruvchi makroiqtisodiy ko'rsatkich. U nominal YAIM hajmini real YAIM hajmiga bo'lish orqali aniqlaniladi.

Yakka tartibdagi tadbirkorlik - yuridik shaxs tashkil etmagan holda jismoniy shaxs (yakka tartibdagi tadbirkor) tomonidan tadbirkorlik faoliyatining amalga oshirilishidir.

Yalpi ichki mahsulot – ma'lum davr ichida mamlakat hududida rezidentlari va norezidentlar tomonidan ishlab chiqarilgan pirovard tovar va xizmatlar yig'indisidir.

Yaxshi - ushbu aktivlar bo'yicha qarzlarning o'z muddatida to'lanishi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Frederik S. Mishkin. The economics of money, banking and financial markets Pearson Education Limited. 2013. 695 pages.
2. Abdullaeva Sh. Z. va b. ' Pul va banklar' Darslik. T.; -'IQTISOD-MOLIYA', 2019 y. -628 b.
3. Abdullayeva Sh. Z. Azizov U. U. Bank ishi. Darslik. 1-qism-T.; Iqtisod-moliya, 2019 y. 732 b.
4. Банковские дела: учебник/ О Лаврушин. Н. И. Валенцева (и другие) под ред Лаврушина
5. Денег кредит банки: учеб./под ред. Г. Н. Белоглазовой.-М.: Высшее образование, 2018 . 245с
6. Денег кредит банки: Экспресс курс: учеб. Пособие/ под ред О. И. Лаврушина. 3-е изд, перераб. И доп . - М: КНОРУС, 2016 544с
7. Кузнецова, Е.И. Денег кредит банки: Учебное пособие/ Е.И.Кузнецова - М.: ЮНИТИ, 2019. 567с.
8. Omonov A. A. Qoraliyev T.M. "Pul va banklar" darslik T.: " IQTISOD-MOLIYA" 2019 y
9. Ролфреман Д. Форд Ф. Основы банковские дела- М .: Инфра -М 1996- 624 с
10. Селищев, А.С. Деньги. Кредит банки/ А.С Селищев - СПб.: Питер, 2017 - 254с

Qo'shimcha adabiyotlar

11. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T. Sharq, 2014 yil.

12. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi.-Toshkent:Adolat,2007yil 291 b

13. O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risidagi" Qonuni. 2019 yil. 7 noyabr

14. "Valyutani tartibga solish to'g'risidagi" Qonun 2019 yil 15 noyabr

15. "Markaziy bank to'g'risidagi" O'zbekiston Respublikasining Qonuni 15 noyabr 2019 yil.

16 . O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining Markaziy bankining faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi" 2018 yil 9- yanvardagi PF- 5296- sonli Farmoni.

17. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 12 may 2020 yildagi "2020-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni

18. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. Xalq so'zi, 2019 yil 23 dekabr

19. Владимирова. М. А. Деньги кредит банки: учеб пособие/ М.П. Владимирова. - 3-е изд, перераб. И доп. - М.: КНОРУС, 2017 245с

20. Гринспен А. Эпоха потрясений: проблемы и перспективы мировой финансовой системы. Пер. Сангл. - М.: Альпина Паблишер, 2017. - 520 с.

21. Ескиндаров М.А. , Звонова. Е. А. Международные валютные отношения. Учебник. М.: КНОРУС, 2018 540с.

Axborotmanbalari

22. www.lex.uz-

O'zbekiston Respublikasi Qonuni hujjatlarivama'lumotlar milliy bazasi.

23. www.norma.uz- Axborot- huquqiy portal

24. www.tfi.uz – O'zbekiston moliya instituti rasmiy sayti

25. www.cbu.uz – O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti

26. www.finance.uz – Moliya-iqtisod tahlil portali

27. www.stat.uz – O'zbekiston Respublikasi Davlat qo'mitasining rasmiy sayti

28. www.sciencedirect.com. ommabop ilmiy jurnallar sayti.

